



UDK: 547,543.544.42

G'ulomjon ABDURAXMONOV,
O'zMU dotsenti
Sadoqat SHARIPOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:sadoqatsharipova90@gmail.com
Nurali QARSHIYEV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

PhD Y.Absoatov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SPECIALLY PURE TITANIUM BY ACTIVATION METHOD

Annotation

This article describes the neutron-activation analysis, which is one of the activation methods for the analysis of titanium (specially pure) element. In it, titanium and its compounds are used as catalysts in some chemical reactions, and its oxides are used in optical fibers. Emphasis was placed on the fact that the electrical, mechanical and catalytic properties of such substances are strongly influenced by the impurities contained in them. The electrical, mechanical and catalytic properties of such substances are strongly influenced by the impurities contained in them. The amount of mixed elements (Fe, Mn, Al, Ca, K, Sb, etc.) in titanium oxide used especially in optoelectronics should not exceed $n \cdot 10^{-6}$ %. Currently, neutron activation analysis is considered one of the methods with multi-element and record high sensitivity.

Key words: mixed elements, titanium special purity, radionuclides, neutron-activation, extraction-chromatography, column chromatography, atomic reactor, high sensitivity, electrodes, distribution coefficient, gamma spectrometry, radiochemical separation, half-life, radiation, neutrons flow.

АНАЛИЗ ОСОБО ЧИСТОГО ТИТАНА МЕТОДОМ АКТИВАЦИИ

Аннотация

В данной статье описан нейтронно-активационный анализ, который является одним из активационных методов анализа элемента титана (особо чистого). В нем титан и его соединения используются в качестве катализаторов в некоторых химических реакциях, а его оксиды используются в оптических волокнах. Акцент был сделан на том, что на электрические, механические и каталитические свойства таких веществ сильное влияние оказывают содержащиеся в них примеси. На электрические, механические и каталитические свойства таких веществ сильно влияют содержащиеся в них примеси. Количество смешанных элементов (Fe, Mn, Al, Ca, K, Sb и др.) в оксиде титана, применяемом, особенно в оптоэлектронике, не должно превышать $n \cdot 10^{-6}$ %. В настоящее время нейтронно-активационный анализ считается одним из методов, обладающих многоэлементностью и рекордно высокой чувствительностью.

Ключевые слова: смешанные элементы, титан особой чистоты, радионуклиды, нейтронно-активационная, экстракционная хроматография, колоночная хроматография, атомный реактор, высокая чувствительность, электроды, коэффициент распределения, гамма-спектрометрия, радиохимическое разделение, период полураспада, излучение, поток нейтронов.

AKTIVATSION USULIDA MAXSUS TOZA TITANNING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada titan (maxsus toza) elementining analizi aktivatsion usullardan biri bo'lgan neytron-aktivatsion tahlili bayon etilgan. Unda titan va ularning birikmalari ba'zi kimyoviy reaksiyalarda katalizator sifatida, oksidlari optik tolalarda ishlatilmoqda. Bunday moddalarni elektrik, mexanik va katalitik xossalari tarkibidagi aralashma moddalar kuchli ta'sir ko'rsatishi haqidagi masalasiga urg'u berildi. Bunday moddalarni elektrik, mexanik va katalitik xossalari tarkibidagi aralashma moddalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa optoelektronikada ishlatiladigan titan oksidi tarkibidagi aralashma elementlar (Fe, Mn, Al, Ca, K, Sb va boshqalar) miqdori $n \cdot 10^{-6}$ % dan ortib ketmasligi kerak. Hozirgi kunda neytron-aktivatsion tahlil ko'p elementli va rekord darajada yuqori sezgirlikka ega usullardan biri hisoblanishiga asoslangan.

Kalit so'zlari: aralashma elementlar, titan maxsus sof, radionuklidlar, neytron-aktivatsion, ekstraksiya-xromotografiya, kolonkali xromotografiya, atom reaktori, yuqori sezgirlik, elektrodlar, taqsimlanish koefitsiyenti, gamma spektrometriya, radiokimyoviy ajratish, yarim-yemirilish davri, nurlanish, neytronlar oqimi.

Kirish. Yaqin vaqtlargacha titan va uning birikmalarini ishlatilish sohalari o'ta toza mahsulotlarni ishlatilishini ahamoyati muhim emas edi. Oxirgi paytda titan va birikmalarining katalizator sifatida, titan oksidining optoelektronika sohasida qo'llanilishi, bu mahsulotlarning tozaligiga kuchli talab qo'ydi. Masalan optik tola olishda qo'llaniladigan titan oksidi tarkibidagi Fe, Mn, Al, Ca, K, Sb va bir qator boshqa elementlarning miqdori $n \cdot 10^{-6}$ % dan oshmasligi kerak. Bu esa ushbu metallarning tozaligini nazorat qilishda yuqori sezgir va ko'p elementli analitik usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Tabiiyki, shunday usullardan biri radiometrik neytron aktivatsiyaviy analiz usuli bo'lib, o'ta yuqori sezgirligi, nazorat tajribasidan forig'ligi, bir vaqtning o'zida bitta namunadan qirqdan ortiq elementni aniqlay olishi bilan boshqa analitik usullar ichida alohida o'rin tutadi.

Lekin namunani neytronlar bilan nurlatish paytida, ko'pgina hollarda, asosiy element radionuklidlarining o'ta yuqori radioaktivligi hisobiga kam miqdordagi aralashma elementlarni aniqlash imkoni bo'lmaydi. Bunday hollarda asosiy element radionuklidlarini aralashma elementlar radionuklidlaridan radiokimyoviy ajratish zarurati tug'iladi. Neytron-aktivatsiyaviy analiz usulining o'ziga xos tomoni shundaki, ko'p hollarda halaqit beruvchi radionuklid sifatida faqatgina asosiy element radionuklidlari emas, balki boshqa qo'shni elementlar radionuklidlari ham bo'lishi mumkin. Masalan titan nurlatilganda qisqa yarim ymirilish davriga ega titan va vanadiy radionuklidlari bilan bir qatorda skandiyning uzoq yashovchi ^{46}Sc va ^{47}Sc radionuklidlari hosil bo'ladi va aralashma elementlarni aniqlashga halaqit qiladi. Bu esa titanning asosiy modda va aralashma elementlar radionuklidlarini radiokimyoviy ajratishga asoslangan analiz usulini ishlab chiqishni taqozo etadi. Titanning tarkibini aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlar sharxi shuni ko'rsatdiki bu metallarning o'ta toza namunalarini analiz qilishga bag'ishlangan ishlanmalar juda kam, neytron aktivatsiyaviy analizga bag'ishlangan ishlar esa deyarli yo'q. Shuning uchun maxsus toza titanning ko'p elementli va yuqori sezgir radiokimyoviy neytron aktivatsiyaviy analiz usulini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi. Natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, maxsus toza titan va vanadiyning mikroaralashma tarkibini tadqiq qiluvchi analiz usuli ishlab chiqilib bu usul maxsus toza titan olishda mahsulot tozaligini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin. Ushbu ish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 noyabrdagi PQ-4526 sonli "Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarorining 3- ilovasida ko'zda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida 2020-2024 yillarda bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi asosida amalga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Titanning ishlatilish sohalari ularning tarkibidagi aralashma elementlar miqdorini chegaralashni talab qildi. Shuning uchun bu metal o'ta toza va maxsus toza holatda ishlab chiqarila boshladi. Toza moddalarni ishlab chiqarish jarayoni ularning analitik tarkibidagi nazoratni talab qiladi. Shuning uchun bu metallar tarkibidagi aralashma elementlarni yuqori sezgir va ko'p elementli analiz usullaridan foydalanishni taqozo etadi. Fe, Ni, Mn, Cu, Co, Mg, Sn va Cr aralashmalarining izlarini aniqlashda siz-sharbatli titanda ISP-AES usuli bilan aralashmalar $\text{Bi}(\text{OH})_3 + \text{In}(\text{OH})_3$ aralashmasi bilan birikish bilan ajratilgan [1]. Chelex 100 ion almashinuvchisi yordamida aralashmalarining oldindan konsentratsiyasi 0,1-30 ng/ml [2] sof titanda 20 ta aralashma elementini ISP-AES usuli bilan aniqlashga imkon beradi, shu ishda tasvirlangan to'g'ridan-to'g'ri tahlil usuli 0,6-1,5 mg/ml dan 9 ta ifloslikni aniqlashga imkon beradi. Texnika massaning 10^{-4} - 10^{-6} % gacha bo'lgan 20 ta ifloslanishni ta'minlaydi. Titan tetraxlorididagi Al, Cr, Mn, Fe va Sb ni aniqlashda matritsaning vakuum distillashi bilan aralashmalarining konsentratsiyasi qo'llaniladi [5]. Aralashmani aniqlash chegaralari 10^{-8} - 10^{-10} % massa. Titan va uning birikmalarini mikroaralashma tarkibini tahlil qilish bo'yicha ishlar 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-Jadval

Titanning analiz qilish usullari

Analiz ob'ekti	Analiz usuli	Aralashma elementlarni konsentrlash usullari	Aniqlanadigan elementlar va ularning aniqlanish chegarasi	Adabiyotlar
1	2	3	4	5
TiCl_4	AEA	Vakuumni distillash	Al, Cr, Fe, Mn, Sb; $n \cdot 10^{-8}$ - $n \cdot 10^{-10}$ %mass.	[5]
Ti	ISP-AES	Aralashma elementlarni $\text{Bi}(\text{OH})_3 + \text{In}(\text{OH})_3$ bilan qo'shib cho'ktirish	Co, Cr, Cu, Fe, Mg, Mn, Ni, Sn;	[1]
Ti	ISP-AES	Oddiy spektral analiz	9 aralashma element; 0,6-1,5 mg/ml	[2]
Ti	ISP-AES	Asosiy moddani Chelex 100 ionitda ajratish	20 aralashma element; 0,1-30 ng/ml	[2]
TiO_2	AEA	TiF_4 xolida xaydash	Al, Ca, Cr, Cu, Fe, Mg, Mn, Ni, Pb, Sn; $n \cdot 10^{-5}$ - $n \cdot 10^{-9}$ %mass.	[6]
TiO_2	AAA	TiF_4 xolida xaydash	K, Na; $n \cdot 10^{-5}$ - $n \cdot 10^{-8}$ %mass.	[6]
Ti	MS		B, C, F, N, O, Mg, Si, P, S, Cl, K, Ca, Sc, V, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu, Zn, As, Zr, Nb, Ag, Cd, In, Sn, Sb, Te, I, Hf, Ta, W, Pb, Bi; $n \cdot 10^{-5}$ - $n \cdot 10^{-7}$ % mass.	[7]

Tadqiqot metodologiyasi. TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida indiyning makromiqdori skandiyning mikromiqdorini birga ekstraksiya qilishi hamda bir qator elementlarning ekstraksiyasini pasaytirishi aniqlandi. Bu 30 dan ortiq aralashma elementlarni skandiydan selektiv ajratish imkonini beruvchi konsentrlash uslubini ishlab chiqish imkonini berdi.

Maxsus toza titan tarkibidagi 36 ta aralashma elementlarni $n \cdot 10^{-5}$ – $n \cdot 10^{-10}$ % aniqlanish chegarasi bilan tahlil qilish imkonini beruvchi radiokimyoviy neytron aktivatsion analiz usulini ishlab chiqishi muhimdir. Radiokimyoviy neytron aktivatsiyaviy analiz, radioaktiv indikatorlar usuli, ekstraksiya, ekstraksiyaviy xromatografiya va gamma spektrometriya kabi ishonchli va zamonaviy usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda neytron-aktivatsion tahlil ko'p elementli va rekord darajada yuqori sezgirlikka ega usullardan biri hisoblanadi. Shuning uchun toza titanning neytron-aktivatsion tahlil usulini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu ishning maqsadi maxsus toza titanning ko'p elementli va yuqori sezgir, asosiy modda va aralashma elementlarning radionuklidlarini radiokimyoviy ajratishga asoslangan analiz usulini ishlab chiqish hisoblanadi.

Titan va vanadiyning yadro fizikaviy hossalarga ko'ra namunalar nurlatilgandan so'ng, namunalarining radioaktivligi asosan tez neytronlar ta'sirida hosil bo'luvchi skandiy-46, 47 va 48 izotoplari hisobiga bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oldindan indiy bilan to'yintirilgan TBF li kolonkada mikroelementlar ekstraksiyasining pasayishi va skandiyning indiy bilan qo'shib ekstraksiya bo'lishi hisobiga TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida 30 dan ortiq elementlarni selektiv va yuqori samara bilan ajratish mumkin. Bajirilgan tadqiqotlar natijasiga asoslanib maxsus toza vanadiyning radiokimyoviy neytron aktivatsion tahlili usulini ishlab chiqildi. Ushbu tadqiqotda olingan titanning 0,15-0,2 g namuna VVR-SM tadqiqot yadro reaktorida 10-15 soat nurlatildi. 1 kun o'tgach sirt yuzasi ifloslanishni tozalash va tortishdan keyin namuna tegishli kislotada eritildi ($\text{HF} + \text{HNO}_3$). Eritma nam tuzlarga bug'latilib, 4 ml 5M HBr da eritildi. Olingan eritma TBF (indiy bilan oldindan to'yintirilgan) bilan to'ldirilgan kolonka ($d = 0,4$ sm, $h = 5$ sm) orqali o'tkazildi, aralashma elementlar 15-20 ml 5M HBr bilan yuvildi. Elyuat flakonlarga yig'ildi va aralashma elementlarning gamma spektri o'lchandi. Uslub 30 dan ortiq aralashma elementlarni 10^{-5} - 10^{-10} % aniqlash chegaralari va S_r 0,10-0,20 standart xatolik bilan aniqlash imkonini beradi (jadval 2)

Maxsus toza titandagi aralashma elementlarning aniqlanish chegarasi.

Jadval. 2

№	Element	ACh, % mass.	Sr	№	Element	ACh, % mass.	Sr	№	Element	ACh, % mass.	Sr
1	Ag	5.10-7	0,16	13	Gd	8.10-8	0,13	25	Sm	1.10-10	0,12
2	As	5.10-9	0,14	14	Hf	2.10-7	0,16	26	Sn	1.10-6	0,14
3	Ba	7.10-6	0,17	15	K	5.10-6	0,19	27	Sr	2.10-6	0,16
4	Ce	3.10-7	0,15	16	La	4.10-9	0,16	28	Ta	2.10-8	0,17
5	Cd	2.10-6	0,16	17	Mn	1.10-8	0,15	29	Tb	2.10-9	0,16
6	Co	6.10-8	0,11	18	Mo	2.10-8	0,17	30	Te	3.10-6	0,14
7	Cr	4.10-6	0,18	19	Na	1.10-9	0,13	31	Th	1.10-7	0,15
8	Cs	2.10-7	0,17	20	Ni	4.10-5	0,19	32	U	2.10-8	0,18
9	Cu	1.10-8	0,10	21	Rb	1.10-6	0,17	33	W	5.10-9	0,14
10	Eu	2.10-10	0,12	22	Re	2.10-9	0,16	34	Y	5.10-5	0,20
11	Fe	5.10-5	0,20	23	Sb	6.10-9	0,15	35	Zn	3.10-6	0,20
12	Ga	5.10-8	0,15	24	Se	1.10-6	0,17	36	Zr	6.10-5	0,21

Xulosa va takliflar. Titanning oxirgi yillardagi ishlatilish sohalari ularning tozaligiga alohida talablar qo'yishi va bunday maxsus toza moddalarning aralashma tarkibini analiz qilishning yuqori sezgir va ko'p elementli usullarini ishlab chiqarishga talab paydo bo'lgani e'tirof etildi. Titanning yadro-fizikaviy xossalari bu metallar va ularning birikmalari neytron-aktivatsion analiz uchun qulay ob'ektlar ekanini ko'rsatib berildi. Neytron-aktivatsion analiz uchun titan namunalari yadro reaktori neytronlari bilan nurlatilganda xosil bo'ladigan titan radionuklidlari qisqa yarim yemirilish davriga ega bo'lgani sababli tezda parchalanib ketishi hamda namunaning asosiy radioaktivligi (n, p) va (n, α) reaksiyalari bo'yicha xosil bo'ladigan ^{46}Sc , ^{47}Sc , ^{48}Sc radionuklidlari hisobiga bo'lishi aniqlandi. TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida indiyning makromiqdori skandiyning mikromiqdori birga ekstraksiya qilishi hamda bir qator elementlarning ekstraksiyasini pasaytirishi aniqlandi. Bu 30 dan ortiq aralashma elementlarni skandiydan selektiv ajratish imkonini beruvchi konsentrlash uslubini ishlab chiqish imkonini berdi. Maxsus toza titan tarkibidagi 36 ta aralashma elementlarni n.10-5 – n.10-10 % aniqlanish chegarasi bilan tahlil qilish imkonini beruvchi radiokimyoviy neytron aktivatsion analiz uslubi ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. N.Yoshikawa, Y.Ishibashi, N.Gunji, T.Misumi. "Определение следовых количеств металлов в высокочистом титане с использованием отделения примесей соосаждением и АЭ спектрометрии с индуктивно-связанной плазмой." // Бунсеки кагаку, 1990, т.39, № 12, С.829-833.
2. K.Beckmann, G.Wunsch. "Bestimmung von Spurelementen in Rein-Titan durch ICP-AES ohne und mit Spuren-Matrix-Trennung." // Fresenius' J. Anal. Chem., 1992, V.342, № 6, P.469-472.
3. М.П.Семов. Получение и анализ чистых веществ: Межвуз // сб. Горький: ГГУ, 1981, С.30-31.
4. M.Kohri, O.Kujirai, H.Okochi. "Determination of impurities in vanadium disilicide and vanadium pentoxide by atomic absorption spectrometry and ICP - atomic emission spectrometry after matrix separation." // Anal. Sci., 1991, V.7, № 5, P.767-771.
5. Г.Г.Девятых, В.Н.Шишов, В.Т.Пименов и др. // Журн. аналит. химии, 1978, т.33, С.464-467.
6. Т.М.Малютина. "Анализ чистых тугоплавких металлов и их соединений." // Методы анализа высокочистых веществ. М.: "Наука", 1987, С.279-295.
7. Э.П.Бочкарев. // Науч. тр. ГИРЕДМЕТа. М.: ОНТИ ГИРЕДМЕТа, 1978, т.82, С.3-12.
8. В.Н.Музгин, Л.Б.Хамзина, В.Л.Золотовин, И.Я.Безруков. // Ванадий. Серия: "Аналитическая химия элементов". М.: Наука, 1981, 216 с.
9. Н.К.Рудневский, В.Т.Демарин, И.А.Туманова и др. // Тр. по химии и хим. технологии, 1974, вып. 3 (33), С.84-85.
10. Sadikov I.I., Rakhimov A.V., Salimov M.I., Zinov'ev V.G., Mukhamedshina N.M., Tashimova F.A. Neutron activation analysis of pure uranium: Preconcentration of impurity elements // J. of Radioanal. and Nucl. Chem. – Springer, 2009.- Vol.280,N 3.-P.489-493.
11. Садыков И.И., Рахимов А.В. Определение примесных элементов в чистом уране методом нейтронно-активационного анализа // Аналитика и контроль.- Екатеринбург-2008. –т.12, №1-2. – С.31-35.



UDK: 621.45.038.7

Juma BAKIROV,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti
E-mail: bakirovjuma@gmail.com

Texnika fanlari nomzodi A. Nomozov taqrizi asosida

KAESV-1 BRAND ANTI-CORROSION COATING BASED ON CROTON ALDEHYDE, THIOCARBAMIDE AND VERMICULITE

Annotation

In this article, the optimal conditions for obtaining the KAESV-1 brand anti-corrosion coating based on croton aldehyde, thiocarbamide and vermiculite are studied. The mechanical properties of the obtained anti-corrosion coating were studied using the HUATECH scratch tester. The degree of protection of this anti-corrosion coating was studied by gravimetric and electrochemical methods in 1M HCl + 200 mg/l NaCl environments. According to the research results, the level of protection of the coating containing 25% vermiculite was 91.85% according to the gravimetric method and 94.9% according to the electrochemical method.

Key words: croton aldehyde, thiourea, vermiculite, anticorrosive coating, gravimetry, electrochemical method.

ПОЛУЧЕНИЕ АНТИКОРРОЗИОННОГО ПОКРЫТИЯ МАРКИ КАЭСВ-1 НА ОСНОВЕ КРОТОНАЛЬДЕГИДА, ТИОКАРБАМИДА И ВЕРМИКУЛИТА

Аннотация

В статье исследованы оптимальные условия получения антикоррозионного покрытия марки КАЭСВ-1 на основе кротонового альдегида, тиокарбамида и вермикулита. Механические свойства полученного антикоррозионного покрытия исследовали с помощью скретч-тестера HUATECH. Степень защиты данного антикоррозионного покрытия исследовали гравиметрическими и электрохимическими методами в средах 1M HCl + 200 мг/л NaCl. По результатам исследований уровень защиты покрытия, содержащего 25 % вермикулита, составил 91,85 % по гравиметрическому методу и 94,9 % по электрохимическому методу.

Ключевые слова: кротоновый альдегид, тиомочевина, вермикулит, антикоррозионное покрытие, гравиметрия, электрохимический метод.

KROTON ALDEGIDI, TIOKARBAMIDNING VA VERMIKULIT ASOSIDA KAESV-1 MARKALI ANTIKORROZION QOPLAMA OLISH

Аннотация

Ushbu maqolada kroton aldegidi, tiokarbamidning va vermikulit asosida KAESV-1 markali antikorrozion qoplamaning olishning optimal sharoitlari o'rganilgan. Olingan antikorrozion qoplamaning mexanik xossalari HUATECH skretch testerida yordamida o'rganilgan. Ushbu antikorrozion qoplamaning himoyalash darjalari 1M HCl + 200 mg/l NaCl muhitlarda gravimetrik va elektrokimyoviy usullar bilan o'rganildi. Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, tarkibida 25 % vermikulit saqlagan qoplamaning himoyalash darajasi gravimetrik usulga ko'ra 91,85 % va elektrokimyoviy usulda esa 94,9 % tashkil etgan.

Kalit so'zlar: kroton aldegidi, tiokarbamid, vermikulit, antikorrozion qoplama, gravimetrik, elektrokimyoviy usul.

Kirish. Korroziya bir vaqtning o'zida nafaqat sanoat infratuzilmalariga balki, madaniy meroslariga ham juda katta zarar yetkazib kelmoqda[1]. Aytishimiz mumkinki, hech bir soha yo'qki korroziyalanish jarayonidan aziyat chekmayotgan, masalan: energetika, transport, kimyo va kimyoviy texnologiya, oziq-ovqat va ichimlik suvi tizimi, neft hamda gaz ishlab chiqarish sanoati, farmatsevtika, mashinasozlik, qurilish kabi sohalarni ham chetlab o'tmagan[2]. Korroziyalanish jarayoni oldini olishda, yangi turdagi samaradorligi yuqori va iqtisodiy jihatdan arzon hamda, ekologik jihatdan zararsiz bo'lgan yangi turdagi antikorrozion qoplamlarini izlab topish dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda[3,4].

Antikorrozion qoplamlarini tanlashda e'tibor qaralishi kerak bo'lgan bir qancha jihatlari mavjud bo'lib ularga: antikorrozion qoplamaning tannarxi, foydalanishga qulayligi, atrof muhitga zarar keltirmasligi shuningdek, texnik jihatdan havfsiz bo'lishi kabi talablarni ham hisobga olish kerak bo'ladi[5,6].


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda po'lat qismlarining sirtlarining korroziyaga chidamliligini oshirish uchun turli xildagi himoya qoplamlaridan foydalanilmoqda. Ushbu himoya qoplamlarini ishlab chiqarish uchun termik mustahkam va turli mexanik va agressiv muhitlarga chidamli bo'lishi kerak. Ushbu qoplamlar o'zining bir ancha afzalliklari tufayli tobora kengayib bormoqda[7,8]. Ushbu qoplamlarni hozirgi kunda antikorrozion qoplamlar deb yuritilmoqda. Ushbu qoplamlarning xomashyolari sifatida organik (polimer, oligomer va boshqa), noorganik, va metal-organik kompozitli hamda gibrid antikorrozion qoplamlar olinmoqda[9,10].

Polimer qoplamlar metallar va qotishmalarni korroziyadan himoya qilish uchun juda muhimdir. Yaxshi himoya xususiyatlari tufayli poliakrilat, epoksi va poliamid kabi organik qoplamlar keng qo'llanilib kelinmoqda[11].

Tadqiqot metodologiyasi. Kroton aldegidi va tiokarbamidning o'zaro ta'sirlashishi orqali antikorrozion qoplamaning olish (KAESV-1). Ushbu tadqiqot ishida yangi gibrid kompozit antikorrozion qoplama ishlab chiqilgan bo'lib, bunda vermikulit asosida olingan organik qoplama turli xil metall substratlarda plomba sifatida muvaffaqiyatli ishlatilgan.

Gibrid qoplamalar quyidagicha tayyorlandi: bunda birinchi navbatda, krotonaldegid (atsetaldegid sintezidagi ikkilamchi xom ashyo) ammiak bilan ishlov berildi, shundan so'ng qoplamani olish uchun ED-20 epoksi qatroni ishlatilgan, epoksi qatroni ammiak bilan ishlangan krotonaldegid bilan aralashtiriladi va kislota bilan ishlov berilgan vermikulit qo'shildi.

Kroton al'degidini aminlashda tiomochevinadan foydalanilgan holda olingan mahsulotning o'zaro ta'sirlanish sxemasi va uning IQ-spektrlari quyida keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Kroton aldegidni aminlash mahsulotining IQ-spektri

Ushbu olingan aminlash mahsulotining IQ-spektrida C=S guruhi valent tebranishlarining 1074, 1028 va 945 sm⁻¹ sohalarda intensive chiziqlar mavjudligi, dastlabki moddada amidi guruhlarining chiziqlari tegishli 1597 sm⁻¹ da namoyon bo'ladi, chiziqlarning 3358, 1456, 1359 va 675 sm⁻¹ da paydo bo'lishi bilan yuqorida taklif etilgan formulani tasdiqlaydi.

Ushbu qoplamani olish uchun hakmi 250 ml bo'lgan stakanga 2:1 mol nisbatda epoksismola va aminlangan kroton aldegid qo'shilib, dastlab 300 tez/min tezlikda yarim soat davomida aralashtirildi. Olingan aralashmada ma'lum miqdorlarda olinib, umumiy og'irlikning 10, 15, 20, 25 va 35 % nisbtlarida qayta ishlangan vermikulit qo'shildi. Olingan aralashma 600 tez/min tezlik va 90°C haroratda 90 minut davomida butun hajmda vermikulit bilan bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirildi.


Po'lat plastinkalarini qoplash uchun 150 mkm qoplama tayog'i qo'llanildi va qoplama 15 soat davomida odatdagi haroratda holda saqlangan va 100°C da 2 soat davomida quritilgan. Mexanik xususiyatlar va korroziyaga chidamliligini tekshirish uchun barcha namunalar xona haroratida agressiv muhitlarda 7 kun davomida sinovdan o'tkazilgan.

Tahlil va natijalar. Har ikkala turdagi qoplamalarni po'lat namunalarining qattiqligini va tiralishga chidamliligini baholash uchun HUATECH skretch testerida sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra, bu yerda qoplamaning qalinligi korroziya bardoshlilikka ta'sir etuvchi faktorlardan biri hisoblanadi. Bunda qoplamaning qalinligi 120 mkm oralig'ida bo'lganda barqarorlik darajasi boshqa qalinlikdagi qoplamalarga qaraganda yaxshiroq ekanligi aniqlangan[12].

Skretch testi natijalari vermikulitning og'irlik nisbati polimer matritsasiga ta'sirini ko'rsatadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, aralashma tarkibida vermikulitning massa ulushi ortishi bilan qattqlik qiymati ortadi. Bu esa, bir qatlamli vermikulit qoplama yaxshi yopishish va kamroq g'ovaklikni ta'minlaydi, shu bilan korroziyaga chidamliligini oshiradi.

Polimerga nisbatan vermikulit zarralarining qattiqligi, shuningdek, matritsalar orasidagi interfeysning ta'siri va ular orasidagi yuqori yopishqoqlik bilan bog'liq. To'ldiruvchining yaxshi taqsimlanishi polimerdagi o'zaro bog'liqlik zichligining pasayishi bilan bog'liq bo'lib, bu polimer birikmalari orasidagi zarrachalarning tarqalishiga yordam beradi va qattqlikni oshiradi. Smolalar matritsasi va zarralar o'rtasidagi aloqaning juda yuqori darajasi jismoniy stressni o'tkazishni osonlashtiradi. Zarrachalar matritsada bir xilda tarqalgan, shuning uchun ular orasidagi bo'shliqlarni egallab, polimer zanjirlarining harakatchanligini kamaytiradi va shu bilan matritsaning deformatsiyaga va yoriqlar o'sishiga chidamliligini oshiradi.

Vermikulit qo'shilishi va matritsada bo'sh joylar tufayli yoriqlar paydo bo'lishining oldini olishi orqali havo pufakchalari kamaytirildi. Bu esa zarrachalarning to'planishi pasayishiga olib kelishi mumkin. Yoriqlar yuqori kuchlanish zichligi bo'lgan joylarda armaturaning noto'g'ri taqsimlanishi yoki katta miqdordagi armatura bilan bog'lanish uchun polimer materiallarining etishmasligi tufayli paydo bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi yopishqoq moddalar odatda vermikulit borligida yuzaga keladigan zarrachalar to'planishini samarali ravishda cheklaydi. To'ldiruvchi tarkibining yanada ortishi bilan polimer/vermikulit tizimlarining qattqlik ta'siri asta-sekin ortadi yoki hatto kamayishi mumkin ekanligi aniqlangan(2-rasm).



2-rasm. Qoplama tarkibidagi vermikulit mineralining ko'rinishi va uning tarkibidagi element analizi

Yuqoridagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, vermikulitning zarrachalarining qoplamaga kiritilishi substratda yotqizilgan plyonkalarining sirt morfologiyasini o'zgartiradi. Substrat ko'plab kichik zarralardan tashkil topgan zich qatlamlar bilan qoplangan va ishlov berishdan keyin sirt bilan birlashishi ortadi. Vermikulit tarkibining ko'payishi bilan plyonkalar yuzasida yoriqlar paydo bo'lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, kompozitga vermikulitning kiritilishi hosil bo'lgan qoplamaning mikro tuzilishini o'zgartiradi va yuzada ko'plab mikroteshiklarni hosil qiladi, bu vermikulitdagi organik qismlar va metall oksidlari o'rtasida qattiq eritma hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Modda tarkibida 29 % dan ko'proq massani tashkil etgan O elementi esa Vermikulit tarkibidagi oksidlar, OH guruhlari va malein angidirid hamda dietanolamindagi OH guruhlaridagi O hisobiga to'g'ri kelgan. Bir necha sohalarda vermikulit tarkibidagi metallarni ya'ni Mg, Na, K, Al, Fe⁺³, Fe⁺² kabi metallariga to'g'ri keladigan cho'qqilarni ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, vermikulit zarralari katta nisbatga ega va zarralar orasidagi bo'sh bo'shliqqa ega, bu sirt qattiqligi va elastiklik modulini oshiradi va shu bilan korroziyaga chidamliligini yaxshilaydi. Bundan tashqari, kompozit qoplamaning yuzasi butunlay bir xil va shaffof bo'lib, matritsa hajmida hech qanday yoriqlar va fazalarni ajratishsiz edi.

Gravimetrik usul. Antikorrozion qoplamaning korroziya tezligi va himoyalash darajalarini gravimetrik usul yordamida o'rganish

Gibrid kompozit qoplamaning korroziyadan himoyalash darajasini gravimetrik usul yordamida qoplamaning samaradorligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Barcha amaliy tajribalar GOST 9.506-87 ga muvofiq turli haroratlarda bajarildi. Gravimetrik usuli bilan GOST 9.506-87 ga muvofiq va harorat 30– 70°C oralig'ida, ishchi eritmalarining sistemadagi harakat tezligi 1,1 m/s da aniqlangan.

1-jadval


Po'lat 20 ning korroziya tezligi, g/m²•soat 1M HCl + 200 mg/l NaCl muhitda qoplama va qoplamasiz holdagi po'lat namunalari korroziya tezligi va himoyalash darajalari

Qoplama turi	Qoplama, %	Harorat, °C	Korroziya tezligi, g/m ² •soat 1M HCl + 200 mg/l NaCl	Himoyalash darajasi, % (Z)
KAESV-1	Qoplamasiz	30	0,0112	–
		40	0,0196	–
		50	0,0287	–
		60	0,0450	–
		70	0,0522	–
	10	30	0,0028	74,08
		40	0,0025	77,17
		50	0,0021	79,15
		60	0,0018	82,02
		70	0,0014	85,13
	15	30	0,0029	75,11
		40	0,0044	77,81
		50	0,0049	79,91
		60	0,0056	83,14
		70	0,0047	89,04
	20	30	0,0008	77,16
		40	0,0009	79,23
		50	0,0012	85,23
		60	0,0019	90,22
		70	0,0021	92,37
	25	30	0,0011	91,88
		40	0,0018	92,18
		50	0,0026	93,13
		60	0,0037	94,05
		70	0,0027	94,95
	35	30	0,0010	89,12
		40	0,0016	90,15
		50	0,0025	91,08
		60	0,0035	92,17
		70	0,0027	91,85

Yuqoridagi jadvalda asosan korroziyon 1M HCl + 200 mg/l NaCl muhitdagi gibrid qoplamaning korroziya tezligi va himoyalash darajalarini o'rganish natijalari keltirilgan. Olingan natijalarga ko'ra, gibrid qoplamaning himoyalash samaradorligi korroziyon muhitda 25 % li vermikulit qo'shilgan qoplama boshqa foizdagilarga qaraganda yuqori 94,75 (1M HCl + 200 mg/l NaCl) ekanligi aniqlangan.

O'tkazilgan tajribalar tahlillari shuni ko'rsatdiki korroziya tezligi va antikorrozion qoplamaning himoyalash darajasi o'zgarib borishi antikorrozion qoplama konsentratsiyasi va muhit haroratiga bog'liqligi aniqlandi. Ma'lum haroratda po'latning korroziya tezligi, antikorrozion qoplama konsentratsiyasi oshishi bilan kamayganligini ko'rish mumkin.

Ushbu gibrid antikorrozion qoplamasini olishda vermikulitni turli miqdorlarda qo'shilgan va ularning po'latni himoyalash darajasi quyida o'rganilgan.



3-rasm. Tarkibida 25 % va 35 % vermikulit minerali bo'lgan qoplamaning 2 soat davomida 1M HCl + 200 mg/l NaCl muhitdagi qutublanish egri chiziqlari.

2-jadval

Turli og'irlikdagi 1M HCl + 200 mg/l NaCl muhitda po'latning qoplamasiz va qoplamali holatdagi korroziya parametrlari

	R p (kΩ cm ²)	I corr (μA cm ⁻²)	E corr (mV)	v corr (mm/yar)	P EF (%)
Fon-1	-	-	-	-	-
10	1.53	20.66	-856	24.01 × 10 ⁻²	-
15	4.24	13.76	-722	15.99 × 10 ⁻²	33.4
20	6.33	9.34	-691	10.85 × 10 ⁻²	54.8
25	66.9	0.85	-667	2.08 × 10 ⁻²	95.9
35	36.7	1.79	-544	0.99 × 10 ⁻²	82.6

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, tarkibida turli massa og'irlikda qo'shilgan vermikulit asosida olingan qoplamalarning elektrokimyoviy usulda korroziyadan himoyalash darajasi natijalari keltirilgan. Bundan kelib chiqadiki, qoplama tarkibidagi vermikulit miqdori ma'lum bir foizga oshib borganda uning himoyalash darajasi oshib borgan. Bundan ko'rish mumkinki, 15 % dagi qarshilik 4,24(himoyalash darajasi esa 33.4 %), 20 % 6,33(himoyalash darajasi 54.8 %), 25 % da(himoyalash darajasi 95.9 %) 66,9 va 35 % 36,7(himoyalash darajasi 82.6 %)ni tashkil etgan. Bundan xulosa, 25 % eng maksimal himoyalash darajasini qayt etgan bo'lsa, 35 % miqdorgacha oshirilganda himoyalash darajasi tushib ketgan..

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni aytish umkinki, kroton aldegi, tiokarbamidning va vermikulit asosida KAESV-1 markali antikorroziya qoplama olingan bo'lib, uning 1M HCl + 200 mg/l NaCl korroziya muhitida himoyalash darajalari o'rganilgan. Ushbu qoplaming himoyalash darajasi asosan uning tarkibidagi vermikulit miqdoriga bog'liq ekanligi o'rganilganda, 25 % maksimal ekanligi aniqlandi. Agar 35 % gacha yoki undan oshirilganda qoplamaning ingibirlash samaradorligi pasayishi gravimetric va elektrokimyoviy usullar bilan o'rganildi va tahlil qilindi. Olingan qoplamaning tarkibi morfologik tuzulishi SEM va element analizlari asosida aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Pedferri M. Corrosion Science and Engineering. Milan, Italy: Springer, 2018. 9 p.
- Raja P.B. et al. Indole alkaloids of *Alstonia angustifolia* var. *latifolia* as green inhibitor for mild steel corrosion in 1 M HCl media // *J. Mater. Eng. Perform.* Springer, 2013. Vol. 22, № 4. P. 1072–1078.
- Rani B.E.A., Basu B.B.J. Green inhibitors for corrosion protection of metals and alloys: An overview // *Int. J. Corros.* 2012. Vol. 2012.
- Pritzl M.D., Tabatabai H., Ghorbanpoor A. Laboratory Evaluation of Select Methods of Corrosion Prevention in Reinforced Concrete Bridges // *Int. J. Concr. Struct. Mater.* Korea Concrete Institute, 2014. Vol. 8, № 3. P. 201–212.
- F. Hermanek, *Thermal Spray Terminology and Company Origins*, ASM International, Materials Park, 2001
- A. Pardo, P. Casajús, M. Mohedano, A.E. Coy, F. Viejo, B. Torres, and E. Matykina, Corrosion Protection of Mg/Al Alloys by Thermal Sprayed Aluminum Coatings, *Appl. Surf. Sci.*, 2009, **255**(15), p 6968-6977.
- Galedari, S.A., Mahdavi, A., Azarmi, F. et al. A Comprehensive Review of Corrosion Resistance of Thermally-Sprayed and Thermally-Diffused Protective Coatings on Steel Structures. *J Therm Spray Tech* **28**, 645–677 (2019).
- Keijzer, M., Hemmes, K., De Wit, J. et al. TiCN and metallic coatings for corrosion protection of separator plates in MFCs. *Journal of Applied Electrochemistry* **30**, 1421–1431 (2000).
- Gabysheva, V.A., Baurova, N.I. Determination of the Influence of the Working Environment on the Development of Underfilm Corrosion of Machine Parts with Dispersed-Filled Polymer Coatings. *Polym. Sci. Ser. D* **15**, 90–95 (2022).
- Nurilloev Zafar, Beknazarov Khasan and Nomozov Abror, "Production of Corrosion Inhibitors Based on Crotonaldehyde and Their Inhibitory Properties," *International Journal of Engineering Trends and Technology*, 2022, vol. **70**, 8, pp. 423-434, Crossref, <https://doi.org/10.14445/22315381/IJETT-V70I8P243>.
- Narzullaev A.X, Beknazarov X.S, Jalilov A.T and Rajabova M.F, "Studying the Efficiency of Corrosion Inhibitor IKTSF-1, IR-DEA, IR-DAR-20 in 1m HCl," *International Journal of Advanced Science and Technology*, vol. **28**, no. 15, pp. 113–122. Available At: <http://serse.org/journals/index.php/IJAST/article/view/1555>.
- Nomozov A.K et all. Study of processe of obtaining monopotassium phosphate based on monosodium phosphate and potassium chloride. *Chemical Problems*. 2023 no. 3 (21). DOI: 10.32737/2221-8688-2023-3-279-293.



UDK: 547.29/39

O‘ktam BERDIYAROV,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: berdiyarovu@gmail.com

Samatjon NURALIYEV,

O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: samatjonmuraliyev@gmail.com

Suvonqul NURMONOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti «Umumiy va neft-gaz kimyo» kafedrasida professori

E-mail: nurmonov_se@mail.ru

Orifjon QODIROV,

O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti

E-mail: oqsh@bk.ru

NamMTI kimyo kafedra dotsenti F.Jo‘raboyev taqrizi ostida.

CATALYTIC SYNTHESIS OF SYNTHETIC FATTY ACIDS ON PARAFFIN BASE

Annotation

Synthesis of higher fatty acids by oxidation of paraffin with potassium permanganate is a complex chemical process involving various reactions. The article presents the results of determining the technological parameters of the process of obtaining carbonic acids by oxidizing paraffin, a secondary product formed during pyrolysis of hydrocarbons. IR-spectrum and gas chromatogram of synthesized synthetic fatty acids are also presented.

Key words: Potassium permanganate, paraffin, oxidation, synthetic fatty acid, saturated carboxylic acid, unsaturated fatty acid, gas chromatography, IR-spectroscopy, catalyst.

КАТАЛИТИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЖИРНЫХ КИСЛОТ НА ПАРАФИНОВОЙ ОСНОВЕ

Аннотация

Синтез высших жирных кислот окислением парафина перманганатом калия — сложный химический процесс, включающий различные реакции. В статье представлены результаты определения технологических параметров процесса получения углекислот путем окисления парафина — вторичного продукта, образующегося при пиролизе углеводородов. Представлены также ИК-спектр и газовая хроматограмма синтезированных синтетических жирных кислот.

Ключевые слова: Перманганат калия, парафин, окисление, синтетическая жирная кислота, насыщенная карбоновая кислота, ненасыщенная жирная кислота, газовая хроматография, ИК-спектроскопия, катализатор.

SINETIK YOG‘ KISLOTALARINI PARAFIN ASOSIDA KATALITIK SINTEZI

Annotatsiya

Kaliy permanganat yordamida parafinni oksidlash orqali yuqori yog‘ kislotalarini sintez qilish turli xil reaksiyalarni o‘z ichiga olgan murakkab kimyoviy jarayondir. Maqolada uglevodorodlar pirolizi jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulot — parafinni oksidlash orqali karbon kislotalar olish jarayoni texnologik parametrlarini aniqlash natijalari keltirilgan. Shuningdek sintez qilingan sintetik yog‘ kislotalarning IQ-spektri va gaz xromatogrammasi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kaliy permanganat, parafin, oksidlash, sintetik yog‘ kislota, to‘yingan karbon kislota, to‘yinmagan yog‘ kislota, gaz xromatografiya, IQ-spektroskopiya, katalizator.

Kirish. Neftni qayta ishlab olingan ikkilamchi mahsulotlaridan xalq xo‘jaligi uchun foydali moddalar olish kimyo sanoatining dolzarb muammolaridan biridir. Kaliy permanganat yordamida parafinni oksidlash orqali yuqori yog‘ kislotalari sintezi, potensial afzalliklariga ega.

Yuqori yog‘ kislotalari uzun uglerod zanjirlari va karboksil funksional guruhi hisobiga sanoat va farmatsevtikada muhim rol o‘ynaydi. Bunday birikmalar sovun va yuvish vositalarini ishlab chiqarishda, moylash materiallari, kosmetika va hatto bioyogilg‘i ishlab chiqarish uchun asosiy prekursorlar qo‘llaniladi. Farmatsevtika sohasida yuqori yog‘ kislotalari turli dori-darmonlarni sintez qilishda xom ashyo sifatida va erituvchi sifatida qo‘llaniladi.

Odatda yuqori yog‘ kislotalari moy va yog‘larning gidrolizi kabi jarayonlari orqali ishlab chiqariladi. Bu usul yuqori energiya talab qiladi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlardan foydalanilganligi uchun kam qo‘llaniladi. Kimyoviy sintez usullari, masalan, Fisher-Tropsch jarayoni yoki olefinlarning oksidlanishi kabi muqobil variantlar yuqori bosim, yuqori harorat yoki qimmat katalizatorlardan foydalanishni talab qiladi.

Parafinning kaliy permanganat bilan oksidlanishi yog‘ kislotalari ishlab chiqarishda qulay hisoblanadi. Parafinlar to‘yingan uglevodorodlar bo‘lib, ko‘p va nisbatan arzon xom ashyo shuningdek kaliy permanganatdan oksidlovchi sifatida foydalanish ham bir qator afzalliklarga ega:

Iqtisodiy samaradorlik: Yog‘ kislotalari sintezida qo‘llanilgan boshqa katalizatorlar va oksidlovchilarga nisbatan foydalanilgan $KMnO_4$ nisbatan arzon va keng tarqalgan birikma hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Katalizator yordamida jarayonning faollanish energiyasini kamaytirish orqali kimyoviy reaksiya tezligini oshirish kimyo sanoati uchun muhim hisoblanadi. Katalizatorlar nafaqat kimyoviy jarayonlar bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, balki ular ekologik jihatdan ham muhim rol o'ynaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, kataliz barcha kimyoviy jarayonlar yo'naltirilishi kerak bo'lgan yashil kimyoning asosiy tamoyillaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Parafinning katalitik oksidlanishi tadqiqotchilar jumladan, L. Xiam, G. Uayz va S. Chaykinlar tomonidan o'rganilgan va platina katalizatori ishtirokida ba'zi quyi parafinlar molekulasini kimyoviy tuzilishining katalitik jarayonga ta'siri tadqiq qilgan.[1] Tallman va Nagvekar yengil olefinlarni ishlab chiqarish uchun metall oksidi katalizatorlari yordamida parafinni degidrogenlashni amalga oshirishgan.[2] Stearatlarning parafinni termik oksidlanish jarayoniga ta'siri bo'yicha ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kobalt stearat oksidlanish jarayoniga ijobiy ta'sir etadi. ammo oksidlash jarayoni ko'p bosqichdan iborat bo'ladi.[3] Liu va boshqalar oksidlovchi, havo kompressori va kondensator trubkasidan iborat parafinni oksidlash qurilmasini taklif etishgan. Bu qurilmada havoning berilish miqdori va reaksiya haroratini aniq nazorat qilish imkoni yaratilgan [4].

Atmosfera bosimida 150-170°Cda, katalizator ishtirokida parafinni havo bilan suyuq fazali oksidlash natijasida maxsus mum olingan [5].


Tadqiqot metodologiyasi. Yog' kislotalarini olishda xomashyo sifatida C₂₅-C₃₅ uglevodorodlardan tashkil topgan qaynash oralig'i 350-450°C va suyuqlanish harorati 40-60°C bo'lgan parafin fraksiyasidan foydalanildi.

Tozalangan qattiq parafin, parafinli neftlarning moy fraksiyalarini deparafinlash yo'li bilan olinadi. Deparafinlash usuli erituvchi ishtirokida past haroratlarda parafinni kristallashni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda nafaqat erituvchi, balki sovutgich sifatida ham xizmat qiladigan suyuq propan bilan neft fraksiyalarini deparafinlash usuli keng tarqaldi. Bunday usullar bilan olingan parafin tarkibida 95-99% qattiq n-parafin uglevodorodlar bo'ladi. Oksidlash uchun xomashyo sifatida Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida ishlab chiqarilayotgan V markadagi (DS 23683-2021 bo'yicha) parafindan foydalanildi

Kolbada 200 gramm parafinni 120°C gacha qizdirib, unga katalizator sifatida 2 gramm distillangan suvda eritilgan 0.6 gramm KMnO₄ qo'shildi. Oksidlash jarayoni borishi uchun aralashtirib turilgan xolda, havoni 2 mm radiusli shisha naycha orqali reometr bilan, 12 litr havo 16 soat davomida berib turildi. Jarayon ekzotermik bo'lgani uchun harorat 110-120°C oralig'ida ushlab turildi. Har ikki soatda oksidatning kislotasi soni aniqlanib turildi. Kislotasi soni 70 mg KOH/g ga bo'lganda oksidlash to'xtatiladi. Xosil bo'lgan oksidat ajratish voronkasiga solindi va ustiga 20-25°C haroratli distillangan suv quyib 2-3 marta yuvildi. Bunda suvda eruvchan past molekulyar karbon kislotalar va oksidlanish vaqtida xosil bo'lgan qo'shimcha mahsulotlar suv bilan chiqib ketadi. Olingan oksidatdan sovunlanish reaksiyasi asosida sintetik yog' kislotalari ajratib olinadi.

Tahlil va natijalar. Fraksiyaga ajralishiga, erish nuqtasi va tuzilishiga ko'ra parafinlar suyuq (erish ≤ 27 °S), qattiq (erish = 28-70 °C) va mikrokristall (erish > 60-80 °C) - tserezinlarga bo'linadi. Parafinlar ko'pchilik kimyoviy moddalarga nisbatan inert hisoblanadi. Ular nitrat kislotasi, atmosfera kislorodi (140°C va undan yuqori haroratda) va boshqa oksidlovchi moddalar bilan oksidlanadi, hamda o'simlik va hayvon yog'larida mavjud bo'lgan yog' kislotalariga o'xshash turli xil kislotalarni hosil qiladi. Parafin uglevodorodlarining oksidlanishi issiqlik ajralib chiqishi bilan boradigan murakkab geterojen katalitik jarayon bo'lib, radikal mexanizm asosida sodir bo'ladi. Jarayonning limitlovchi bosqichi dastlab erkin radikallarning shakllanishi (initsirlanishi) hisoblanadi. Zanjirlarning yadrolanishi katalizator sifatida o'zgaruvchan valentli metall tuzlari (bu reaksiyada KMnO₄) ta'sirida sodir bo'ladi.

Parafin fraksiyasi sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish uchun GC-MS xromatogrammasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Parafin fraksiyasining GC-MS xromatogrammasi.

Olingan ma'lumotlar asosida fraksiya tarkibidagi uglevodorodlarning miqdori 1-jadval keltirildi.


1-jadval

Parafin fraksiyasining tarkibi

№	Belgisi	Nomi	Formulasi	Miqdori %	T _q	T _c	M _r
1	C14	Tetradekan	C ₁₄ H ₃₀	0.20242	198.34	-5.9	253.5
2	C16	Geksadekan	C ₁₆ H ₃₄	0.93374	226.42	18	287.5
3	C18	Oktadekan	C ₁₈ H ₃₈	3.55722	254.5	28	318.3
4	C20	Eykozan	C ₂₀ H ₄₂	8.48859	282.58	36.0	343.0
5	C22	Dokozan	C ₂₂ H ₄₆	13.08959	310.36	46.0	373.0
6	C24	Tetrakozan	C ₂₄ H ₅₀	15.31442	338.34	54.0	398.0
7	C26	Geksakozan	C ₂₆ H ₅₄	15.14941	366.2	60.0	425.0
8	C28	Oktakozan	C ₂₈ H ₅₈	12.94210	393.9	67.0	448.0
9	C30	Triakontan	C ₃₀ H ₆₂	9.24589	421.98	69.0	470.0
10	C32	Dotriakontan	C ₃₂ H ₆₆	5.47683	450.06	75.0	491.0
11	C34	Tetratriakontan	C ₃₄ H ₇₀	2.82947	478.14	80.0	511.0
12	C36	Geksatriakontan	C ₃₆ H ₇₄	1.30746	506.22	85.0	530.0
13	C38	Oktatriakontan	C ₃₈ H ₇₈	0.55486	534.3	88.0	548.0
14	C40	Tetraoktakontan	C ₄₀ H ₈₂	0.23986	562.38	91.0	566.0
15	C42	Tetratetraoktakontan	C ₄₂ H ₈₆	0.10290	590.46	94.0	583.0
16	C44	Geksatetraoktakontan	C ₄₄ H ₉₀	0.04635	618.54	97.0	600.0
17	C46	Oktatetraoktakontan	C ₄₆ H ₉₄	0.02266	646.32	100.0	616.0
18	C48	Tetraoktakontan	C ₄₈ H ₉₈	0.01398	674.2	102.0	632.0

Kaliy permanganat yuqori karbon kislotalarni olish uchun parafinlarning oksidlanishida katalizator sifatida foydalanilganda, jarayon bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi, ularning har biri nisbatan inert parafinni faol holatga

o'tkazadi. Jarayon KMnO_4 ning kuchli oksidlash qobiliyati bilan tavsiflanadi, bu esa mos ravishda parafinlarning karbon kislotalarga aylanishini osonlashtiradi. Sintez qilingan moddaning IQ-spektri 2-rasmda keltirildi.



2-rasm. Sintez qilingan yog' kislotasining IQ-spektri.

Sintez qilingan moddaning IQ-spektri molekuladagi funksional guruhlariga xos yutilish sohalari namayon bo'ldi. 3009 cm^{-1} da keng yutilish sohasi - O-H ga xos valent tebranishlarini ko'rsatadi. Keng yutilish sohasi odatda spirtlar, fenollarda va karbon kislotalardagi vodorod bog'lanishni ko'rsatadi. 2927 va 2854 cm^{-1} dagi yutilish sohasi: - alifatik birikmalardagi C-H bog'i valent tebranishlariga xosdir. 2927 cm^{-1} sohasi assimetrik tebranishga to'g'ri keladi, 2854 cm^{-1} esa metilen guruhlarining (CH_2) nosimmetrik tebranishi bilan bog'liq. 1710 cm^{-1} yutilish sohasi: - odatda ketonlar, aldegidlar, karbon kislotalar yoki efirlarda kuzatiladigan C=O bog'ining valent tebranishi uchun xarakterlidir. 1651 cm^{-1} yutilish sohasi: - alkenlarda C=C bog'i tebranishidan dalolat beradi yoki C=O tebranishi bilan bog'liq birlashgan tizimni beradi. 1457 cm^{-1} yutilish sohasi: - CH_2 va CH_3 guruhlaridagi C-H ning egilish tebranishlari bilan bog'liq. 1409 cm^{-1} dagi yutilish: - karboksil guruh bilan bog'langan $-\text{CH}_3$ guruhi yoki $-\text{OH}$ guruhiga xos. 937 cm^{-1} yutilish sohasi: - alkenlardagi $=\text{CH}$ va CH_2 guruhlarining tebranishi bilan bog'liq. 716 cm^{-1} yutilish sohasi esa aromatik birikmalardagi $=\text{CH}$ ning tekislikdan tashqari deformatsion tebranishlari yoki alifatik zanjirlardagi $-\text{CH}_2$ guruhlarining tebranishlari uchun xos. 1651 cm^{-1} yutilish sohasi alkenga xos.

IQ-spektrining tahlilidan kelib chiqib, hosil bo'lgan modda to'yinmagan yuqori karbon kislotasi ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar.

- Kaliy permanganat ishtirokida parafin oksidlandi va sintetik yog' kislotalari olindi. Olingan sintetik yog' kislotalari IQ-spektroskopiya usulida analizi qilindi.
- Katalizatorning jarayonga ta'siri o'rganildi va optimal sharoitlari aniqlandi.
- Sintetik yog' kislotalarni sintez qilishda mahalliy xomashyodan foydalanildi va iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatildi.

ADABIYOTLAR

1. Hiam, L., Wise, H., & Chaikin, S. (1968). Catalytic oxidation of hydrocarbons on platinum. *Journal of Catalysis*, 10(3), 272–276. doi:10.1016/s0021-9517(68)80009-0
2. Michael, Tallman., Nagvekar, Manoj. (2020). Processes for catalytic paraffin dehydrogenation and catalyst recovery.
3. Lin-lin, Liu., Bo-biao, Li., Bo, Kang., Song-qi, Hu. (2021). Effect of stearates on the thermal oxidation process of paraffin. *Journal of Thermal Analysis and Calorimetry*, 146(5):1-8. doi: 10.1007/S10973-021-10577-W
4. Liu, Xintao., Jiang, Weixi., Chen, Jianying., Bian, Fuxiang., Mu, Daoxu. (2014). Paraffin oxidation apparatus. Patent
5. Yufeng, Cong., W., Huang. (2010). Study on Kinetics of Paraffin-Catalyzed Oxidation Reaction. *Petroleum Science and Technology*, 28(4):393-400. doi: 10.1080/10916460903070728
6. Cong, Y.-F., Huang, W., Liao, K.-J., Deng, X.-Q., & Kang, L. (2008). Catalyzed Oxidation of Paraffins. *Petroleum Science and Technology*, 26(14), 1648–1655. doi:10.1080/10916460701287722
7. Gómez-Hortigüela, L., Corà, F., Sankar, G., Zicovich-Wilson, C. M., & Catlow, C. R. A. (2010). Catalytic Reaction Mechanism of Mn-Doped Nanoporous Aluminophosphates for the Aerobic Oxidation of Hydrocarbons. *Chemistry - A European Journal*, 16(46), 13638–13645. doi:10.1002/chem.201001876



UDK:547-327+547-304.

Dilnoza BO'RIYEVA,
O'zMU kimyo fakulteti tayanch doktoranti
E-mail: dilnozaboriyeva133@gmail.com
Anvar ABDUSHUKUROV,
O'zMU kimyo fakulteti professori, k.f.d.
Doston NURMATOV,
O'zMU kimyo fakulteti tayanch doktoranti,
Zulxumor XAJIYEVA,
O'zMU kimyo fakulteti bakalavri.

Toshkent farmaceutika Instituti organik sintez kafedrasida professori, k.f.d. A. Karimov taqrizi asosida

PIKOLIN KISLOTANING TOLUIDIN IZOMERLARI BILAN REAKSIYASIDAN SINTEZ QILINGAN AMID XOSILALARINING TUZILISHINI ZAMONAVIY FIZIK-KIMYOVIY TADQIQOT USULLARI YORDAMIDA TASDIQLASH

Аннотация

Pikolin kislotani toluidin izomerlari bilan reaksiyasidan olingan amid xosilalarining individualligi va ularning tuzilishi yuqqa qatlam xromatografiyasi (YuQX) va IQ, YaMR, MAСС spektroskopiya usullari bilan tasdiqlandi.

Kalit so'zlar: pikolin kislotasi, toluidin, amid, IQ spektr, ¹H YaMR spektr, ¹³C YaMR spektr, MAСС spektr.

ПОДТВЕРЖДЕНИЕ СТРУКТУРЫ ПРОИЗВОДНЫХ АМИДОВ, СИНТЕЗИРОВАННЫХ РЕАКЦИЕЙ ПИКОЛИНОВОЙ КИСЛОТЫ С ТОЛУИДИНОВЫМИ ИЗОМЕРАМИ СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДАМИ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

Индивидуальность свойств амидов, полученных в результате реакции пиколиновой кислоты с изомерами толуидина, и их структуры подтверждена методами тонкослойной хроматографии (ТСХ) и ИК, ПМР, МАСС-спектроскопии.

Ключевые слова: пиколиновая кислота, толуидин, amid, ИК-спектр, спектр ¹H ПМР, спектр ¹³C ПМР, МАСС-спектр.

CONFIRMATION OF THE STRUCTURE OF AMIDE DERIVATIVES SYNTHESIZED BY THE REACTION OF PICOLIC ACID WITH TOLUIDINE ISOMERS USING MODERN METHODS OF PHYSICAL AND CHEMICAL RESEARCH

Annotation


The individual properties of amides obtained from the reaction of picolinic acid with toluidine isomers and their structure were confirmed by thin-layer chromatography (TLC) and IR, NMR, MASS spectroscopy.

Key words: picolinic acid, toluidine, amide, IR spectrum, ¹H NMR spectrum, ¹³C NMR spectrum, MASS spectrum.

Kirish. Ma'lumki, karbon kislotalar, aminlar va ularning hosilalari organik birikmalar orasida keng tarqalgan, nazariy va amaliy ahamiyati yuqori bo'lgan birikmalar hisoblanadi. Shu jumladan piridinkarbon kislotalarning hosilalaridan ham analitik kimyoda organik reagent, kompleks birikmalar olishda ligandlar sifatida, yangi kimyoviy birikmalar sintez qilishda foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, piridinkarbon kislotalarning hosilalari orasida ko'plab yuqori biologik faol birikmalar aniqlangan bo'lib tibbiyot va farmasevtika sohalarning rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Kompleks birikmalar kimyosida ayniqsa 2-piridinkarbon kislotasining ligandlik hossasi tegishli o'rganilgan bo'lib, karboksil guruhidagi -vodorod va piridin halqasidagi azot atomining taqsimlanmagan juft elektronlari hisobiga turli oraliq metallar bilan kompleks birikmalar hosil qilishi aniqlangan [2]. Piridinkarbon kislotalari singari ularning amidlarida ham ligandlik hususiyati saqlanib qoladi [3]. 2-Piridinkarbon kislotasi amidlari molekulasining piridin frag-mentidagi azot atomining taqsimlanmagan juft elektronlari va elektronga boy karbo-nil guruhi kislород atomi hisobiga turli metallar bilan koordinatsion bog'lanish hosil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi:

Karbon kislotalarning aromatik aminlar bilan reaksiyalaridan bir malekula suv ajralishi natijasida kislotalarning almashingan arilamidlari hosil bo'ladi [4-5].

Xulosa va takliflar. Dolomit unini 40 %-li sulfat kislotasi bilan parchalash jarayoni tadqiq etildi. Ko'piklanish jarayoni sirt-faol moddasi qo'llash orqali bartaraf etildi. Sulfat kislotasining maqbul me'yori sifatida stexiometriyatdan 100-110% deb qabul qilindi. Bunda kaltsiy va magniy karbonatlari parchalanish darajasi 90-93,5% oralig'ida bo'ladi. Hosil bo'lgan cho'kmanni qurilish materiali sifatida qullashga tavsiya etiladi. Suyuq faza esa magniy sulfati uchun xomashyo hisoblanadi. Magniy sulfat olishning blok-sxemasi ishlab chiqildi. Shunday qilib, laboratoriya tadqiqotlari mahalliy dolomit asosida qishloq xo'jaligi issiqxonalarida samarali qo'llaniladigan magniy sulfatini sanoat miqyosida ishlab chiqarish mumkinligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Дадаходжаев А.Т. Разработка и внедрение технологических процессов переработки доломита. // Узбекский химический журнал. -2015. -№2. Часть 1. - С.69-74.
2. Ахмедов М.Э., Дадаходжаев А.Т., Гуро В.П. Обработка доломита серной кислотой с получением сульфата магния. //Международная научно-техническая конференция «Достижения, проблемы и современные тенденции развития горно-металлургического комплекса» НГГИ. Узбекистан. 12-14 июня 2017г. - С.463.
3. Гаврилюк А. Н. Получение простых и комплексных магнийсодержащих удобрений с использованием республиканской сырьевой базы: Автореф. дис. ... канд. техн. наук. Минск, 2015. - 30 с.
4. О. Б. Дормешкин [и др.]. Получение сульфата магния на основе доломита / Новейшие достижения в области импортозамещения в химической промышленности и производстве строительных материалов. - Материалы Междунар. науч.-практ. конф. Ч. 1. Минск, 22–23 ноября 2012 г. - С. 126–129.
5. Пат. 18888 Респ. Беларусь; МПК С 01F 5/40. Способ получения сульфата магния: / О. Б. Дормешкин, Н. И. Воробьев, А. Н. Гаврилюк, Г. Х. Черчес, В. Е. Первинкин, А. А. Людков, И. Е. Подшивалова, Г. М. Бойко, Д. В. Черняков. Заявители: БГТУ, ОАО «Гомельский химический завод». - № 20121312; заявл. 18.09.2012; зарегистр.

- 25.09.2014 // Нац. центр интеллектуал. собственности. 2014.
6. Коган В. Б., Фридман В. М., Кафаров В. В. Справочник по растворимости: - в 3 т. Т. 1, кн. 1. - М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1961. - 960 с.
 7. И. М. Жарский [и др.]. Свойства и методы идентификации веществ в неорганической технологии. // Фонд фундамент. исслед. – Минск, 1996. - 372 с.
 8. Кузьменков Д. М., Сакович А. А., Беланович О. В. Технология получения полиминерального гипсового вяжущего из доломита и серной кислоты // Новейшие достижения в области импортозамещения в химической промышленности и производстве строительных материалов: материалы. - Междунар. науч.-практ. конф. Ч. 1. Минск, 22–23 ноября 2012 г. - С. 19–24.
 9. О.Б. Дормешкин, А.Н. Гаврилюк, Н.И. Воробьев, Г.Х. Черчес. Получение водорастворимого удобрения – сульфата магния из доломита. // Труды БГТУ.- Минск, 2016. - № 3. – С. 6-8.



Guyoxon MO'MINOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, PhD
E-mail: guyoxonmuminova@gmail.com.

PhD A. Yangibayev taqrizi asosida

ИЗУЧЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ ОВСА И СЕМЯН КОРИАНДРА В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрено информативный анализ химического состава Овса (*Avena sativa* L.) и кориандра (*Coriandrum sativum* L), их применения в народной и научной медицине. Эти растения обладают лечебными свойствами и используются для лечения многих заболеваний, в том числе сердечно-сосудистых, неврологических, желудочно-кишечных, респираторных, метаболических, заболеваний почек и печени. Обзор дает представление об участии этих лекарственных растений в лечении различных заболеваний в медицине.

Ключевые слова: *Avena sativa* L., *Coriandrum sativum* L., сахарный диабет, ожирение, антиоксидант, гепатопротектор, противовоспалительное средство, сердечно-сосудистые заболевания.

STUDYING THE IMPORTANCE OF OATS AND CORIANDER SEEDS IN FOLK MEDICINE

Annotation

This article discusses an informative analysis of the chemical compositions of *Avena sativa* L. and *Coriandrum sativum* L., their use in folk and scientific medicine. These medicinal plants are used to treat many diseases, including neurological, gastrointestinal, respiratory, metabolic, renal and hepatic disorders. The review gives an idea of the participation of these medicinal plants in the treatment of various diseases in medicine.

Key words: *Avena sativa* L., *Coriandrum sativum* L., diabetes mellitus, obesity, antioxidant, hepatoprotector, anti-inflammatory agent, cardiovascular diseases.

SULI VA KASHNICH URUG'INING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATINI O'RGANISH

Annotatsiya

Maqolada suli (*Avena sativa* L.) va kashnich urug'i (*Coriandrum sativum* L) kimyoviy tarkibi, xalq tabobati va ilmiy tibbiyotda qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ushbu o'simliklar dorivor xususiyatga ega bo'lib, ko'plab kasalliklarni, jumladan, yurak-qon tomir, nevrologik, oshqozon-ichak, nafas olish, metabolik, buyrak va jigar kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Ushbu sharhda ushbu o'simliklarning tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda ishtiroki haqida tushuncha beriladi.

Kalit so'zlar: *Avena sativa* L., *Coriandrum sativum* L., qandli diabet, semizlik, antioksidant, gepatoprotektor, yallig'lanishga qarshi, yurak-qon tomir kasalliklari.

Kirish. Dunyo miqyosida metabolik kasalliklar, jumladan diabet va yurak-qon tomir kasalliklaridan aziyat chekayotgan bemorlar soni tez sur'atlarda oshib bormoqda. 2016 yilda 650 millionta semirish aniqlangan bo'lsa va buning oqibatida 2030 yilga kelib 23,6 millionga yaqin odam yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etishi taxmin qilinmoqda [18]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab o'limning asosiy sababi yurak-qon tomir kasalliklaridir [16;17].

Qandli diabetni davolashda giperglikemiya samarali nazorat qilishdan tashqari dislipidemiya ijobiy ta'sir ko'rsatish kerak. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan diabetga qarshi dori-darmonlarning aksariyati lipid ko'rsatkichlari va xavf omillariga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli, bir vaqtning o'zida giperglikemiya, dislipidemiya koreksiyalash uchun nisbatan salbiy ta'siri past bo'lgan yangi terapevtik vositalar kerak.

Shu sababdan, hozirgi kunda butun dunyoda xalq tabobatiga qiziqish ortib bormoqda. O'simliklar yuqori antioksidant xususiyatlarga ega bo'lgan turli xil ikkilamchi metabolitlarning boy manbalari hisoblanadi. Dorivor o'simliklardan olingan farmatsevtika mahsulotlari tibbiyotda foydali xususiyatlari hamda jarrohlik va kimyoviy dorilarga nisbatan kamroq asoratlari tufayli qo'llanilmoqda. Meva va sabzavotlarga boy parhezlar yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytirishi qayd qilinadi. O'simlik tabobati butun dunyoda ko'plab kasalliklarni davolashda qo'llaniladi, jumladan diabetni an'anaviy davolashda 800-1200 ga yaqin o'simliklar qo'llaniladi [5]. Kashnich urug'i va suli xalq tabobatida ko'plab kasalliklarni davolashda keng foydalaniladi. Ushbu sharh bu o'simliklarning xususiyatlari, biologik faolliklarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni taqdim etadi.

Coriandrum sativum L. Dorivor o'simliklar bilan bir qatorda eng foydali efir moylari bo'lgan ziravorlardan biri *Coriandrum sativum* L. hisoblanadi. Bu o'simlik qandli diabet, dislipidemiya, ovqat hazm qilish buzilishi, meteorizm, uyqusizlik, buyrak kasalliklari, ishtahani yo'qotish, teri kasalliklari, stomatit, laringit, bosh og'rig'i va yurak urishi buzilishi kabi turli kasalliklarni davolash uchun foydalaniladi. Zamonaviy tadqiqotlarda kashnich anksiolitik, antikonvulsant, migrenga qarshi, neyroprotektiv, analgetik, diuretik, antidiabetik, antimutagen, antigelmintik, gepatoprotektiv, gipoglikemik, gipolipidemik, gipotenziv, saratonga qarshi va antioksidant ta'sir ko'rsatishi aniqlandi [9].

Kashnich barglari va urug'lari xalq tabobatida ko'z kasalliklari, teri kasalliklari, laringit, astma, ovqat hazm qilishini yaxshilash, gastrit, qusish, ko'ngil aynishi, yurak urishini yaxshilash, bosh aylanishi, gijja kaslliklari va jinsiy quvvatni oshirishda qo'llaniladi [9]. Kashnich urug'ining gipoglikemik va gipolipidemik ta'siri in vivo tajribalarda tasdiqlangan [1]. Ko'pgina

tadqiqotlarda kashnich urug'ini lipid ko'rsatkichlariga ijoboy ta'sir qilishi aniqlandi. Kashnich lipid almashinuvi yo'llarining turli fermentlarini modulyatsiya qilishi hamda triglitseridlar (TG) va xolesterin miqdorini pasaytirishi mumkin. Misol tariqasida, 3-gidroksi-3-metil-glutaril-koenzim A reduktaza (HMG-CoA reduktaza) faolligi *C. sativum* tomonidan ingibirlanadi. Kashnich lipidlarning ko'proq parchalanishiga olib keladigan LXAT va to'qima lipaza faolligini kuchaytiradi [1]. Kashnich urug'i moyi UX, TG va ZPLP ni kamaytiradi, ZYuLP ning miqdorini oshiradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kashnich urug'i qo'llanilganda jigar xolesterini sezilarli darajada kamayishi bu uning safro kislotalariga parchalanish tezligi sintez tezligidan yuqori bo'lganligi sabablidir. Bundan tashqari, *C. sativum* urug'i ekstrakti yuborilgan quyonlarning najas moddasida xolesterin va fosfolipidlar ajralishining ko'payishi aniqlandi. Umuman olganda, kashnich urug'i sterollari va stanollari xolesterinning ichakda so'rilishini kamaytiradi, neytral najas sterolining chiqarilishini oshiradi va jigarda xolesterin to'planishini oldini oladi [8].

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, diabetik sichqonlarni kashnich urug'larining polifenol fraksiyasi bilan davolash glikoliz, glyukoneogenez, glikogenoliz jarayonlari fermentlari faolligiga ta'sir etish orqali qonda glyukoza miqdorini nazorat qilishi mumkin va gipoglikemik faollikni namoyon qiladi [10].

*C. sativum*ning yana bir potensial kardioprotektiv ta'siri uning antigipertenziv xususiyati bilan bog'liq. Kashnich barglarining metanol va suvli ekstraktlari kaliydan ko'ra siydikda natriyning ko'payishini ko'rsatdi, bu diuretik ta'sir uchun xavfsiz bo'lishi mumkin [15].

Kashnich urug'i etanol ekstraktini yuborish AST va ALT faolligining pasayishiga, SOD, CAT va GP kabi jigar antioksidant fermentlarining ko'payishiga, jigar nekrozida hepatotsitlarning regeneratsiyasiga olib keldi. Shuningdek, TNF- α , NF-KB, kaspaza 3 miqdorlarini va jigar ishemiyasi reperfusion shikastlanishida nekrozni kamaytirishi aniqlandi [9].

Kashnich antibakterial va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ham keng qo'llaniladi [12]. Kashnich barglari (havo qismlari) va urug'lar (mevalar) uchuvchi komponentlari boshqa ekstraktlarga qaraganda kuchliroq mikroblarga qarshi ta'sirga ega. Bakteriyalar va zamburug'lar ustidagi mikroblarga qarshi faollik kashnich urug'i efir moylari faol komponentlarining mikroblarga ingibitiv va halokatli ta'siri bilan bog'liq [7].

Kashnich barglari va urug'larining ekstrakti hamda moyi kuchli antioksidant ta'sirga ega. *C. sativum* ko'plab tadqiqotlarda yuqori antioksidant faollikka ega ekanligi isbotlangan va bu asosan kashnichning polifenollari, vitaminlari va sterol tarkibiy qismlarining faolligi bilan uzviy bog'liq [11]. Tadqiqotlarda, kashnich urug'ining suvli ekstrakti superoksid dismutaza (SOD), katalaza (CAT) va glutation (GSH) miqdorini oshirishi va lipid peroksidatsiyasini kamaytirishi qayd qilingan. Kashnich mevalarining metanoli ekstrakti sezilarli antiradikal ta'sirini ko'rsatadi [1].

Xususan ta'kidlab o'tish kerakki, *C. sativum* antioksidant xususiyati bilan bog'liq bo'lgan mexanizm skvenjer retseptorlari (SRB1) miqdorini ingibirlashidir, bu o'z navbatida ko'pikli hujayralar hosil bo'lishining sonini kamaytiradi va aterogen plaklarni kamaytiradi. Shu sababli, kashnich ekstrakti Ox-LDL ning rivojlanishini dozaga bog'liq holda pasaytiradi [13;15]. Shuningdek, kashnich efir moyi sichqonlarda saraton modelida teri osti o'smalarining og'irligi va hajmini kamaytiradi [6].

Kashnich an'anaviy va xalq tabobatida uyqusizlik, bosh og'rig'i va depressiyani davolash uchun ishlatiladi. Kversetin va izokversetin kabi kashnich flavonoidlarining markaziy benzodiazepin retseptorlariga yuqori yaqinligi, kashnich tarkibidagi linalolning glutamatergik va nikotink kislotasi bilan bog'liqligi anksilotik ta'sirga olib kelishi mumkin. Linalol epilepsiya va migrenga qarshi faollikni ham namoyon qiladi. Kashnich urug'i efir moyi xotirani yaxshilaydi, antioksidant tizim, laktat degidrogenaza faolligi, β -amiloid miqdori va gippokampusda DNKning parchalanishi, neyroallig'lanishni kamaytirdi. Efir moyining asosiy birikmasi sifatida linalol ushbu ta'sirlarning ko'pchiligi uchun javobgardir [7].

Kashnich urug'ining suvli va etanoli ekstraktini og'riqni qoldiruvchi xusiyatga ega ekanligi ham ta'kidlanadi [1]. Bu esa linalolning ko'plab neyromediator retseptorlari faoliyatini modulyatsiya qilishi bilan bog'liq.

Teri kasalliklarida kashnich urug'i moyi sezgir teriga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin [8]. Shuningdek, u quyosh nuridan himoya qilishda va dermatitlarni davolashda samarali ta'sir etadi.

Olimlar, kashnich mevasini zararsiz ishlatilishi mumkin bo'lgan I sinf o'simlik sifatida ta'kidlaydi.

Avena sativa L. *Avena sativa* L. uglevodlar, sterollar, lipidlar, oqsillar, alkaloidlar, saponinlar va flavonoidlarni o'z ichiga olgan kimyoviy tarkibga ega. Bundan tashqari, β -glyukan, kraxmal, amilaza, vitaminlar va minerallarni o'z ichiga oladi. Tarkibidagi fenol birikmalar tufayli yuqori antioksidant xususiyatlarga ega. Ko'plab xususiyatlari tufayli tibbiyotda kasalliklarni davolash va oldini olishda qo'llaniluvchi o'simlik hisoblanadi [7].

Avena sativa L. - Poaceae oilasiga mansub ikki yillik o'simliklar. Ular salqin va nam ob-havo sharoitida o'sadi. Xalq tabobatida, suli foydali deb hisoblanadi, chunki ular oqsil, tola, vitaminlar va minerallarga boy. Xususan, jo'xori tarkibida yuqori darajadagi oqsillar va lipidlar, shuningdek muhim aminokislotalar, masalan, lizin va 2-6% β -glyukan mavjud va shuning uchun yuqori qiymatli ekin sifatida tan olingan. Globulin suli tarkibidagi oqsilning 70-80% ni tashkil qiladi. Suli tarkibida 5-12% yog' bo'lib, taxminan 95% palmitin, olein va linolen kislotalar va 75-80% to'yinmagan yog' kislotalardir. Ushbu to'yinmagan yog' kislotalari turli xil fiziologik xususiyatlarga ega, masalan, demensiyaning oldini olish va antioksidant faollikni namoyon qiladi. So'nggi paytlarda to'yinmagan yog' kislotalari qonda xolesterin miqdorini kamaytirishi ko'rsatildi, bu esa suliga funksional oziq-ovqat sifatida qiziqishni kuchaytirdi. Suli tarkibida polifenollar, jumladan, kofein kislotalari, kumar, gall, gidroksibenzol, vanil kislotalar va boshqalar mavjud. Bundan tashqari, oqsillar, β -glyukan, saponin, albumin, prolaminlar va glutelinlar kabi suli kepagidan olingan qo'shimcha mahsulotlar ham ozuqaviy modda sifatida qimmatlidir. Butun suli donini iste'mol qilish ta'sir qiluvchi komponentlari tufayli sog'liq uchun foydali hisoblanadi [3;11].

Sulining eriydigan tolaga boy tarkibi yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi. Xususan, β -glyukan suli tarkibida (37-43%) mavjud bo'lgan eruvchan tolali, qonda xolesterin darajasini pasaytirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy tarkibiy qismidir. Shuningdek, suli oqsillari qonda umumiy xolesterin va ZPLP-X miqdorini pasaytiradi [4]. Sulidan olingan β -glyukan gipoglikemik va qon bosimini boshqarish kabi ta'sirga ega ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, suli tarkibidagi β -glyukanlar oshqozon-ichak yallig'lanishini yengillashtirdi, oshqozon, ko'r ichak va yo'g'on ichakda laktobakteriyalarni rag'batlantiradi. Saraton va yuqumli kasalliklarga qarshi eng samarali hisoblanadi [2;12].

Tadqiqotlarda sulining etanoli ekstraktlari diabet modelida yarani davolovchi xususiyatlarga egaligi aniqlandi hamda antioksidant flavonoidlar va glikozid birikmalari neyromuskulyar regeneratsiyada ijobiy rol o'ynashi namoyon bo'ldi [4]. Suli iste'moli yurak-qon tomir kasalliklari, saraton va 2-toifa diabetga ta'sir qilishini ko'rsatadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud. U qandli diabet bilan og'rikan bemorlarda qondagi glyukoza va insulin miqdorini kamaytirish uchun xizmat qiladi [14].

Qandli diabetni davolash uchun yangi parhez aralashuvini ishlab chiqish juda dolzarbdir. So'nggi yillarda diabetning tarqalishi keskin oshdi. Statistik natijalar shuni ko'rsatdiki, 2021 yilda 6 milliondan ortiq o'lim bevosita diabet tufayli yuzaga kelgan. Yangi holatlarning tarqalishi ham kundan-kunga ortib bormoqda. Shuning uchun diabetning oldini olish va yangi parhez tadbirlarini izlash juda zarur. Asal bilan to'yintirilgan suli diabetga qarshi ta'sirini va glyukoza miqdori, lipid ko'rsatkichlarini nazorat qilish va oksidlovchi stressdan himoya qilish uchun samarali terapevtik yondashuvni namoyish etdi[14]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, suli diabetga va yurak-qon tomir kasalliklari, gipertenziya va dislipidemiya kabi boshqa ko'plab muammolarga samarali ta'sir ko'rsatadi. β -glyukan xolesterin, glyukoza va insulin miqdorini pasaytirishda muhim rol o'ynaydi [4].

Oddiy suli ozuqaviy qiymatini hisobga olgan holda, unib chiqqan yangi suliga qiziqish ham asta-sekin ortib bormoqda. Nihol - bu urug'ning namlikni so'rib olishi va yosh ildiz va kurtaklar hosil qilish uchun turli metabolik jarayonlarni boshdan kechiradi. Aniqlanishicha, nihol jarayonida urug' va uning endospermidagi turli fermentlar ning yuqori faolligi, ozuqa moddalarining maksimal miqdori ta'minlanadi. Suli tarkibida avenantramid konsentratsiyasi unib chiqqandan keyin unib chiqishdan oldingi bilan solishtirganda sezilarli darajada oshadi [6].

Shuning uchun, suli boshqa o'simliklarga qaraganda ancha chidamli va zamonaviy o'simlik modelini o'zida mujassam etgan [4; 6].

Shunday qilib, suli o'ziga xos xususiyatlari kelgusi yillarda yangi funksional farmakologik vositalarni ishlab chiqish uchun bir nechta imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, suli (*Avena sativa* L.) va kashnich urug'i (*Coriandrum sativum* L.)ning turli kasalliklarni davolashdagi samarali ta'siri ularning faol birikmalar sinfiga boyligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keltirilgan ma'lumotlar o'simliklarni bioaktiv birikmalarining yuqori manbai ekanligini ko'rsatdi. Demak, ushbu o'simliklarni tarkibiy qismlarining turli kasalliklarga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abderrahmane A., Soumia Z., Zafar H.I., Badiâa L. Hypoglycemic and hypolipidemic effects of *Coriandrum sativum* L. in Meriones shawi rats // *Journal of Ethnopharmacology*. 2011.V.137(1). P.652-661.
2. Ahmed A.A., Eid A.Z., Hadeer A.M., Abdulmajeed F.A., Ahmed M.H., Hussain A., Abdulrahman A.A., Mohammed A., Salah M. El-B., Sultan K. The Impact of Addition Oats (*Avena sativa*) and Cinnamon on Cookies and their Biological Effects on Rats Treated with Cirrhosis by CCL4 // *Saudi Journal of Biological Sciences*. 2021. V.28. P.7142-7151.
3. Atefeh A., Hoori S.G., Golvaz V., Ziba F., Sedigheh A. Effect of Oat (*Avena sativa* L.) Consumption on Lipid Profile With Focus on Triglycerides and High-density Lipoprotein Cholesterol (HDL-C): An Updated Systematic Review // *Current Problems in Cardiology*. 2023. V.48(7). 101153. <https://doi.org/10.1016/j.cpcardiol.2022.101153>.
4. Darzian R., Aashari A., Jahandideh A., Mortazavi P., Akbarzadeh A. Effect of Oat (*Avena Sativa* L.) Extract of Experimental Sciatic Nerve Injury in Rats // *Archives of Razi Institute*. 2020. V.75(2). P. 249-256. DOI: 10.22092/ARI.2019.124805.1288.
5. Hend F.A., Raya A., Hassan B. Ameliorative and Antioxidative Potential of *Lactobacillus plantarum*-Fermented Oat (*Avena sativa*) and Fermented Oat Supplemented with Sidr Honey against Streptozotocin-Induced Type 2 Diabetes in Rats // *Antioxidants*. 2022. V.11.1122. <https://doi.org/10.3390/antiox11061122>.
6. Iwasaki K., Zheng Y.W., Murata S., Ito H., Nakayama K., Kurokawa T., Sano N., Nowatari T., Villareal M. O., Nagano Y. N., Isoda H., Matsui H., Ohkohchi N. Anticancer effect of linalool via cancer-specific hydroxyl radical generation in human colon cancer // *World Journal of Gastroenterology*. 2016. V.22. P.9765-9774.
7. Kern C., Gombert C., Roso A., Garcia C. Soothing effect of virgin coriander seed oil on sensitive skin // *OCL—Oilseeds and Fats, Crops and Lipids*. 2020. V.27. <https://doi.org/10.1051/ocl/2020043>.
8. Kükner A., Soyler G., Toros P., Dede G., Meriçli F., İşik S., Edebal O., Özoğul C. Protective effect of *Coriandrum sativum* extract against inflammation and apoptosis in liver ischemia reperfusion injury // *Folia Morphologica*. 2021. V.80. P.363-371. <https://doi.org/10.5603/FM.a2020.0060>.
9. Mechchate H., Es-Safi I., Amaghnoije A., Boukhira S. A., Alotaibi A., Nasr F. M., Noman O., Conte R., Amal E.H.E.Y., Bekkari H., Bousta D. Antioxidant, antiinflammatory and antidiabetic proprieties of LC-MS/MS identified polyphenols from coriander seeds // *Molecules (Basel, Switzerland)*. 2021. V.26(487). <https://doi.org/10.3390/molecules26020487>.
10. Nisa N.M., Said M., Long Ch.M., Hanis H.Z., Nurolaini K., Mei J.L., Md. Moklesur R.S., Yaser M.Al-W., Bey H.G., Shobna T., Hui P.G. *Coriandrum sativum* L.: A Review on Ethnopharmacology, Phytochemistry and Cardiovascular Benefits // *Molecules* 2022. V.27(209). <https://doi.org/10.3390/molecules27010209>.
11. Omar A., Afaf Al-N., Hamdi U., Hatice M.K., Canan V.S. Biosynthesis of silver nanoparticles using *Coriandrum sativum* L. extract and evaluation of their antibacterial, anti-inflammatory and antinociceptive activities // *South African Journal of Botany*. 2023. V.157. P.219-227.
12. Patel D., Desai S., Gajaria T., Devkar R., Ramachandran A.V. *Coriandrum sativum* L. seed extract mitigates lipotoxicity in raw cells and prevents atherogenic changes in rats // *EXCLI J*. 2013. V.12. P.313-334.
13. Sriraksa N., Kongsui R., Thongrong S., Duangjai A., Hawiset T. Effect of *Azadirachta indica* flower extract on functional recovery of sciatic nerve crush injury in rat models of DM // *Exp Ther Med*. 2019. V.17. P.541-550.
14. Storz M.A., Helle P. Oatmeal interventions in severe insulin resistance on the intensive care unit: A case report // *Complementary Therapies in Medicine*. 2019. V.46. P.69-72. <https://doi.org/10.1016/j.ctim.2019.07.019>.
15. Thuraisingam S., Sunilson J.A.J., Kumari A.V.A.G., Anandarajagopal K. Preliminary phytochemical analysis and diuretic activity of the extracts of *Coriandrum sativum* leaves in Wistar albino rats // *International Research Journal of Pharmacy and Medical Sciences*. 2019. V.3. P.1-3. <https://doi.org/10.5281/zenodo.3590183>.
16. World Health Organization. Cardiovascular Diseases. Available online: <https://www.who.int/health-topics/cardiovascular> (accessed on 25 September 2021).
17. Younossi Z.M. Non-alcoholic fatty liver disease-A global public health perspective // *J. Hepatol*. 2019. V.70. P.531-544.
18. Zahra S., Leila M., Mohammad S.A., Mahin R., Seyed A.E., Jesus S.G. Ethnobotanical and phytochemical aspects of the edible herb *Coriandrum sativum* L // *J.Food Sci*. 2022. V.87. P.1386-1422. DOI:10.1111/1750-3841.16085.



УДК:547.854.314:546.544.661

Саида МУРАТОВА,

Национальный Университет Узбекистана преподаватель кафедры «Общей и нефтегазовая химия»

E-mail: saidamuratova58@gmail.com

Суванкул НУРМАНОВ,

Национальный Университет Узбекистана д.т.н., профессор кафедры «Общей и нефтегазовая химия»

Рецензент: Д.Х.Мирхамитова, декан факультета металлургии и химических технологий Алмалыкского филиала ТГТУ имени И.А.Каримова, д.т.н., профессор.

ВЛИЯНИЕ НЕКОТОРЫХ ФАКТОРОВ НА КАТАЛИТИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ ВИНИЛОВЫХ ЭФИРОВ КАРБОНОВЫХ КИСЛОТ

Аннотация

Изучено реакции винилирования пеларгоновой, энантовой и валериановой кислот, выявлено влияния природы катализаторов и температуры на процесс гетерогенно-каталитического винилирования, который во всех случаях образуется их виниловые эфиры. В качестве катализатора использована ацетат цинка, ацетат кадмия, цинковой соль выбранных карбоновых кислоты, пропитанного оксида алюминия и активированного угля. Наблюдается, что в качестве носителя катализаторов оксид алюминия более активнее, чем активированный уголь. Это объясняется тем, что оксид алюминия является не только носителем, а также выполняет функцию активатора катализатора. Также выявлено, что цинковая соль использованной карбоновой кислоты является активным катализатором для винилирования именно данной кислоты. На основе проведенных исследований винилирования карбоновых кислот установлено, что с увеличением молекулярной массы алифатических карбоновых кислот выходы их виниловых эфиров значительно уменьшается. Валериановая кислота является более активной, чем энантовая и пеларгоновая кислоты. Выходы их виниловых эфиров составляет 57,2%, 63,4% и 79,3%, соответственно.

Ключевые слова: виниловые эфиры, реакции винилирование, гетерогенный катализ, карбоновые кислоты, пеларгоновая кислота, энантовая кислота, валериановая кислота, катализатор, оксид алюминия, активированный уголь.

THE INFLUENCE OF SOME FACTORS ON THE CATALYTIC SYNTHESIS OF VINYL ESTERS OF CARBOXYLIC ACIDS

Annotation

The study of the reaction of vinylation of pelargonic, enanthic and valeric acids and the influence of the nature of catalysts and temperature on the process of heterogeneous catalytic vinylation showed that in all cases their vinyl esters are formed. Based on the data of the study, it is observed that aluminum oxide is more active as a catalyst carrier than activated carbon. This is due to the fact that aluminum oxide is not only a carrier, but also performs the function of a catalyst activator. It was also found that the zinc salt of each carboxylic acid is an active catalyst for the vinylation of this particular acid. On the basis of the studies of vinylation of carboxylic acids, it was found that with an increase in the molecular weight of aliphatic carboxylic acids, the yields of their vinyl esters significantly decrease. Valeric acid is more active than enanthic and pelargonic acids. The yields of their vinyl esters are 57.2%, 63.4% and 79.3%, respectively.

Key words: vinyl esters, vinylation reactions, heterogeneous catalysis, carboxylic acids, pelargonic acid, enantiic acid, valerian acid, catalyst, aluminum oxide, activated carbon.

KARBON KISLOTA VINIL EFIRLARINING KATALITIK SINTEZIGA BA'ZI OMILLARNING TA'SIRI

Annotatsiya

Pelargon, enant va valerian kislotalarning vinillash reaksiyalari hamda katalizatorlar tabiati va haroratning geterogen katalitik vinillash jarayoniga ta'siri o'rganildi, barcha hollarda ularning vinil efirlari hosil bo'lishi aniqlandi. Katalizator sifatida rux asetat, kadmiy asetat, alyuminiy oksidi va faollangan ko'mirga shimdirilgan tanlangan karbon kislotalarning ruxli tuzi ishlatiladi. Tadqiqot ma'lumotlariga asoslanib, alyuminiy oksidi faollangan ko'mirga qaraganda katalizator tashuvchisi sifatida faolroq ekanligi kuzatiladi. Buning sababi, alyuminiy oksidi nafaqat tashuvchi, balki katalizator faollashtiruvchisi vazifasini ham bajaradi. Bundan tashqari, har bir karbon kislotalarning ruxli tuzi ushbu kislotalarning vinillash uchun faol katalizator ekanligi aniqlandi. Karbon kislotalarning vinillanishini o'rganish asosida alifatik karbon kislotalarning molekulyar og'irligi oshishi bilan ularning vinil efirlarining unumi sezilarli darajada kamayishi aniqlandi. Valerian kislota enant va pelargon kislotalarga qaraganda faolroq. Ularning vinil efirlarining unumi mos ravishda 57,2%, 63,4% va 79,3% ni tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: vinil efirlar, vinillash reaksiyalari, geterogen kataliz, karbon kislotalar, pelargon kislota, enant kislota, valerian kislota, katalizator, alyuminiy oksidi, faollangan ko'mir.

Введение. Сегодня с помощью современных инновационных технологий, основанных на диверсификации нефтегазовой отрасли, получают различные органические соединения с биологически активными и другими уникальными свойствами [1]. Введение винильной группы в состав органических соединений занимает особое место и осуществляется главным образом, с использованием ацетилена и ряд других его производных. При этом полученные виниловые соединения, в основном применяются для синтеза полимеров с различными ценными физико-химическими и эксплуатационными свойствами, используемых в медицине, радиотехнике, химической промышленности [2-5].

Для получения сложных виниловых эфиров широко распространенным способом является гомогенно- или гетерогенно-каталитического винилирование карбоновых кислот ацетиленом в присутствии гетерогенных катализаторов. При гомогенных условиях процесс проводится атмосферных и высоких давлениях, а гетерогенных условиях осуществляется в потоке при атмосферном давлении. Виниловые эфиры карбоновых кислот обладают адгезионными свойствами, и полимеры на их основе в основном используются в производстве клеев и материалов для покрытия различных поверхностей [6]. Они обладают биологической активностью и используются в медицине для лечения различных заболеваний, открытых ран, болеутоляющих средств, растворителей в качестве исходного сырья для многих препаратов [7], эмульгаторы для эмульсионных красок, соединения, улучшающие вязкость смазочных масел, используемые в качестве сшивающих агентов в резинотехнической промышленности [8].


Необходимо отметить, что в Узбекистане последние годы увеличилась добыча нефти. Большое значение и будущее имеет извлечение из состава нефти гетероатомных соединений, таких как жирные карбоновые кислоты, и их последующая переработка [9,10].

Цель: Изучение влияния температуры и природы катализаторов на реакцию гетерогенно-каталитического винилирование некоторых карбоновых кислот – (пеларгоновой, энантовой и валериановой кислот).

Для сопоставления механизма винилирования карбоновых кислот в качестве объектов исследования отличающихся структурой, взяты пеларгоновая, энантовая и валериановые кислоты.

Материалы и методы исследования: Гетерогенно-каталитическая винилирование кислот проводилась в вертикально расположенном газофазном проточном реакторе из кварца в присутствии катализаторов на основе ацетатов цинка и кадмия, а также цинковой соли вышеуказанных кислот нанесенный на активированный уголь и оксид алюминия.

Результаты и их обсуждение: Проведена реакция ацетилена с карбоновыми кислотами: пеларгоновой, энантовой, валериановой кислот. Определено, что во всех случаях образуются виниловые эфиры вышеуказанных карбоновых кислот с различными выходами. Реакция протекает по схеме:



где R = - C₈H₁₇, C₆H₁₃, C₄H₉.

При этом полученные результаты приведены в табл.1.


Таблица 1

Влияние природы катализатора на реакцию винилирования пеларгоновой кислоты (мольное соотношение пеларгоновая кислота:C₂H₂ = 1:4-5, температура 300 °C)

№	Катализатор	Выход винилового эфира пеларгоновой кислоты (%)
1.	Al ₂ O ₃	-
2.	Активированный уголь/Zn(CH ₃ COO) ₂	33,2
3.	Al ₂ O ₃ /Zn(CH ₃ COO) ₂	51,3
4.	Al ₂ O ₃ /Cd(CH ₃ COO) ₂	37,4
5.	Активированный уголь/Zn(C ₈ H ₁₇ COO) ₂	43,8
6.	Al ₂ O ₃ /Zn(C ₈ H ₁₇ COO) ₂	55,4

Среди использованных катализаторов для винилирования пеларгоновой кислоты наиболее активным является катализатор на основе цинковой соли пеларгоновой кислоты, в присутствии которого выход винилового эфира пеларгоновой кислоты составляет 55,4%. В случае применения ацетатов цинка и кадмия выход продукта составляет соответственно 51,3 и 37,4%.

Механизм образования винилового эфира энантовой кислоты в присутствии катализатора на основе цинковой соли энантовой кислоты следующий: сначала ацетилен адсорбируется на ионы цинка (активные центры катализатора) с образованием π-комплекса, далее происходит внутрикомплексная атака активированной молекулы ацетилена с молекулой энантовой кислоты, которой далее с разложением образуя его виниловый эфир и свободный катализатор:



Для определения влияния природы карбоновых кислот на их винилирование изучена реакция ацетиленом энантовой кислоты с участием катализаторов: ацетат цинка нанесенный на активированный уголь; ацетат цинка и кадмия а также цинковой соли энантовой кислоты, нанесенный на оксида алюминия. При этом получены следующие результаты (табл.2).

Таблица 2

Влияние природы катализатора на реакцию винилирования энантовой кислоты (мольное соотношение энантовой кислоты:C₂H₂ = 1:5, температура 300 °C)


№	Катализатор	Выход винилового эфира энантовой кислоты (%)
1.	Al ₂ O ₃	5,0
2.	Активированный уголь/Zn(CH ₃ COO) ₂	43,4
3.	Al ₂ O ₃ /Zn(CH ₃ COO) ₂	61,8
4.	Al ₂ O ₃ /Cd(CH ₃ COO) ₂	52,7
5.	Активированный уголь/ Zn(C ₆ H ₁₃ COO) ₂	54,2
6.	Al ₂ O ₃ /Zn(C ₆ H ₁₃ COO) ₂	63,4

Полученные результаты показали, что при винилировании энантовой кислоты в присутствии катализатора оксида алюминия с незначительным выходом образуется виниловый эфир энантовой кислоты. При проведении процесса в присутствии катализатора ацетата цинка, нанесенного на активированный уголь, виниловый эфир энантовой кислоты образуется с выходом 43,4%. С участием катализаторов ацетаты цинка и кадмия выход продукта увеличивается и соответственно составляют 61,8 и 52,7%. Это объясняется тем, что ионы цинка активнее, чем ионы кадмия и при осуществлении процесса ацетилен активнее взаимодействует с цинком, чем с кадмием. Также наблюдается, что в качестве носителя катализаторов оксид алюминия более активнее, чем активированный уголь. Например, при использовании $Zn(C_6H_{13}COO)_2$ нанесенной на активированного угля и Al_2O_3 выход винилового эфира составляет 54,2 и 63,4% соответственно. Это объясняется тем, что оксид алюминия является не только носителем, а также выполняет функцию активатора катализатора.

Известно, что гетерогенно-каталитические реакции осуществляются при высоких температурах и это существенно влияет на выходы образующихся продуктов. Исходя из этого также исследовано влияние температуры на выход винилового эфира пеларгоновой, энантовой и валериановой кислот в присутствии наиболее активного катализатора на основе цинковой соли вышеуказанных кислот. (таблицы 3-5).

Таблица 3

Влияние температуры на выход винилового эфира пеларгоновой кислоты (катализатор $Al_2O_3/Zn(C_8H_{17}COO)_2$)



Из данных (табл. 3) следует, что при 230 °C выход винилового эфира составляет 15,6 %. С увеличением температуры до 320 °C выход последнего увеличивается и доходит до 57,2%. Дальнейшее увеличение температуры приводит к снижению его выхода.

Таким образом, для получения винилового эфира пеларгоновой кислоты реакцией ацетилена с этой кислотой оптимальными условиями являются: катализатор $Al_2O_3/Zn(C_8H_{17}COO)_2$, температура 320 °C.

Таблица 4

Влияние температуры на выход винилового эфира энантовой кислоты. (катализатор $Al_2O_3/Zn(C_6H_{13}COO)_2$)





Таблица 5

Влияние температуры на выход винилового эфира валериановой кислоты (катализатор $Al_2O_3/Zn(C_4H_9COO)_2$)



Сопоставление полученных результатов при винилировании пеларгоновой, энантовой и валериановой кислоты показало, что выход винилового эфира валериановой кислоты преобладает над выходом винилового эфира пеларгоновой и энантовой кислоты. Это объясняется тем, что при процессе образования винилового эфира основной

стадией является адсорбция ацетилена на поверхности катализатора и этот процесс благоприятно происходит в присутствии валериановой кислоты.

Таким образом, на основе проведенных исследований винилирования карбоновых кислот установлено, что валериановая кислота является более активной, чем пеларгоновая и энантовая кислота. Выходы их виниловых эфиров составляет 57,2, 63,4 и 79,3%, соответственно. Также выявлено, что цинковая соль каждой карбоновой кислоты является активным катализатором для винилирования именно данной кислоты.

ЛИТЕРАТУРА

1. Зиядуллаев О.Э., Нурманов С.Э., Абдурахманова С.С. "Ацетилен спиртлари: олиниси, хоссалари, қўлланиши". Монография. Тошкент-2017, 3-5 б.
2. Трофимов Б.А.-В кн.:Тезисы и доклады VII Всесоюзный конференции по химии ацетилена. Ереван: Изд. АН Армен. ССР, 1984, с. 28.
3. Шостаковский М.Ф. Химия ацетиленовых соединений. Москва, Наука, 1988. 328 с.
4. Юсупова Л.А., Нурмонов С.Э., Эргашев Ё.Т. « Синтез виниловых эфиров на основе метилэтилкетона и циклагексанонона». UNIVERSUM: Химия и биология. 2020 г. Ноябрь. №11.
5. Нурманов С.Э., Геворгян А.М., Матмуратов Ш.А., "Синтез винилфенилового эфира и применение его в качестве аналитического реагента". Журнал прикладной химии, Ленинград, 2002,Т.75, вып.3. с. 441-493.
6. С.Х.Муратова,С.Э.Нурманов, У.Умаралиев, В.Г.Калядин "Каталитическое винилирование уксусной кислоты ацетиленом". ГулДУ ахборотномаси. 2003 й.№4 98-100 б.
7. Parmanov A.B., Nurmanov S.E., Phayzullaeva M.Ph., Abdullaev J.U., Soliev M.I. "Syntesis of vinyl esters of some Carbonic Acids". Austrian journal Texnic and Natural Science 2017 y. №1-2 129-132 p.
8. А.Б.Парманов, С.Э.Нурманов, М.И.Мавлоний «Синтез винилового эфира миндальной кислоты». Узбекский химический журнал, 2018 г. №4 с.42-47.
9. Бродская Е.С. «Нефтяные и синтетические нефтяные кислоты, их свойства и применение». Журнал орг. хим. – 1999. –Т.35, Вып.2. – С.221-226.
10. Наметкин Н.С., Егорова Г.М., Хамаева В.Х. «Нафтенновые кислоты и продукты их химической переработки». Химия. – 1982. – С.182-186.



Sitorabonu MURODOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: murodovasitorabonu98@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti Nazarov Otabek Mamadaliyevich taqrizi asosida

ORGANIK KIMYODA "AROMATIK UGLEVODORODLARNING NOMLANISHI, IZOMERIYASI VA OLINISH USULLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY KIMYOVIY KOMPYUTER DASTURLARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Mazkur maqolada oliy o'quv yurtlarida organik kimyo fanida "aromatik uglevodorodlarning nomlanishi, izomeriyasi va olinish usullari" mavzusini o'qitishda an'anaviy va noan'anaviy uslublar yordamida o'tilgan darsda talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhokama qilingan. Shuningdek kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: "chem draw", "chem 3D", optimallashtirish, izomerlar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ХИМИЧЕСКИХ КОМПЬЮТЕРНЫХ ПРОГРАММ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ "НАИМЕНОВАНИЕ, ИЗОМЕРИЯ И СПОСОБЫ ПОЛУЧЕНИЯ АРОМАТИЧЕСКИХ УГЛЕВОДОРОДОВ" В ОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ

Аннотация

В данной статье обсуждались показатели усвоения учащимися урока, проведенного с использованием традиционных и нетрадиционных методик преподавания темы "наименование, изомерия и способы получения ароматических углеводородов" в органической химии в высших учебных заведениях. Также была проанализирована эффективность использования химических компьютерных программ.

Ключевые слова: "chem Draw", "Chem 3D", оптимизация, изомеры.

THE USE OF MODERN CHEMICAL COMPUTER PROGRAMS IN TEACHING THE TOPIC "NAME, ISOMERISM AND METHODS FOR PRODUCING AROMATIC HYDROCARBONS" IN ORGANIC CHEMISTRY

Annotation

This article discusses the indicators of student appropriation in the lesson, which is indicated using traditional and non-traditional methods in teaching the topic "naming, isomerization and methods of obtaining aromatic hydrocarbons" in organic chemistry in higher education institutions. The effectiveness of the use of chemical computer programs has also been analyzed.

Keywords: "chem draw", "chem 3D", optimization, isomers.


Kirish. Bugungi kunda kompyuterlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanganligi sababli, o'quv jarayonida kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keng muhokama mavzusiga aylandi. Shubhasiz, kompyuter vositalari o'quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirish va ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'quv jarayoniga yangi usullar va tashkiliy shakllarni joriy etish, yangi ta'lim muhitini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi [1].

Ayni damda kompyuterlar zamonaviy kimyoning deyarli barcha sohalarida nazariy va eksperimental tadqiqotlar uchun ishlatiladi, bu kimyoning boshqa ko'plab sohalariga qaraganda kompyuter kimyosi kompyuter texnologiyalarining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bunday bog'liqlik grafik nazariyasining eng muhim algoritmlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Kompyuter kimyosi darslarida talabalar nafaqat kompyuter va uning imkoniyatlari bilan, balki ChemOffice, HyperChem, DRAGON, Spartan va boshqalarning integratsiyalashgan dasturiy tizimlari bilan tanishadilar, ulardagi ma'lumotlar talabanning dunyoqarashi va qobiliyatlarini professional darajada kengaytiradi.

Tadqiqodlar metodologiyasi. Organik kimyo fanining "aromatik uglevodorodlarning nomlanishi, izomeriyasi va olinish usullari" mavzusini talabalarga tushuntirishda dastlab 2 ta guruh tanlab olindi va ularning biriga an'anaviy uslubda, ikkinchisiga esa noan'anaviy uslubda darslar o'tildi. Noan'anaviy uslubda dars o'tishda quyidagi usullar qo'llanildi:


1. Benzol va benzol gomologlarining tuzilish formulalari talabalarga tushuntirildi va har bir talabaga benzol qatori uglevodorodlarining tuzilish formulalari mustaqil ishlash uchun vazifalar sifatida berildi. Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

2. Chem Draw, Chem 3D, Gausview, Hyperchem kimyoviy dasturlari haqida va ularda ishlash tartibi to'g'risida ma'lumotlar berildi. Mustaqil ishlash uchun berilgan topshiriqlarni bajarish uchun vaqt berildi va natijalar qabul qilindi.



1-rasm. Chem Draw dasturida aromatik uglevodorodlarning tuzilish formulalarini yozish

Organik kimyoni o'rganishning dastlabki bosqichlarida molekularning fazoviy tuzilishi haqidagi ma'lumotlar talabalarga katta qiyinchilik tug'diradi. Kimyo darsliklarida organik moddalar molekularining tuzilishiga oid bir nechta rasmlar mavjud. Chizma tekis va ikki o'lchovli bo'lgani uchun, fazoviy tasviri o'ylash, tasavvur qilish kerak. Ob'ektlarni interaktiv uch o'lchovli tasvirlash texnologiyasi sizga kerakli harakatlarni boshingizda emas, balki to'g'ridan-to'g'ri ekranda bajarishga va natijani darhol ko'rishga va uni taqdim etishga imkon bermaydi. Talabalarning asosiy tushunchalarni tushinishi uchun bunday texnologiyaning o'quv jarayonidagi o'rni bebahodir. Ma'ruzalar paytida slayd-filmardan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan dinamizm, vizualizatsiya, yuqori daraja va ma'lumot miqdorini ta'minlaydi [3].



2-rasm. Chem 3D dasturida aromatik uglevodorodlarning 3D formulalari.

2-rasmda aromatik uglevodorodlarning shar sterjenli 3D tasvirlari ko'rsatilgan. Bunday kimyoviy dasturlardan darslarda foydalanish talabalarning organik kimyo va organik birikmalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, dunyoqarashlarini boyitishga, hamda ular haqida yanada ko'proq ma'lumotlar olishga imkon beradi.


Tahlillar va natijalar. Oliy ta'lim muassasalarida organik kimyo fanini o'qitishda kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanib o'tilgan darsdan quyidagicha natijalar olindi:

➤ An'anaviy usulda o'qituvchi tomonidan talabalarga berilgan topshiriqni qay darajada bajarib kelganlar soni va umumiy talabalar soni (1-jadval).

№	Talabalar soni	Topshiriqni aniq bajargan talabalar soni	Xato bajarib kelganlar	Bajara olmaganlar
1	27	11	9	7

1-jadval

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy ta'limda guruhdagi 27 nafar talabadan 11 tasigina mavzuni to'liq tushungan deb olish mumkin. Bunda o'zlashtirish ko'rsatgichi 45% ni tashkil qiladi.




1-diagramma. An'anaviy uslubda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichlari

➤ Noan'anaviy uslubda kompyuter dasturi vositasida tushuntirilib, dasturdan foydalanish o'rgatilganidan keyin natijalar qayd etildi va o'zlashtirish ko'rsatgichlari o'rganildi (2-jadval).

№	Talabalar soni	Topshiriqni aniq bajargan talabalar soni	Xato bajarib kelganlar	Bajara olmaganlar
1	27	25	1	1


2-jadval

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy ta'limda guruhdagi 27 nafar talabadan 25 nafari mavzuni to'liq tushungan deb olish mumkin. Bunda o'zlashtirish ko'rsatgichi 92% ni tashkil qiladi.



2-diagramma. Noan'anaviy uslubda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichlari

Bu natijalarni solishtiradigan bo'lsak, kompyuter dasturlarni qo'llaganda yuqoriroq natija qayd etildi:



3-diagramma. An'anaviy va noan'anaviy usublardan olingan natijalar

3-diagrammaga ko'ratilganidek, an'anaviy darsda 27 nafar talabadan 11 nafar talaba topshiriqni to'g'ri va xatosiz bajargan bo'lsa, kimyoviy kompyuter dasturlaridan foydalanib tushuntirilganda esa bu ko'rsatkich 25 nafarga yetgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, organik kimyo darslarida axborot texnologiyalar va elektron ta'limdan uyg'un foydalanish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning ehtiyoji va qiziqishiga muvofiq bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, o'zini-o'zi nazorat qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Дорофеев М.В. Информатизация школьного курса химии // Химия. (ИД «Первое сентября»). – 2002. – № 37.
2. Абдукодиров А.А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 180 б.
3. A.G. Yeshimbetov, A.X. Xaitbayev, S.A. Maulyanov, H.S. Toshov. Kompyuter kimyosi, Toshkent-2015. – 133 b.
5. В.Ф. Травень. Электронная структура и свойства органических молекул. Москва, химия, 1989, 384 с.
6. В.А. Блатов, А.П. Шевченко. Методы компьютерной химии и комплекс программ HYPERCHEM. Самара, Изд-во Самарский университет, 1999.



UDK: 541.64: 661.

Muslimbek MURTOZAQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: muslimbekmurtazaqulov@gmail.com
Yusufjon FAYZULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Xurshida USMONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
Davron BEKCHANOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d
Muxtarjon MUHAMEDIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, k.f.d

CHDPI ilmiy va metodologik kimyo kafedrası PhD S. Xushvaqtov taqrizi asosida

PURIFICATION OF DECOMPOSITION PRODUCTS OF ALKANOLAMINES USED IN NATURAL GAS CLEANING

Аннотация

This article reviews some of the parameters that affect the corrosivity of alkanolamine solvents used for natural gas treatment. Analysis shows that methyldiethanolamine decomposition products increase the corrosive activity of alkanolamine solutions. Purification of working solutions of methyldiethanolamine in ion-exchange resins, thermostable salts, chlorine ions and solutions leads to a significant decrease in electrical conductivity. This shows the urgency of developing new effective methods for cleaning alkanolamine solutions from impurities.

Key words: alkanolamines, cracking, absorption, purification, sour gas, natural gas and oil refinery, heat resistant salts, ion exchange resins.

РАЗЛОЖЕНИЕ АЛКАНОЛАМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ОЧИСТКЕ ПРИРОДНЫХ ГАЗОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются некоторые параметры, влияющие на коррозионную активность алканоламиновых растворителей, используемых для очистки природного газа. Анализ показывает, что продукты разложения метилдиэтаноламина повышают коррозионную активность растворов алканоламинов. Очистка рабочих растворов метилдиэтаноламина в ионообменных смолах, термостабильных солях, ионах хлора и растворах приводит к значительному снижению электропроводности. Это показывает актуальность разработки новых эффективных методов очистки растворов алканоламинов от примесей.

Ключевые слова: алканоламины, крекинг, абсорбция, очистка, высокосернистый газ, газо- и нефтепереработка, термостойкие соли, ионообменные смолы.

TABIY GAZNI TOZALASHDA ISHLATILGAN ALKANOLAMINLARNI PARCHALANISH MAHSULOTLARIDAN TOZALASH

Аннотация


Ushbu maqolada tabiiy gazni tozalash uchun ishlatiladigan alkanolamin erituvchilarning korrozivligiga ta'sir qiluvchi ba'zi parametrlarni ko'rib chiqishdir. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, metildietanolamin parchalanish mahsulotlari alkanolamin eritmalarning korroziv faolligini oshiradi. Metildietanolaminning ishchi eritmalarini ion almashinadigan qatronlarda tozalash, termostabil tuzlar, xlor ionlari va eritmalarning elektr o'tkazuvchanligini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Bu esa alkanolamin eritmalarini aralashmalardan tozalashning yangi samarali usullarini ishlab chiqish dolzarbligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlari: alkanolaminlar, parchalanish, yutilish, tozalash, nordon gaz, tabiiy gaz va neftni qayta ishlash zavodi, issiqlikka bardoshli tuzlar, ion almashinadigan smolalar.

Kirish. Jahon iqtisodiyoti va sanoatining rivojlanishi tufayli tabiiy gazga bo'lgan talab keskin oshmoqda. AQSh Energetika ma'lumotlari ma'muriyati (EIA) iqtisodiy faollikning oshishi va sayohat cheklavlari bilan 2020 va 2050 yillar orasida tabiiy gazdan foydalanishning 30% ga o'sishini bashorat qildi [1]. Darhaqiqat, tabiiy gazga bo'lgan talabning bashorati neftga bo'lgan talabga nisbatan barqarorroq ko'rinadi. Tabiiy gazga bo'lgan talabning tiklanishi va 2050 yilga borib qariyb 5300 mlrd kubometr gacha oshishi kutilmoqda [2]. Tabiiy gaz asosan ikkita kislotali oksid bilan ifloslangan bo'lib, hozirgi vaqtda gaz konlarida CO₂ va H₂S miqdori mos ravishda 90% va 15% gacha bo'ladi. Tabiiy gazdan CO₂ va H₂S ni olib tashlash ularning korroziv tabiati, tabiiy gazning past isitish qiymati va issiqxona gazining ta'siri tufayli juda muhimdir. Tabiiy gazni yutish, adsorbsiya, membrana va kriogen ajratish kabi tozalash texnologiyalari mavjud. Ushbu texnologiyalarning deyarli barchasida eng ko'p ishlatiladigan jarayon CO₂ va H₂S bilan afzalroq reaksiyaga kirisha oladigan alkanolamin asosidagi kimyoviy erituvchilardan (masalan, monoetanolamin MEA, dietanolamin DEA, metildietanolamin MDEA) foydalanadi. Barcha alkanolaminlar orasida MDEA parchalanishga eng chidamli hisoblanadi. MDEA azotga biriktirilgan vodorod atomiga ega emas va karbamat hosil qilish uchun CO₂ bilan bevosita reaksiyaga kirisha olmaydi. CO₂ bilan reaksiya faqat CO₂ suvda eriganidan keyin bikarbonat radikalini hosil qilgandan so'ng sodir bo'lishi mumkin. So'ngra amin bilan reaksiyaga kirishadi. MDEA

birlamchi va ikkilamchi aminlardan proton o'tkazish mexanizmi orqali H₂S bilan reaksiyaga kirishishi mumkin. Ammo alkanolaminlar qayta-qayta ishlatish natijasida parchalanishni boshlaydi. Barcha aminlar va alkanolaminlar, shuningdek ularning parchalanish mahsulotlari ekologik toza emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki MEA, DEA, MDEA, AMP va boshqalar kabi alkanolaminlar parchalanishi atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatadi [3]. Alkanolamin parchalanish mahsulotlarining hosil bo'lishi SO₂ va CO₂ gazlarini singdirish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan MEAdan CO₂ ning o'tkazish tezligini pasaytirganligi va parchalanish mahsulotlari tarkibida oksalat kislotasi, eng muhimi chumoli kislotasi va sirka kislotasi mavjud bo'lishi mumkin [4].

MDEA molekulasini termostabil qatronlar (TSQ), dietanolamin (DEA), metilmonoetanolamin (MMEA) va bisinga parchalanadi. Bis-(gidroksietil) glisin (bisin) DEA va beqaror kimyoviy oraliq mahsulotlar ishtirokida hosil bo'lgan parchalanish mahsulotidir. Bu korroziv modda hisoblanadi. MMEA, MDEA parchalanishi paytida hosil bo'ladigan oddiy aminlardan biridir. Chunki MMEA to'g'ridan-to'g'ri CO₂ bilan reaksiyaga kirishadigan ikkilamchi amin bo'lib, eritmaning yutish qobiliyatini pasaytiradi [5]. MDEA ning CO₂ bilan parchalanish mexanizmi Klossmann tomonidan o'rganilgan (1-rasm)[6]. DEA, shuningdek, MDEA dan hosil bo'lgan va CO₂ bilan to'g'ridan-to'g'ri reaksiyaga kirishib, eritmaning yutish qobiliyatini kamaytiradigan oddiy ikkilamchi aminlardan biridir. Bisin - aminokislota bo'lib, u O₂ yoki SO₂ borligida aminning parchalanishi natijasida yuzaga keladi. DEA, trietanolamin (TEA) va MDEA ushbu komponentlardan birini o'z ichiga olgan amin eritmalari uchun parchalanish kuzatiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, O₂ yoki SO₂ ning past darajalarida ham amin tizimlarida bisin sekin, lekin uzluksiz hosil bo'ladi. Uskunani korroziyaga olib keladigan bisin miqdorini shakllantirish bir necha hafta davom etadi. Shakllanish mexanizmidan qat'i nazar, bisin hosil bo'lishini quyidagicha ta'riflash mumkin: oksidlovchi moddalar O₂, SO₂ ishtirokida, vaqt o'tishi bilan qizdirilganda, alkanolaminidan bisin, boshqa aminokislotalar, formatlar, asetatlar, DEA, TEA hosil bo'ladi [7].



1-rasm CO₂ ishtirokida MDEA ning parchalanishi

Alkanolamin gazini tozalashdagi korroziya rejasiz ishlamay qolishlarga, ishlab chiqarish yo'qotishlariga va uskunaning ishlash muddatini qisqartirishga olib keladi. Korroziyani bartaraf etish mumkin emas, lekin uni nazorat qilish va minimallashtirish mumkin.

Mualliflarning fikriga ko'ra, alkanolaminlarda uchraydigan korroziyaning asosiy turlari: umumiy, galvanik, intergranulyar, eroziya, korroziya va vodorod yorilishi [8]. Sof amin eritmalarida uglerod po'latining yuzasida FeS ning himoya qatlami uni keyingi korroziyadan himoya qiladi. Bisinning mavjudligi himoya qatlamining yo'q qilinishiga olib keladi yoki qatlam umuman hosil bo'lmaydi. Bisin kuchli xelatlashtiruvchi vosita bo'lib, temirni erigan holatda ushlab turadi va FeS qatlamining barqarorligini zaiflashtiradi. Vodorod sulfidsiz amin eritmasidagi bisin uglerod po'latining korroziyasiga olib kelmaydi.



Bisin borligida vodorod sulfidi korroziv vositadir. Sanoatda muhim alkanolaminlar MMA, MEA, DEA, va MDEA hisoblanadi. Ma'lum bo'lgan barcha erituvchilar orasida MEA CO₂ ni ushlab xususiyatlari (past narx, suvda eruvchanligi, yuqori yutish qobiliyati) tufayli asosiy molekula hisoblanadi. Biroq, alkanolaminlar yordamida kimyoviy assimilyatsiya qilish bilan bog'liq asosiy muammo CO₂, H₂S va O₂ bilan qaytarilmas yon reaksiyalar orqali parchalanishdir. Bu jarayon bilan bog'liq ko'plab muammolarga olib keladi: erituvchini yo'qotish, ko'piklanish, ifloslanish, yopishqoqlikning oshishi va korroziya. Alkanolamin asosidagi tozalash zavodi tirik organizmlar uchun juda zararli bo'lgan ko'plab zaharli uchuvchi mahsulotlarni chiqaradi. Demak, har tomonlama e'tiborga olgan holda, parchalanish mahsulotlarining atrof-muhitga ta'siri, shuningdek, ushbu sohadagi keyingi tadqiqotlar haqida o'ylashimiz kerak. Maqolalarning aksariyatida nordon gazlarning issiqxona ta'siri ta'kidlangan. Qattiq mahsulotlar va qattiq issiqlikka bardoshli tuzlarning hosil bo'lishi quvurlarda, issiqlik almashtirgichlarda va qozonlarda iflos qatlamlarni hosil qilishi mumkin. Natijada, bosim pasayadi va issiqlik uzatish koeffitsienti pasayadi, bu esa umumiy energiya xarajatlarining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, alkanolaminlarning parchalanishini o'rganish zavodning muvaffaqiyatli ishlashi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har qanday qattiq moddalarni olib tashlash uchun samarali filtrlashni ta'minlash tavsiya etiladi.

Ion almashinadigan qatronlar yordamida amin eritmalarini tozalash usuli energiya va texnologik samaradorlik nuqtai nazaridan katta qiziqish uyg'otadi. Ion almashinadigan qatronlar TST (termostabil tuzlar) ni olib tashlashga imkon beradi (asosan: formatlar, asetatlar, karbonatlar, sulfatlar, bisinlar, xloridlar, oksalatlar, fosfatlar, tiosulfatlar, tiosianatlar). Ma'lumki, xloridlar yoriqlar va chuqur korroziyaga yordam beradi, shuningdek, regeneratsiya paytida yo'q qilinmagan amin bilan termal kuchli birikmalar hosil qiladi. Tiosulfatlar aminning parchalanishiga yordam beradi va tiosianatlar, sianatlar va bisinlar temirni sirtidan xelatlaydi. Sulfatlar, fosfatlar va formatlar amin eritmalari uchun ballast hisoblanadi, chunki aminni bog'laydi yoki so'rilish jarayonida kislotasi bilan reaksiyaga kirishmaydi.

MDEA eritmasini ion almashinuvi qatronida tozalash jarayonida ishlatiladigan xom ashyo. Tozalash ion almashinuvi xromatografiyasi kolonnasi orqali amalga oshirildi, unga Rossiyada ishlab chiqarilgan AN-31 markali anion almashinadigan qatron quyildi. Ion almashinuvi qatroni oldindan faollashtirilgan. Yangi anion almashtirgich distillangan suv bilan to'ldiriladi va 7

soat davomida saqlanadi. Shundan so'ng suv to'kib tashlanadi va 0,1N li KOH eritmasi quyiladi. Aralashma 24 soat ushlab turiladi, rangli KOH eritmasi quyiladi va anion almashtirgich distillangan suv bilan 3 marta dekantatsiya qilinib yuviladi. Keyin KOH eritmasi qayta to'ldiriladi. Anion almashtirgich ustidagi KOH eritmasi sarg'ayishdan to'xtaguncha jarayon takrorlandi. Ishqor bilan oxirgi ishlovdan so'ng anion almashtirgich $\text{pH} = 7$ ga qadar distillangan suv bilan yuviladi. Muhitning pH qiymati aniqlandi. pH 7 dan 8 va undan yuqoriga o'tganda, eritmaning namunasi olindi. Bundan tashqari, eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi tozalashdan oldin va keyin aniqlangan. Ifloslantiruvchi moddalar mavjudligining bilvosita alkanolamin eritmasidagi elektr o'tkazuvchanligi ta'sir ko'rsatadi [9,10].

TST tarkibini aniqlashning mohiyati KU-2-8 ion almashinuvi qatroni (kation almashinuvchisi) va alkanolamin eritmasi o'rtasidagi ion almashinuvidir, buning natijasida MDEA molekullari ion almashinadigan qatorda qoladi va anionlar ion almashinuviga aylanadi.

Eritmani ion almashinuvi qatroni yordamida tozalashdan so'ng, namuna TST tarkibini 12 marta, xlor ionlari tarkibini 26 marta va elektr o'tkazuvchanligini 4 marta kamaytirishi kuzatiladi. Shunday qilib, laboratoriya tadqiqotlari asosida uglevodorod gazlarini oltinugurt birikmalaridan tozalash uchun ishlatiladigan MDEA eritmalarida oltinugurtdan tozalash darajasini yomonlashtiradigan va amin eritmalarining korroziy faolligini oshiradigan katta miqdordagi aralashmalar mavjudligi aniqlandi. Eritmalarni ion almashinuvi bilan tozalash, ulardagi kiruvchi birikmalarining tarkibini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Alkanolamin parchalanish mahsulotlarida gazni tozalash jarayonining texnologik ko'rsatkichlariga turli xil ta'sir ko'rsatadigan eritmalarida hosil qilib, uskunalarining tez korroziyasiga ham olib keladi. Bugungi kunda bu muammolarni eritmaga ko'pikka qarshi moddalar, korroziyaga qarshi qo'shimchalar, neytrallashtiruvchi moddalar yoki yangi erituvchi qo'shish orqali hal qilish odatiy holdir. Biroq, bu qo'shimchalar amin eritmasining kimyoviy xususiyatlarini o'zgartiradi va shu bilan vaziyatni yomonlashtiradi. Yopishqoqlik, sirt tarangligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, elektr o'tkazuvchanligi qo'shimchalar va ifloslantiruvchi moddalar mavjudligida o'zgarib turadigan muhim xususiyatlardan biridir. Shunday qilib, alkanolamin eritmasidan ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash Metildietanolaminning ishchi eritmalarini ion almashinadigan smolada tozalashdan so'ng termostabil tuzlar, xlor ionlari va eritmalarning elektr o'tkazuvchanligi sezilarli darajada pasayganligi ko'rsatilgan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar alkanolamin eritmalarini ion almashinadigan qatronlar yordamida aralashmalardan tozalash samarali qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR

1. U.S. Energy Information Administration. International Energy Outlook 2021 - With Projections to 2050. 2021. Available online: <https://www.eia.gov/outlooks/ieo> (accessed on 13 December 2021).
2. BP p.l.c. Energy Outlook 2020 Edition. 2020. Available online: <https://www.bp.com/en/global/corporate/news-and-insights/press-releases/bp-energy-outlook-2020.html> (accessed on 13 December 2021).
3. Eide-Haugmo I, Brakstad OG, Hoff KA, Sørheim KR, Silva EFD, Svendsen HF (2009). Environmental impact of amines. GHGT-9, 1: 1297-1304.
4. Franco JA, Montigny D, Kentisha SE, Perera JM, Stevens GW (2009). Effect of amine degradation products on the membrane gas absorption process. Chem. Eng. Sci., 64: 4016-4023
5. M. S. Islam, R. Yusoff, B. S. Ali, M. N. Islam and M. H. Chakrabarti Degradation studies of amines and alkanolamines during sour gas treatment process // International Journal of the Physical Sciences. 2011. Vol. 6(25). P. 5877-5890.)
6. Closmann F (2009). Solvent degradation MEA and MDEA/PZ blends systems. Website Closmann F, Nguyen T, Rochelle GT (2009). MDEA/Piperazine as a solvent for CO₂ capture. Energy Procedia 1: 1351-1357.
7. Critchfield, J.E. and Jenkins, J.L. Evidence of MDEA degradation in tail gas treating plants // Petroleum Technology Quarterly. Spring 1999.P. 87-95. 8. Kohl, Arthur and Nielsen, Richard. Gas Purification. Fifth Edition. 1997.P. 233.
8. M.S. DuPart, T.R. Bacon and D.J.Edwards. Understanding corrosion in alkanolamine gas treating plants // Hydrocarbon Processing. May 1993.P. 89-94.
9. Патент США US5162084.
10. Патент США US5208164.



UDC: 546.62 + 544.653.23

Sulaymon NAZAROV,

Master's student at National University of Uzbekistan Department of Chemistry

E-mail: nazarovs9998@gmail.com

Jakhongir MUZAFFAROV,

Bachelor student at National University of Uzbekistan Department of Chemistry

Shakhzod RAJABOV,

Bachelor student at National University of Uzbekistan Department of Chemistry

Anvar KHAMIDOV,

Department of Natural and Mathematic Sciences, Turin Polytechnic University in Tashkent (TPPU)

Department of Oil and Gas Chemistry at National University of Uzbekistan

Based on the review of the professor of TPPU Ruzimuradov Olim Narbekovich

OKSALAT KISLOTADA SINTEZ QILINGAN ANODLI ALYUMINIY OKSID MEMBRANALARINING MORFOLOGIK XOSSALARI

Аннотация

Ushbu tadqiqot anodli oksidlash usuli orqali nanotuzilishli alyuminiy oksidi plyonkalarining sintezi va tavsifini o'rganadi. Oksalat kislotada ikki bosqichli anodlash usulida elektrolitlar konsentratsiyasi, harorat va anodli kuchlanishni o'zgartirish orqali plyonkalarining g'ovaklik diametri, g'ovakliklar orasidagi masofa, qalinligi va g'ovakligi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, belgilangan sharoitlarda nanog'ovakli alyuminiy oksidi plyonkalarini ma'lum tartiblangan holatda ishlab chiqarish mumkin. Optimal anodlash sharoitlari sifatida 5 °C 0.3 M oksalat kislotasida 40 V va 5 °C 1 M oksalat kislotasida 15 V ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: anodli alyuminiy oksidi (AAO), g'ovaklilik darajasi, g'ovaklik diametri, g'ovakliklar orasidagi masofa.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА МЕМБРАН АНОДНОГО ОКСИДА АЛЮМИНИЯ, СИНТЕЗИРОВАННЫХ В ЩАВЕЛЕВОЙ КИСЛОТЕ

Аннотация

В данном исследовании исследуются синтез и характеристика наноструктурированных пленок оксида алюминия методом анодного окисления. Диаметр пор, межпоровое расстояние, толщина и пористость пленок анализировались путем изменения концентрации электролита, температуры и анодного напряжения при двухстадийном методе анодирования в щавелевой кислоте. Результаты показали, что нанопористые пленки оксида алюминия могут быть получены в определенном упорядоченном состоянии при заданных условиях. Они показали, что оптимальными условиями анодирования являются 40 В в 0.3 М щавелевой кислоте при 5 °C и 15 В в 1 М щавелевой кислоте при 5 °C.

Ключевые слова: анодный оксид алюминия (AAO), степень пористости, диаметр пор, расстояние между порами.

MORPHOLOGICAL PROPERTIES OF ANODIC ALUMINUM OXIDE MEMBRANES SYNTHESIZED IN OXALIC ACID

Anntation

This study investigates the synthesis and characterization of nanostructured alumina films by anodic oxidation. The pore diameter, interpore distance, thickness and porosity of the films were analyzed by varying the electrolyte concentration, temperature and anode voltage in a two-step anodization method in oxalic acid. The results showed that nanoporous alumina films can be obtained in a certain ordered state under specified conditions. They showed that the optimal anodizing conditions were 40 V in 0.3 M oxalic acid at 5 °C and 15 V in 1 M oxalic acid at 5 °C.

Key words: anodic aluminum oxide (AAO), degree of porosity, pore diameter, distance between pores.

Introduction. In our country, scientific research work on the production of domestic and nanostructured catalysts that replace imports is being carried out at a rapid pace. In the Strategy of Actions for the further development of the Republic of Uzbekistan, the tasks of "raising the industry to a new level in terms of quality, in-depth processing of local raw materials, accelerating the production of finished products, mastering and improving technologies for obtaining new types of products" are defined. In this regard, scientific and practical research aimed at obtaining new types of nanocatalysts with improved properties for the synthesis of porous nanostructured composite systems and their effective use in solving various problems related to industry and production is important.

Literature review. Recently, there has been an increasing focus on overcoming new challenges associated with the production of high-quality films, templates, membranes and porous composites from anodic alumina (AAO) [1]. AAO as a nanomaterial remains the subject of extensive research, especially in the field of porous alumina fabrication on silicon substrates for the creation of integrated nanoengineered structures in electronic and optoelectronic devices, which has received considerable attention from many research investigations [2-3].

Anodic alumina (AAO) membranes synthesized using oxalic acid electrolyte have shown promising potential for a wide range of applications. The incorporation of carbon nanodots into the electrolyte serves as a hydrophilizer enabling precise control over the porosity of the resulting films [4]. The morphological and structural characteristics of the AAO membrane can be

effectively evaluated using scanning electron microscopy, which enables a detailed examination of its surface properties and pore structure. In addition, the contact angle between the membrane surface and deionized water can be measured, providing insight into the wettability and surface properties of the membrane [5].

The high-temperature process of calcination has proven to greatly affect the AAO membrane. This treatment leads to expansion and thinning of the membrane's pore walls, resulting in improved properties [6]. By skillfully manipulating pore size and interconnectivity, this process greatly impacts the membrane's performance in a range of applications. Recent research has found that incorporating carbon nanodots into the electrolyte of oxalic acid during membrane synthesis results in significantly better rejection abilities for protein particles compared to membranes made solely with oxalic acid [7]. This promising finding opens up the possibility of using AAO membranes in dialysis procedures, such as separating milk whey [8]. By incorporating carbon nanodots into the electrolyte, the porosity of the membrane can be meticulously regulated, while the utilization of calcination and nanomaterials presents possibilities for enhancing the membrane's efficiency. To fully unlock the potential and optimize the characteristics of AAO membranes for specific applications in areas like filtration, separation, and biomedical engineering, more extensive investigation is needed.

Research Methodology.

Materials and methods. The substrate used for this study was a commercial aluminum alloy 99.5% sheet. Rectangular samples, measuring approximately 4 cm wide, 4 cm high, and 0.3 cm thick, were prepared for testing. An acrylic coating, applied to the edges and one face of the samples, served to isolate and clearly define the exposed area, which was limited to 16 cm².

Synthesis of AAO Coatings.

Using the anodic oxidation method, the creation of porous AAO was accomplished in two distinct stages. Initially, an appropriately sized aluminum plate was prepared and subjected to treatment with acetone in an ultrasonic bath for 10 minutes, effectively removing any unwanted residue. After rinsing with distilled water and drying, a thin oxide layer naturally formed on the surface. In the following stage, an electrolyte mixture of H₃PO₄, H₂SO₄, H₂O in a 7:2:1 ratio, along with 33 g of CrO₃, was utilized in an anodizing cell at a current of 7A for approximately 3-4 minutes, successfully eliminating any roughness present. The temperature of the electrolyte was carefully maintained at 70 °C, while a magnetic stirrer continuously agitated it during the electrochemical treatment of the aluminum foil.

Anodic Oxidation. In this experiment, we utilized anodic oxidation to create coatings in a two-step process, each lasting 2 hours. Upon completing the first anodization, the resulting oxide layer was eliminated by immersing the test piece in a solution containing 5% phosphoric acid, 2% chromic acid, and 92% water at a temperature of 60 °C for 1 hour. The second anodization was then performed on the same substrate for a duration of four hours. The variables that were varied in our study for each oxidation step, both of which were conducted for equal lengths of time, included electrolyte concentration (0.3 and 1 M), electrolyte temperature (ranging from 5 to 25 °C), and anodization voltage (10 to 40 V).

Morphological Characterization of Coatings.

The SUPRA 40 (Carl Zeiss) scanning electron microscope (SEM) was utilized to examine the nanopores within the anodic films. By analyzing images captured through SEM, the organization of the porous structures was observed along with key characteristics such as the average pore diameter (\overline{dp}), the distance between pores (\overline{dt}), the thickness of the oxide film (\overline{e}), and the overall porosity (\overline{P}). This data was obtained using the advanced Image J (version 1.50i) software, based on previous studies [9,10].

Table 1. The relationship between the porosity of the porous AAO membrane and the parameters of the anodizing process:

Sample	\overline{dp} (nm)	\overline{dt} (nm)	\overline{e} (μm)	\overline{P} (%)
C0.3 T5 B20	41.1±3.3	49.9±4.3	3.7±0.6	28.2±1.8
C0.3 T5 B30	47.9±3.4	60.8±4.3	6.2±0.5	26.1±1.6
C0.3 T5 B30	47.9±3.4	60.8±4.3	6.2±0.5	28.9±4.2
C0.3 T15B20	41.5±3.2	49.9±4.3	5.8±0.8	25.2±0.8
C0.3 T15B30	47.4±3.3	62.4±6.7	10.1±1.0	22.2±2.5
C0.3 T15B40	54.6±3.1	72.1±4.6	20.3±0.5	26.3±0.7
C0.3 T25B20	41.3±2.7	51.2±4.3	8.9±0.7	33.2±0.6
C0.3 T25B30	46.7±2.7	62.7±7.4	19.7±1.1	32.1±0.3
C0.3 T25B40	50.8±2.8	70.6±4.8	31.6±0.8	26.8±0.4
C1 T5 B10	26.8±2.5	36.5±3.6	5.7±0.3	13.2±0.5
C1 T5 B12	30.7±2.8	40.8±4.4	9.5±0.2	20.2±0.9
C1 T5 B15	31.3±2.3	44.9±5.2	16.8±0.5	19.1±2.8
C1 T10 B10	28.1±3.2	38.2±5.1	9.9±0.2	15.4±1.7
C1 T10 B12	30.8±2.3	40.1±3.9	14.8±0.2	26.6±0.7
C1 T10 B15	33.4±3.4	45.5±4.4	21.4±0.6	27.8±0.3
C1 T15 B10	28.0±2.3	38.1±4.2	18.9±0.4	19.7±0.5
C1 T15 B12	28.3±3.1	42.5±4.7	25.9±0.3	20.8±0.6
C1 T15 B15	33.8±2.5	47.3±4.6	57.9±0.6	24.9±2.8

Analysis and results. The results of Table 1 above show that the porosity of the porous AAO membrane synthesized by the two-stage anodic oxidation method is in different order, i.e., the porosity diameter \overline{dp} - 26.8 to 54.6 nm, the distance between the pores \overline{dt} - 36.5 to 72.1 nm. The thickness of the oxide layer \overline{e} - from 3.7 to 31.6 μm and the degree of porosity \overline{P} - from 13.2 to 33.2%.




Fig. 1. SEM findings of porous AAO membrane produced through two-step anodization. Scale: a) 100 and b) 30 nm

Figure 1 displays the SEM images of the nanostructured oxide coatings produced through anodic oxidation in 0.3 and 1 M oxalic acid solutions, respectively, at varying temperatures and voltages. The corresponding SEM images are presented above the micrographs for each case.

Following the two-step anodization process, the pores in the porous AAO membrane were organized, resulting in porous membranes with increased dimensions and a smooth surface.

The size of the pores.

The size of the pores in the AAO membrane formed through the anodic oxidation of aluminum was assessed in relation to the anodizing process parameters: anode voltage, temperature and electrolyte concentration, (Fig. 2). The outcomes of the anodic oxidation of aluminum using 0.3 and 1 M oxalic acid electrolytes revealed that the electrolyte temperature had minimal impact on the formation of the pore diameter in the AAO membrane during the anodizing process.




Fig. 2. Changes in the average pore size of nanostructured aluminum oxide films during anodization in oxalic acid in relation to the concentration and temperature of the electrolyte, as well as the voltage

In the anodizing process, it was noticed that as the voltage rose from 10V to 40V, the pore size increased in a linear manner, whereas the pore size decreased with the shift in electrolyte concentration from 0.3M to 1M.

The distance between adjacent pores.

The study investigated the relationship between anodizing process parameters (anode voltage, electrolyte concentration, and temperature) and the interpore distance in the porous AAO membrane formed through anodic oxidation of aluminum (Fig. 3). Similar to the findings related to pore diameter, it was observed that the electrolyte temperature had minimal impact on the interpore distance measurement.




Fig. 3. Variation of the average interpore distance of nanostructured aluminum oxide films anodized in oxalic acid as a function of the concentration and temperature of the electrolyte and the voltage

We also examined the influence of anodizing process factors on the creation of an oxide layer on the AAO surface. Our findings indicate a direct correlation between all anodizing parameters and the formation of the oxide layer. Higher concentrations of electrolyte resulted in a thicker oxide layer, as the increased ion concentration facilitated its formation. Furthermore, raising the temperature of the electrolyte also led to a thicker oxide layer. For example, in a 1 M electrolyte at 5 °C, the oxide layer thickness was 5 nm, but it averaged 58 nm at 15 °C (Fig. 4).




Fig. 4. Changes in the thickness of the oxide layer of aluminum oxide films during anodization in oxalic acid in relation to the concentration and temperature of the electrolyte, as well as the voltage

The results demonstrate a clear trend in the correlation between anode voltage and the thickness of the oxide layer. It was observed that, for the majority of conditions, the thickness of the oxide layer increased in a linear fashion as the anode voltage increased. However, there was an exception when the electrolyte temperature was at 15 °C with a concentration of 1 M. In this instance, the oxide layer reached an average thickness of 18 nm at 10 V before jumping to an average thickness of 58 nm at 15 V. This finding adds an interesting nuance to the overall relationship between anode voltage and oxide layer thickness.

Porosity. The average level of porosity in the AAO membrane created through the anodic oxidation of aluminum was examined in relation to the anodizing process variables: anode voltage, electrolyte concentration, and temperature (Fig 5).

Overall, porous AAO membranes with an average porosity ranging from 13.2% to 33.2% were achieved across all anodization process parameters.




Fig. 5. Variation of the average porosity of nanostructured aluminum oxide films anodized in oxalic acid as a function of the concentration and temperature of the electrolyte and the voltage

When samples were synthesized at a temperature of 25 °C in the presence of 0.3 M oxalic acid electrolyte during the anodization process, the average porosity decreased as the anode voltage increased. However, at temperatures of 5°C and 15°C, the change in porosity was minimal. In contrast, when the electrolyte concentration was increased to 1 M during the anodization process, the opposite trend was observed. The average porosity significantly increased with higher anode voltage at temperatures of 10°C and 15°C. These results demonstrate the significant impact of both electrolyte concentration and temperature on the porosity of anodized samples.

Conclusion. In this study, we investigated the synthesis and characterization of anodic aluminum oxide coatings on a commercial aluminum alloy. By manipulating the concentrations of oxalic acid, reaction temperature, and anodization voltage, we were able to produce AAO films with unique pore arrangements in the short-range scale. We found that the pore diameter and inter-pore distance were primarily influenced by the anodization voltage, while the film thickness was greatly affected by all three factors. Additionally, the porosity of the films was predominantly dictated by the anodization voltage and electrolyte temperature. These results highlight the critically important role of voltage in controlling pore size when using oxalic acid as the electrolyte. Additionally, the findings of this study provide valuable knowledge for the design and optimization of AAO coatings for various applications. Future research directions could include exploring alternative electrolytes and experimental conditions to further enhance film properties and expand the scope of potential applications.

REFERENCES

- Jagminas A., Vrublevsky I. Anodizing of aluminum under the burning conditions // Nanostructured anodic metal oxides, 2020. P. 89–122. doi:10.1016/b978-0-12-816706-9.00003-0.
- Fernández-Romero L., Montero-Moreno J.M., Pellicer E., Peiró F., Cornet A., Morante J.R., Müller C. Assessment of the thermal stability of anodic alumina membranes at high temperatures // Materials chemistry and physics, 2008. №111(2-3). P. 542–547. doi:10.1016/j.matchemphys.2008.05
- Crouse D., Lo Y.H., Miller A.E., Crouse M. Self-ordered pore structure of anodized aluminum on silicon and pattern transfer // Applied physics letters, 2000. №76(1). P. 49–51. doi:10.1063/1.125652
- K. O. Kudelko, L. M. Rozhdstvenska, L.M. Ponomarova Anodic aluminum oxide-membrane prepared in electrolyte “oxalic acid – matter with carbon nanodots 30 Jun 2023-Himiã, fizika ta tehnologiã poverhni-Vol. 14, Iss: 2, pp 237-248. <https://www.doi.org/10.15407/hftp14.02.237>
- Cinthya Santos Cirqueira. Influence of Various Electrolytes on Surface Morphology of AAO–A Brief Review. 01 Jan 2023-pp 171-182. https://www.doi.org/10.1007/978-981-99-3386-0_14
- Saher Manzoor, Muhammad Waseem Ashraf*, Shahzadi Tayyaba, Muhammad Imran Tariq*, M. Khalid Hossain. Recent Progress of Fabrication, Characterization, and Applications of Anodic Aluminum Oxide (AAO) Membrane: A Review. 27 October 2022. <https://doi.org/10.32604/cmcs.2022.022093>
- Daval Jérémy, Virginie Moutarlier, R. Viennet, L. Ricq, J.Y. Hihn. Anodic Layer Growth on 1050 and 2024 Aluminium Alloys in Presence of Etidronic Acid : Changes in Morphology and Structure. 07 Jul 2022-Meeting abstracts-Vol. MA2022-01, Iss: 23, pp 1132-1132. <https://www.doi.org/10.1149/ma2022-01231132mtgabs>.
- Isabelle Ferreras. Anodic Alumina Membranes: From Electrochemical Growth to Use as Template for Fabrication of Nanostructured Electrodes. 15 Jan 2022-Applied Sciences (Applied sciences)-Vol. 12, Iss: 2, pp 869-869. <https://www.doi.org/10.3390/app12020869>
- Sulka G.D., Parkoła K.G. Anodising potential influence on well-ordered nanostructures formed by anodisation of aluminium in sulphuric acid // Thin Solid Films, 2006. №515. P. 338–345
- Hwang S.K., Jeong S.H., Hwang H.Y., Lee O.J., Lee K.H. Fabrication of highly ordered pore array in anodic aluminum oxide // Korean J. Chem. Eng. 2002. №19. P. 467–473.



Doston NURMATOV,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

E-mail: doston_nu@mail.ru.

Anvar ABDUSHUKUROV,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, kimyo fanlari doktori

Dilnoza BO'RIYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Muhriddin YUSUPOV,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

O'zFA O'MKI sintetik preparatlar texnologiyasi laboratoriyasi mudiri, kat.i.x., k.f.d A.SH. Abdurazakov taqrizi asosida

REACTIONS OF AMIDES OF 4-CARBOXYPYRIDINE WITH p-ANIZIDINE, p-BROMANILINE, 2,6-XYLIDINE, 2,4-DICHLORANILINES

Annotation

Corresponding amides were synthesized from reactions of 4-carboxypyridic acid with p-anisidine, p-bromaniline, 2,6-xylydine, 2,4-dichloroanilines. The influence of the nature of the solvent on the course of the reactions was studied, and the results obtained from the reactions carried out in different solvents were compared. It was found that 4-carboxypyridine acid reacts with some aromatic amines to form amides when heated in non-polar solvents. The physical constants of the synthesized amides were determined. The structure of the reaction products was analyzed using IR- and ¹H and ¹³S NMR spectroscopy methods.

Key words: 4-carboxypyridic p-anisidine, p-bromoaniline, 2,6-xylydine, 2,4-dichloroaniline amide, organic solvent.

п- АНИЗИДИН, п- БРОМАНИЛИН 4-КАРБОКСИПИРИДИНА, РЕАКЦИИ 2,6-КСИЛИДИНА, 2,4-ДИХЛОРАНИЛИНОВ С АМИДАМИ

Аннотация

Соответствующие амиды синтезированы реакциям 4-карбоксопиридина с п-анизидином, п-броманилином, 2,6-ксилидином, 2,4-дихлоранилинами. Изучено влияние природы растворителя на ход реакций и сопоставлены результаты, полученные в реакциях, проведенных в различных растворителях. Установлено, что 4-карбоксопиридин реагирует с некоторыми ароматическими аминами с образованием амидов при нагревании в неполярных растворителях. Определены физические константы синтезированных амидов. Строение продуктов реакции анализировали методами ИК- и ЯМР-спектроскопии ¹H и ¹³C.

Ключевые слова: п-анизидин 4-карбоксопиридиновой, п-броманилин, 2,6-ксилидин, амид 2,4-дихлоранилина, органический растворитель.

4-KARBOKSIPIRIDINNING p- ANIZIDIN, p- BROMANILIN, 2,6 -KSILIDIN, 2,4-DIXLORANILINLAR BILAN AMIDLARINI OLISH REAKSIYALARI

Annotatsiya

4-Karboksipiridinining p-anizidin, p-bromanilin, 2,6-ksilidin, 2,4-dixloranilinlar bilan reaksiyalaridan tegishli amidlar sintez qilindi. Reaksiyalarning borishiga erituvchi tabiatining ta'siri o'rganildi, turli erituvchilarda olib borilgan reaksiyalardan olingan natijalar taqqoslandi. 4-Karboksipiridinining ba'zi aromatik aminlar bilan reaksiyalaridan amidlarini hosil qilishi qutbsiz erituvchilarda qizdirilganda borishi aniqlandi. Sintez qilingan amidlarning fizik doimiyliklari aniqlandi. Reaksiya mahsulotlarining tuzilishi IQ- va ¹H va ¹³C YAMR spektroskopiya usullari yordamida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: 4-Karboksipiridinovaya p-anizidin, p-bromanilin, 2,6-ksilidin, 2,4-dixloranilin, amid, organicheskiy rastvoritel.

Kirish. Aminlarni, xususan aromatik aminlarni karbon kislotalarning anhidridlari va galogenanidridlari bilan N-asillash (benzoillash) reaksiyalaridan yuqori unumlar bilan kislotalar amidlarini olish mumkinligi adabiyot ma'lumotlaridan malum. Ammo, bugungi kunda har qanday organik moddani kam bosqichli reaksiyalar orqali, tayyor reagentlardan foydalangan holda sintez qilish yo'llarini topish kimyogarlar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, kislotalar amidlarining sintezida ham mazkur jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada amidlar sintezida asilovchi agentlar sifatida karbon kislotalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash orqali yuqori unum bilan mahsulot sintez qilishning samarali usullari ishlab chiqilmoqda va buni quyidagi muhim adabiyot ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Karbon kislotalarning aminlar bilan reaksiyalarini o'rganish bilan bog'liq izlanishlarning natijalari reaksiyalarning oraliq protonlangan to'rtlamchi ammoniy tuzlari hosil bo'lishi bilan borishi, ma'lum sharoitda qizdirilganda kondensatlanishi natijasida kislotalar amidlari hosil bo'lishini ko'rsatadi [4-8, 1; 371-379 b., 2; 194-197 b., 3].


Adabiyotda ba'zi almashingan anilinlarning DMFA va DMSO bilan reaksiyasidan arilamidlar hosil bo'lishi ta'kidlab o'tilgan. Reaksiyalar HCl katalizatorligida yuqori unumlar bilan borishi aniqlangan [4; 114-119 b.].

Adabiyot ma'lumotlarida alifatik, aromatik, geterosiklik, birlamchi va ikkilamchi aminlarni DMFA bilan formillash nikel (II) xinazonol ishtirokida yuqori unum bilan borishi keltirib o'tilgan va reaksiyaning mexanizmi katalitik sikl bilan borishi ko'rsatib berilgan [5; 2078-2081 b.].

Almashingan fenilsirka kislotalarning benzilamin hosilalari bilan reaksiyasi turli nikel birikmalari ishtirokida olib borilganda quyidagicha katalitik faollik qatori aniqlangan: NiCl₂>(CH₃COO)₂Ni >Ni(asos)₂>NiCl₂(PPh₃)₂>NiCl₂·6H₂O


>katalizatsiz. Bu jarayonda erituvchilar- dietil efiri, TGF, toluol, ftorbenzol, asetonitril, DMFA va DMSO ishlatilgan va toluolda eng yuqori unum (10 soatda 80%, 20 soatda 99,2%) ga erishilgan [80].

Tajriba natijalari va tahlili. Tajribalar uchun 4-karboksipiridin, p-anizidin, p-bromanilin, 2,6-ksilidin, 2,4-dixloranilinlar tanlab olindi. Dastlab 4-Karboksipiridin kislotaning p-anizidin bilan reaksiyasini o'rganishga bag'ishlangan. 4-Karboksipiridin p-anizidin bilan reaksiyasini teskari sovutgich bilan jihazlangan kolbada DMFAning qaynash temperaturasida magnitli aralashtirgichda katalizatsiz 15 soatda olib borildi. Shu sababli DMFAda reaksiyalar yuqori haroratida reagentlarning 1:1 mol nisbatida olib borildi. Xuddi shu sharoitda DMFAda HCl katalizatorligida yuqori haroratida reagentlarning 1:1 mol nisbatida 7 soatda tegishli amidlarni sintez qilishga erishildi. Reaksiya quyidagi sxema bo'yicha boradi.



Olingan mahsulotni 40% li etanol-suv aralashmasidan qayta kristallandi, kalsiy xloridli eksikatorida quritildi. Suyuqlanish harorati aniqlandi, IQ va YAMR spektri olindi hamda tozaligi YUQX usuli yordamida tekshirildi.

Mazkur usullar asosida 4-karboksipiridin p-anizidin, p-bromanilin, 2,6-ksilidin, 2,4-dixloranilinlar bilan reaksiyalari olib borildi va amidlar olindi. Quyida sintez qilingan amidlarning tuzilishi keltirilgan:



Tajriba natijalari quyida 1-jadvalda keltirilgan.

Boshlang'ich amin	Mol nisbatlar*	Vaqt, soat	mahsulot unumi, %			Reaksiya mahsuloti	
			DMFA (153 °C)	Vaqt, soat	DMFA HCl	T _s , °C	R _f
p-anizidin	1:1,1:0,5	14	33	7	35	74-76	0,68
p-bromanilin	1:1,1:0,5	14	50	7	53	94-96	0,68
2,6-ksilidin	1:1,1:0,5	14	34	7	36	158-160	0,62
2,4-dixloranilin	1:1,1:0,5	14	40	7	43	146-148	0,52

Tajriba natijalari 4-Karboksipiridin p-anizidin, p-bromanilin, 2,6-ksilidin, 2,4-dixloranilinlar bilan borgan ushbu reaksiyalarida mahsulotlar hosil bo'lishi tezligi va unimi kislotada hamda asosning kuchiga bog'liq bo'ladi. va natijalar nazariy xulosalarga mos keladi.


Sintez qilingan birikmalarning tuzilishini o'rganish. Sintez qilib olingan amidlarning individualligi yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX) usulida «Sorbfil» (Rossiya), «Whatman® UV-254» UV lampasida, Aluminum TLC plate F-254 (MFR: Qingdao Seeking Technology Co.,Ltd) plastinkalarida tekshirildi, elyuentlar sifatida esa benzol:atseton=3:1 nisbat-da ishlatildi. Sitez qilingan birikmalarning IQ spektrlari ATR tizimi yordamida FT-IR/NIR Spectrum 3 spektrometrida (Perkin Elmer, Shveysariya) qayd etildi.¹H va ¹³C NMR spektrlari JNM-ECZ400R spektrometrida (JEOL, Yaponiya) CCl₃D eritmalarida ¹H uchun 400 MGts ish chastotasida qayd etilgan. TMS (0 ppm) ¹H NMR spektrlarida ichki standart sifatida ishlatilgan. ¹³C NMR spektrlarida erituvchining kimyoviy silji-shi (CCl₃D, TMSga nisbatan 49,00 ppm) ichki standart sifatida ishlatilgan. Birikmalarning suyuqlanish harorati BMP-1C modelida 220V/50Hz da (Xitoy) asbobida o'lchandi.

N-(4-metoksifenil)-izonikotinamid: 0,615 gr (0,005 mol) 4-karboksipiridin va 0,615 gr (0,005 mol) p-anizidin 0,365 gr (0,01 mol) HCl katalizator ishtirokida sintez qilindi. R_f=0,68, suyuqlanish harorati T_s=74-76°C. IQ spektr (KBr sm⁻¹) ν=3243 (-NH), δ=1545 (-NH), ν=1651(-CO-). ¹H NMR (400 MHz, METHANOL-D₄) δ 8.19 (s, 1H), 7.51 – 7.43 (m, 2H), 7.10 (s, 0H), 6.88 (d, J = 22.5 Hz, 0H), 4.87 (s, 3H), 3.76 (s, 2H). ¹³C NMR (101 MHz, METHANOL-D₄) δ 165.28, 161.31, 158.85, 158.07, 132.23, 122.97, 122.02, 115.79, 115.04, 55.91.


N-(4-bromfenil)-izonikotinamid: 0,615 gr (0,005 mol) 4-karboksipiridin va 0,86 gr (0,005 mol) p-bromanilin 0,365 gr (0,01 mol) HCl katalizator ishtirokida sintez qilindi. R_f=0,68, suyuqlanish harorati T_s=94-96°C. IQ spektr (KBr sm⁻¹) ν=3255 (-NH), δ=1532 (-NH), ν=1667(-CO-). ¹H NMR (400 MHz, METHANOL-D₄) δ 8.70 (s, 1H), 8.27 (s, 3H), 7.94 (s, 1H), 7.57 – 7.40 (m, 13H), 7.10 (s, 0H), 1.28 (s, 1H), 0.99 – 0.83 (m, 2H). ¹³C NMR (101 MHz, METHANOL-D₄) δ 168.28, 161.61, 151.02, 138.29, 132.75, 124.77, 122.65, 117.79.

N-(2,4-Dixlorfenil)-izonikotinamid: 0,615 gr (0,005 mol) 4-Karboksipiridin va 0,81 gr (0,005 mol) 2,4-dixloranilin 0,365 gr (0,01 mol) HCl katalizator ishtirokida sintez qilindi. R_f = 0,52, suyuqlanish harorati T_s=146-148°C. IQ spektr (KBr sm⁻¹) ν=3240 (-NH), δ=1518 (-NH), ν=1661 (-CO-). ¹H NMR (400 MHz, METHANOL-D₄) δ 9.13 (s, 0H), 8.78 (s, 0H), 8.39 (s, 0H), 7.75 (s, 0H), 7.65 – 7.56 (m, 1H), 7.41 (dd, J = 8.7, 2.3 Hz, 1H). ¹³C NMR (101 MHz, METHANOL-D₄) δ 165.21, 162.07, 134.43, 131.07, 130.17, 129.31, 126.08, 125.27


N-(2,6-Ksilidifenil)- izonikotinamid: 0,615 gr (0,005 mol) 4-karboksipiridin va 0,605gr (0,005 mol) 2,6-ksilidin 0,365 gr (0,01 mol) HCl katalizator ishtirokida sintez qilindi. R_f = 0,62, suyuqlanish harorati T_s=158-160°C. IQ spektr (KBr sm⁻¹) ν=3232 (-NH), δ=1520 (-NH), ν=1653 (-CO-). ¹H NMR (400 MHz, METHANOL-D₄) δ 9.15 (s, 1H), 8.77 (s, 0H), 8.41 (d, J = 9.7 Hz, 1H), 7.61 (s, 0H), 7.20 – 7.10 (m, 10H), 4.95 – 4.90 (m, 22H), 2.27 (d, J = 0.7 Hz, 19H). ¹³C NMR (101 MHz, METHANOL-D₄) δ 201.28, 166.64, 153.00, 149.35, 137.34, 135.40, 131.91, 129.75, 129.22, 128.71, 125.32, 122.62, 22.69




N-(4-metoksifenil)-izonikotinamidning IQ spektri



N-(4-metoksifenil)-izonikotinamidning 1H YaMR spektri



N-(4-metoksifenil)-izonikotinamidning 13C YaMR spektri



N-(4-metoksifenil)-izonikotinamidning MASS spektri

ADABIYOTLAR

1. Aghayan M.M., Tavana M.M., Boukherroub R. Sulfonated reduced graphene oxide as a highly efficient catalyst for direct amidation of carboxylic acids with amines using ultrasonic irradiation // *Ultrasonics Sonochemistry*. 29, 2016. -P. 371-379.
2. Tamaddon F., Aboee F., Nasiri A. ZnOnanofluid as a structure base catalyst for chemoselective amidation of aliphatic carboxylic acids // *Catalysis Communications* 16, 2011. -P. 194-197.
3. Morrison R., Boyd R. *Organicheskaya ximiya*. Per. s angl. Demyanovich V.M., Smita V.A. M.: Mir, 1974.
4. Zhang Q, Chen C. Direct acylation of aryl amines using dimethylformamide and dimethylacetamide as the acyl resources // *Journal of Saudi Chemical Society*. 2016, 20. -P. 114-119.
5. Sonawane R.B., Rasal N.K., Jagtap S.V. Nickel-(II)-Catalyzed N-Formylation and N-Acylation of Amines // *American Chemical Society, Organic Letters*. 2017, 19, -P. 2078-2081.
6. Grimmel H.W., Guenther A., Morgan J.F. Phosphazo compounds and their use in preparing amides // *Journal of The American Chemical Society*. Washington, 1946. Vol. 68, №4. -P. 539-541.
7. Kawagoe Y., Moriyama K., Togo H. Facile preparation of amides from carboxylic acids and amines with Ph_3P // *Tetrahedron*. 69, 2013. -P. 3971-3977.
8. Menezes F.G., Kolling R., Bortoluzzi A.J., Gallardo H., Zucco C. Hexabromoacetone as tribromoacetylating agent of alcohols and amines and as mediator in the conversion of carboxylic acids into amides in the presence of triphenylphosphine // *Tetrahedron Letters*. 50, 2009. -P. 2559-2561.



Behruzjon OMANOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
Muhabbat XATAMOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, k.f.n
E-mail: omanovbekhruzjon@gmail.com

Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti professori X.Beknazarov taqrizi asosida

LABORATORIYADA ASETILENNI GIDRATLAB ASETON OLISH TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Nanokatalizatorlarning yuqori samaradorligi nanosistemalarda nanostruktura va kimyoviy reaksiyalar jarayonida yuzaga keladigan zaryadlar, energiya, massa va axborotlarni o'zgartirish va o'tkazish jarayonlari bilan bog'liq. Sanoatda yangi yuqori samarali nanokatalizatorlardan foydalanish jarayonlar va texnologiyalarning ekologik xususiyatlarini yaxshilashga, atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdorini kamaytirishga, ekologik toza muqobil energiya resurslari, yangi mahsulotlar va materiallarni yaratishga olib keladi. "Ho'l" va suspendirlash asosida mahalliy xom-ashyolardan asetilenni katalitik gidratlash $ZnO \cdot Fe_2O_3 \cdot Cr_2O_3 \cdot MnO_2 \cdot V_2O_5 / YuKS$ reaksiyalari uchun termik barqaror, yuqori faollik, selektivlik va unumdorlikka ega bo'lgan nanokatalizatorlar yaratildi.

Kalit so'zlar: "Ho'l" va suspendirlash, aseton, asetilen, suv, YuKS, nanokatalizator, sharchali tegirmon, shakl mashinasi.

ТЕХНОЛОГИЯ ГИДРАТАЦИИ АЦЕТИЛЕНА В ЛАБОРАТОРИИ

Аннотация

Высокая эффективность нанокатализаторов связана с процессами изменения и переноса зарядов, энергии, массы и информации, происходящими в ходе наноструктур и химических реакций в наносистемах. Использование новых высокоэффективных нанокатализаторов в промышленности приводит к улучшению экологических характеристик процессов и технологий, снижению выбросов в атмосферу, созданию экологически чистых альтернативных источников энергии, новых продуктов и материалов. Созданы термически стабильные, обладающие высокой активностью, селективностью и производительностью нанокатализаторы для реакций $ZnO \cdot Fe_2O_3 \cdot Cr_2O_3 \cdot MnO_2 \cdot V_2O_5 / цеолит$ с высоким содержанием кремнезема каталитической гидратации ацетилен из местного сырья на основе «влажного» и суспензионного типа.

Ключевые слова: «Мокрая» и суспензия, ацетон, ацетилен, вода, ЮКЦ, нанокатализатор, шаровая мельница, формовочная машина.

ACETYLENE HYDRATION TECHNOLOGY IN THE LABORATORY

Annotation

The high efficiency of nano catalysts is related to the processes of changing and transferring charges, energy, mass and information that occur during nanostructures and chemical reactions in nano systems. The use of new high-performance nano catalysts in industry leads to the improvement of the environmental characteristics of processes and technologies, the reduction of emissions into the atmosphere, the creation of environmentally friendly alternative energy resources, new products and materials. Thermally stable, high activity, selectivity and productivity nano catalysts were created for the $ZnO \cdot Fe_2O_3 \cdot Cr_2O_3 \cdot MnO_2 \cdot V_2O_5 / HSZ$ reactions of catalytic hydration of acetylene from local raw materials based on "wet" and suspension.

Key words: "Wet" and suspension, acetone, acetylene, water, YKS, nanocatalyst, ball mill, shape machine.

Kirish. Aseton (propanon, dimetil keton, propanon-2) to'yingan ketonlar sinfiga mansub organik modda. Xarakterli hidli rangsiz uchuvchi suyuqlik. Suv va qutbli organik erituvchilar bilan cheksiz aralashtirish, qutbsiz erituvchilar bilan cheklangan aralashadi. Qimmatbaho sanoat erituvchi. Kam zaharililigi tufayli u laklar, portlovchi moddalar va dori-darmonlarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Ko'p kimyoviy sintezlarda boshlang'ich birikma. Laboratoriya amaliyotida aseton quruq muz va ammiak bilan birga sovutish aralashmalarini tayyorlash, shuningdek kimyoviy shisha idishlarni yuvish uchun qutbli aprotik erituvchi sifatida ishlatiladi. Aseton tirik organizmlarda, xususan, inson tanasida metabolizm mahsulotlaridan biridir. Sog'lom odamning qonida juda oz miqdorda bo'lgan keton jismlari deb ataladigan tarkibiy qismlardan biri, ammo patologik sharoitlarda (uzoq muddat ro'za tutish, og'ir jismoniy faollik, og'ir diabet) ularning konsentratsiyasi sezilarli darajada oshishi mumkin va 20 mmol/l ga etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda aseton asosan bir necha usullarda olinadi:


1. Izopropil spirtining oksidlanishi va gidrogenlanishi.
2. Izopropil benzolning oksidlanishi (kumol usuli).
3. Asetilenni gidratlanishi.

Respublikada izopropil spirti va kumol yetishmasligi tufayli biz 3-usuldan foydalanib atsetilenni gidratlab asetonni oldek.
 $2CH \equiv CH + 3HOH = CH_3 - CO - CH_3 + CO_2 + 2H_2 + Q$

Tajriba natijalari va muhokama. 5%ZnO·5%Fe₂O₃·5%Cr₂O₃·3%MnO₂·1%V₂O₅ tarkibli katalizator ishlab chiqarish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: kislotali ishlov berish va yuqori kremniyli seolitni faollashtirish liniyasi; aralashtirish va shakllantirish liniyasi; katalizatorni termik ishlov berish.

Kislotali ishlov berish va faollashtirish mexanik aralashtirgich bilan jihozlangan reaktorda o'tkaziladi. YuKSning hisoblangan miqdori reaktorga (1) yo'naltiriladi va xuddi o'sha joyga ma'lum miqdorda 10 %-li sulfat kislotaga yuboriladi. Tarkibiy qismlar 1 soat davomida aralashtiriladi, yuviladi, so'ng massa 95 °S da 3 soat davomida quritiladi (2).

Bu vaqtda tegirmonda (8) ko'mir maydalanadi. Tarkibiy qismlar aralashmasi aralashtirgichga yo'naltiriladi (11) va jadal aralashtirish holatida ¾ qism peptizatorning suvli eritmasi qo'shiladi (peptizator sifatida ekstraksiyon fosfat kislotaga suvli eritmasidan foydalanamiz). Aralashtirish bir jinsli massa olinishigacha davom ettiriladi.



Rasm-5.1. ZnO·Fe₂O₃·Cr₂O₃·MnO₂·V₂O₅ /YuKS li katalizator ishlab chiqarish texnologik sxemasi

- 1 – aralashtirgich-aktivator; 2 – YuKS uchun bunker;
 3 – 10 %-li sulfat kislotaga uchun sig'im; 4 – quritish shkafi;
 5, 6, 7 – Zn(NO₃)₂·6H₂O, Fe(NO₃)₃·6H₂O, Cr(NO₃)₃·9H₂O va Mn(NO₃)₂·6H₂O uchun sig'imlar; 8 – sharchali tegirmon;
 9, 10 – distillangan suv uchun sig'im; 11 – kurakli aralashtirgich; 12 – shakl berish mashinasi; 13 – transporterli quritgich;
 14 – shaxtali kuydirish pechi; 15 – vibrog'alvir

Oldindan tayyorlangan tub turuvchi – faollangan quritishdan so'ng tegirmonda (8) maydalanadi va aralashtirgichga (11) qoldiq tarkibiy qismlar bilan aralashtirish uchun yuboriladi va ¼ miqdor peptizator qo'shiladi. Aralashtirish 30–40 daq mobaynida davom ettiriladi, shundan so'ng massa shakl berishga (12) yo'naltiriladi. Buning uchun shnekli shakl berish mashinasi tanlangan, u 6-8 mm li diametri va 8-10 mm uzunlikdagi granular olishga imkon beradi. Granulyatordan chiqadigan granularlar 20–25 % namlik saqlaydi. kontakt massani quritish quritgichda (13) 100±5°S da 5 soat davomida o'tkaziladi.

Katalizatorga termik ishlov berish barabanli tipdagi pechda (14) o'tkaziladi, bunda yoqiladigan gazlar va xomashyo granular pech orqali qarshi oqimda o'tishi kerak. Kuydirish boshlang'ich harorati 200°C, haroratni har 30 daq da 50°C ga 450-500°C gacha ko'tariladi. Katalizatorni kuydirishdan so'ng vibrog'alvirda (14) elakdan o'tkaziladi va tayyor mahsulot omboriga yuboriladi.

Yangi yuqori samaradorlikka ega bo'lgan nanokatalizatorlarning ishlatilishi sanoatda jarayonlar va texnologiyalarning ekologik xarakteristikalarining yaxshilanishiga, atmosferaga tashlanadigan zararli chiqindilarning kamayishiga, muqobil energoresurslarning ekologik toza turlarini, yangi mahsulot va materiallar yaratishga olib keladi.

Faol markazi nanoo'lchamli o'zak modda bu seolitlar bo'lib, shulardan biri bu bentonitdir. Asetilenni katalitik gidratlash reaksiyasi uchun cho'ktirish usulida katalizator tayyorlash uchun Zn(NO₃)₂·6H₂O, Fe(NO₃)₃·6H₂O, Cr(NO₃)₃·9H₂O, Mn(NO₃)₂·6H₂O va VO(NO₃)₃ ning suvli eritmaları ishlatildi bo'yicha quyidagi 2.1-sxema bo'yicha tayyorlandi.

Tutuvchi modda (nositel)-Cho'kma filtrlandi, 130°C da quritildi va kuydirish pechida 5 soat davomida 800-1100°C da kuydirildi. Yuttirish usulida katalizator tayyorlash uchun avval natriy silikatning suvdagi eritmasiga sulfat kislotaga qo'shildi. Cho'kma filtrlandi, 130°C da quritildi va 800-1300°C da kuydirildi. So'ngra Zn(NO₃)₂·6H₂O, Fe(NO₃)₃·6H₂O, Cr(NO₃)₃·9H₂O va Mn(NO₃)₂·6H₂O tuzlarining suvli eritmaları qo'shildi. 3 soatdan so'ng olingan katalizator quritildi va 800-1300°C da kuydirildi. So'ngra olingan massaga zaruriy miqdordagi VO(NO₃)₃ eritmasi qo'shildi. So'ngra yuqoridagi ketma-ketlik bo'yicha katalizator filtrlandi, quritildi va kuydirildi.


Nanokatalizatorlarning yuqori samaradorligi nanosistemalarda nanostruktura va kimyoviy reaksiyalar jarayonida yuzaga keladigan zaryadlar, energiya, massa va axborotlarni o'zgartirish va o'tkazish jarayonlari bilan bog'liq. Sanoatda yangi yuqori samarali nanokatalizatorlardan foydalanish jarayonlar va texnologiyalarning ekologik xususiyatlarini yaxshilashga, atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdorini kamaytirishga, ekologik toza muqobil energiya resurslari, yangi mahsulotlar va materiallarni yaratishga olib keladi.

Katalizatorlarni nanozarrachalar bilan katalizda ishlatish istiqboli ikkita xususiyat bilan bog'liq. Birinchidan, zarrachalar kattaligi kamayishi bilan atomlarning aksariyati sirtga joylashadi, shuning uchun nanozarrachalardan tashkil topgan katalizator katta sirt maydoniga ega va geterogen reaksiyalarda juda faol bo'ladi.


Ikkinchidan, nanozarrachalarning aksariyat xossalari ularning kattaligi (hajmi samaradorligi) bilan bog'liq, shuning uchun nanozarrachalar hajmini o'zgartirish orqali nafaqat faollikni, balki selektivlikni ham nazorat qilish mumkin. Katalizator zarrachalarining hajmi kamayishi bilan reaksiya tezligi keskin ortadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Zn, Fe, Cr, Mn va V metallar va boshqa ko'p funksiyali xossaga ega bo'lgan elementlar asosida olingan nanokatalizatorlarni asetilen va uning hosilalarini gidratlanish reaksiyasida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

ZnO:Fe₂O₃:Cr₂O₃:MnO₂:V₂O₅/YuKS tarkibidagi nanozarrachalarni sintez qilish sxemasi yadro-qobiq tuzilishi:



2.1-sxema. ZnO:Fe₂O₃:Cr₂O₃:MnO₂:V₂O₅/YuKS nanozarracha sintezi sxemasi



1-rasm. Aseton ishlab chiqarish sxemasi.

1-ignali valf; 2-egiluvchan olinadigan qism; 3-tomchilovchi eliminator;
4-reometr; 5-suv tarqatuvchi voronka; 6-bypass liniyasi; 7-reaktor;
8-termovel; 9-transformator; 10-voltmetr; 11-reaktorda haroratni nazorat qilish uchun blok; 12-havo muzlatgichi; 13- suv bilan sovutilgan muzlatgich (Lebig);
14-reaksiya gazini yuvish uchun tutqich; 15 - chiqindi gazni chiqarish liniyasi;
16-kran

Metall reaktor (7) diametri 40 mm, balandligi 380 mm bo'lgan katalizator uchun pastki qismga to'r-substrat o'rnatilgan. Yuqori gardish qopqog'i ikkita armatura bilan jihozlangan: bug'-gaz aralashmasini (suv bug'lari bilan to'yingan asetilen) va termovel (8) bilan ta'minlangan. Pastki gardish-pastki qismi reaksiya mahsulotlarini olib tashlash uchun armatura bilan jihozlangan.

Reaktor idishi (7) atrofida umumiy quvvati 3,6 kV bo'lgan TEN-06 isitish elementlari teng taqsimlangan bo'lib, ular boshqaruv transformatori (9) orqali 220 V tarmoqqa ulangan. Haddan tashqari qizib ketishning oldini olish uchun 220 V dan ortiq kuchlanishni ta'minlashga ruxsat berilmagan.

Issiqlikni saqlash va barqaror haroratni ta'minlash uchun reaktorning yuzasi izolyatsiyalanadi va o'raladi. Reaktordagi harorat haroratni nazorat qilish blokiga (11) chiqadigan signallari bilan THC termojufti bilan o'lchandi, o'qishlar KSP potansiyometrida yoki ko'rsatuvchi qurilmada qayd etildi.

Sintezni amalga oshirish uchun reaktorga ma'lum miqdorda katalizator yuklangan. Katalizator azot oqimida qizdirilgan. Harorat 425-430°C ga yetganda, 007-sonli ustaxonaning aralash gaz liniyasidagi valf ochildi (yoki silindrdan asetilen konsentrati), azot liniyasidagi valf yopildi. Suv bug'lari bilan to'yintirish uchun harorati ≈70-80°C bo'lgan (5) suv (6) bypass liniyasidan o'tkazildi. Keyin bug' bilan to'yingan gaz reaktorga kirdi, bu yerda katalizator 425-430°C haroratda reaksiyasi sodir bo'ldi. Reaksiya jarayonida texnologik rejimning parametrlari harorat sharoitlari, yetkazib beriladigan komponentlarning oqim tezligi o'lchandi.

Gazsimon reaksiya mahsulotlari avval havo sovutgichida (12), so'ngra suv bilan sovutilgan muzlatgichda (Liebig) (13) sovutildi. Kondensat va aseton bug'lari muzli hammomga (3-8°C) joylashtirilgan ksilol (14) bilan absorberlarda so'riladi. To'plangan ksilol bilan olingan reaksiya mahsulotlari ularning tarkibiy tarkibi uchun xromatografik tahlil qilindi. Kirish va chiqish gazlari vaqti-vaqti bilan gaz xromatografiyasi bilan tahlil qilindi.

120 soatdan keyin tizimga asetilen yetkazib berish to'xtatildi. Tizim azot bilan tozalanadi va katalizator qayta tiklanadi. Regeneratsiya 425-450°C haroratda 12 soat davomida amalga oshiriladi. Asetilen tizimdan siqib chiqarilgandan so'ng, azot-havo aralashmasi beriladi. Gazlaridagi karbonat angidrid miqdori 0,4% dan oshmasa, regeneratsiya tugallangan hisoblanadi.

Xulosa. "Ho'l" va suspendirlash asosida mahalliy xom-ashyolardan asetilenni katalitik gidratlash ZnO·Fe₂O₃:Cr₂O₃:MnO₂:V₂O₅/YuKS reaksiyalari uchun termik barqaror, yuqori faollik, selektivlik va unumdorlikka ega bo'lgan

nanokatalizatorlar yaratildi. Asetilenni katalitik gidratlash termodinamik jihatdan asoslandi. Ilk bora katalitik atsetilenni gidratlab atseton olishning takomillashtirilgan va kam chiqindili ixchamlashtirilgan texnologiyalari ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Akolekar D. B., Bhargava S. K. (2000) Adsorption of NO and CO on silver-exchanged microporous materials // *J. Mol. Catal. A: Chem.* 157(1-2). P. 199-206.
2. Antony S., Bayse C. A. (2009) Theoretical Studies of Models of the Active Site of the Tungstoenzyme Acetylene Hydratase // *Organometallics*. 28(17). P. 4938-4944.
3. Astruc D. (2007) *Organometallic Chemistry and Catalysis*. Berlin: Springer-Verlag. 597 p.
4. Carey F. A., Sundberg R. J. (2007) *Advanced Organic Chemistry. Part A: Structure and Mechanisms*. NY. Springer Science Business Media. 1199 p.
5. Carey E A., Sundberg R J. (2007a) *Advanced Organic Chemistry. Part B: Reactions and Synthesis*. NY. Springer Science i-Business Media. 1321 p.
6. CatakS., MonardG, Aviyente V., Ruiz-Lopez M. F. (2009) Deamidation of Aspara-gine Residues: Direct Hydrolysis versus Succinimide-Mediated Deamidation Mechanisms // *J. Phys. Chem A*. 113(6). P. 1111-1120.
7. Chen H. T., Chang J. G, Chen 11. L. (2008) A Computational Study on the Decomposition of Formic Acid Catalyzed by (H₂O) , x = 0-3: Comparison of the Gas-Phase and Aqueous-Phase Results // *J. Phys. Chem. A*. 112(35). P. 8093-8099.
8. Ching-Shiun Chen, Jarrn-liornng Lin, Iisiu-Wei Chen. (2006) Hydrogen adsorption sites studied by carbon monoxide adsorption to explain the hydrogenation activity of benzene on Pd and Pt catalysts // *Appl Catal A: General*. 298. P. 161-167.
9. Omanov B.Sh. Islomova G.F. // Asetilenni katalitik gidratlash reaksiyasi uchun katalizator yaratish// ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/si. 2023
10. Omanov B.Sh. Islomova G.F. //Catalyst regeneration in acetone production// Proceedings of the 9th International Scientific and Practical Conference «Global and Regional Aspects of Sustainable Development» (October 6-8, 2023). Copenhagen, Denmark. 2023



UDK: 543:541:57.74:135.5.546.212

Erkin RUZIYEV,
Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti dotsenti
Jamshid RUZIYEV,
Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Baxtigul USMONOVA,
Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti magistranti
E-mail: Jama_889@mail.ru

Analitik kimyo kafedrası professorı, k.f.d. A.E. Abduraxmanov taqrızı asosida

YER OSTI SUVLARINING MINERAL TARKIBI VA RADIOAKTIVLIGINI ANALITIK BAHOLASH

Аннотация

Ushbu maqolada yer osti ichimlik suvlarining ichishga yaroqlilik xususiyatlarini mineral tarkibni tashkil etuvchi ingredientlarning konsentratsiyasini analizning kimyoviy, elektrokimyoviy (ionometrik), spektroskopik usullarda aniqlash natijalari hamda ularning radioaktivlik xossalari aniqlash natijalari keltilgan. Yer osti ichimlik suvlarining radioaktivlik xususiyatlari ular tarkibidagi Ra-226, Th-232, K-40, Cs-137 va Rn-222 kabi izotoplari miqdorini o'rganish asosida baholandi.

Kalit so'zlar: Yer osti suvi, analiz, elektrokimyo, radioaktivlik, spektroskopiya, kimyoviy, tarkib, elektrod, ion.

АНАЛИТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА МИНЕРАЛЬНОГО СОСТАВА И РАДИОАКТИВНОСТИ ПИТЬЕВЫХ ВОД

Аннотация

В статье представлены результаты химических, электрохимических (ионометрических), спектроскопических методов определения и пригодности подземных питьевых вод, концентрации ингредиентов, входящих в минеральный состав, а также результаты определения их радиоактивных свойств. Радиоактивные свойства подземных питьевых вод оценивались по количеству в их составе таких изотопов, как Ra-226, Th-232, K-40, Cs-137 и Rn-222.

Ключевые слова: Подземная вода, анализ, электрохимия, радиоактивность, спектроскопия, химический, состав, электрод, ион.

ANALYTICAL ASSESSMENT OF GROUNDWATER MINERAL COMPOSITION AND RADIOACTIVITY

Annotation

This article presents the results of chemical, electrochemical (ionometric), spectroscopic methods of determining the portability of underground drinking water, the concentration of ingredients that make up the mineral composition, and the results of determining their radioactivity properties. The radioactivity properties of underground drinking water were evaluated based on the amount of isotopes such as Ra-226, Th-232, K-40, Cs-137 and Rn-222 in their contents.

Key words: Groundwater, analysis, electrochemistry, radioactivity, spectroscopy, chemical, composition, electrode, ion.

Kirish. Ichimlik suvi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida-suvlarning hisobi, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta'sirini oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, xavfsizlik darajasi yuqori bo'lgan suv obyektlarini ekspertiza qilish ishlarida malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilish kabi vazifalarni qo'ydi.

Atrof-muhitning ekologik tozaligi insonlar salomatligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham atrof-muhit namunalari turli xil ifloslanishdan, jumladan radioaktiv ifloslanishdan muhofaza qilish, atrof-muhit radioaktivligi o'zgarishini nazorat qilish, ifloslanishni kamaytirish, oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hozirgi zamon ekotizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ichimlik suvlarining tarkibidagi qo'shimchalar asosan noorganik yoki organik tabiatga ega. Noorganik aralashmalarni aniqlash jarayonidagi analitik muammolar organik tavsifli qo'shimchalarnikidan bir muncha yengilroqdir. Har ikki holatdagi moddalar yoki ionlar miqdorini aniqlash esa zamonaviy o'lchov vositalari asosida amalga oshiriladi [1].

Tanlangan usullarning ishonchligi avvalo aniqlanadigan moddalarning fizik-kimyoviy xossalari, usulning tavsifi to'g'riligi va h.k.z. larga bog'liq [2].

Suv barcha tirik mavjudot olami uchun eng muhim hayotiy omillardan biri hisoblanadi. Oddiy suvning iste'moli organizmni zararli kimyoviy moddalar bilan zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Respublikamizda hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan tashqari aholi iste'moli uchun ham zarur bo'lgan yer usti va yer osti suvlarining ichishga yaroqliligini baholash ham eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ichimlik maqsadlarida rejalashtirilayotgan yer osti suvlariga qo'yilayotgan talablardan yana biri ularning radioaktivlik xususiyatlari bo'lib, bundan oziqlanayotgan aholiga ko'rsatayotgan zararlari ham baholash dolzarbdir.

Analiz qilinadigan turli tarkibli obyektlar tarkibidagi alohida modda yoki ionlarni selektiv ravishda aniqlashda ion selektiv elektrodning o'rni beqiyosdir. Tabiiy va texnologik obyektlar analizida ionometriyadan foydalanish asboblarning oddiyligi, analiz jarayonlarining avtomatlashtirish imkoniyati yuqoriligi, analiz natijalarini hisoblashda kompyuter

texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatlari ionometriyaning keyingi rivojida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Keyingi paytlarda mualliflarning asosiy e'tibori fermentativ elektrodga qaratilgan [3-4]. Usulning o'ziga xosligi ion selektiv elektrodlardan indikator elektrodi sifatida foydalanishga asoslanganligidir [5]. Tanishib chiqish tavsiya etilayotgan [6] qo'llanmada natriy, kalsiy, vodorod, kaliy, nitrat, ammoniy, sulfid, yod, sianid kabi kation va anionlarni, har bir ion uchun tanlangan maxsus ion selektiv elektrodlar yordamida aniqlash usullari, ftorid va sulfid ionlari uchun qo'llaniladigan tuz membranali elektrodlardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar to'plangan.

Zararli moddalar suvga nafaqat inson faoliyati tufayli tushadi, balki bunga tabiatning o'zi ham o'z hissasini qo'shib turadi va suvni qo'shimcha tarkibiy qismlar, ayniqsa, karbonatlar hamda ba'zi qo'shimchalar bilan boyitadi [7].

Oldindan kaliy ionlarini aniqlashda qo'llaniladigan optimal reaktiv fosfovolfram kislota hisoblanadi. Uni kaliy kationlari bo'lgan eritmaga qo'shilsa $K_5H[PW_{12}O_{40}]_2 \cdot 6H_2O$ cho'kmaga tushadi.

$5KCl + 2H_3[PW_{12}O_{40}] + 6H_2O = K_5H[PW_{12}O_{40}]_2 \cdot 6H_2O + 5HCl$. Cho'kmaning 25 °C dagi eruvchanligi 0,00116 g/100 ml H_2O .

Inson va hayvon organizmida kaliy asosiy ichki to'qimalar kationi bo'lib, muhim vazifalarni bajaradi; yurak urishini normallashtirish; to'qima va to'qimalararo suyuqlik tarkibining doimiyligini saqlaydi; kislota-ishqor muvozanatini saqlaydi; to'qimalararo munosabatni ta'minlaydi; asab-mushak qo'zg'aluvchanligi va o'tkazuvchanligini quvvatlaydi; to'qimalarning bioelektrik faolligini ta'minlaydi; yurak qisqarishining asab boshqaruvida ishtirok etadi; osmotik bosimning suv-tuz balansini ta'minlaydi; uglevod va oqsil almashinuvida katalizator vazifasini bajaradi; qon bosimi darajasini normallashtiradi; miyaning kislorod bilan ta'minlanishini yaxshilaydi; allergiyani davolashda yordam beradi; buyrakning ajratish funksiyalarini ta'minlanishida ishtirok etadi.

[8] maqolada eritmada magniy ionlari miqdorini aniqlashda fosfomolibden kislota asosidagi kompleks tuzlardan magniy selektiv elektrod ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar asosida magniy ionlari miqdorini ionometrik aniqlash natijalari keltirilgan. Magniy ionlari miqdorini ionometrik aniqlash natijalarining to'g'riligini energiya dispersiv rentgen spektroskopiya usuli yordamida ham tekshirilib, natijalar o'zaro taqqoslangan. Ishlab chiqilgan magniy selektiv elektrod atrof-muhit obyektlari, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulatlari sanoatda foydalaniladigan suvlar, ichimlik suvlari tarkibidagi magniy ionlari konsentratsiyasini ionometrik aniqlashda qo'llashga tavsiya etilgan.

Yer osti va yer usti ichimlik va oqova suvlarining analitik monitoringi muhim muammo bo'lib, [9] ishda bunday suvlar tarkibidagi turli ingredientlar analizning kimyoviy, elektrokimyoviy (ionometrik, konduktometrik) va optik (fotometrik, spektroskopik) usullari yordamida baholangan natijalar muhokama qilingan. Bunda kationlardan ammoniy, kalsiy, magniy, natriy, kaliy hamda anionlardan nitrat, gidrofosfat, sulfat, xlorid kabi ionlarning analitik namunalari tahlil qilingan [10].

Tabiiy suvlarda ammiakning erishi natijasida hosil bo'lgan ammoniy ionlari organik birikmalarning azotli hosilalaridan hosil bo'ladi. Ammoniy ionlari sanoat oqova suvlarining ta'sirida ham yer usti va yer osti suvlari tarkibiga kirib qolgan. Ammoniy ionlarining konsentratsiyasi kuz-qish fasllarida ortadi. Qayd etilgan moddalar konsentratsiyasi o'simliklarning fotosintez natijasida ularni intensiv ravishda o'zlashtirilishi oqibatida bahor va yoz fasllarida kamayadi. Ammoniy ionlarining ichimlik suvlarida miqdoriy jihatdan ortishi uning sanitar holatining yomonlashuviga sabab bo'ladi [11].

Radon Rn^{222} yer osti suvlari uchun tabiiy radioaktivlik manbai hisoblanadi. Tabiiy suvda alfa radioaktiv nurlanish darajasini aniqlash suvning radiologik sifatini muntazam ravishda monitoring qilishda hal qiluvchi vazifadir. Suvning alfa radioaktivligi ikki qismdan iborat bo'lib, biri suv tarkibidagi ^{238}U va ^{232}Th parchalanishi seriali mavjud qattiq radionuklidlarning alfa faolligi bilan, ikkinchisi esa suvda erigan radon gazining alfa faolliligi bilan bog'liq. Alfa zarralari boshqa kiruvchi nurlanishlarga qaraganda ta'sirlangan tirik to'qimalarda chiziqli energiya uzatish (ChEU) yuqori qobiliyatiga ega. Alfa zarrachalari inson tanasining bir organi bo'lib harakatlanayotganda, u energiyani uzatish orqali to'liq to'qimalarning atomlari yoki molekullarini zich ionlashtirishi yoki barqarorlashtirilishi mumkin. Alfa nurlanishning organlarga uzoq vaqt ta'siri, ta'sirlangan to'qimalarda yoki hatto inson tanasining butun organida sezilarli biologik shikastlanishga olib kelishi mumkin. Bu esa DNK ga nisbiy biologik ta'siri kuchayishi, xromosomalarning sinishi va translokatsiyasiga va saraton kasalligini kelib chiqishiga sabab bo'lishi ma'lum. Oshqozon saratoni xavfi yuqori konsentratsiyali radonli suv ichish bilan bog'liq. Shuning uchun tabiiy suvdagi alfa radioaktivlik darajasini aniqlash bunday suvning inson hayoti va sog'lig'i uchun radiologik jihatdan xavfsiz ekanligini aniqlash uchun juda muhimdir [12-13].

Ushbu tadqiqotda ichimlik suvi resurslaridagi radon konsentratsiyasini va Havraman qishloqlaridan olingan tuproq namunalarda tabiiy birlamchi radionuklidlarni aniqlash uchun RAD7 va NaI(Tl) usullaridan foydalanilgan. O'lchangan radon konsentratsiyasi $1,7 \pm 0,6$ dan $34,0 \pm 2,8$ Bk/l⁻¹ gacha, o'rtacha arifmetik $14,8 \pm 1,2$ Bk/l⁻¹ bo'lgan. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ichimlik suvi namunalarning taxminan 54% EPK tomonidan tavsiya etilgan 11,1 Bk/l⁻¹ darajasidan oshadi.


Ichimlik suvi inson hayotining asosiy manbai bo'lib, uning sifati uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlaridan kelib chiqib muhofaza qilinishi kerak. Yaqinda Evropa Direktivasi 51/2013 a'zo davlatlar uchun ichimlik suvi radioaktivligini nazorat qilish majburiyatini kiritdi. Suv, boshqa ko'plab atrof-muhit resurslari kabi, tabiiy va yoki sun'iy radionuklidlarni o'z ichiga olishi mumkin. Yer osti qatlamlarining geologik xususiyatlari va antropik ifloslanish chuchuk suvlarda radionuklidlar faolligi konsentratsiyasini oshirishga yordam berishi mumkin, chunki, masalan, uran jinslarining mavjudligi va atrof-muhitga radiofarmatsevtik moddalarning tarqalishi ^{222}Rn va 3H va yillik indikativ doza. Ichimlik suvining radioaktivligini o'lchashda eng ko'p qo'llaniladigan usul suyuqlikning ssintilatsiyasini hisoblash hisoblanadi [14].

Tajribaviy qism. Tabiiy va sun'iy kelib chiqishga ega bo'lgan radionuklidlar suv, havo, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa yo'llar bilan kishilar organizmiga o'tadi. Ichimlik suvlari tarkibidagi mineral deb hisoblangan turli tarkibiy qismlardan iborat qo'shimchalarning ortiqcha miqdori ham inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tajribalar har ikki holatni ham o'rganishga qaratilgan.

Tabiiy suv tarkibidagi kalsiy, natriy, kaliy, nitrat kabi ionlarning konsentratsiyalari aniqligi, sezgirligi va selektivligi jihatidan boshqa elektrokimyoviy va kimyoviy analiz usullaridan ustunlikka ega bo'lgan hamda ion selektiv elektrodlar qo'llashga asoslangan ionometrik analiz usullaridan foydalanib aniqlandi. Taqqoslash yoki yordamchi elektrodlar sifatida esa Ag/AgCl li hamda kalomel elektrodlaridan foydalanildi. Kaliy va kalsiy aniqlashda qo'llaniladigan ion selektiv elektrodlar esa polivinilxlorid membranali ion o'tkazgich elektrodlar hisoblanadi. Bunday elektrodlardan foydalanishda elektrodning ichki eritmasi sifatida mos ravishda 0,1 normalli standart eritmalaridan foydalandik. Xlorid va sulfat ionlarini aniqlashning kimyoviy usullaridan cho'ktirishga asoslangan gravimetriya uslubini qo'lladik.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Yer osti ichimlik suvlarining radioaktivlik xususiyatlari ssinsilatsion gamma spektrometrik, ularning kimyoviy tarkibini baholovchi ingrediyentlarning miqdori esa kimyoviy va elektrokimyoviy usullar yordamida amalga oshirildi.

Quyidagi 1-rasmda Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani hududiy suvlaridan olingan yer osti suvining gamma spektri keltirilgan.



1-rasm. Qo'shrabot tumani Oltibek qishlog'i yer osti suvining gamma spektri (ko'k rangda tabiiy fon, qizil rangda ^{222}Rn).

Rasmdagi ^{222}Rn gamma spektrining natijasini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$A = A_{\text{Ra}} + 3,7A_{\text{Th}} + 0,0146A_{\text{K}} = 2,6624 + (3,7 \cdot 1,9826) + (0,0146 \cdot 18,821) = 10,273$$

Aniqlangan ^{222}Rn ning miqdori yer osti ichimlik suvi uchun belgilangan meyoridan ancha pastligini qayd etib o'tish mumkin.

Yer osti ichimlik suvlarida radioaktiv ionlarning ruxsat etilgan miqdorini (REM) bilish orqali bu suvlarining ichishga yaroqli ekanligini aniqlay olishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda ba'zi ionlarning ichimlik suvi tarkibidagi ruxsat etilgan miqdorlari hamda Qo'shrabot tumani Mayintepa MFY (Mayintepa, Solpi, Oltibek) qishloqlaridan suv namunalari olinib, radioaktivligi tekshirildi va bir-biriga solishtirildi (1-jadval).

1-jadval

Mayintepa MFY ga qarashli qishloqlardan olingan suv namunalarning radioaktivlik darajalari.

№	Ion	Ichimlik suviga REM, Bk/l	Mayintepa qishlog'i suvi, Bk/l	Solpi qishlog'i suvi, Bk/l	Oltibek qishlog'i suvi, Bk/l
1	Rn^{222}	60	10,51	10,12	10,273
2	Ra^{226}	5,49	< 2,7576	< 2,6404	< 2,6624
3	Th^{232}	6,43	< 2,0193	< 1,952	< 1,9826
4	K^{40}	13,7	< 18,82	< 17,622	< 18,821
5	Cs^{137}	3,10	2,6474	< 1,1675	< 1,1772

Biz analiz qilgan Mayintepa MFY (Mayintepa, Solpi, Oltibek) hududidagi yer osti ichimlik suvlarining ichishga yaroqlilik xususiyatlari taqqoslandi.

Bundan tashqari yer osti va yer usti suvlarining radioaktivlik xususiyatlarini baholash davomida ularning kimyoviy tarkibini ham uning ichishga yaroqlilik xususiyatlari asosida aniqladik.

Radiatsion nurlanishni inson organizmiga ta'siri oldindan ma'lum bo'lib, u quyidagilardan iborat.

1. Genetik mutatsiya ta'sirida kelajak avlodlarda o'zgarish yuz berishi;
2. Onalarda homiladorlik paytida nurlanishi oqibatida homilada bo'ladigan turli o'zgarish jarayonlari;
3. Radiatsiyaning ruxsat etilgan miqdoridan ortiqcha nurlanish inson organizmida kam qonlik kasalligini keltirib chiqarishi;
4. Ortiqcha radioaktiv nurlanish natijasida insonning bevosita o'limiga olib kelishi kabilarga bog'liq.

Yer yuzidagi nafaqat insonlar, balki barcha tirik mavjudotlar hamisha ma'lum miqdordagi radiatsiyani qabul qiladi. Yer usti va yer osti suvlari tarkibida ma'lum chuqurlikkacha bo'lgan yerning hosildor qismida va ular vositasida yaratiladigan oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida ham, albatta, radioaktiv xususiyatga ega bo'lgan turli radioaktiv izotoplar mavjud. Ammo insonlar ularni qanchalik darajada qabul qilishi va organizmida saqlashi odamlarning oziqlanish tartibiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Radonning suvda erishi suv temperaturasiga bog'liq bo'lib, temperatura ko'tarilishi bilan suvda radon erishi kamayadi. Radonning suvlardagi erishi suvning kimyoviy tarkibiga ham bog'liq bo'ladi. Suvda menerallar ko'p bo'lsa, radonning erishi kam bo'ladi. Radon organik suyuqliklarda ham yaxshi eriydi. Masalan zaytun yog'ida, neftli suvlarda yaxshi eriydi. Davolash maqsadlarida turli xil, xususan, surunkali kasalliklarda radonli vannalar, radonli ingalatsiya kabi jarayonlardan ham foydalaniladi. Davolanishdagi terapevtik samara radonning radiatsion ta'siri bilan bog'liq. Radonli suvlar tarkibida konsentratsiyaning eng kichik chegarasi 185-370 Bk/l gacha bo'lishi mumkin. Ichimlik suvlarida esa ruxsat etilgan me'yor bo'yicha 60-80 Bk/l dan oshmasligi zarur.

Quyidagi 2-jadvalda keltirilgan ingrediyentlarning miqdoriy nisbatlari analiz uchun olingan suv namunalari bir-biridan 800-1000 metr masofada joylashgan bo'lsada ma'lum darajada farq qilishini kuzatish mumkin.

2-jadval

Qo'shrabot tumanida bir-biridan 1 km gacha masofada joylashgan qishloqlar yer osti suvlari tarkibiy qismlarining o'zgarishi natijalari

№	Ion	Mayintepa qishlog'i mg/l	Solpi qishlog'i mg/l	Oltibek qishlog'i mg/l
1	Ca^{2+}	1,12	1,84	5,400
2	Mg^{2+}	1,23	1,78	5,210
3	Na^+	2,32	2,74	2,900
4	K^+	2,40	3,33	2,100
5	Cl^-	80,2	78,8	70,10
6	SO_4^{2-}	108,4	116	106,9

O'rganilgan yer osti suvlari tarkibidagi kation va anionlarning miqdoriy ko'rsatkichlari bir-biridan keskin farq qilmasligini kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Ishda Qo'shrabot tumanidagi yer usti suvlari mavjud bo'lmagan qishloq aholisini ichish maqsadlarida foydalanib kelayotgan artezian suvlarining ichishga yaroqlilik xususiyatlarini birinchi marta ularning radioaktivlik xususiyatlari va mineral tarkibni tashkil etuvchi ingredientlarning ruxsat etilgan me'yorlari darajasida baholandi. Yer osti suvlarining har yili ma'lum darajada kamayib borayotganligini hisobga olib, foydalanish uchun tanlangan yer osti ichimlik suvlarining yillik analitik nazoratini tashkil etish zarurligi taklif etildi.

ADABIYOTLAR

1. Лейте В. Определение органических загрязнений питьевых природных и сточных вод. Пер. с нем., род. д.х.н. Ю.Ю. Лурье. М.: Химия, 1975. -с. 1-27.
2. Дмитриев М.Т. Казнина Н.И., Пинигина И.А. Санитарно-химический анализ загрязняющих веществ в окружающей среде. Справ. изд. –М.: Химия, 1989. -с. 13-18.
3. Демина Л.А., Краснова Н.Б., Юрищева Б.С., Чупахин М.С. Ионметрия в неорганическом анализе. М.: Химия, 1991. -с. 5-29.
4. Байулеску Г., Кашофреэ В. Применение ион-селективных мембранных электродов в органическом анализе. М.: Мир, 1980. -с. 8-37.
5. Ruziyev E.A. Ionometriya. O'quv qo'llanma. Samarqand. Samdu nashri. 2021. –268 b.
6. Ruziyev E.A. Ruziyev J.E. Ionometriya (laboratoriya amaliy mashg'ulotlari). O'quv qo'llanma. Samarqand. Samdu nashri. 2023. –204 b.
7. Pol Bregg, Patritsiya Bregg. Toshkent. Sano standart nashriyoti. 2015. -b. 3-27.
8. Ruziyev J.E., Abduraxmanov I.E., Ruziyev E.A. Ionometric determination of magnesium ions in natural objects // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 12(114). Москва-2023. с. 30-34.
9. Ruziyev J.E., Abduraxmanov I.E. Ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy ionlarini aniqlashda ionometriyaning o'rni. // O'zMU xabarlari. Toshkent-2023. №3/2. –b. 315-318. ISSN 2181-7324 (02.00.00 №12).
10. Ruziyev J.E., Abduraxmanov I.E. Ichimlik suvlari tarkibidagi kalsiy ionlarini aniqlashda ionometriyaning o'rni. // O'zMU xabarlari. Toshkent-2023. №3/2. –b. 315-318. ISSN 2181-7324 (02.00.00 №12).
11. Водоснабжение и санитарная техника. Статья напис. по матер. комп. ООО «Ионоформ Аналитика». №7, М.: 2008. - с. 45-52.
12. Biswajit Das, Argha Dev. Theoretical evolution of calibration factor for CR-39 track detector for alpha radioactivity measurement in natural water. Radiation Physics and chemistry. vol. 185, 2021, 109-511.
13. Adeb Omer Jafir. "Investigation of radioactivity level in drinking water resources and soil samples collected from the Hawraman villages, Iraq". Applied Radiation and Isotopes. Volume 194, April 2023, 110665. <https://doi.org/10.1016/j.apradiso.2023.110665>.
14. C. Cantaluppi a, D. Zannoni a b, A. Cianchi c, W. Giacetti d, B. Lovisetto d, E. Pagnin e, T. Favero e. "Methods for radioactivity measurements in drinking water using gamma spectrometry". Journal of Environmental Radioactivity. Volume 232, June 2021, 106566. <https://doi.org/10.1016/j.jenvrad.2021.106566>



Saidmansur SAIDOBBOZOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: saidabbosovsaidmansur@mail.com

Suvonqul NURMANOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori

Dilorom MIRXAMITOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali o‘qituvchisi

STUDYING THE EXPLORATION PROPERTIES OF POLYMETHYLENE SULPHOCATION EXITE BASED ON INDENE.

Annotation

In this work, based on the indene material extracted from the pyrolysis oil of hydrocarbons, the expansion properties of polymethylene indenensulfocationite were studied in accordance with GOST requirements, that is, specific mass of the cationite, moisture content of the cationite, specific volume of the cationite, static exchange capacity, dynamic exchange capacity, etc. For comparative purposes, the commercially available KU-2-8 cation was taken for comparison.

Key words: polymethyleneindene sulfonic cationite, moisture, specific gravity, specific volume, static exchange capacity, dynamic exchange capacity.

ИЗУЧЕНИЕ РАЗВЕДОЧНЫХ СВОЙСТВ ПОЛИМЕТИЛЕНСУЛЬФО КАТИОНИТА НА ОСНОВЕ ИНДЕНА.

Аннотация

В данной работе на основе инденового материала, выделенного из пиролизной нефти углеводородов, исследованы расширяющие свойства полиметилденсульфокатионита в соответствии с требованиями ГОСТ, то есть удельная масса катионита, влажность катионита, удельный объем катионит, статическая обменная емкость, динамическая обменная емкость и др. Для сравнения был взят коммерчески доступный катион KU-2-8.

Ключевые слова: полиметиленинденсульфокатионит, влага, удельная масса, удельный объем, статическая обменная емкость, динамическая обменная емкость.

INDEN ASOSIDA SINTEZ QILINGAN POLIMETILENINDENSULFO KATIONITNING EKSPOLATSION XOSSALARINI O‘RGANISH

Аннотация

Ushbu ishda uglevodorodlar pirolizi jarayonidan hosil bo‘ladigan piroliz moyi tarkibida ajratib olingan inden moddasi asosida polimetilenindensulfokationitning GOST talablariga muvofiq tarzda eksplotatsion xossalari yani kationitning solishtirma massasini, kationitning namligini, kationitning solishtirma hajmini, statik almashinuv qobiliyatini, dinamik almashinuv qobiliyati kabi xossalari o‘rganildi. Solishtirish maqsadida taqqoslash uchun, tijoratda mavjud bo‘lgan KU-2-8 kation olindi.

Kalit so‘zlar: polimetilenindensulfokationit, namlik, solishtirma massa, solishtirma hajm, statik almashinuv sig‘im, dinamik almashinuv sig‘im.

Kirish. Ikkilamchi maxsulotlardan oqilona foydalanish, ular asosida import o‘rnini bosuvchi maxsulotlar olish dolzab muammolardan biridir. Ushbu ishda uglevodorodlar pirolizi jarayonida hosil bo‘ladigan piroliz moyi tarkibidan inden moddasi ajratib olindi. Inden asosida polimetilenindensulfokationit sintez qilindi va kationitning eksplotatsion xossalari o‘rganilib tijoratda mavjud kationit xossalari bilan taqqoslandi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Kationitlarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalari aniqlash uchun ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan organik va mineral aralashmalardan tozalash orqali ishga tayyorlanadi. Dastlab ishqor va kislotalar eritmaları, so‘ngra distillangan suv bilan neytrallanguncha yuvib tayyorlanadi. Ko‘pgina kationitlar uchun ishqor sarfi ionitning 1 hajmiga taxminan 5% ishqor eritmasining 15 hajmini tashkil qiladi. Ishqoriy ishlovdan so‘ng kationit 10 hajm distillangan suv bilan, so‘ngra HCl eritmasi bilan avval 5 hajm 5% li eritma, keyin 5 hajm 10% eritma bilan yuviladi. [1]. Kationitlarning muhim xususiyatlaridan biri ionogen guruhlarining konsentratsiyasi yoki almashinish sig‘imi hisoblanadi. Kationitlarning almashinish sig‘imi quruq holatda massa birligida yoki bo‘lgan holatda hajm birligida funksional guruhlar soni orqali aniqlanadi, shunga ko‘ra mg-ekv/g yoki mg-ekv/sm³ bilan ifodalanadi [2].

Kationitlarning umumiy almashinish sig‘imi potentsiometrik titrlash, elementar tahlili va boshqa usullarda aniqlanadi. Kationitlarning almashinish sig‘imini aniqlashning ikkita asosiy usuli mavjud: statik va dinamik. Statik usulda ion almashinuvchisining namunasi muvozanat o‘rnatilguncha eritmaning ma‘lum bir hajmi bilan ta‘sirlashadi, dinamik usulda eritma ion almashinuvchisi bilan to‘ldirilgan kolonka orqali o‘tadi. Kolonkadagi yutilishni dinamik ko‘rsatkichlarini tavsiflash uchun statik almashinuv quvvatiga teng bo‘lgan to‘liq dinamik almashinuv quvvati va olingan komponentning o‘tishidan oldin dinamik almashinuv quvvati ishlatiladi. Boshlang‘ich dinamik almashinish qobiliyatining to‘liq dinamik almashinish qobiliyatiga nisbati kolonkaning geometrik shakli, eritmaning o‘tish tezligi, uning konsentratsiyasi va boshqalar bilan belgilanadi [3,4,5, 6, 7].

Tadqiqot metodologiyasi. Sintez qilingan polimetilenindensulfokationit xossalari xalqaro GOST talablariga muvofiq sinovga tayyorlandi hamda xar bir sinov jarayonlari GOST talablariga asosan o‘tkazildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot GOST 10896-78 [8] xalqaro standartiga muvofiq, kationit vazifasini bajaradigan indendan olingan fazoviy konfiguratsiyaga ega polimetilenindensulfokationitni sintez qilish jarayonida o‘tkazildi. GOST 10896-78 ion

almashinadigan qatronlarga tegishli bo'lib, ularning fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlarini baholash uchun sintez qilish usullarini belgilaydi. Kationit ishlab chiqarish jarayonida foydalanishdan oldin, ham organik, ham noorganik moddalar gidroksidi va keyinchalik kislota eritmalarini o'z ichiga olgan ketma-ket yuvish jarayonidan o'tadi.

Sintezlangan sulfokationitlarning ishlash xususiyatlari quyidagicha tahlil qilindi:

- kationitning solishtirma massasini o'lchash;
- kationitning namligini baholash;
- kationitning solishtirma hajmini aniqlash;
- kationitning statik almashinuv qobiliyatini baholash;
- Kationitning dinamik almashinuv qobiliyatini baholash.

Kationitning solishtirma massasi - uning birlik hajmdagi massasi (t/m^3 , kg/dm^3 , g/sm^3) bilan belgilanadi. Kationitlarning solishtirma massasi GOST 10898.2-74 [9] standartiga muvofiq belgilanadi. Taqqoslash kationitning massasi va uning hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Bunga erishish uchun 50 gramm ionit massasi 0,001 grammdan oshmaydigan aniqlikda ehtiyotkorlik bilan o'lchanadi, so'ngra GOST 1770-74 standartida ko'rsatilganidek, silindrga (xususan, 1-100 turdagi) joylashtiriladi. Keyinchalik, ionit kationit qatlamining siqilishi to'xtatilgunga qadar yog'och sirtga ta'sir qiladi. Keyin kationit bilan to'ldirilgan hajm $23 \pm 5^\circ C$ gacha bo'lgan haroratda nazorat qilinadigan sharoitlarda aniqlanadi. Nisbiy massa (X_1) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X_1 = \frac{m}{v}$$

Bu erda m - ionitning massasi (g); v - ionitning hajmi (sm^3).

Sinov uch marta o'tkaziladi va uning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi, ular orasidagi o'rtacha farq 5% dan oshmasligi kerak. Nisbiy massa ionit uchun doimiy qiymat emas, chunki uning qiymati ionning shakli, pH va suvdagi ionitlarning tarkibiga bog'liq va 1,1 dan 1,6 - 1,9 gacha bo'lgan qiymatlarga ega.

Yuqoridagi GOST talablariga muvofiq sintez qilingan polimetilenindensulfokationitning solishtirma massasi aniqlandi.

(1-jadval).

Kationitlarning solishtirma massasi

No	Kationitlar	Massasi(g)	Hajmi(dm3)	Solishtirma massasi(g/dm3)
1	polimetilenindensulfokislota kationit	50	72	695
3	KU-2-8	50	67	750

Indandan olingan polimetilenindensulfokationitning hisoblangan solishtirma massasi KU-2-8 sulfokationitiga juda o'xshaydi.

Kationitning namligi - ushbu tadqiqot kationitning suvni ushlab turish qobiliyatini, xususan, sulfokationitning ichidagi suv massasining uning quruq massasiga nisbati (%) o'rganildi. Suv miqdorini o'lchash uchun namlik analizatori ishlatilgan.

Polimetilenindensulfokationitning tahlilga tayyorlash uchun dastlab u kationik kislota bilan ishlov berilgan, so'ngra neytral pH ga erishilgunga qadar distillangan suv bilan yaxshilab chayiladi, 24 soat davomida bo'ktiladi. Shundan so'ng, kationit Byuxner varonkasi yordamida vakuum sharoitida taxminan 3 daqiqa davomida filtrlanadi. Keyin tayyorlangan qatronning namligi namlik analizatori (XY-100MW modeli) yordamida aniqlandi. Tahlil natijasida kationit uchun 29,4% namlikni aniqladi. Taqqoslash uchun, tijoratda mavjud bo'lgan KU-2-8 kation namligi odatda 48% dan 58% gacha.

Kationitning solishtirma hajmi - bo'lgan holatda ion almashinuvchining solishtirma hajmi (V_s) sm^3/g da hisoblanadi. Kationitning solishtirma hajmi GOST 10898.4 - 84 [10] standartiga muvofiq aniqlandi. GOST 10896 talablariga muvofiq tayyorlangan H- formadagi kationit 12 soat bo'ktiladi va nam filtr qog'ozini bilan qoplangan Byuxner varonkasida vakuum yordamida (3+0,5) daqiqa filtrlandi. Namlik miqdori GOST 10898.1 bo'yicha aniqlandi. H- formadagi kationitning solishtirma hajmini aniqlash uchun 15 g tortiladi va 50 sm^3 hajmi silindriga solinib belgigacha suv bilan to'ldirildi. So'ng tiqin bilan yopildi va silindrni 3-5 marta 180° ga aylantirildi, shunda kationitning barcha donalari harakatlanishi kerak. Silindrning pastki qismi yog'och yuzaga urilib doimiy hajmga keltiriladi va hajmi o'lchanadi. Olingan natijalar quyidagi formula orqali aniqlandi.

$$V_s = \frac{V \cdot 100}{m \cdot (100 - W)}$$

Bu erda, V_s - solishtirma hajm (sm^3/gr); V - kationit hami (sm^3); m - kationit massasi (gr); W - namlik (%). Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2 -jadval

Sintez qilingan polimetilenindensulfokationitning solishtirma hajmi

No	Kationitlar turi	Massasi (g)	Hajmi (sm^3)	Solishtirma hajmi(sm^3/g)
1	Polimetilenindensulfokationit	15,004	29	2,74
3	KU-2-8	15,025	19	2,8

Olingan kationitlarning solishtirma hajmi 2,74 sm^3/g , solishtirish uchun KU-2-8 ning natriyli formasining solishtirma hajmi 2,8 sm^3/gr ga teng.

Kationitlarning almashinish sig'imini aniqlash.

Kationitlarning almashinish qobiliyatini aniqlashning ikkita asosiy usuli mavjud:

- statik almashinuv sig'imi (COE);
- dinamik almashinuv sig'imi (DOE).

Statik usul: Bu usulda biz oddiygina kationit namunasini eritmaga botiramiz va ion almashinuv muvozanat holatiga kelishini kutamiz. Bu shimib oluvchining suvga botirib, to'yingangacha namlash kabi.

Dinamik usul: Bu erda eritma ion almashinuvi qatroni bilan o'ralgan ustun orqali oqadi. Kationit bilan to'ldirilgan trubka orqali doimiy ravishda oqimning o'tishi orqali amalga oshiriladi. Dinamik almashinuv qobiliyati to'liq dinamik sig'im va boshlang'ich dinamik sig'im bilan tushuntirish mumkin.

To'liq dinamik sig'im: Bu ideal sharoitlarda dinamik usulda erishish mumkin bo'lgan maksimal almashinuv sig'imi. Bu nazariy chegarani ifodalovchi statik almashinuv sig'imiga teng.

Boshlang'ich dinamik sig'im: Bu maqsadli ionlar ustundan o'tishni boshlashdan oldin, dinamik jarayonning boshida almashinuv qobiliyatiga ishora qiladi.

Dinamik usulda (ustun) ion almashinuvining samaradorligi turli omillarga bog'liq. Ular quyidaglar ustun geometriyasi, oqim tezligi, eritma konsentratsiyasi, qatronlar zarrachalarining kattaligi, harorati va raqobatdosh ionlarning mavjudligi, pHga bog'liqlik kabi omillarga bog'liqdir.

Ionitning statik almashinish sig'imini aniqlash- Kationitlarning statik almashinish sig'imini aniqlash uchun GOST-20255.1-89 [11] standartdan foydalanildi. Bu usulda ishchi eritmaning doimiy hajmiga massa birligi yoki ion almashinuvchi hajmi bilan yutilgan ionlar miqdorini aniqlashdan iborat. Kationitni sinovga tayyorlash GOST 10896 ga muvofiq amalga oshirildi. Buning uchun H- formadagi kationit 12 soat bo'ktirildi va nam filtr qog'oz bilan qoplangan Byuxner voronkasida vakuum yordamida (3+0,5) daqiqa filtrlandi. Og'irligi 2,0 g bo'lgan ion almashinuvchining namunasi tortildi (aniqlik 0,0001 gr) va hajmi 250 sm³ bo'lgan konussimon kolbaga joylashtirildi. So'ngra pipetka yoki byuretk yordamida 100 sm³ 0,1 N li NaOH ning ishchi eritmasi quyildi va kolba og'zi tiqin bilan mahkam yopilib vaqti-vaqti bilan aralashtrilib turildi. Ion almashinuvchining ishchi eritma bilan o'zaro ta'siri davomiyligi 2-12 soat. Belgilangan vaqtdan so'ng kationit filtrlanib, olingan filtratdan 25 sm³ olinib titrlash kolbasiga solinib 3 tomchi fenolftaleinning spirtidagi eritmasi tomiziladi. So'ngra 0,1 N li HCl eritmasi bilan titrlanadi. Shu holat ikki marta takrorlanib olingan natijalarning o'rtacha arifmetik qiymati hisoblandi.

Tajriba natijasida 0,1 N HCl eritmasidan birinchi titrlash uchun V₁=11,6 ml, ikkinchi titrlash uchun V₂=11,5 ml sarflandi. O'rtacha arifmetik qiymati V(o'rtacha)=(11,6+11,5)/2=11,55 ml ni tashkil qildi. Umumiy statik almashinish sig'imini (Π_m) (mg-ekv/g) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\Pi_m = \frac{(V \cdot K_1 - K \cdot V_1 \cdot K_2) \cdot 100}{m(100 - W)} \cdot c$$

bu yerda, V - ishchi eritmaning hajmi(sm³); K - ishchi eritma hajmining titrlash uchun olingan eritma hajmiga nisbatiga teng koeffitsient; V₁ - ion almashinuvchi bilan o'zaro ta'siridan keyin eritma namunasini titrlash uchun sarflangan eritmaning hajmi(sm³); m - ion almashinuvchining massasi(g); W - namligi(%); c - ishchi eritma va titrlash eritmasining konsentratsiyasi(mol/dm³) c = 0,1; K₁ va K₂ mos ravishda ishchi eritma va titrlash eritmasi uchun tuzatish koeffitsienti.

Olingan natijalar 3 - jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Polimetilenindensulfokationitning umumiy statik almashinish sig'imini

№	Kationit	Massasi(gr)	Namligi(%)	Vs(sm ³ /g)	V ₁ o'rtacha (sm ³)	V(sm ³)
1	Polimetilenindensulfokationit	2,079	29,4	3,8	11,5	100
2	KU-2-8	2,085	58	2,8	12,2	100

Formula asosida hisoblash natijasida polimetilenindensulfokationit Π_m = 3,8 mg-ekv/g ga tengligi aniqlandi. Solishtirish uchun KU-2-8 ning Π_m = 4,6-4,8 mg-ekv/g ga teng.

Kationitning dinamik almashinish sig'imini aniqlash

Kationitlarning dinamik, ya'ni xarakatdagi almashinish sig'imini aniqlash uchun GOST- 20255.2-89 [12] standartdan foydalanildi. Buning uchun ishchi eritmadankationitga yutilgan ionlar miqdorini- kationit orqali o'tgan eritmaning uzluksiz oqimi bilan bo'lgan kationitning hajmi orqali aniqlashdan iborat. Kationitni sinovga tayyorlash GOST 10896 ga muvofiq amalga oshirildi. 600 sm³ bo'lgan stakanga kationitdan 150 g namuna olinib 200 sm³ distillangan suv quyildi. Kationit namunasi suvli suspenziya ko'rinishida 100 sm³ hajmdagi silindrga o'tkazildi va ion almashinuvchi qatlam siqilishi to'xtaguncha silindning pastki qismi qattiq yuzasiga urilib zichlandi. Kationit hajmi 100 sm³ ga etkazildi va kationit granulari orasiga havo pufakchalari tushmasligi uchun distillangan suv yordamida kolonkaga o'tkazildi. Ortiqcha suv kolonkadan chiqarib yuboriladi, bunda kationit sathidan 1-2 sm balandlikdagi qatlam qoldiriladi. Shundan so'ng kalonkadagi ionit yuqoridan pastgacha 1,0 dm³/soat tezlikda 5% li xlorid kislota eritmasi bilan, so'ngra distillangan suv bilan neytral bo'lguncha yuviladi.

Kationitlarning dinamik almashinish qobiliyatini aniqlash bir necha sikllardan iborat bo'lib, ularning har biri ketma-ket uchta bosqichni o'z ichiga oladi: to'yinish, regeneratsiya, yuvish jarayonidan iborat.

Kalonkaga olingan 100 sm³ hajmdagi kationit orqali CaCl₂ ning 0,1 N li ishchi eritmasi yuqoridan pastga qarab 8,3 sm³/min tezlikda o'tkazildi. Bunda o'tayotgan eritma tarkibida dastlabki ishchi eritma ionlari paydo bo'lganligi analiz qilinib borildi. Filtratda ishchi eritma ionlari paydo bo'lgan paytdagi hajm aniqlandi. Umumiy dinamik almashinish sig'imini uchun esa jarayon filtrlangan eritma va ishchi eritma konsentratsiyalari tenglashguncha davom ettirildi. Olingan umumiy filtrat 0,1 N li NaOH eritmasi bilan titrlandi. Huddi shu sikl ikki marta takrorlandi. Ikkala sikl natijalari farqi 5% dan oshmasligi kerak. Dinamik almashinish sig'imini quyidagi formula yordamida aniqlandi.

$$D = \frac{V_f \cdot c \cdot 1000}{V_i}$$

Bu yerda, V_f - ishchi eritmaning ionlari paydo bo'lgunga qadar ion almashinuvchidan o'tgan filtratning umumiy hajmi(sm³); c - ishchi eritmaning konsentratsiyasi(mol/dm³,N); V_i - ion almashinuvchining hajmi(sm³).

Umumiy dinamik almashinuv sig'imini (D₀) (g-ekv/m³) formula bo'yicha hisoblanadi.

$$D_u = \frac{(V_f \cdot c - \sum V_n \cdot c_n) \cdot 1000}{V_i}$$

Bu yerda, V_f - filtrat va ishchi eritma konsentratsiyalarni tenglashtirish uchun ion almashinuvchidan o'tgan filtratning umumiy hajmi(sm^3); c - ishchi eritmaning konsentratsiyasi(mol/dm^3 , N); V_n - ishchi eritmaning ionlari paydo bo'lgandan keyin filtrat qismining hajmi(sm^3); c_n - ishchi eritmaning ionlari paydo bo'lgandan keyin filtratning bir qismida eritmaning konsentratsiyasi(mol/dm^3 , N); V_i - ion almashinuvchining hajmi(sm^3).

4-jadval

Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.
Polimetilenindensulfokationitlarning dinamik almashinish sig'imi

№	Kationit	Vн (sm^3)	Namligi(%)	Vf (sm^3)	Vno'rtacha (sm^3)	DOE (mmol/m^3)
1	Polimetilenindensulfokationit	100	66	150	258	472
2	KU-2-8	100	48-58	172	292	500-520

Polimetilenindensulfokationit va KU-2-8 kationitlarning dinamik almashinish sig'imi mos ravishda $472\text{g}\cdot\text{ekv}/\text{m}^3$ va $500\text{g}\cdot\text{ekv}/\text{m}^3$ ga tengligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Piroliz moyi tarkibidan ajratib olingan inden asosida sintez qilingan polimetilenindensulfokationitning ayrim xossalari o'rganildi. Taqqoslash maqsadida olingan KU 2-8 kationitning xossalari bilan solishtirish natijasida polimetilenindensulfokationitning namligi 29,4%, solishtirma hajmi $2,74\text{ sm}^3/\text{g}$, statik almashinish sig'imi $3,8\text{ mg}\cdot\text{ekv}/\text{g}$, dinamik almashinish sig'imi mos ravishda $472\text{g}\cdot\text{ekv}/\text{m}^3$ ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Samsonov G.V., Pasechnik V.A. Ion Exchange and the Swelling of Ion-exchange Resins. October 2007. Russian Chemical Reviews 38(7): P. 547. DOI:10.1070/RC1969v038n07ABEH001761
- Kristy Touma, Tia Asmar, Pamela Abboud, Joya Cherfan. Ion Exchange Experiment. April 2021. DOI:10.13140/RG.2.2.35342.84809
- Комиссаренков А. А., Федорова О. В. Сорбционные технологии. определение свойств сорбентов: учебно-методическое пособие для выполнения курсовой работы / СПбГТУРП. – СПб., 2015. - 44 с.
- Soldatov V., Sosinovich Z., & Mironova T. Acid-base properties of ion exchangers. II. Determination of the acidity parameters of ion exchangers with arbitrary functionality. Reactive and Functional Polymers, 58(1), 2004. P. 13–26. doi:10.1016/j.reactfunctpolym.2003.11.004
- Егоров Н.Б., Шагалов В.В.. Определение ионообменной емкости ионита и равновесной концентрации редких элементов. Методические указания. Издательство Томского политехнического университета. 2012. С. 1-14.
- Жураев М.М., Юлдашева С.Х., Бекчанов Д.Ж., Мухамедиев М.Г. Физико-химические свойства нового сульфокатионита, полученного на основе пластиката поливинилхлорида. O'zbekiston kimyo jurnali, 2020, №2. С. 63-72.
- Самборский И.В., Выкуленко В.А. Ионообменные материалы. Их синтез и свойства. Екатеринбург.: Наука 1996. - 25 с.
- Межгосударственный стандарт ГОСТ 10896-78.
- Межгосударственный стандарт ГОСТ 10898.2-74.
- Межгосударственный стандарт ГОСТ 10898.4 – 84.
- Межгосударственный стандарт ГОСТ 20255.1-89
- Межгосударственный стандарт ГОСТ 20255.2-89



UDK: 547.73.724.1.821.316.314.2.260.2.

Muyassar SALIYEVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

E-mail: muyassar.saliyeva@mail.ru

Odiljon ZIYADULLAYEV,

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi

boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, kimyo fanlari doktori, professor

Saida ABDURAXMANOVA,

O‘zbekiston Milliy Universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Rifkat TALPOV,

Ufa fan va texnologiyalar universiteti, organik va bioorganik kimyo kafedrasini mudiri, kimyo fanlari doktori, professor

E-mail: talipov@mail.ru

O‘zMU professori M.Maxkamov taqrizi asosida

ALKYNYLATION REACTIONS OF SOME HETEROATOMIC ALDEHYDES IN THE PRESENCE OF ACETYLENE

Annotation

For the first time, using the ProPhenol/Me₂Zn/THF catalytic system, the process of synthesis of new types of acetylene alcohols was carried out based on the alkylation reaction with heteroatomic substituents containing in their molecule - 1-(thiophen-2-yl)-ethanone, 1-(3-methylthiophen-2-yl)-ethanone, 1-(5-chlorothiophen-2-yl)-ethanone, 1-(5-bromothiophen-2-yl)-ethanone, 1-(furan-2yl)-ethanone, 1-(pyridinyl-4)-ethanone enantioselective reaction of with acetylene. The influence of molar ratios of starting substances, reaction duration, temperature, nature and amount of catalyst and solvents on the product yield was studied. Based on the influence of heteroatoms in the aldehyde molecule on the yield of the product, the efficiency of the production of acetylene alcohols was determined, and their composition, purity and structure were identified using physicochemical methods.

Key words: Acetylene, heteroatomic aldehyde, prophenol, alkylation reaction, acetylene alcohol, reaction mechanism, spectroscopy.

РЕАКЦИИ АЛКИНИЛИРОВАНИЯ НЕКОТОРЫХ ГЕТЕРОАТОМНЫХ АЛЬДЕГИДОВ НА ОСНОВЕ АЦЕТИЛЕНА

Аннотация

Впервые с помощью каталитической системы ProPhenol/Me₂Zn/ТГФ был осуществлен процесс синтеза новых типов ацетиленовых спиртов на основе реакции алкинирования гетероатомными заместителями содержащих в своей молекуле- 1-(тиофенил-2)-этанон, 1-(3-метилтиофенил-2)-этанон, 1-(5- хлортиофенил-2)-этанола, 1-(5-бромтиофенил-2)-этанола, 1-(фуранил-2)-этанола, 1-(пиридинил-4)-этанола энантиоселективная реакция с ацетиленом. Изучено влияние мольных соотношений исходных веществ, продолжительности реакции, температуры, природы и количества катализатора и растворителей на выход продукта. На основании влияния гетероатомов в молекуле альдегида на выход продукта определена эффективность производства ацетиленовых спиртов, физико-химическими методами идентифицирован их состав, чистота и строение.

Ключевые слова: Ацетилен, гетероатомный альдегид, профенол, реакция алкинирования, ацетиленовый спирт механизм реакции, спектроскопия.

AYRIM GETEROATOMLI ALDEGIDLARNI ATSETILEN ISHTIROKIDA ALKINILLASH REAKSIYALARI

Annotatsiya

Ik bor ProPhenol/Me₂Zn/TGF katalitik sistemasi yordamida molekulasida tarkibida geteroatom o‘rinbosarlar saqlagan aldegidlar-tiufen-2-karbaldegid, 3-metiltiufen-2-karbaldegid, furan-2-karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, xinolin-2-karbaldegid va 3-brom-4-piridinkarbaldegidlarni atsetilen bilan alkinillash reaksiyasi asosida atsetilen spirtlari sintez qilish jarayoni amalga oshirildi. Mahsulot unumiga boshlang‘ich moddalar mol nisbatlari, reaksiya davomiyligi, harorat, katalizator va erituvchilar tabiati ta‘siri tizimli ravishda o‘rganilgan. Aldegidlar molekulasidagi geteroatomlarning mahsulot unumiga ta‘siri asosida atsetilen spirtlarining hosil bo‘lish samaradorlik qatori aniqlangan hamda ularning tarkibi, tozaligi, tuzilishi fizik-kimyoviy usullarda identifikatsiyalangan.

Kalit so‘zlar: Atsetilen, geteroatom aldegid, prophenol, alkinillash, atsetilen spirti, reaksiya mexanizmi, spektroskopiya.



Kirish. Mamlakatimizda dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yangi turdagi kimyoviy moddalar sintez qilishda, eksportga mo‘ljallangan import o‘rnini bosuvchi birikmalarni olish usullarini yaratish, ulardan kimyo, qurilish, farmatsevtika va energetika sohalarida foydalanish dolzarb vazifalardan bo‘lib, bu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda atsetilen spirtlari farmatsevtika sohasida -garmonlar, vitaminlar, qishloq h‘ojaligida -akaritsidlar, gerbitsidlar, ishlab chiqarish sanoatida- korroziya ingibitorlar, ion bo‘lmagan sirt faol moddalar surfinollar [1-4], hamda nozik va keng ko‘lamli organik sintezda, qator moddalarni ishlab chiqarish uchun boshlang‘ich birikmalar sifatida keng qo‘llanilmoqda. [5-7]. Olimlar tomonidan atsetilen spirtlariga bo‘lgan qiziqish, kimyo sohalarda muamoli vaziyatlarning yechimini topishga imkon yaratmoqda. Hususan Lity binaftalat katalizatori ishtirokida lity


atsetilenidlarining karbonil birikmalarini qo'shilishini o'z ichiga olgan enantiosektiv alkinillash reaksiyalari olib borilishi natijasida yuqori unum bilan propargil spirtlari sintez qilingan [8]. Atsetilen spirtlarini sintez qilishda geteroatom o'rinbosarlar saqlagan aldegidlardan foydalanish, ularning biologik faolligini oshirishga yo'l ochadi [9]. Shuningdek, 40 °C haroratda $\text{InBr}_3/\text{BINOL}$ kompleks katalitik sistema yordamida aldegidlarning yuqori enantiosektiv alkinillash natijasida atsetilen spirtlari sintez qilingan [10].

Tadqiqot metodologiyasi. *Namuna sifatida 1-(furanil-2)propin-2-ol-1 sintezi keltirilgan.* Reaksiya yuqori haroratga bardoshli shaffof shishali hajmi 2000 ml bo'lgan to'rt og'izli kolbaga qaytarma sovutkich, tomizgich voronka, termometr, aralastirgich o'rnatilgan sistemada amalga oshiriladi. Kolbaga dastlab 120 ml tetragidrofuran solinib, unga 95 g (1 mol) dimetilrux, 32,5 g (1,25 mol) atsetilen argon atmosferasida ohistalik bilan qo'shildi va 60 minut davomida muntazam aralastirib turiladi. Shundan so'ng aralashmaga 60 minut davomida 159,7 g ProPhenol ligandining 120 ml tetragidrofuran eritmasi va 96 g (1 mol) furan-2-karbaldegid ohistalik bilan tomizildi. Reaksiya germetik holatda -5 0 °C haroratgacha sovutiladi va 22 soat mobaynida aralastiriladi, shundan so'ng aralashma NH_4Cl (50 ml) ning to'yingan suvli eritmasi bilan to'yintirildi va aralastirildi. Organik qism ajratish uchun dietilefir (3×100 ml) yordamida ekstraksiyalanib, suv (3×50 ml) bilan yuviladi. Organik qatlam tarkibidan mahsulotni tozalab olish uchun silikagel 60 kolonkali xromatografiyada eleyuentlardan ($\text{CH}_2\text{Cl}_2:\text{Et}_2\text{O}$ 20:1) o'tkaziladi. Natijada 89% unum bilan 1-(furanil-2)propin-2-ol-1 sintez qilindi. Shuningdek sistemada 8% qo'shimcha mahsulot va 3% reaksiyaga kirishmagan furan-2-karbaldegid borligi aniqlandi.


Tahlil va natijalar. Molekulasi tarkibida geteroatom o'rinbosarlar saqlagan aldegidlar- tiofen-2-karbaldegid, 3-metiltiofen-2-karbaldegid, furan-2-karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, xinolin-2-karbaldegid va 3-brom-4-piridinkarbaldegidlarning tetragidrofuran eritmasida ProPhenol/ Me_2Zn katalitik sistemasi ishtirokida atsetilen bilan alkinillash yordamida quyidagi atsetilen spirtlari- 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1 (1), 1-(3-metiltiofenil-2)propin-2-ol-1 (2), 1-(furanil-2)propin-2-ol-1 (3), 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1 (4), 1-(xinolinil-2)propin-2-ol-1 (5), 1-(3-brompiridinil-4)propin-2-ol-1 (6) sintez qilindi. Reaksiya sxemasi adabiyot manbalari asosida quyidagicha taklif etildi [21].




Ushbu ishda ProPhenol/ Me_2Zn /TGF katalitik sistema dimetilrux bilan tasirlashib, bisrux kompleks tuzini hosil qilish bilan reaksiya davom etadi.



ProPhenol ligandining bisrux kompleks tuzi atsetilening faol vodorod atomi bilan almashinib oraliq katalitik komponent hosil qiladi.




Brensted asosi ishqoriy muhitda nukleofilni deprotonlash bilan faollashtiradi. Lyuis kislotali qismi bo'lsa, elektrofilni metall markazga muvofiqlashtirish orqali faollashadi.




Atsetilening kislotalik xossasi hisobiga aldegidning karbonil guruhi tarkibidagi musbat zaryadlangan uglerod atomiga nukleofil hujumi ta'minlaydi.

Reaksiyaning keyingi bosqichida metall almashinishi asosida rux alkoksid ajralib chiqadi va faol katalizatorni qayta tiklaydi va mahsulot alkoksidining dissotsiyalanishi asosida proton almashinuvini ta'minlaydi.



Jarayon natijasida molekulasida tarkibida geteroatom o'rinbosarlar saqlagan aldegidlar- tiofen-2-karbaldegid, 3-metiltofen-2-karbaldegid, furan-2-karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, xinolin-2-karbaldegid va 3-brom-4-piridinkarbaldegidlarni atsetilen bilan alkinillash reaksiyasi asosida quyidagi atsetilen spirtlari- 1-70%, 2- 73%, 3- 89%, 4- 81%, 5- 77%, 6- 88% yuqori unum bilan sintez qilindi.

Atsetilen spirtlarini sintez qilishda boshlang'ich moddalarning tabiati, miqdori, reaksiyaning borishi va uning bosqichlari, mahsulot unumiga erituvchi, katalizator, harorat, reaksiya davomiyligi kabi omillarning ta'siri o'rganildi. Dastlab mahsulot unumiga reaksiyaning davomiyligi va erituvchilar- atsetonitril (MeCN), dimetilsulfoksid (DMSO) va tetragidrofuran (TGF) tabiatining ta'siri o'rganildi va reaksiya 12-36 soat oralig'ida tadqiq qilindi (1- Rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki, reaksiya davomiyligi 12 soat davomida olib borilganda boshlang'ich moddalar to'liq reaksiyaga kirishmaganligi ya'ni aralashmada mavjudligi va qo'shimcha birikmalar hosil qilib reaksiyaning unumiga salbiy ta'sir qilishi aniqlandi. Jarayon 24 soatga oshib borishi bilan metalalkinilni hosil bo'lish unumi hamda molekula va ionlar to'qnashuvlar soni ortishi bilan mahsulot unumi yuqori bo'lishi kuzatilgan. Reaksiya 36 soatda olib borilganda esa hosil bo'lgan mahsulot katalizator bilan reaksiyaga kirishib atsetilenidlar hosil qilishi hisobiga katalizator miqdorini va katalitik faolligini kamayishi natijasida mahsulot unumiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.



1-Rasm. Atsetilen spirtlari unumiga reaksiya davomiyligi va erituvchilar tabiati ta'siri (boshlang'ich moddalar va katalizator miqdori 1:1,25:0,25:1 mol nisbatlarda, harorat, harorat -5-0 °C)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, reaksiya erituvchi atsetonitrilda olib borilganda mahsulot unumining past chiqqanligi namoyon bo'ldi. Erituvchi atsetonitril kuchsiz asos bo'lib, tarkibidagi azot atomida erkin elektron jufti mavjud, u reaksiya jarayonida katalizator bilan spenziya hosil qilib, reaksiyaga kirishadi va alkogolyatlarga aylanadi, natijada reaksiya unumiga salbiy ta'sir etadi va unumning past chiqishiga sabab bo'ladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, erituvchi tetragidrofurandan foydalanganda mahsulot unumi yuqori chiqqanligi kuzatilgan. Erituvchi tetragidrofuran tarkibidagi kislorod atomi unumlashmagan elektron juftiga ega bo'lib, manfiy zaryadning halqada kuchli delokallangani uchun juda kuchli asos xossasini namoyon qiladi, natijada katalitik sistemaning faolligini oshiradi va mahsulot unumining ortishiga sabab bo'ladi. Jarayon erituvchi dimetilsulfoksidda olib borilganida mahsulot unumi tetragidrofuranga nisbatan past chiqishi kuzatildi. Dimetilsulfoksid qutblangan aprotop erituvchi bo'lib, reaksiya jarayonida foydalanganda mahsulot unumining tetragidrofuranga nisbatan past chiqishi va atsetonitrilga nisbatan yuqori chiqishi kuzatildi. Olib borilgan tahlil natijasida sintez qilingan atsetilen spirti unumiga reaksiya davomiyligining eng muqobil sharoiti 24 soat, erituvchi tetragidrofuran ekanligi aniqlandi.

Tanlangan aldegidlarni atsetilen ishtirokida etinillash jarayoni uchun taklif etilgan katalitik sistema ProPhenol/Me₂Zn/TGF ning boshlang'ich moddalar massasiga nisbatan olingan mol miqdori ta'siri tahlil qilindi (Jadval-1).

Jadval-1

Mahsulot unumiga boshlang'ich moddalar va katalitik sistema mol nisbatlari ta'siri (erituvchi tetragidrofuran, reaksiya davomiyligi 24 soat, harorat, -5-0 °C)

Atsetilen spirtlari	Atsetilen spirtlari unumi, %			
	Aldegid:atsetilen:ProPhenol:Me ₂ Zn			
	0,5:1:0,5:1	1:1:1	1:1,25:0,25:1	1:0,5:1:1
1	60	55	70	65
2	64	60	73	68
3	80	76	89	85
4	72	69	81	76
5	69	64	77	73

6	80	75	88	84
---	----	----	----	----

Boshlang'ich moddalar va katalitik sistema mol miqdorlari 1:1,25:0,25:1 mol nisbatlarda olib borilganda, sistemada faollanish energiyasining kamayishi hamda jarayonda alkin miqdoriga nisbatan katalitik sistema teng ekvivalent nisbatda olinishi molekula va ionlar to'qnashuvlar soni ortishi asosida geteroatom atsetilen spirtlarining unumdorligi yuqori bo'lishini taqozo etdi. Aksincha reaksiya jarayonida alkinning miqdoriga nisbatan ProPhenol va Me₂Zn mol miqdorlari teng nisbatda olinmaganligi sistemada reaksiyon markazlarining etarli darajada hosil bo'lmashligi hisobiga mahsulot unumiing selektivligi pasayishiga sabab bo'ldi. Reaksiya jarayonda alkin va dimetilruxning miqdorini oshirganimizda rux alkoksidlari hosil bo'lib, alkin miqdori sistemada ortib qolganini aniqlandi va enantioselektivlikning sezilarli pasayishiga olib keldi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida atsetilen spirtlarini sintez qilishning muqobil sharoiti topildi. Unga ko'ra boshlang'ich moddalar va katalitik sistema mol miqdorlari 1:1,25:0,25:1 mol nisbatda, reaksiya davomiyligi 24 soat, harorat -5-0 °C, erituvchi tetragidrofuranda olib borilganda atsetilen spirtlari eng yuqori unum (1-70%; 2-73%, 3-89%, 4-81%, 5-77%, 6-88%) bilan sintez qilindi.

Xulosa va takliflar. ProPhenol va Me₂Zn katalitik sistemasi yordamida ayrim geteroatomli aldegidlar- tiofen-2-karbaldegid, 3-metil-tiofen-2-karbaldegid, furan-2-karbaldegid, piridin-3-karbaldegid, xinolin-2-karbaldegid va 3-brom-4-piridinkarbaldegidlarning atsetilen bilan reaksiyasi natijasida atsetilen spirti- 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-metil-tiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(furanil-2)propin-2-ol-1, 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 1-(xinolinil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-brompiridinil-4)propin-2-ol-1 sintezi amalga oshirildi. Mahsulot unumiga boshlang'ich moddalar mol nisbatlari, reaksiya davomiyligi, harorat, katalizator va erituvchilar tabiati ta'siri tizimli ravishda o'rganilgan. Tadqiqot natijasida erituvchilarning reaksiya tezligiga va selektivligiga ta'siri ketma ketligi quyidagicha atsetonitril < dimetilsulfoksid < tetragidrofuran ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Hylse O., Maier L., Kucera R., Perecko T., Svobodova A., Kubala L., Paruch K., Svenda J. A concise synthesis of forskolin // *Angewandte Chemie* 2017, Volume 3 Issue 129, pp. 12760–12763.
- Katsuki Ohta, Taira Kobayashi, Genzoh Tanabe, Osamu Muraoka, Mitsuhiro Yoshimatsu Scandium-Catalyzed Propargylation of 1,3-Diketones with Propargyl Alcohols Bearing Sulfur or Selenium Functional Groups: Useful Transformation to Furans and Pyrans // *Chemical and Pharmaceutical Bulletin* 2010, Volume 58, Issue 9, pp. 1180 - 1186.
- Yoshihiro Yamauchi, Gen Onodera, Ken Sakata, Masahiro Yuki, Yoshihiro Miyake, Sakae Uemura, Yoshiaki Nishibayashi Ruthenium-Catalyzed Reactions of 1-Cyclopropyl-2-propyn-1-ols with Anilines and Water via Allenylidene Intermediates: Selective Preparation of Tri- and Tetrasubstituted Conjugated Enynes // *Journal of the American Chemical Society* 2007, Volume 4, Issue 129, pp. 5175-5179.
- Pandev A.R., Tiwari D.K., Prakhar A., Mishra D.P., Sharma S.K. A review towards synthesis of heterocycles using propargyl alcohols and propargyl amines // *Monatsh Chemistry*, 2022, Volume 153, pp. 383-407.
- Surendra Puri Oxygen as a heteroatom in propargylic Alcohols: Reactivity, Selectivity and applications // *Organic and Supramolecular chemistry*, 2020, Volume 5, Issue 31, pp. 9866-9877.
- Harada, A.; Makida, Y.; Sato, T.; Ohmiya, H.; Sawamura, M. J. Copper-Catalyzed Enantioselective Allylic Alkylation of Terminal Alkyne Pronucleophiles // *Journal of the American Chemical Society* 2014, Volume 7, Issue 136, pp 13932-13939.
- Hylse O.; Maier L.; Kucera R.; Perecko T.; Svobodová A.; Kubala L.; Paruch K.; Švenda J. A concise synthesis of forskolin // *Angewandte Chemie International Edition* 2017, Volume 3, Issue 129, pp.12760–12763.
- Shunsuke Kotani, Kenji Kukita, Kana Tanaka, Tomonori Ichibakase, and Makoto Nakajima Lithium Binaphtholate-Catalyzed Asymmetric Addition of Lithium Acetylides to Carbonyl Compounds // *Journal of Organic Chemistry Publications* 2014. № 79. C.4817–4825.
- Гилажов Е.Г., Абилхайров А.И., Синтез мономеров на основе циклических и гетероциклических ацетиленовых спиртов // *Вестник КазНУ. Серия химическая* 2012, №1 С. 65.
- Ryo Takita, Kenichiro Yakura, Takashi Ohshima, Masakatsu Shibasaki Asymmetric Alkynylation of Aldehydes Catalyzed by an In(III)/BINOL Complex // *Journal of the American Chemical Society* 2005, Volume 1, Issue 127, pp. 13760-13761



UDK: 547.322.284.

Mansur SODIKOV,
TKTI Shahrisabz filiali dotsenti,
Laziz ERGASHEV,
TKTI Shahrisabz filiali o'qituvchisi
Ruxsora SOBIROVA,
TKTI Shahrisabz filiali katta o'qituvchisi
E-mail: comansur@gmail.com.

Prof., k.f.d L.Kamolov taqrizi asosida

SYNTHESIS OF ACETYLENE ALCOHOLS AND THEIR ETHERS BASED ON GRIGNARD-JOCIC REACTIONS

Annotation

The reaction of acetylene and crotonaldehyde, acetylene alcohols obtained from acetone, with acrylonitrile with the formation of β -cyanoethyl ether was studied. The influence of the molar ratio of the starting material, reaction duration, and the nature of the catalyst on the product yield was studied.

Key words: acetylene, acetylene alcohol, vinyl ether, Grignard reagent, acrylonitrile, tetrahydrofuran, catalyst.

СИНТЕЗ АЦЕТИЛЕНОВЫХ СПИРТОВ И ИХ ПРОСТЫХ ЭФИРОВ НА ОСНОВЕ РЕАКЦИЙ ГРИНЬЯР-ИОЩИЧА

Аннотация

Изучена реакция ацетилена и кротонового альдегида, ацетиленовых спиртов, полученных на основе ацетона, с акрилонитрилом с образованием β -цианоэтилового эфира. Изучено влияние мольного соотношения исходного материала, продолжительности реакции и природы катализатора на выход продукта.

Ключевые слова: ацетилен, ацетиленовый спирт, виниловый эфир, реактив Гриньяра, акрилонитрил, тетрагидрофуран, катализатор.

GRINYAR-IOTSICH REAKSIYASI ASOSIDA ATSETILEN SPIRTLARI VA ULARNING ODDIY EFIRLARI SINTEZI

Annotatsiya

Maqolada atsetilen va krotan aldegidini, atseton asosida olingan atsetilen spirtlarini akrilonitril bilan β -sian etilefiri hosil bo'lish reaksiyalari o'rganilgan. Mahsulot unumiga boshlang'ich moddalar mol miqdori nisbatlari, reaksiya davomiyligi va katalizator tabiati ta'siri tadqiq qilingan.


Kalit so'zlar: atsetilen, atsetilen spirti, vinil efir, Grinyar reaktivi, akrilonitril, tetrogidrofuuran, katalizator.

Hozirgi kunda atsetilen spirtlarning vinil efirlari polimerlar kimyosi, organik sintez va boshqa ko'pgina sohalarida ishlatish mumkin bo'lgan qimmatli mahsulot hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot obyekti hisoblangan bir necha funksional guruhga ega bunday birikmalarning olinishi va qo'llanilish soxalarini o'rganish ilm-fan, shuningdek sanoat uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun bu sohada ko'plab izlanishlar olib borilmoqda [1-5].


Grinyar reaksiyasi asosida $\text{HC}\equiv\text{CMBr}$ TGF muhitida karbonil birikmalariga ta'sir ettirilib atsetilen spirtlari olingan. Atsetilen spirtlari erituvchi sifatida, tibbiyot preparatlari, choklovchi agentlar, kompleks hosil qiluvchi monomerlar va boshqa maqsadlarda ishlatiladi [6-10].

Bu turkum birikmalarini sintez qilishning asosan ikki xil usuli bor: Favorskiy va Grinyar-Iotsich. Bu usullar amaliy jihatdan qulay hisoblanadi.


Atsetilen spirtlarini atsetilenga mos ravishdagi aldegidlarni ta'sir ettirib ham olish mumkin. Bu turkum sintezlar uchun Grinyar-Iotsich usuli amaliy jihatdan qulay hisoblanadi. Bu ishda boshlang'ich modda krotan aldegididan foydalanildi, u "Navoiyazot" AJ da atsetilendan sirka aldegidi olish jarayonidagi chiqindi hisoblanadi. Bu aldegidning atsetilen bilan reaksiyaga kirish natijasida geksen-4-in-1-ol-3 hosil bo'ldi. Reaksiya tenglamasi quyidagicha:




Iotsich kompleksi hosil bo'lishi atsetilendagi faol vodorod hisobiga boradi. Bunda atsetilen etilmagniybromid (Grinyar reaktivi)ning efirdagi eritmasiga tomizilib, atsetilening magniy bromidli hosilasi tayyorlab olinadi. Reaksiya quyidagi tenglama bo'yicha boradi.



Hosil bo'lgan Iotsich reaktivi krotan aldegidi bilan ta'sirlashadi.



Olingan modda muzli suv bilan gidroliz qilinganda geksen-4-in-1-ol-3 hosil bo'ladi.



Mahsulot unumi aldegidning tuzilishi va molekular massasiga bog'liq. Agar quyi molekular aldegidlar ishlatilsa reaksiya tezligi yuqori va olinadigan spirtlar unumi baland bo'ladi. Olingan geksen-4-in-1-ol-3 ning unumi 71% ni tashkil etadi.

Shuningdek, yuqoridagi usulda dimetilketondan uchlamchi atsetilen spirti 3-metilbutin-1-ol-3 70,2 % unum bilan sintez qilindi. Sintez qilingan atsetilen spirtlarining fizik-kimyoviy doimiyliklari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval

Atsetilen spirtlarining fizik-kimyoviy doimiyliklari.


№	Moddalarning tuzilish formulasi	Nomi va brutto-formulasi	Unumi, %	T. qay./°C mm.sb.ut	n_D^{20}	d_4^{20}
I	$\text{CH}_3-\text{CH}=\underset{\text{OH}}{\text{CH}}-\text{C}\equiv\text{CH}$	Geksen-4-in-1-ol-3 $\text{C}_6\text{H}_8\text{O}$	68	135/50	1,5155	1,0595
II	$\text{CH}_3-\underset{\text{OH}}{\text{C}}(\text{CH}_3)-\text{C}\equiv\text{CH}$	2-Metilbutin-3-ol-2 $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}$	70,2	102-103/760	1,4211	0,8614

Sintez qilingan 3-metilbutin-1-ol-3 ning tuzilishi va tarkibi IQ-spekrtoskopiya usullar yordamida aniqlandi. Unda 2900-3100 cm^{-1} sohada OH guruhiga xos, 2700-2850 cm^{-1} sohada $-\text{CH}_3$ alifatik guruhlarga xos, 2300 cm^{-1} da atsetilen bog'iga xos va 1497 cm^{-1} sohada CH guruhining deformatsion tebranishlari o'ziga xos yutilish chiziqlari namayon bo'ldi.

Shuningdek, geksen-4-in-1-ol-3 ning ^1H YAMR natijalari quyidagicha: (CDCl_3): δ 1.14-1.23 (m, $=\text{CH}-\text{CH}_3$), 3.3-3.4 (m, $>\text{CH}-\text{OH}$), 3.7 (d, 1H, OH), 5.91-6.27 (d, $J=5.8$ Hz, $=\text{CH}(-\text{CH}-\text{CH}_3)$).

Sintez qilib olingan atsetilen spirtlarining oddiy va murakkab efirlarini olish maqsadida ularni akrilonitril bilan reaksiyalari amalga oshirildi.

Birinchi navbatda atsetilen spirtlari efirlarini adabiyotda ma'lum bo'lgan usullardan foydalanib akrilonitril bilan ta'sirlashtirib ularning β -sianetilefirlari sintez qilindi. β -Sian etilefirlar sintezi atsetilen spirtlarni akrilonitril bilan suvli eritmada KOH katalizatori ishtirokida amalga oshirildi.



Sintez qilingan geksen-4-in-1-ol-3 ning arilonitril bilan ta'sirlashishi natijasida uning β -sianetilefiri quyidagi sxema asosida boradi:



Yuqoridagi reaksiyalar natijasida olingan atsetilen spirtlarining efirlari (β -sianetil efirlari) hosil bo'lish unumi 70-85% ni tashkil etadi. Ularning ba'zi bir fizik-kimyoviy doimiyliklari o'rganildi.

Sintez qilingan atsetilen spirtlarining oddiy efirlari tuzilishi va tarkibi IQ- va ^1H YAMR spekrtoskopiya usullar yordamida aniqlandi. Jumladan, 2-metilbut-3-in-2-olning β -sianetil efiri ^1H YAMR spektri natijalari quyidagicha: (CDCl_3): δ 7.18-7.27 (m, 5H, ArH), 2.25 (d, 1H, OH), 1.35 (d, $J=7.0$ Hz, 3H, CH_3OH).

Grinyar reaktivi olish usuli. Uch og'izli kolbaga qaytarma sovutkich, tomizgich voronka va mexanik aralashtirgich o'rnatib, 150 ml absolyut dietil efir va 12 g (0,5 mol) kukun holdagi magniy metali solib aralashtirildi. Tomizgich voronka orqali 36,5 g etilbromid va unga teng miqdordagi dietil efir aralashmasi tomizildi. Reaksiya boshlangandan keyin 40-50 minut o'tgach efir kuchli qaynadi va aralashma loyqalandi. Etil bromid sovutilgandan keyin tomizgich voronkadan shunday tezlikda tomizildiki, bunda efirning sekin qaynashi kuzatildi. Reaksiya uchun olingan etilbromid tomizib bo'lingach, aralashma yana 30 minut aralashtirildi. Reaksiya natijasida Grinyar reaktivi-etilmagniy bromid hosil bo'ldi.

Geksen-4-in-1-ol-3 olish usuli. Geksen-4-in-1-ol-3 sintezini amalga oshirish uchun mexanik aralashtirgich, tomizgich voronka, kalsiy xloridli trubka, qaytarma sovutgich va termometr o'rnatilgan to'rt og'izli kolbaga 0,5 mol etilbromiddan tayyorlangan Grinyar reaktivi eritmasi solindi va 13 g (0,5 mol) atsetilen 2 soat davomida aralashtirib turgan holda $-5-0$ °C da o'tkazildi. Shundan so'ng 2 soat davomida 35 g (0,5 mol) kroton aldegid va 35 ml absolyut efirli eritmasi doimiy aralashtirib turilgan holda tomchilatib qo'shildi, hamda aralashtirish yana 4 soat davom ettirildi.

Reaksiya to'xtatilgach aralashma 50 g muzli suv bilan gidroliz qilindi va suyultirilgan xlorid kislotadan cho'kma erib ketguncha qo'shildi. Efir qism ajratib olingach suvli qism yana ikki marta efir bilan ekstraksiya qilindi, ajratib olingan efirli qism natriy sulfatda quritildi.

Natriy sulfat bilan quritilgan efir haydaldi, qolgan qism fraksiyalarga ajratildi. Reaksiya natijasida 32,5 g (68 %) geksen-4-in-1-ol-3 ajratib olindi. $T_{\text{qay}}=135$ °C (50 mm sb.ut.), $d_4^{20}=1,0595$ g/ cm^3 , $n_D^{20}=1,5155$.

2-Metilbutin-3-ol-2 sintezi. Yuqoridagi usul yordamida 24 g (1 mol) kukun holatidagi magniy metallidan tayyorlangan Grinyar reaktivi olindi. Olingan Grinyar reaktiviga aralashtirib turgan holatda atsetilen gaz holatida 30 minut davomida yuborildi.

Shundan keyin aralastirib turgan holatda atsetilen va 58 g (1 mol) atseton hamda absolyut dietilefiri teng hajimda olingan aralashmasi tomchilatib qo'shildi. Reaksiya natijasida olingan aralashma yuqoridagi usulda reaksiya mahsuloti ajratib olindi. Natijada 3-metilbutin-1-ol-3 (67,21 g) 70% unum bilan sintez qilindi. Olingan atsetilen spirtining ba'zi bir fizik-kimyoviy doimiyliklari $t_{qay.}=102-103$ °C, $n_D^{20}=1,4211$ va $d_4^{20}=0,8614$ g/sm³ dan iborat.

Sintez qilib olingan atsetilen spirtlari β -sianetilefirlari olish. Quyidagi sianetillash reaksiyalarini barchasida katalizator sifatida 40% li KOH ning 100 ml eritmasidan foydalanib amalga oshirildi.

2-Metilbutin-3-ol-2 ning β -sianetil efiri sintezi. Kerakli jixozlar o'rnatilgan uch og'izli kolbaga kaliy gidroksidining suvli eritmasi solinib, unga aralastirib turgan holatda 8,4 g (0,1 mol) 2 metilbutin-3-ol-2 va 5,3 g (0,1 mol) akrilonitril qo'shildi. Bu jarayonda reaksiya aralashma kuchli qiziydi, shuning uchun kolba muzli suv bilan sovutib turildi va 15-20 daqiqadan keyin aralashmaning qizib ketishi to'xtadi. Keyin reaksiyani tugatish uchun reaksiya aralashmani aralastirib turgan holatda 4 soat davomida 95-100 °C gacha suv hammomida qizdirildi. Shundan so'ng reaksiya aralashma xona haroratida bir kunga qoldirildi. Keyingi kun reaksiya aralashmani organik qismi ajratilib, suvli qismi benzolda uch marta ekstraksiya qilindi. Organik qism va ekstrakt qo'shilib kalsiy xlorid (CaCl₂) bilan quritildi. Keyingi kun erituvchi va reaksiyaga kirishmay qolgan akrilonitril haydaldi va qolgan qismi vakuumda haydab hosil bo'lgan mahsulot olindi. Hosil bo'lgan atsetilen spirtining β -sianetilefiri 10 mm.sb.ut. da 144-145 °C haroratda haydab, 71,0% (97,98 g) unum bilan olindi. Olingan atsetilen spirti β sianetilefirining sindirish ko'rsatkichi $n_D^{20}=1,4420$ va zichligi $d_4^{20}=1,1215$ g/sm³ ekanligi aniqlandi.

Sintez qilingan atsetilen spirtlari efirlarining tuzilishi zamonaviy fizik-tadqiqot usullaridan IQ-, ¹H YAMR spektr tahlillari yordamida isbotlangan va ba'zi-bir fizik doimiyliklari aniqlangan.

Atsetilen va kroton aldegid, hamda dimetilketondan olingan atsetilen spirtlarini akrilonitril bilan β -sian etilefiri hosil bo'lish reaksiyalarini o'rganilgan. Mahsulot unumiga boshlang'ich moddalar mol miqdori nisbatlari, reaksiya davomiyligi va katalizator tabiati ta'siri tadqiq qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Завгородний В.С., Ключинский С.А. Исследование взаимодействия 4-(N,N-диметиламинофенил)-магнийбромид с 4-бромбензоилтриолом в присутствии тетраакс(трифенилфосфин)-палладия. //Журнал органической химии, 2003. №2. -С.242-248.
2. McKinley J., Aponick A., Raber J., Frints C., Montgomery D., Wigal C. Reaction of organometallics such as alkylolithiums or Grignard reagents //Journal organic chemistry, 2007. № 6. -P. 6166-6168.
3. Содиков М.К., Хужаназарова С.Р., Тургунов Э. Синтез простых и сложных эфиров ацетиленовых спиртов. UNIVERSUM: химия и биология научный журнал. Москва. -2021. -№ 7 (85). -С. 43-48.
4. Parmanov A., Nurmanov S., Tursunov Sh., Erkhanova Yu. Facile synthesis of vinyl esters of aromatic carboxylic acids with participation of 2-chloro-4,6-dimethoxy-1,3,5-triazine. *E3S Web of Conferences*, 2023, 401, 04055.
5. М.К.Содиков, Э.Тургунов, С.Р.Хужаназарова. 1-Диэтиламино-4-метилпентин-2-ол-4 нинг β -цианэтилэфирини галогенлаш. «Кимёнинг долзарб муаммолари» республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами, Тошкент. -2021. -282 б.
6. Тургунов Э., Содиков М.К., Рашидова С.Ш. Гидрирование ацетиленовых аминоспиртов. //Химия природных соединений (спец. вып.), -1998. -С.97-99.
7. Тургунов Э., Юлдашев А., Садиков М.К. Четвертичные аммониевые соли ацетиленовых аминов. //Доклады АН РУз. -2010. -№2. -С.64-67.
8. М.К.Содиков, Э.Тургунов, С.Р.Хужаназарова. 1-Диэтиламино-4-метилпентин-2-ол-4 нинг β -цианэтилэфирини галогенлаш. «Кимёнинг долзарб муаммолари» республика илмий-амалий анжумани материаллар тўплами, Тошкент. -2021. -282 б.
9. Grirrane A. Cationic copper(I) complexes as highly efficient catalysts for single and double A(3)-coupling Mannich reactions of terminal alkynes: mechanistic insights and comparative studies with analogous gold(I) complexes /Grirrane A., Alvarez E., Garcia H., Corma A. //Chemistry-A European Journal. – 2014. – Т. 20 – № 44. – С. 14317-14328.
10. Tojiddinov S., Mamasoliev U., Turgunov E., Berkinov E., Alimova D., Kalyadin V.G., Nurmonov S. Halogenation of some acetylenic aminoalcohol. Национальная ассоциация ученых. Ежемесячный научный журнал, Россия, № 4/2014, Часть 3, -С.107.



UDK: 548.735.7

Abdurasul TOSHEMIROV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
Xayit TO'RAYEV,
Termiz davlat universiteti professori, k.f.d
Ibrohim UMBAROV,
Termiz davlat universiteti professori, t.f.d
Jamshid ASHUROV,
O'zRFA O.S. Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti professori, k.f.d
Abdulaxat JALILOV,
O'zRFA akademigi, Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti k.f.d., akademik
TKTITI professori, t.f.d., F.N.Nurqulov taqrizi asosida

SYNTHESIS AND RESEARCH OF A NEW COMPLEX BASED ON Zn (II) ION AND 1,10-PHENANTHROLINE

Annotation

In this paper, studying syntheses of the complex compound based on the bis(1,10-phenanthroline) tetrachlorozincate (II), $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ and its molecular and crystal structure were determined by X-ray diffraction the bond lengths and bond angles between atoms in the complex. Moreover, the Hirschfeld surface, the main part of the interactions is Cl...H/H...Cl (58.6%), H...C/C...H (15.5%), H...H (14.2%), Cl...C/C... Cl (6.8%), Cl...N/N...Cl (2.4%), and other effects were found to be 2%.

СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ НОВОГО КОМПЛЕКСА НА ОСНОВЕ ИОНА Zn(II) И 1,10- ФЕНАНТРОЛИНА

Аннотация

В данной работе при изучении синтеза комплексного соединения на основе бис(1,10-фенантролин)тетрахлорцинката (II) $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ методом рентгеновской дифракции определены его молекулярная и кристаллическая структура, длины связей и связи. углы между атомами в комплексе. При этом на поверхности Хиршфельда основная часть взаимодействий приходится на Cl...H/H...Cl (58,6 %), H...C/C...H (15,5 %), H...H (14,2 %), Cl...C/C... Cl (6,8%), Cl...N/N...Cl (2,4%) и другие эффекты оказались равными 2%.

Zn (II) IONI VA 1,10- FENANTROLIN ASOSIDA YANGI KOMPLEKS SINTEZI VA TADQIQOTI

Аннотация

Bu ishda birinchi marta kompleks birikma bis(1,10-phenanthroline) tetrachlorozincate (II), $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ tarkibli kompleks birikma sintez qilindi va uning molekulyar va kristall tuzilishi rentgen nurlari difraksiyasi usuli bilan aniqlanadi. Kompleks tarkibida atomlar orasidagi bog' uzunliklari va bog' burchaklari aniqlandi. Kompleksning Hirshfeld sirt tahlilida o'zaro ta'sirlarning asosiy qismini Cl...H/H...Cl (58.6%), H...C/C...H (15.5%), H...H (14.2%), Cl...C/C...Cl (6.8%), Cl...N/N...Cl (2.4%), qolgan tasirlar esa 2% tashkil qilishi aniqlandi

Kalit so'zlar: 1,10-Fenantrolin (Phen), kristall struktura, H-bog', energiya, Hirshfeld yuzi.

Kirish. Ma'lumki rux tirik organizmlar va o'simliklar uchun muhim mikroelementlardan biri hisoblanadi. U insonning o'sishi va rivojlanishi, ko'payishi va genetikasi, immuniteti, sekretsiya va boshqa muhim fiziologik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi hamda rux yetishmovchiligi tufayli juda ko'plab kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin [1]. Bizga ma'lumki rux organizmga oddiy holatda emas balki, turli birikmalar shaklida qabul qilinadi. So'nggi yillarda noorganik kimyo sohasida yangi birikmalar va funktsional materiallarning sintezi rivojlanmoqda. Ko'pgina oraliq metall komplekslari struktura xilma-xilligi va biologik ahamiyati tufayli sintez qilinmoqda [2]. Shuningdek rux asosida olingan kompleks birikmalar farmatsevtika sohasida qandli diabet [3] ga qarshi, yallig'lanishga qarshi, mikroblarga qarshi [4], bakteriyalarga qarshi [5], saratonga qarshi [6] vositalar sifatida va fotofizik [7], optik [8], yarimo'tkazgichlar [9] sifatida keng ishlatiladi.


1,10-fenantrolin (phen) va uning o'rnini bosuvchi hosilalari oraliq metall ionlari bilan barqaror komplekslar hosil qiluvchi eng keng tarqalgan va ko'p ishlatiladigan metall ionlarini bog'laydigan bidentat ligandlar qatoriga kiradi. Shu sababli, koordinatsion kimyo va fenantrolin-metall ion komplekslarini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan [10]. Shu sababdan ham rux bilan phen hosil qilgan kompleks birikmalarning turli biologik jarayonlarda faol ishtirokini o'rganish muhim hisoblanadi. Sartaj Tabassum va boshqa olimlar mis (II) va rux (II) asosidagi yuqori kimyoviy terapevtik birikmalar sintez qilingan va saraton DNK si bilan bog'lanishi va mikroblarga qarshi faolliklari o'rganilgan [11].

Shu holatlarni inobatga olgan holda biz ham rux va phen asosida yangi kompleks birikma sintezi qilindi va turli fizik kimyoviy usullarda tadqiqotini amalga oshirildi.


Metod va materiallar. Kimyoviy moddalar, asboblari va hisoblash. Barcha reagentlar tijorat manbalaridan olingan va tozalashlarisiz ishlatilgan. Kristallning strukturasi aniqlash Oksford difraksiyon Xcalibur-R CCD difraktometrida (CuK α , -nurlanish, $\lambda=1,54184 \text{ \AA}$, ω - skanerlash -rejimi, grafit monoxromatorida (293K da) amalga oshirilgan [12].

Kompleksning vodorod bog'lanish geometriyasi, 1-jadvalda keltirilgan. Struktura SHELX-97 dasturiy paketi yordamida olindi [13].

Kompleks birikma sintezi. Rux (II) xlorid kristallogidratidan ($ZnCl_2 \cdot 4H_2O$) 0,2083 gr (1 mmol), va 0,18021 gr (1mmol) 1,10-fenantrolinni tegishli suvda eritib, 1:1 nisbatdagi eritmaları tayyorlandi. Eritma aralshtirildi. Hosil bo'lgan cho'kma suyultirilgan xlorid kislotaning 2 tomchisi yordamida eritildi. So'ngra magnitli aralashtirgich yordamida 50 °C da 30 minut davomida intensiv aralashtirildi. Eritma xona haroratida qoldirildi. Natijada 25 kundan so'ng idish tubida rangsiz shaffof kompleks birikma kristali o'sganligi kuzatildi. RTT analizi uchun yaroqli kristallar ajratilib, tekshirilganda $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ tarkibli bis(1,10-phenanthroline) tetrachlorozincate(II) kompleksi ekanligi aniqlandi. Reaksiya unumi 75 %. $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ ($M_r=389.39$ g/mol) C, H, N, Cd, O tahlili nazariy jihatdan: C, 37.01; H, 2.59; Cl, 36.41; N, 7.19; Zn, 16.79% ni ko'rsatdi; ma'lum bo'ldiki C, 38.01; H, 2.49; Cl, 36.51; N, 7.59; Zn, 16.59%. Reaksiya tenglamasi quyidagicha.



1-rasm. $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ tarkibli metallokompleksning sintez reaksiyasi.




2-rasm. $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ tarkibli kompleksning molekular tuzilishi
Vodorod bog'lanish

D-H...A	D-H...A	H...A...A	D...A...A	D-H...A, (°)
N1-H1...Cl1	0.8600	2.5400	3.221(4)	137.00
N1-H1...Cl1	0.8600	2.5400	3.221(4)	137.00
N1-H1...N1	0.8600	2.5800	2.885(7)	102.00
C1-H1A...Cl2	0.9300	2.7800	3.700(6)	171.00
C3-H3...Cl2	0.9300	2.6400	3.553(7)	168.00


1-jadval

$[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ ning kristall tuzilishi va Hirshfeld yuzasi tahlili

Kristall tarkibidagi molekularning elementar yacheykada taxlanishida molekulararo ta'sirlashuv CrystalExplorer 17.5 dasturi yordamida Hirshfeld yuzasi tahlili yordamida o'rganildi. Bunda alohida ta'sirlashuv turlari ikki o'lchamli barmoq izlari yordamida tahlil qilindi yoki ularning umumiy ta'sirlashuvga qo'shgan hissalari aniqlandi [14]. d_{norm} maydoni tashqi (d_e) va ichki (d_i) masofalarni eng yaqin yadrogacha hisoblash yo'li bilan aniqlandi, hajmi 376,28 Å³ da va yuzasi 316,64 Å² hamda o'lchamlari -0,2910 (qizil) 1,7110 gacha (ko'k) maydonda ko'rildi (3.a-rasm). Shakl-indeks va egri chiziqlar jadvallari mos ravishda -1,0000 dan 1,0000 a.b. va -4,0000 dan 0,4000 a.b. gacha hosil qilindi (3.b-c-rasm).




3-rasm. (a) Hirshfeld yuzasi d_{norm} ustida qisqa tutashgan joylarni yashil chiziqli chiziqlar sifatida ko'rsatgan, (b) shakl ko'rsatkichlari maydoni va (c) o'zaro ta'sir hududlarini ko'rsatadigan egri chiziq maydoni



4-pacm. $[ZnCl_4](C_{12}H_{10}N_2)$ tarkibli kompleksining Hirshfeld sirtlari

Phenning Rux (II) xlorid bilan hosil qilgan kompleksining Hirshfeld sirtida qizil rang eng yaqin tasirlashuvlarni va ko'k rang eng uzoq tasirlashuvlarni ifodalaydi (4-rasm). Hirshfeld barmoq izi diagrammasi hamda kristall qadoqlashning shakllanishiga individual o'zaro tasirlarning hissasini ko'rsatuvchi de va di funksiyalari yordamida olingan ikki o'lchamli barmoq izining grafiklari (6-rasm) keltirilgan. Shunday qilib Hirshfeld sirtini tahlil qilish natijasida quyidagi tasirlashuvlar aniqlandi: Cl...H/H...Cl (58.6%) (5.a-rasm), H...C/C...H (15.5%) (5.b-rasm), H...H (14.2%) (5.c-rasm), Cl...C/C...Cl (6.8%)

(5.d-rasm), Cl...N/N...Cl (2.4%) (5.e-rasm), Zn...H/H...Zn (1.5%) (5.f-rasm), Zn...N/N...Zn (0.2%) (5.h-rasm), Cl...Cl (0.3%) (5.i-rasm) tasirlashuvlar kristall qadoqlashning shakllanishiga asosiy hissa qo'shadi. Hirshfeld sirt tahlilidan ko'rinib turibdiki o'zaro tasirlarning asosiy qismini Cl...H/H...Cl (58.6%), H...C/C...H (15.5%), H...H (14.2%), hamda Cl...C/C...Cl (6.8%) tashkil qiladi.



5-rasm. $[\text{ZnCl}_4](\text{C}_{12}\text{H}_{10}\text{N}_2)$ molekulasi uchun ikki o'lchovli barqochalar maydonlari, ularning Hirshfeld yuzasiga nisbiy hisslari bilan

Xulosa. Ilk bor $[\text{ZnCl}_4](\text{C}_{12}\text{H}_{10}\text{N}_2)$ tarkibli kompleks birikma sintez qilindi va uning molekulyar va kristall tuzilishi rentgen nurlari difraksiyasi usuli bilan aniqlandi. Kompleks tarkibida atomlar orasidagi bog' uzunliklari va bog' burchaklari aniqlandi. Kompleksning Hirshfeld sirt tahlilida o'zaro ta'sirlarning asosiy qismini Cl...H/H...Cl (58.6%), H...C/C...H (15.5%), H...H (14.2%), Cl...C/C...Cl (6.8%), Cl...N/N...Cl (2.4%), qolgan tasirlar esa 2% tashkil qilishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Iron(III) and Zinc(II) Metal Alkaloid Complexes: Synthesis, Characterization and Biological Activities. <http://aunilo.uum.edu.my/Find/Record/my.um.eprints.35737>
2. Han Y. Z., Tian G., Yang Q. Two colorimetric and ratiometric fluorescence sensors for Zn^{2+} with 1, 10-phenanthroline derivatives //Inorganic Chemistry Communications. – 2023. – T. 155. – C. 111105. <https://doi.org/10.1016/j.inoche.2023.111105>
3. Akhter S. et al. Synthesis, crystal structure and Hirshfeld Surface analysis of benzamide derivatives of thiourea as potent inhibitors of α -glucosidase in-vitro //Bioorganic Chemistry. – 2021. – T. 107. – C. 104531 <https://doi.org/10.1016/j.bioorg.2020.104531>
4. Lebedeva S. A. et al. Effective wound healing agents based on N-alkenylimidazole zinc complexes derivatives: future prospects and opportunities //Research Results in Pharmacology. – 2023. – T. 9. – №. 3. – C. 27-39. <https://doi.org/10.18413/rrpharmacology.9.10047>
5. Rihacek M. et al. Zinc effects on bacteria: insights from Escherichia coli by multi-omics approach //Msystems. – 2023. – T. 8. – №. 6. – C. e00733-23. <http://dx.doi.org/10.1128/msystems.00733-23>
6. Kaya A. et al. Preparation and Characterisation of Zinc Diethyldithiocarbamate–Cyclodextrin Inclusion Complexes for Potential Lung Cancer Treatment //Pharmaceutics. – 2023. – T. 16. – №. 1. – C. 65. <http://dx.doi.org/10.3390/pharmaceutics16010065>
7. Evans D. A. et al. Aggregation-induced emission of bis (imino) acenaphthene zinc complexes: photophysical tuning via methylation of the flanking aryl substituents //Organometallics. – 2015. – T. 34. – №. 11. – C. 2422-2428
8. Di Bella S. et al. Zinc (II) as a Versatile Template for Efficient Dipolar and Octupolar Second-Order Nonlinear Optical Molecular Materials //Inorganics. – 2018. – T. 6. – №. 4. – C. 133. <https://doi.org/10.3390/inorganics6040133>
9. Al-Hossainy A. F. et al. Density functional theory for investigation of optical and spectroscopic properties of zinc-quinonoid complexes as semiconductor materials //Structural Chemistry. – 2019. – T. 30. – C. 1365-1380. <https://doi.org/10.1007/s11224-019-1289-3>
10. Bencini A., Lippolis V. 1, 10-Phenanthroline: A versatile building block for the construction of ligands for various purposes //Coordination Chemistry Reviews. – 2010. – T. 254. – №. 17-18. – C. 2096-2180. <https://doi.org/10.1016/j.ccr.2010.04.008>
11. Tabassum S. et al. Synthesis and characterization of copper (II) and zinc (II)-based potential chemotherapeutic compounds: their biological evaluation viz. DNA binding profile, cleavage and antimicrobial activity //European journal of medicinal chemistry. – 2012. – T. 58. – C. 308-316.
12. Xcalibur. Oxford Diffraction Ltd. CrysAlisPro. Version.1.171.33.44, 2009.
13. G. M. Sheldrick, "SHELXS-97 and SHELXL-97, Program for Crystal Structure Solution and Refinement,"University of Gottingen, Gottingen, 1997.
14. J.J. McKinnon, D. Jayatilaka, M.A. Spackman. Towards quantitative analysis of intermolecular interactions with Hirshfeld surfaces//Chemical Communications. – 2007. – №. 37. – P. 3814-3816.



Davlatxo'ja TO'YCHIYEV,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi

E-mail: toychiyevdavlat@gmail.com

Nargis KADIROVA,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti doktoranti

Adham RAFIKOV,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori, k.f.d

Toshkent kimyo-texnologiya instituti professori, k.f.d. Maksumova Oyto'ra Siddikovna taqrizi asosida

PRODUCTION OF PACKAGING PAPER BASED ON TEXTILE WASTE AND PAPER WASTE

Annotation

We produce packaging paper based on cotton fluff waste generated at textile enterprises and MS-6 class waste paper. Electrokinetic potential (-180 ± 235 mV), specific electrical conductivity (0.03 ± 0.21 μ S/cm) of the fibrous suspension are factors of its relative stability. Packaging paper samples were obtained from 100% waste and from 9 different mixtures of waste. The highest physical and mechanical properties are found in paper samples obtained from a fibrous mixture of 30-70% cotton fluff and 70-30% waste paper. When 2% acrylic emulsion is introduced into the fibrous mass, the strength of paper samples increases by 25-45%, the gap length increases by 30-35%, the penetrating force increases by 10-55%, the number of double bends increases by 60-250%, and the internal strength - by 10-35%. The development may prove to be a solution to some of the environmental and economic problems of textile enterprises.

Key words: waste paper, acrylic emulsion, cotton fluff, paper, electrokinetic potential.

ПОЛУЧЕНИЕ УПАКОВОЧНОЙ БУМАГИ НА ОСНОВЕ ОТХОДОВ ПУХА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И МАКУЛАТУРЫ

Аннотация

Получена упаковочная бумага на основе пуха хлопковых отходов, которые образуются в текстильных предприятиях и макулатуры класса MS-6. Электрокинетический потенциал (-180 ± 235 mV), удельная электропроводность ($0,03\pm 0,21$ μ S/cm) волокнистой суспензии является фактором ее относительной стабильности. Получены образцы упаковочной бумаги из 100% отходов, и из их 9 различных смесей. Образцы бумаг, полученные из волокнистой смеси 30-70% хлопкового пуха и 70-30% макулатуры, имеют наиболее высокие физико-механические свойства. При введении 2% акриловой эмульсии в волокнистую массу возрастает сопротивление к разрыву образцов бумаги на 25-45%, длина разрыва – на 30-35%, пробивная сила – на 10-55%, количество двойных изгибов – на 60-250% и внутренняя прочность – на 10-35%. Разработка может оказаться решением некоторых экологических и экономических проблем текстильных предприятий.

Ключевые слова: макулатура, акриловая эмульсия, хлопковый пух, бумага, электрокинетический потенциал.

TO'QIMACHILIK KORXONALARI CHIQINDI MOMIG'I VA MAKULATURA ASOSIDA QADOQLASH QOG'OZINI OLISH

Аннотация

To'qimachilik korxonalarida xosil bo'ladigan paxta chiqindilari momig'i va MS-6 sinfiga ta'luqli makulatura asosida qadoqlash qog'ozi olindi. Tolali suspenziyaning elektrokinetik potentsiali (-180 ± 235 mV), solishtirma elektr o'tkazuvchanligi ($0,03\pm 0,21$ μ S/cm) nisbiy barqarorlik omili ekanligi aniqlandi. 100% chiqindi va ularning 9 xil aralashmasidan iborat qadoqlash qog'ozi namunalari olindi. Tarkibida 30-70% paxta chiqindi momig'i va 70-30% makulatura saqlagan tolali aralashma asosida olingan qog'oz namunalari fizik-mexanik xossalari yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Tolali massaga 2% akril emulsiyasi kiritilganda qog'oz namunalari uzilish qarshiligi 25-45% ga, uzilish uzunligi 30-35% ga, teshilish kuchi 10-55% ga, ikki marta bukilishlar soni 60-250% ga va ichki muhtaxkamligi 10-35% ga ortadi. Tolali chiqindilar asosida qadoqlash qog'ozining ishlab chiqarilishi to'qimachilik korxonalariga uchun ekologik va iqtisodiy muammolardan birining echimi bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: makulatura, akril emulsiya, paxta chiqindi momig'i, qog'oz, elektrokinetik potentsial.

Kirish. Qog'oz va karton bozorining taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi butun dunyo bo'yicha uzluksiz ortib borayotgan eng katta miqdordagi maxsulot turi turli maqsadlarga mo'ljallangan qadoqlash qog'ozi bo'lib qolmoqda. Uning rivojlanishi ekologik toza zamonaviy qadoqlash materiallariga bo'lgan talabning doimiy ortib borishi bilan belgilanmoqda [1]. Qog'oz, jumladan qadoqlash qog'ozi, tolali, polimer, mineral, bog'lovchi va boshqa komponentlardan iborat kompozitsion materialdir. Qog'oz maxsulotlari ishlab chiqarish uchun asosiy tolali xomashyo yog'och yoki paxta sellulozasi hisoblanadi. Birlamchi selluloza xomashyosining o'ta cheklanganligi qog'oz maxsulotlarini olishda makulatura, paxta linti va momig'i, to'qimachilik chiqindilari kabi ikkilamchi xomashyodan foydalanishga ishlab chiqaruvchilarni undamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtda qadoqlash qog'ozi va karton deyarli to'liq makulaturadan ishlab chiqarilmoqda [2]. Adabiyot manbalarining tizimli taxlili bu sohaga bo'lgan qiziqishning ortishi oqibatida maqola va havolalarning ko'payib borayotganini ko'rsatadi [3]. Nazariy jihatdan makulaturani 6-7 marta qayta ishlash mumkin, lekin har bir

ishlov berish natijasida qog'oz maxsulotlarining sifati kamayib ketishini hisobga olib, amalda uni 2-4 marta qayta ishlanadi [4]. Makulaturaning hosil bo'lishi yiliga 400 mln tonnani tashkil etadi, biroq tolalarining va u bilan aralashgan chiqindilarning sifati past bo'lganligi sababli uning atigi 50-65% miqdori qayta ishlanadi [5]. Ikkilamchi qog'oz massasini tayyorlash uchun tolalarni maydalash, to'ldiruvchi va yyelimlovchi moddalar qo'shish kerak, biroq bu usulda maxsulot barqarorligi kamayadi [6]. Sellyuloza massasi mustaxkamligini oshirish uchun ko'p miqdorda polimerlar kiritish taklif etilgan. Biroq bu usul bo'yicha polimer yordamida qayta ishlangan qog'ozning biologik yemiriluvchanligi kamayadi, hajmiy zichligi keragidan ortiq ekanligi aniqlangan [7], [8]. Qog'ozning biologik yemiriluvchanligini saqlab qolgan xolda, uning mustaxkamligini oshirish uchun uning yuzasiga tabiiy maxsulotlardan tayyorlangan polimer pardani singdirish taklif etilgan [9]. Hozirgi vaqtda qog'oz va karton ishlab chiqarish uchun ekologik havfsiz tolali massaning yetishmasligi sezilmoqda, yangi xomashyo manbalarini topish zarurati mavjud. Bizning fikrimizcha, to'qimachilik korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonida to'planib qoladigan paxta chiqindilari momig'i shunday manba bo'lishi mumkin.

To'qimachilik sanoati global chiqindilarning asosiy manbai hisoblanadi. Aylanma texnologiyalarini joriy etish orqali resurs va energiyani qayta tiklash ushbu muammoga yechimlarni taklif qiladi, nafaqat chiqindilarni kamaytiradi, balki toza materiallarga talabni kamaytirishga yordam beradi va natijada atrof-muhit va jamiyatga foyda keltiradi [10]. Garchi to'qimachilik chiqindilari deyarli butunlay qayta ishlanishi mumkin bo'lsa-da, ularning taxminan 75% butun dunyo bo'ylab chiqindi toplanadigan maydonlarga tushadi. Bu jiddiy ekologik va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi [11]. Ushbu chiqindilarning 65 foizi qayta ishlatilishi va 21 foizi qayta ishlanishi mumkinligi aniqlangan [12].

To'qimachilik korxonalaridagi mashina va mexanizmlardan ko'p miqdorda tolali chang ajralib chiqadi. Bu chang birinchidan, korxonadagi ekologik holatning yomonlashishiga olib keladi, ikkinchidan, korxonada profiliga mos keluvchi maxsulot ishlab chiqarish uchun yaroqsiz. Hozirgi kunda foydalanilmaydigan bunday paxta chiqindilari momig'i qimmatli xomashyo manbasi bo'lishi mumkin. Ushbu ishning maqsadi to'quv-trikotaj korxonalarida hosil bo'ladigan paxta chiqindilari momig'i, makulatura va yyelimlovchi moddalar asosida ekologik xavfsiz qadoqlash qog'ozini olish imkoniyatlarini va qog'ozning fizik-mexanik xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Qo'lqop ishlab chiqarish bo'limining Tampler va Shartolon uskunalari tarash jarayonida hosil bo'ladigan paxta chiqindi momig'i (PChM) "YevroAsia Alliance Textil" qo'shma korxonasi tomonidan taqdim etildi. Qog'oz quyishdan avval PChM gidroyanchgich «YANTE 23L» (Xitoy) laboratoriya uskunasi 50-55 gradus Shopper-Rigler (°SR) darajasigacha yanchildi.

MS-6 sinfiga ta'luqli makulatura hisoblanuvchi karton chiqindilari ham «YANTE 23L» uskunasi 50-55 °SR darajasigacha yanchib olindi.

Akril emulsiyasi (AE), metilakrilatning emulsion polimerlanish maxsuloti bo'lib, suv bilan har qanday nisbatda aralashadi, «Navoiyot» AJ korxonasi ishlab chiqariladi.

Tahlil va natijalar. PChM va makulatura asosidagi qog'oz namunalari «CYEEYO-2.2» (Xitoy) laboratoriya uskunasi quyildi. Yyelimlovchi modda sifatida selluloza tolalariga nisbatan yuqori adgeziya xususiyatiga ega bo'lgan [13] AE dan umumiy tolali massaga nisbatan 2% miqdorida qo'shildi. 2%-li tolali massa suspenziyasini qog'oz quyish uskunasi to'rida vakuum yordamida suvsizlantirish, qo'lda kalandrlash, (60±1,0)°C temperaturada quritish, so'ngra valli siqish uchunasida kalandrlash orqali qog'oz namunalari shakllantirildi.

Tolali massaning yanchilish darajasi "Schopper-Riegler" (Xitoy) laboratoriya kompleksida aniqlandi.

Tolali suspenziyaning elektrokinetik potentsiali "SZP 06 BTG Mtek GmbH" sistemasida oqish potentsiali usuli bilan doimiy temperaturada aniqlandi. Taxlil uchun suspenziyaning konsentratsiyasi 3% olinadi. Agar bu qiymat undan ortiq bo'lsa, taxlil qilinayotgan suspenziya filtrati bilan suyultiriladi.

Namunalarning fizik-mexanik xossalari aniqlash uchun ularni tanlash, o'rtacha namunani tayyorlash va sinov o'tkazish GOST 13525.1-79 "Tolali yarimfabrikatlar, qog'oz va karton. Uzilish kuchi va cho'zilishdagi uzayuvchanlikni aniqlash usullari" talablari asosida bajarildi. Uzunligi 155±5 va kengligi 15±0,1 bo'lgan sinov namunalari olingan qog'ozdan bitta yo'nalishda kesib tayyorlandi.

Qog'oz varag'ining shakllanishi ko'p jixatdan tolali suspenziyaning kolloid-kimyoviy xossalari bilan bog'liq. Bu xossalarni belgilovchi parametrlardan biri dispers zarrachalarning elektrokinetik potentsiali hisoblanadi. Elektrokinetik potentsial (EP) – dispers sistemalarning qo'sh elektr qavatidagi adsorbsion va diffuzion qavatlar chegarasida paydo bo'ladigan potentsialdir [14]. EP ning qiymatidan dispers sistemaning barqarorligini aniqlashda foydalaniladi. EP ning ±30 mV ga teng bo'lgan qiymatini shartli ravishda yuqori va quyi zaryadli sirtlarning chegaralovchi kattalik deb qabul qilish mumkin. EP qiymati 0 dan ±30 mV gacha bo'lsa, sistema beqaror, ±30 mV dan katta bo'laganda barqaror deb hisoblash mumkin. Tolali suspenziyaning elektrokinetik potentsiali uning tarkibiga va konsentratsiyasiga bog'liq. AE suspenziya xossalari ta'sir etishligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Tolali suspenziyaning elektrokinetik xossalari

Suspenziya tarkibi	Elektrokinetik potentsial, mV	Solishtirma elektr o'tkazuvchanlik, μS/cm
PChM + makulatura	-182,9	0,207
PChM + makulatura + AE (2%)	-233,5	0,032

1-jadvaldan ma'lum bo'lishicha PChM va makulatura aralashmasi suspenziyasining EP yuqori manfiy qiymatga ega. AE qo'shilganda EP qiymati yanada ortadi, solishtirma elektr o'tkazuvchanligi kamayadi, ya'ni suspenziyaning barqarorligi ortadi. Suspenziyaga polimer yoki elektrolit qo'shish orqali uning barqarorligini boshqarish mumkin. Keyingi tadqiqotlar tolali komponentlarning turli massa nisbatlarida (2-jadval) olingan eksperimental qog'oz namunalarning fizik-mexanik xossalari aniqlashga bag'ishlanadi.


2-jadval ma'lumotlaridan qog'ozning fizik xossalari uning kompozitsion tarkibi, ya'ni tolali massa tarkibi hamda AEning mavjudligi kam darajada ta'sir etishligi ko'rinmoqda. Olingan tajribaviy qog'oz namunalari o'rtacha massasi 112±5 g/m² teng bo'lib, tafovut 8% dan kamroq. Qog'ozning zichligi esa 4,48±0,20 g/sm³ ga teng bo'lib, tafovut 5% dan kamroq. Bu holat PChM va makulatura tolalarining yanchilish darajasi deyarli bir xil ekanligini bildiradi. Namunalarni mexanik xossalari qog'oz tarkibining ta'siri ko'proq bo'lishligi kutiladi.

2-jadval.

Eksperimental qog'oz namunalari tayyorlash parametrlari

Namuna raqami	Tolali massa tarkibi, %		AE	Qog'ozning massasi, g/m ²	Qog'ozning zichligi, g/sm ³
	PChM	makulatura			
1	100	0	-	107	4,28
2	100	0	+	113	4,52
3	90	10	+	108	4,32
4	80	20	+	107	4,28
5	70	30	+	114	4,56
6	60	40	+	117	4,68
7	50	50	-	113	4,52
8	50	50	+	111	4,44
9	40	60	+	114	4,56
10	30	70	+	116	4,64
11	20	80	+	113	4,52
12	10	90	+	115	4,60
13	0	100	-	117	4,68
14	0	100	+	114	4,56


Avvalambor AE kiritilishini 100% PChM, 100% makulatura va PChM : makulatura 50:50 massa nisbatida olingan namunalarning asosiy mexanik xossalari ta'siri o'rganildi, natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. AE kiritilmagan (A) va kiritilgan (B) tajribaviy qog'oz namunalarning uzilish qarshiligi (I), uzilish uzunligi (II), teshilish kuchi (III), ikki marta bukilishlar soni (IV) va ichki mustaxkamligi (V) ko'rsatkichlari: 1 – 100% PChM; 2 – 50% PChM + 50% makulatura; 3 – 100% makulatura

1-rasmdan ma'lum bo'lishicha aniqlangan barcha ko'rsatkichlar aralash tolali qog'oz namularida sof PChM va sof makulaturadan tayyorlangan namunalarga nisbatan yuqoriroq ekan. AEning kiritilishi mexanik xossalarning o'rtacha 20-40% ga yaxshilanishiga olib keladi. Ayniqsa ikki marta bukilishlar soni keskin ortishi kuzatildi, aralash tolali qog'oz namunasi uchun ushbu ko'rsatkich deyarli 2,5 marta ortadi. Bu natijalarni quyidagicha izohlash mumkin.

Tolalarning yanchilish darajasi bir xil bo'lganligi uchun ularning aralashmasida har birining xossalari saqlanib qolgan xolda, ijobiy induksion effekt namoyon bo'ladi. Ular tarkibidagi turli funksional guruhlar o'zaro ta'siri natijasida aralashmaning mexanik mustaxkamligi biroz ortadi. AE tarkibidagi polimetilakrilat tolalararo yelimlovchi vazifasini bajarishi bilan birgalikda, tolaviy massaning elastikligini oshiradi. Bu o'z navbatida olingan qog'ozning mexanik xossalari, birinchi navbatda bukilishlarga chidamligi oshiradi. Qog'ozning ichki mustaxkamligi uning tolaviy tarkibiga nisbatan tolalarning o'zaro yelimplanishiga ko'proq bog'liq bo'lganligi uchun turli namunalarning ushbu ko'rsatkichi yaqin kattaliklarni namoyon etdi. Keyingi tadqiqotlar AE bilan yelimplangan turli tarkibli qog'oz namunalarning mexanik xossalari o'rganishga bag'ishlandi (2-rasm).



2-rasm. Tolalar massasiga nisbatan 2% AE kiritilgan tajribaviy qog'oz namunalarning mexanik xossalari (uzilish qarshiligi (I), uzilish uzunligi (II), teshilish kuchi (III), ikki marta bukilishlar soni (IV)) tolaviy tarkibi bilan bog'liqligi

Makulatura tarkibiga 80% dan ko'proq PChMning qo'shilishi natijasida sellulozaning molekulyar strukturasi buzilishini yangi molekulararo bog'larning energiyasi kompensatsiya qilolmaydi, shuning uchun mexanik xossalari yomonlashishi mumkin. PChM miqdorining kamayib borishi bilan yangi molekulararo bog'larning ham ahamiyati ortib boradi, bu esa qog'ozning mexanik xossalari ortishiga olib keladi. PChM : makulatura = 30 : 70 massa nisbatida qog'ozning mexanik xossalari maksimal qiymatga erishadi. PChMning miqdori 30% dan kamayib ketganda struktur-mexanik omillar kimyoviy omillardan ustun keladi va mexanik xossalari ko'rsatkichlarining kamayishi kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. To'qimachilik korxonalarida xosil bo'ladigan paxta chiqindisi momig'i qog'oz ishlab chiqarish uchun yaroqli ikkilamchi xomashyo bo'lishi mumkin. Yanchilish darajasi 50-55 °SR momiq va makulatura tolalari aralashmasi suspenziyasining elektrokinetik xossalari uning barqarorligidan darak beradi. Har ikkala tolalarning yanchilish darajasi bir xil bo'lishligi aralashma miqdoriy tarkibidan qat'iy nazar qog'oz namunalarning yuzaviy massasi va zichligi bir xil bo'lishligini ta'minlaydi. Tarkibida 50±20 % paxta chiqindisi momig'i va qolgani makulatura bo'lgan tolali aralashmadan olingan olingan namunalarning mexanik xossalari ko'rsatkichlari sof tolalardan olingan namunalarga qaraganda o'rtacha 20-40% ga yuqori

ekanligi aniqlandi. O'rash-qadoqlash qog'ozining to'qimachilik sanoati hamda maishiy tolali chiqindilardan ishlab chiqarilishi korxonalar va atrof-muhit ekologik holatining yaxshilanishiga va iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Jalilov A.A. Spectroscopic study of the properties of multilayer cellulose composite materials for packaging. *UNIVERSIUM: Technical Sciences Scientific Journal*. 2020; 5(74)
2. Min D, Mingxing S, Bin Ch, Hongyi X, Dingfan Zh, Zhixiu H, Lan Y, Yutao W. Advancing sustainability in China's pulp and paper industry requires coordinated raw material supply and waste paper management. *Resources, Conservation and Recycling*. 2023; 198: 107162.
3. Håkon AL, Hans PH, Gabriela C, Alexandros GA, Heidi K, Altaf HB, Houssni El. Recycling of paper, cardboard and its PFAS in Norway. *J of Hazardous Mater Letters*. 2024; 5:100096.
4. Ilpo E, Ruben M, Ilkka K. Paper recycling framework, the "Wheel of Fiber". *J of Environmental Manag*. 2016; 174: 35-44.
5. Miaoyin D, Shuyang W, Fuqiang X, Guoqing X, Jin B. Efficient utilization of waste paper as an inductive feedstock for simultaneous production of cellulase and xylanase by *Trichoderma longiflorum*. *J of Clean Prod*. 2021; 308:127287.
6. Yadollahi R, Hamzeh Y, Ashori A, Pourmousa Sh, Jafari M, Rashedi K. Reuse of waste sludge from papermaking process in cement composites. *Polym Eng and Sci*. 2012; 53(1):183-188.
7. Daniel M., Shayene A, Kelly CC, Maria OH, Herman JC. Waste Paper as a Valuable Resource: An Overview of Recent Trends in the Polymeric Composites Field. *Polymers*. 2023; 15(2): 426.
8. Kordkheili HY, Behrooz R, Jalilvand M. Using industrial waste of old corrugating containers paper recycling mill in composite panels manufacturing. *J of Reinforced Plastics and Composites*. 2012; 31(12):855-860.
9. Dulal H, Shebbir H, Azharul I, Abu N, Maryam N. Utilisation of natural wastes: Water-resistant semi-transparent paper for food packaging. *J of Clean Prod*. 2022; 364:132665
10. Iliana P, Irene V, Florentios E, Pantelitsa L, Giorgos D, Mark E, Vincenzo N. Mobilisation of textile waste to recover high added value products and energy for the transition to circular economy. *Environmental Research*. 2024; 242:117716
11. Wagaw T, Babu KM. Textile Waste Recycling: A Need for a Stringent Paradigm Shift. *AATCC Journal of Research*. 2023; 10(6):376-385.
12. Sabine W, Olaf W, Komal H, Goretty MD. Textile waste in Ontario, Canada: Opportunities for reuse and recycling. *Resources, Conservation and Recycling*. 2023; 190:106835
13. Rafikov AS, Shirinova MX, Nigmatova FU, Abdusamatova DO. Membrane material based on acrylic emulsion and terry cloth for medical drapes. *Polym Eng and Sci*. 2023; 63(7): 2251-2264.
14. Serrano-Lotina A, Portela R, Baeza P, Alcolea-Rodriguez V. Zeta potential as a tool for functional materials development. *Catalysis Today*. 2023; 423:113862.



Sadritdin TURABDJANOV,
Toshkent davlat texnika universiteti professori
E-mail: Tur_sad_@mail.ru

Latofat RAXIMOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti professori
E-mail: latofat.2011@mail.ru

Axatilla ARIPOV,
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti
E-mail: axatillaaripov94@gmail.com

Orifjon QODIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: orifjon.678@mail.ru

Marat MUXAMEDJANOV,
Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, k.f.n
E-mail: muxamedjanovmarat_@mail.ru

ToshDTU dotsenti, k.f.n. M. Muxamedjanov taqrizi asosida

INVESTIGATION OF BIOCHAR RECOVERY PROPERTIES DURING PYROLYSIS PROCESS AND USE OF LOW-COST ADSORBENT

Annotatsiya

In this research, mangrove tree leaves and spruce cone waste residues appear from the green spaces along the road of Sagbon small village intersection, one of the busy streets in Olmozor district, Tashkent city. The collected leaves and juniper are washed with technical water to clean the upper part of the waste from harmful substances. It is also dried in the open sun for 1 day. turns into biochar in our furnace. After conversion to biochar, a simultaneous activation process with hot steam at 10 atmosphere pressure resulted in macroporous biochar. In the process of pyrolysis, mixed gases are collected drop by drop through a water cooler in the condensate method, and the obtained data are being studied. Some properties such as carbon (C), ash content (%) specific surface area and porosity, adsorption capacity were studied according to Brauner-Teller-Emmit equation. Biochar made from manju tree leaves has low carbon content and high ash content. We tested the obtained biochar in laboratory conditions.

Key words: biochar, adsorption, sorption capacity, pyrolysis, biochar technology, biomass sources.

ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ ИЗВЛЕЧЕНИЯ БИОУГЛЯ В ПРОЦЕССЕ ПИРОЛИЗА И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДЕШЕВОГО АДСОРБЕНТА

Аннотация

В этом исследовании листья мангровых деревьев и остатки еловых шишек появляются из зеленых насаждений вдоль дороги на перекрестке небольшого поселка Сагбон, одной из оживленных улиц Олмозорского района города Ташкента. Собранные листья и можжевельник промывают технической водой для очистки верхней части отходов от вредных веществ, а также сушат на открытом солнце в течение 1 суток. В нашей печи превращается в биоуголь. После преобразования в биоуголь одновременный процесс активации горячим паром при давлении 10 атмосфер привел к образованию макропористого биоугля. В процессе пиролиза смесь газов собирают по каплям через водяной охладитель конденсатным методом и изучают полученные данные. Некоторые свойства, такие как углерод (C), зольность (%), удельная поверхность и пористость, адсорбционная способность, изучались по уравнению Браунера-Теллера-Эммита. Биоуголь, изготовленный из листьев дерева манджу, имеет низкое содержание углерода и высокую зольность. Полученный биоуголь мы протестировали в лабораторных условиях.

Ключевые слова: биоуголь, адсорбция, сорбционная емкость, пиролиз, технология биоугля, источники биомассы.

PIROLIZ JARAYONI VAQTIDA BIOKO'MIR OLI SH XUSUSIYATLARINI TEKSHIRISH VA ARZON XARAJATDAGI ADSORBENT OLIB QO'LLASH

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda Toshkent shahri, Olmozor tumanidagi gavjum ko'chalardan biri Sag'bon kichik xalqa chorrahasi yo'li bo'ylab yashil maydonlardan ma'lum vaqt oralig'ida manjur darxt barglari va archa konus chiqindi qoldiqlari paydo bo'ladi. Yig'ib olingan barg va archa chiqindilarni yuqori qismini bekorchi moddalardan tozalab olish uchun texnik suv bilan yuviladi. Shuningdek 1 kun davomida ochiq quyoshda qurutiladi. Qurugandan so'ng peroliz pechimizga solib uni 270 daqiqada 350 xaroratdan 450 ° C xaroratgacha bo'lgan haroratda biomassaning piroliz pechimiz ichida bioko'mirga aylanadi. Bioko'mirga aylangandan so'ng 10 atmosfera bosimida issiq bug' bilan bir vaqtning o'zida faollashuv jarayoni makro g'ovakli bioko'mirga olib keldi. Piroliz jarayonida aralash gazlar kondensat usulida suvli sovutgich orqali tomchilab yig'ilgan va olingan ma'lumotlar o'rganilmoqda. Uglerod (C), kul miqdori (%) o'ziga xos sirt maydoni va g'ovakligi, adsorbsiya qobiliyati kabi ba'zi xususiyatlar Brauner-Teller-Emmit tenglamasi bo'yicha o'rganildi. Manjur daraxt barglaridan tayyorlangan bioko'mir past uglerodli tarkibga va yuqori kulga ega. Olingan bioko'mirni laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazdik.

Kalit so'zlar: bioko'mir, adsorbsiya, sorbsiya qobiliyati, piroliz, bioko'mir texnologiyasi, biomassa manbalari.

Kirish: Biokar biomassadan piroliz deb ataladigan jarayon orqali ishlab chiqariladi. Bioko'mir o'zining g'ovakli tuzilishi va yuqori sirt maydoni tufayli suvdan ifloslantiruvchi moddalarni adsorbsiyalash qobiliyatiga ega bo'lib, uni suvni tozalash uchun istiqbolli materialga aylantiradi. Bioko'mir oqava suvlardan turli xil ifloslantiruvchi moddalarni, jumladan og'ir metallar, organik birikmalar va ozuqa moddalarini adsorbsiyalash qobiliyatiga ega. Bu xususiyat uni suv tozalash dasturlari uchun mos qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aslida, bioko'mir qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilari, masalan, piroliz yo'li bilan ekin somoni, axlat, suvsizlangan loy va cho'kindilardan yasalgan bo'lsa-da, u "chiqindilarni chiqindilar bilan qayta ishlash" tushunchasini aks ettiruvchi atrof-muhitni tozalashda muhim rol o'ynaydi [1].



1-rasm. Bioko'mir texnologiyasi va uning qo'llanilishi [2].

Bioko'mir ko'pincha tuproq unumdorligi va tuzilishini yaxshilash uchun tuproq qo'shimchasi sifatida ishlatiladi [3], chunki tuproqqa bioko'mir qo'shilsa, u tuproqning tabiiy C ni ushlab turish qobiliyatidan oshib ketadigan qo'shimcha C ni ta'minlaydi [4]. Natijada bioko'mir iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tuproq degradatsiyasi kabi ba'zi global muammolarning yechimi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [5]. Adabiyotlarni o'rganishdan ko'rinib turibdiki, bioko'mirni qishloq xo'jaligida qo'llash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari tobora ko'payib bormoqda. Chiqindilarni tozalash jarayonlarida bioko'mirni qo'llash bilan bog'liq bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Bioko'mir sanoat oqava suvlaridan [6], tetratsiklin kabi antibiotiklardan [7] va og'ir metallardan [8] bo'yoq moddalarini samarali ravishda olib tashlaydi. Bioko'mir ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan ko'plab bio-chiqindilarga meva chiqindilari [9], hindiston yong'og'i qobig'i [10], sitrus meva chiqindilari [11], qobig'i va boshqa taninga boy materiallar kiradi [13], talaş va boshqa yog'och turidagi materiallar [14], guruch qobig'i, neft chiqindilari, o'g'it chiqindilari uchuvchi kul, shakar sanoati chiqindilari, xitoxan va dengiz mahsulotlarini qayta ishlash chiqindilari, dengiz o'tlari va suv o'tlari, torf moxlari, gillar, qizil loy, seoliflar, cho'kindi va tuproq, rudali minerallar va boshqalar [16]. Yaponiyalik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kuzgi barg axlatini bioko'mirga aylantirish va uni sabzavot maydonlariga qo'shish kuchli issiqxona gazi azot oksidi (N_2O) [17] emissiyasini kamaytirishi mumkin. Ushbu tadqiqotda manjur daraxt barglari piroliz usulida bioko'mir olish manbai bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Chiqindilarni biomassa shahar ichidagi uch tarmoqli magistral bo'ylab daraxtlardan yig'ib olindi. Manjur daraxt barglari va archa o'yinchoqlari chiqindilarining umumiy miqdori mos ravishda 240 kg va 150 kg ni tashkil etdi. Keyin ular 2 kun davomida quyosh nuri ostida ochiq havoda quritilgan. 3-5 mm o'lchamda maydalangan. Reaktorni issiqlik bilan ta'minlash uchun elektr kabellari (TEN) bilan o'ralgan quruq va kichik zarracha o'lchamdagi biomassa. Bioko'mir chinor barglarini 350-450°S haroratda piroliz qilish yo'li bilan olingan.



Fig. 1. Raw material preparation for pyrolysis.

Bioko'mirning sirt morfologiyasi va elementar tarkibi Zeiss Evo 50 SEM analizatori va QuanTax 200 EDX tizimi yordamida SEM va EDX tahlillari yordamida aniqlandi. Brauner-Teller-Emmit (BET) tenglamasi bo'yicha hisoblangan o'ziga xos sirt maydoni va bioko'mirning adsorbsion xususiyatlari o'rganilgan batafsil.



2-rasm. Manjur daraxt barglari (chapda) va archa qoldiqlari (o'ngda) asosidagi adsorbent metilen ko'k eritmasining sorbsiyasi (chapda) statik holatda (o'ngda) va filtrlash jarayonida tekshirildi.


250 ml konussimon kolbaga 80 mg/l suvdagi 10 mg/l metilen ko'k eritmasi olindi va unga 100 mg/l bioko'mir qo'shildi. Aralash ikki kun davomida statik holatda qoldiriladi, 48 soatdan keyin faollashtirilgan bioko'mir yordamida metilen ko'k rangsizlantirib olindi. Faollashgan uglerodni ajratish uchun filtr qog'oz yordamida filtrlangan va filtrtdagi metilen ko'kning oxirgi konsentratsiyasi aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Bioko'mir sirt maydoni tahlil qilindi va natijalar 1-jadvalda ko'rsatilgan. Buning sababi, piroliz haroratining oshishi organik birikmalarning ko'proq uchuvchanligiga olib keladi [44]. 1-jadval.

Benzil va suv bug'larini bosim bilan adsorbsiyalash yo'li bilan bioko'mirning BET tahlili


Adsorbent turi	Bir qatlamli massa, a_m , mol/kg		Sirt maydoni, m^2/g		G'ovak hajmi, W_0 , cm^3/g		G'ovak diametri, nm	
	Benzil	suv	Benzil	suv	Benzil	suv	Benzil	suv
BCh-1	0,139	1,105	33,46	71,82	0,02	0,04	1,39	1,77
BCh-2	0,244	1,264	58,87	82,20	0,04	0,04	1,67	1,46
BCh-3	0,144	1,303	34,70	84,70	0,02	0,06	1,49	2,22

Manjur daraxt barglariga asoslangan bioko'mir (BCh-1) eng past teshik o'lchamiga ega 1,39 nm va 33 m^2/g sirt maydonini ko'rsatdi. BCh-3 ga o'tadigan bo'lsak, archa qoldiqlari asosidagi eng yuqori teshik hajmi 2,22 nm va eng katta 85 m^2/g sirt maydonini ko'rsatdi. Bunday kichik o'lchamlar tufayli mikro-g'ovaklardagi adsorbsiya o'ziga xos xususiyatlarga ega. Adsorbsiya jarayoni g'ovaklarning yuzasida emas, balki ularning butun bioko'mir hajmida sodir bo'ladi.





3-rasm. Benzil (chapda) va suv bug'ining (o'ngda) adsorbsiya izotermasi monoqatlam massasiga (a_m , mol/kg) bosimga (P/Po) bog'liq.

G'ovak devorlari yaqin joylashganligi sababli, adsorbsion kuchlar maydonlarining bir-birining ustiga chiqishi tufayli adsorbat va adsorbent o'rtasidagi o'zaro ta'sir energiyasi keskin ortadi. Bu izotermaga ta'sir qiladi: past nisbiy bosimlarda adsorbsiya qiymatining keskin oshishi kuzatiladi (3-rasm), keyin esa u amalda o'zgarmaydi. Adabiyot ma'lumotlariga asoslanib, suv bug'idan foydalangan holda faollashtirish usuli tanlangan. Bioko'mirning bug' bilan faollashishi sirt maydonini deyarli ikki baravar oshiradi va funksional guruhlarning yo'q qilinishi tufayli qutblanishni kamaytiradi. Olingan SEM tasvirlari va faollashtirishdan oldin va keyin elementar tahlil tarkibi 4,5-rasmda ko'rsatilgan.




4-rasm. Asosiy maydoni 500 μm va 250 μm ga oshgan chinor barglaridan olingan bioko'mir (a) va kul (b) ning elektron mikroskopiya tasviri.





5-rasm. Asosiy maydonni 1 mm va 250 mkm kattalashtirish bilan archa qoldiqlari asosida hosil bo'lgan bioko'mirni (a) va (b) faollashtirishdan oldin elektron tasvirlar

Bioko'mirning SEM tasvirlari suv bug'larini faollashtirish jarayoni asl zarrachalarning sirt morfologiyasida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatdi; hosil bo'lgan bioko'mir asosan makroskopik shaklini saqlab qoldi. Kulning tarkibi (4-b-rasm) asosan kislorod (41,15%), kaltsiy (36,8%), magniy (5,9%), shuningdek, kremniy (6,7%), alyuminiy (1,9%), temir (1,4%), fosfor (2,2%) va kaliy (1,8%). Kuldagi Mg va Ca ning miqdori bioko'mirning ushbu elementlar bilan boyitilganligi bilan bog'liq. Kulda aniqlangan asosiy minerallar atrof-muhitga ozgina e'tibor bermasdan, suvni yuvish yo'li bilan qayta ishlanishi mumkin. 5-rasmdagi (a) rasm (b) dan sirtida ko'rinadigan teshiklar yoki oq dog'lar yo'qligi bilan farq qiladi. Rasmlardagi (b) faollashtirilgandan so'ng tuzilmalar sirtida oq nuqtalar tarqalganligini va gozeneklar mavjudligini ko'rsatdi. Yuqorida o'rganilgan bioko'mirning g'ovakligi va adsorbsion xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bizning keyingi urinishimiz uni bo'yoqlarni qayta ishlash jarayonida qo'llash edi. Shuning uchun biz bo'yoq sifatida metilen ko'k (MB) dan foydalandik. MB eritmasining konsentratsiyasi 20, 50, 100 mg/L va barcha bioko'mir namunalari uchun qo'llaniladigan eritmalar edi. Turli konsentratsiyalarda bo'yoqlarni olib tashlash 6-rasmda ko'rsatilgan. Birinchidan, kationik bo'yoq MV barcha ishlab chiqilgan adsorbentlarga nisbatan yaxshiroq yaqinlikka ega ekanligi seziladi. Buni faollashtirilgan bioko'mir yuzasida funktsional karboksilik (-COOH) yoki fenolik (-OH) guruhlar mavjudligi bilan izohlash mumkin [45].



6-rasm. Bo'yoq eritmasi konsentratsiyasiga qarab olingan bioko'mirning metilen ko'k adsorbsiyasi

BCh-3 MB uchun eng yuqori sorbsiya qobiliyatini ko'rsatadi (20 mg/l da 96% va 100 mg/l da taxminan 80% olib tashlash), BCh-2 va BCh-3 kabi boshqa turdagi bioko'mirlar unchalik samarali emas, lekin adolatli ko'rinadi. yaxshi natijalar. Buni olingan bioko'mirning g'ovakli tuzilishi bilan izohlash mumkin. Keyingi tadqiqotlarda bioko'mirning adsorbsiyasi to'qimachilik sanoatining oqava suvlari bilan taqqoslanadi, ular MB ning yuqori konsentratsiyasi bilan ifloslanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, o'simliklar, daraxtlar barglari, qishloq xo'jaligi qoldiqlari va boshqa o'simlik xom ashyosi kabi bio-chiqindilardan bioko'mir ishlab chiqarish ekologik toza va arzon hisoblanadi. Piroliz texnologiyasi oddiy va samarali. Bioko'mirlar manjur daraxt barglari va archa qoldiqlarini piroliz qilish yo'li bilan hosil qilingan va yuqori haroratlarda bug' bilan faollashtirilgan. Barcha ishlab chiqarilgan adsorbentlardan bioko'mir asosidagi manjur daraxt barglari eng past hosildorlikni (20%) va g'ovak hajmini ko'rsatdi. Archa qoldiqlaridan tayyorlangan bioko'mir uchun tartiblangan mezoporo struktura va yuqori sirt maydoni 85 m²/g kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Wang, S. *et al.* (2021). Application of Biochar for Wastewater Treatment. In: Thapar Kapoor, R., Treichel, H., Shah, M.P. (eds) Biochar and its Application in Bioremediation. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-16-4059-9_4
2. Wei Xiang and et al. Biochar technology in wastewater treatment: A critical review, Chemosphere, Volume 252, 2020, 126539, ISSN 0045-6535, <https://doi.org/10.1016/j.chemosphere.2020.126539>
3. Shubh Pravat and et al. Biochar application: A sustainable approach to improve soil health, Journal of Agriculture and Food Research, Volume 11, 2023, 100498, ISSN 2666-1543, <https://doi.org/10.1016/j.jafr.2023.100498>.
4. Li, S.; Tasnady, D. Biochar for Soil Carbon Sequestration: Current Knowledge, Mechanisms, and Future Perspectives. *C* **2023**, *9*, 67. <https://doi.org/10.3390/c9030067>
5. Ping Zhang, David O'Connor, Yinan Wang, LinJiang, TianxiangXiabLiuweiWangaDaniel C.W.TsangeYong SikOkdDeyiHoua. A green biochar/iron oxide composite for methylene blue removal. Journal of Hazardous Materials Volume 384, 15 February 2020, 121286. Author links open overlay panel. URL: <https://doi.org/10.1016/j.jhazmat.2019.121286>
6. Hoslett, J., Ghazal, H., Katsou, E., & Jouhara, H. (2020). The removal of tetracycline from water using biochar produced from agricultural discarded material. *Science of The Total Environment*, 141755. doi:10.1016/j.scitotenv.2020.141
7. Chakhtouna, H., Benzeid, H., Zari, N., Qaiss, A. el kacem, & Bouhfid, R. (2021). Functional CoFe₂O₄-modified biochar derived from banana pseudostem as an efficient adsorbent for the removal of amoxicillin from water. *Separation and Purification Technology*, 266, 118592. doi:10.1016/j.seppur.2021.118592
8. Solangi, N. H., Kumar, J., Mazari, S. A., Ahmed, S., Fatima, N., & Mubarak, N. M. (2021). Development of fruit waste derived bio-adsorbents for wastewater treatment: A review. *Journal of Hazardous Materials*, 416, 125848. doi:10.1016/j.jhazmat.2021.125848

9. Pathak, Pranav & Mandavgane, Sachin & Kulkarni, Bhaskar. (2015). Fruit peel waste as a novel low-cost bio adsorbent. *Reviews in Chemical Engineering*. 31. 361-381. 10.1515/revce-2014-0041.
10. Talib, Norfahana & Chuo, Sing Chuong & Mohd-Setapar, Siti & Asli, Umi & Pa'ee, Khairul & Yong, Kelly. (2020). Trends in Adsorption Mechanisms of Fruit Peel Adsorbents to Remove Wastewater Pollutants (Cu (II), Cd (II) and Pb (II)). *Journal of Water and Environment Technology*. 18. 290-313. 10.2965/jwet.20-004.
11. Campos-Flores, G., Castillo-Herrera, A., Gurreonero-Fernández, J., Obeso-Obando, A., Díaz-Silva, V., & Vejarano, R. (2018). Adsorbent material based on passion-fruit wastes to remove lead (Pb), chromium (Cr) and copper (Cu) from metal-contaminated waters. doi:10.1063/1.5032041
12. Romer, Isabel et al. "Coconut Shell Charcoal Adsorption to Remove Methyl Orange in Aqueous Solutions". *Sorption - From Fundamentals to Applications [Working Title]*, edited by George Kyzas, IntechOpen, 2022. 10.5772/intechopen.102898.
13. Li, L., Liu, S., & Zhu, T. (2010). Application of activated carbon derived from scrap tires for adsorption of Rhodamine B. *Journal of Environmental Sciences*, 22(8), 1273–1280. doi:10.1016/s1001-0742(09)60250-3
14. Oleksii Tomin, Riku Vahala, Maryam R. Yazdani. Synthesis and efficiency comparison of reed straw-based biochar as a mesoporous adsorbent for ionic dyes removal, *Heliyon*, Volume 10, Issue 2, 2024, <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e24722>.



543.422.3-74+543.33+ 546.74

Gulzoda TO'RAYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

Jamoliddin TODJIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida dotsenti, PhD.

Nurmuxammad TURABOV,

O'zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida professori, k.f.n.,

Farxod NAVRUZOV,

EMU universiteti Kimyo fanlari kafedrasida mudiri

Xosiyat TO'YCHIYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida magistranti

Bexruz TULIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

E-mail: todjiyev88@mail.ru

O'zMU professori, k.f.d Z.Smanovaning taqrizi asosida

MIS(II) IONINI 5MMSFAGNS BILAN KOMPLEKS HOSIL QILISH REAKSIYASINING OPTIMAL SHAROITLARINI ANIQLASH

Annotatsiya

Mis(II) ionining 5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalinsulfo-kislolaning dinatriyli tuzi (5MMSFAGNS) bilan rangli kompleksining hosil bo'lish reaksiyalari o'tkazildi va optimal sharoitlari aniqlandi.

Kalit so'zlar: 5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalinsulfo-kislolaning dinatriyli tuzi, mis(II) ion, optimal sharoitlar, Buger-Lambert-Ber qonuni.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОПТИМАЛЬНЫХ УСЛОВИЙ ПРОВЕДЕНИЯ РЕАКЦИИ КОМПЛЕКСООБРАЗОВАНИЯ ИОНОВ МЕДИ(II) С 5ММСФАГНС

Аннотация

Проведены реакции образования цветного комплекса иона меди(II) с динатриевой соли 5-метил-2-метокси-4-сульфопенилазо-2'-гидрокси-6'-нафталинсульфокислоты и определены оптимальные условия.

Ключевые слова: динатриевая соль 5-метил-2-метокси-4-сульфопенилазо-2'-гидрокси-6'-нафталинсульфокислоты, ион меди(II), оптимальные условия, закон Бугера-Ламберта-Бера.

DETERMINATION OF THE OPTIMUM CONDITIONS FOR THE REACTION OF COMPLEX FORMATION OF COPPER (II) IONS WITH 5MMSFAGNS

Annotation

The reactions of formation of a colored complex of the copper (II) ion with of disodium salt 5-methyl-2-methoxy-4-sulfophenylazo-2'-hydroxy-6'-naphthalene sulfonic acid were carried out and the optimal conditions were determined.

Key words: disodium salt 5-methyl-2-methoxy-4-sulfophenylazo-2'-hydroxy-6'-naphthalene sulfonic acid, optimal conditions, copper(II) ions, Bouguer-Lambert-Beer law.

Kirish. Ma'lumki, spektrofotometrik aniqlash usulida xromogen reagentlar yordamida oraliq metallar, jumladan og'ir va zaharli metall [1-2] ionlarini aniqlash qadim zamonlardan beri tasdiqlangan va asosiy analitik usul hisoblanadi. Ushbu usulning afzalliklari uning sezgirligi, selektivligi va eng muhimi amaradorligidir. Analitik kimyo fani qulay aniqlash usullarni izlashda jadal rivojlandi, ammo spektrofotometrik usullar o'z o'rnini yo'qotmadi, chunki bu usullar soddalikni aniqlik bilan birlashtiradi va shuning uchun bugungi kunda ham dolzarbdir.

Ishdan maqsad. 5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalin-sulfokislolaning dinatriyli tuzi (5MMSFAGNS) yordamida mis(II) ionlarini [3] kompleks hosil qilish reaksiyalarini optimal sharoitlarini aniqlash, aniqligi, sezgirligi hamda tanlab ta'sir etuvchanligi yuqori bo'lgan analitik aniqlash uslubini ishlab chiqishdan iborat.


Tajriba qism. Ushbu ilmiy ishda hozirgi davr talablariga javob beradigan yangi analitik reagentlardan [4] biri 5MMSFAGNS ning turli fizik-kimyoviy tavsiflarini hamda ba'zi og'ir va zaharli metallar bilan kompleks hosil qilish jarayonlarini o'rganish va ular asosida ba'zi metallarning mikromiqdorlarini aniqlash uslublarini ishlab chiqish, fizik-kimyoviy tavsiflarini aniqlash, sanoat qotishmalarining standart namunalari va tabiiy ob'yektlar tarkibidan aniqlash nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Analiz jarayonida mis(II) ionini 1,0 mg/ml li standart eritmasi, 0,05% li 5MMSFAGNS reagenti va bufer eritmalardan foydalanildi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishda yangi 5MMSFAGNS reagentidan 0,05 gr tortib olib, 100 ml li o'lchov kolbasiga solindi va belgisigacha distillangan suvda eritildi. Buning uchun CuSO₄·5H₂O (a.u.t.) markali tuzidan foydalanildi. Tuzning hisoblangan miqdorini (0,3929 gr) ni analitik tarozuda tortib olib 100 ml li o'lchov kolbasiga solindi. Uni distillangan suvda eritib 1mg/ml li 100 ml li standart eritmasi tayyorlandi. Ishchi eritmalar esa har bir ish oldidan 1mg/ml standart eritmasidan alikvot qism olib suyultirib tayyorlandi. Turli pH dagi bufer eritmalarini tayyorlash uchun "Analitik kimyo ma'lumotnomasi" dan [5] foydalanildi. Tajriba natijalari konsentrasyon fotokolorimetr (KFK-3) va pH metrda (pH/ISE Metter, Model 730P) o'lchandi.


Mis(II) ionining 5MMSGNS reagenti bilan kompleks birikmasining optimal nur filtrini tanlash. Ma'lumki har bir modda, tabiatiga ko'ra ma'lum to'lqin uzunligidagi nurni yutadi. Shuni e'tiborga olgan holda mis(II) ning 5MMSFAGNS bilan kompleksining eng yuqori nur yutish sohasi quyidagi uslub bilan aniqlandi. 25 ml li o'lchov kolbasiga pH=8,65 ga teng bo'lgan universal bufer eritmadan 5,0 ml, 0,05% li 5MMSFAGNS eritmasidan 1,0 ml, 100 mkg/ml li Cu (II) eritmasidan 1,0 ml solib, kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan to'ldirildi. Hosil bo'lgan kompleks birikmaning optik zichligi KFK-3, nur yutish qalinligi $\ell=3,0$ sm da har xil nur filtrlarida o'lchandi. Solishtirma eritma sifatida erkin eritma (mis (II) ionidan boshqa hamma komponentlar mavjud bo'lgan eritma) dan foydalanildi. O'lchash natijalari 1-rasmda keltirildi. Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, mis(II) ning 5MMSFAGNS reagent bilan kompleks birikmasi $\lambda_{\max}=360$ nm da yuqori optik zichlikni namoyon qildi.

Mis(II) ionining 5MMSFAGNS reagenti bilan kompleks birikmasi optik zichligining eritma muhiti(pH) ga bog'liqligi. Reaksiyani amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, uning muhiti ekanligini hisobga olib mis(II) ionining 5MMSGNS bilan bergan kompleks birikmasi uchun optimal sharoit tanlashda pH ko'rsatkichlari har xil bo'lgan universal bufer eritmalar yordamida aniqlandi [6-7].

Aniqlash uslub: Buning uchun 25 ml o'lchov kolbasiga 5,0 ml pH ko'rsatkichi 3,51 dan 11,52 gacha bo'lgan universal bufer eritmasidan, 0,05% li 5MMSGNS reagenti eritmasidan 1,0 ml, 100 mkg/ml li Cu(II) ioni eritmasidan 1,0 ml solib kolba belgisigacha distillangan suv qo'shib suyultirildi. Kompleks birikma eritmalarining optik zichliklari KFK-3 da, $\lambda_{\max}=360$ nm da va qalinligi $\ell=3,0$ sm li kyuvetada o'lchandi. Aniqlash natijalari 2-rasmda keltirildi. 2-rasm natijalaridan ko'rinib turibdiki, kompleks birikmaning eng yuqori optik zichligi pH=7,89-8,65 gacha oralig'ida kuzatildi va optimal muhit pH=8,65 tanlandi, chunki shu pH da optik zichlik maksimal signalga ega bo'ldi.



1-rasm. Cu(II) kompleksi optik zichligining nur filtriga bog'liqligi



2-rasm. Kompleks birikma optik zichligining pH ga bog'liqligi

Kompleks birikma optik zichligining bufer eritma tarkibiga bog'liqligini aniqlash uchun asosiy reaksiya (Cu^{2+} :5MMSFAGNS) komponentlariga pH=8,65 bo'lgan universal, boratli va gliitsinli bufer eritmalar tayyorlandi.

Aniqlash uslub: Fotometrik eritmalar tayyorlash uchun yuqorida ko'rsatilganidek, 25 ml li o'lchov kolbalariga pH=8,65 bo'lgan har xil bufer eritmalaridan 5,0 ml dan, 0,05% li 5MMSFAGNS ning suvli eritmasidan 1,0ml, 100 mkg/ml li Cu(II) ioni eritmasidan 1,0 ml solib, kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi. Optik zichliklari solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Optik zichlikning bufer eritma tarkibiga bog'liqligi (KFK-3, $\ell=3,0$ sm, $n=3$)

Bufer eritma nomi	Bufer eritmaning tarkibi	pH	\bar{A}_{ypr}
Universal	($\text{H}_3\text{PO}_4 + \text{CH}_3\text{COOH} + \text{H}_3\text{BO}_3 + \text{NaOH}$)	8,65	0,090
Boratli	($\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$)	8,65	0,062
Gliitsinli	($\text{NH}_2\text{CH}_2\text{COOH} \cdot \text{NaOH}$)	8,65	0,046

Natijalardan ko'rinib turibdiki, universal bufer eritma yordamida kompleks birikma hosil qilinganda maksimal optik zichlik kuzatildi. Keyingi tadqiqot ishlarida pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritmadan foydalanildi.

Kompleksining vaqtga nisbatan barqarorligi. Kompleksning barqarorligini aniqlash uchun, eritmaning optik zichligini vaqtga nisbatan barqarorligi o'rganildi. **Aniqlash uslub:** 25 ml li o'lchov kolbasiga 100 mkg/ml li mis(II) eritmasidan 1,0 ml, 0,05% li 5MMSGNS reagentidan 1,0 ml va 5,0 ml (pH=8,65) universal bufer eritmadan solinib, kolbani belgisigacha distillangan suv bilan to'ldirildi. Hosil bo'lgan kompleks birikma optik zichligi ma'lum vaqtlar oralig'ida solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, kompleks birikmaning optik zichlik qiymati 180 minutgacha barqarordir va keyinchalik biroz pasayishi kuzatildi. Bu vaqt oralig'ida analizni bajarish uchun yetarli ekanligini xulosa qilish mumkin.

Kompleks birikma tarkibiy komponentlarining quyulish tartibini o'rganish. Reaksiyaning unumi komponentlar quyulish tartibiga ham bog'liqligini e'tiborga olgan holda eritmalarini yuqorida ko'rsatilgan usul bilan tayyorlandi va komponentlarning quyulish tartibini o'zgartirib, 8 xil quyulish ketma-ketligida bir nechta tajribalar o'tkazildi. Olingan natijalardan xulosa qilish mumkinki, olib borilgan tajribalarning 3 tartibdagi quyulish tarkibida yuqori optik zichlik kuzatildi va keyingi tadqiqot ishlarida 3-quyulish tartibi tanlandi (2-jadval).

2-jadval

Kompleks birikma optik zichligining vaqtga nisbatan barqarorligi va komponentlarning quyulish tartibini o'rganish natijalari ($\text{C}_{\text{Cu}^{2+}}=100,0$ mkg/ml, $\text{C}_{\text{HR}}=0,05\%$, pH=8,65, $\ell=3,0$ sm, $\lambda_{\max}=360$ nm, $n=3$)

N_{q}	t_{min}	\bar{A}	t_{min}	\bar{A}	N_{q}	Quyulish tartibi	$A_{\text{o'rt}}$
1	1	0,087	80	0,136	1	bufer-reagent-metall-dist.suv	0,076
2	5	0,093	90	0,136	2	reagent-bufer-metall-dist.suv	0,068
3	10	0,103	100	0,135	3	bufer-metall-reagent-dist.suv	0,090
4	20	0,103	110	0,130	4	metall-bufer-reagent-dist.suv	0,082
5	30	0,103	120	0,130	5	reagent-suv-bufer-dist.suv	0,083

6	40	0.103	130	0.130	6	reagent-metall-bufer-dist.suv	0,084
7	50	0.103	140	0.130	7	metall-dist.suv-bufer-reagent	0,068
8	60	0.113	160	0.130	8	Dist.suv-reagent-metall-bufer	0,059
9	70	0,120	180	0.130			

Kompleks birikma optik zichligining qo'shilayotgan reagent miqdoriga bog'liqligi. Amaliy tadqiqotlarda metallni kompleksga to'la bog'lanishi uchun reagentning ortiqcha miqdori olinadi. Shu maqsadda kompleks birikma optik zichligining qo'shilgan reagent miqdoriga bog'liqligini o'rganish uchun 25,0 ml li o'lchov kolbalarida fotometrik eritmalar tayyorlandi [6-7].

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o'lchov kolbalariga 5 ml pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritma, 100,0 mkg/ml li Cu(II) ioni eritmasidan 1,0 ml va o'zgaruvchan miqdordagi 0,1-1,5 ml gacha 0,05% li 5MMSGNS suvli eritmasi va kolbaning belgisigacha distillangan suv solib suyultirildi. Kompleks birikma optik zichligi KFK-3 da, $\ell=3,0$ sm da solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 3-jadval va 3-rasmda keltirildi.

3-jadval


Kompleks birikma optik zichligining qo'shilgan reagent miqdoriga bog'liqligi
($C_{Cu^{2+}}=100,0$ mkg/ml, pH=8.65, KFK-3, $\ell=3,0$ sm, $\lambda_{max}=360$ nm, $n=3$)

V_R, m	0,1	0,25	0,5	0,75	1,0	1,1	1,25	1,4	1,5
A	0,01	0,017	0,032	0,051	0,064	0,073	0,085	0,089	0,083


3-jadval va 3-rasm natijalardan ko'rinib turibdiki, 100,0 mkg/ml Cu (II) ionini kompleksga to'la bog'lash uchun 1,4 ml 0,05 % li reagent eritmasi yetarli ekan. Keying tadqiqot ishlarida 1,4 ml reagentning 0,05% li eritmasidan foydalanildi.

Kompleks birikma optik zichligining element miqdoriga bog'liqligi (Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi). Mis(II) ionining 5MMSGNS bilan bergan kompleksi eritmasining Ber qonuniga bo'ysinishi tanlangan optimal sharoitlarda o'rganildi [6].

Aniqlash uslubi: 25,0 ml o'lchov kolbalariga pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritmasidan 5 ml, Cu(II) ning 100,0 mkg/ml li eritmasining o'zgaruvchan miqdorlarida, 1,4 ml 0,05% li 5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalinsulfokislotaning dinatriyli tuzi eritmasidan va kolbaning belgisigacha distillangan suv solib suyultirildi. Eritmalarni aralashtirib optik zichliklari ($\lambda_{max}=360$ nm, $\ell=3,0$ sm) solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 4-rasmda keltirildi va Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinish sohasi 25,0 ml eritmada 2,0-65,0 mkg gacha bo'lgan oraliqda kuzatildi. Undan yuqori konsentratsiyada to'g'ri chiziqli bog'lanishdan chetlanish ro'y berdi [7].



3-rasm. Optik zichlikning qo'shilgan reagent miqdoriga bog'liqligi

4-rasm. Optik zichlikning Cu²⁺ miqdoriga bog'liqligi

Mis(2) ionining 5 MMSFAGNS reagenti bilan hosil qilgan kompleksining spektral tavsifi: Mis (II) ionining 5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalinsulfokislotaning dinatriyli tuzi bilan hosil qilgan kompleksni tanlangan optimal sharoitda yutulish spektrlari olindi.

Aniqlash uslubi: 25,0 ml li o'lchov kolbalariga pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritmasidan 5 ml, mis (II) ning 65,0 mkg/ml li eritmasidan 1 ml, 0,05% li 5 MMSFAGNS ning eritmasidan 1,4 ml va kolbaning belgisigacha distillangan suv solib suyultirildi. Hosil qilingan kompleks birikma yutulish spektri solishtirma eritmaga nisbatan nur yutish qalinligi $\ell=3,0$ sm bo'lgan kvarts kyuvetada, konsentratsion fotokolorometr "KFK-3" da o'lchandi. Reagentning yutulish spektrlari esa distillangan suvga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 4-jadvalda keltirildi. Rasmda keltirilgan yutulish spektri bo'yicha 5MMSFAGNS reagentini maksimal nur yutish sohasi $\lambda=500$ nm da joylashgan, mis kompleksining maksimal nur yutish sohasi $\lambda=360$ nm da kuzatildi.

4-jadval

5-metil-2-metoksi-4-sulfofenilazo-2'-gidroksi-6'-naftalinsulfokislotaning dinatriyli tuzi va uning mis (II) bilan kompleksining (CuR) spektral tavsifi

($C_{Cu^{2+}}=65$ mkg/ml, $\ell=3,0$ sm, $\lambda_{max}=360$ nm, pH=8,65, $n=3$)

Kompleks rangi	pH	Maksimal λ, nm		$\Delta\lambda$	$C_{Cu^{2+}}, mkg/25ml$	$C_{Cu^{2+}}, mol/l$	\bar{A}	Sendel bo'yicha sezgirligi mkg/sm ²
		MR	HR					
To'q-qizil	8.65	360	500	140	65	$4.09 \cdot 10^{-5}$	0,284	0,0275

Metodning Sendel bo'yicha sezgirligi quyidagi formula bilan hisoblandi:

$$S_{s.b.s} = \frac{Q \cdot \ell \cdot 0.001}{A \cdot 25} = \frac{65 \cdot 3 \cdot 0.001}{0,284 \cdot 25} = 0,0275 \text{ mkg/sm}^2$$

Sendel bo'yicha sezgirligi 0,0275 mkg/sm² ga teng ekanligi aniqlandi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, reaksiyaning kontrastligi $\lambda=140$ nm va Sendel bo'yichasezgirligi $S_{s.b.s.}=0,0275$ mkg/sm² tengligi yuqori sezgirlikka ega ekanligini bildiradi.


Mis(II) ionining 5MMSGNS reagenti bilan bergan kompleksining tarkibiy mollar nisbatini aniqlash. Mis(II) ionining 5MMSFAGNS bilan hosil qilgan kompleksida komponentlarning mollar nisbatlari izomolyar seriyalar va Asmusning to'g'ri chiziqlar usullari bilan aniqlandi [6-7] ($C_{Cu^{2+}}=63,25$ mkg/ml).

Kompleks birikma tarkibini Izomolyar seriyalar usuli yordamida aniqlash. Mis(II) ionining 5MMSFAGNS bilan hosil qilgan kompleksidagi mollar nisbatini izomolyar seriyalar usuli yordamida aniqlash uchun mis(II) ion va reagentning teng konsentratsiyali eritmaları ishlatildi ($C_{Cu^{2+}}=C_{HR}=1,02 \cdot 10^{-3}M$).


Aniqlash uslubi. 25,0 ml li o'lov kolbalarida qator eritmalar tayyorlandi. Buning uchun pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritmasidan har biriga 5,0 ml dan, mis(II) ionining o'zgaruvchan miqdori eritmaları (9,0-1,0 ml gacha) dan har biriga qo'shib va ustiga o'zgaruvchan miqdordagi 0,05% li 5MMSFAGNS reagenti eritmasi (1,0 ml-9,0 ml gacha) dan qo'shib kolba belgisigacha distillangan suv bilan suyultirildi va aralastirildi. Tayyorlangan eritmaların optik zichligi KFK-3 da $\lambda_{max}=360$ nm, nur yutulish qalinligi $\ell=3,0$ sm bo'lgan kyuvetalarda solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 5-rasmda keltirildi. Tadqiqot natijalarida Izomolyar seriyalar metodi bilan hosil qilgan kompleksining tarkibi $Cu^{2+}:HR=1:2$ mollar nisbatiga to'g'ri keldi.

Kompleks tarkibini Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash. O'zaro ta'sir etuvchi komponentlarning stexiometrik nisbatlarini grafik usulda aniqlash uchun $(1/V)^n=1/A$ bog'liqlik grafigi tuzildi. Bu bog'liqlik faqat n ning qiymati haqiqiy qiymat uchun to'g'ri chiziqni ifodalaydi [6-7].

Aniqlash uslubi. 25,0 ml li o'lov kolbalariga 5 ml pH=8,65 bo'lgan universal bufer eritma, 65,0 mkg/ml li Cu(II) ning eritmasidan 1,0 ml, o'zgaruvchan miqdorda 0,05% li 5MMSFAGNS eritmasidan (0,2-1,6 ml gacha) va belgisigacha distillangan suv bilan suyultirilib aralastirildi. Tayyorlangan fotometrik eritmaların optik zichliklari KFK-3 da $\lambda_{max}=360$ nm, nur yutulish qalinligi $\ell=3,0$ sm bo'lgan kyuvetalarda solishtirma eritmaga nisbatan o'lchandi. Olingan natijalar 6-rasmda keltirildi.



5-rasm. Izomolyar seriyalar metodi yordamida aniqlash grafigi



6-rasm. Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash grafigi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri chiziq 1:2 mollar nisbatiga to'g'ri keldi. Demak, izomolyar seriyalar metodi ham, Asmusning to'g'ri chiziqlar metodi ham bir-birini tasdiqladi va tarkib $Cu:R=1:2$ nisbatda ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Mis(II) ionining 5MMSFAGNS reagenti bilan rangli kompleks birikmasining optimal sharoitlari: reagent va uning mis(II) ion bilan hosil qilgan kompleksning yutilish spektrlari ($\lambda_{max}(HR)=500$ nm, $\lambda_{max}(CuR)=360$ nm), kompleksning tarkibiy mollar nisbati izomolyar seriyalar va Asmusning to'g'ri chiziqlar usullari ($Cu:R=1:2$) bilan va Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysunishi sohasi 2,0-65,0 mkg/25ml ga ekanligi aniqlanib spektrofotometrik uslub tavsiya etildi.

ADABIYOTLAR

- Goswani A., Agarwal S. Spectrophotometric determination of copper and iron : reagents and methods//De Gruyter. Monograph. –2021. –№4. –268p.
- Никоненко И.С. Экспресс-методы определения ионов меди и кадмия в окружающей среде // Молодой ученый. – 2016. –№ 24. –С. 121-124.
- Жевлакова А.А. Спектрофотометрическое определение меди(II) и никеля(II) при совместном присутствии// Вып. квал.раб. Пензенский государственный университет. –г. Пенза, –2017, –72 с.
- Саввин С.Б., Штыков С.Н., Михайлова А.В. Органические реагенты в спектрофотометрических методах анализа // Успехи химии. –2006. –Т. 75. –№ 4. –С. 380-389.
- Лурье Ю.Ю. Справочник по аналитической химии. М.: Химия, –1989. –448 с.
- Калинкин И.П., Булатов М.И. Практическое руководство по фотометрическим методам анализа //М.: Книга по Требованию, 5-ое изд. –2013. –432 с.
- Тоджиев Ж.Н. Разработка спектрофотометрических методов определения ионов меди(II), цинка(II) и ртути(II) новым азореагентом на основе пиридина//Дисс. доктора философии(PhD) хим. наук. Ташкент, –2019. –120 с.



УДК: 615.326:549.456.1:54-142.032(075.8)

Зебо УРИНОВА,

Докторант Самаркандского государственного университета

E-mail: zebourinova83@gmail.com,

Туйгул БАБАЕВ,

Профессор Национального университета Узбекистана, д. х.н.

Махмуд КАРИМОВ,

Профессор Алмалыкского филиала Ташкентского государственного технического университета, д.х.н

На основе рецензии д.х.н., доцента НУУз Бекчанова Д.Ж.

ПОЛИМЕРНЫЕ ФОРМЫ АНТИБАКТЕРИАЛЬНОГО СОЕДИНЕНИЯ ЭТОНИЯ

Аннотация

Методами ИК-спектроскопии, потенциметрического титрования и вискозиметрии исследовано комплексообразования лекарственного соединения этония с природным полимером яблочным пектином. Изучены пути модификации карбоксилсодержащего хорошо растворимого в воде полимера с органическим физиологически активным соединением - этонием применяющимся в ветеринарной практике как противовоспалительное средство для получения его пролонгированных лекарственных форм.

Ключевые слова: пектин, этоний, полиэлектролиты, полимерный комплекс, противовоспалительное средство, гидродинамическое свойство, ИК-спектроскопия, потенциметрическое титрование, вискозиметрия.

POLYMER FORMS OF ANTIBACTERIAL ETHONIUM COMPOUNDS

Annotation

The formation of a mutual complex of ethonium drug compound with natural polymer - apple pectin was studied by IR-spectroscopy, potentiometric titration and viscosimetry methods. Ways of modifying a polymer containing a water-soluble carboxyl group with an organic physiologically active compound - ethonium, which is used as an anti-cold agent in veterinary practice, were studied to obtain its long-acting drug forms.

Key words: pectine, etonij, polyelectrolytes, polymer complex, anti-inflammatory mean, hydrodynamical property, IR-spectroscopy, potentiometric titration, viscosimetry.

ANTIBAKTERIAL BIRIKMA ETONIYNING POLIMER SHAKLLARI

Annotatsiya

ИК-спектроскопиya, potensiometriktitrlash va viskozimetriya usullari bilan etoniy dori birikmasini tabiiy polimer – olma pektini bilan o‘zaro kompleks hosil qilishi tadqiq qilindi. Suvda yaxshi eruvchi karboксил guruxi tutgan polimerni veterinariya amaliyotida shamollashga qarshi vosita sifatida qo‘llaniladigan organik fiziologik aktiv birikma – etoniy bilan modifi-katsiyalash yo‘llari uning uzoq ta‘sir qiluvchi dori shakillarini olish uchun o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: pektin, etoniy, polielektrolitlar, polimer kompleksi, shamollashga qarshi vosita, gidrodinamik xossa, ИК-спектроскопиya, potensiometriktitrlash, viskozimetriya.


Введение. Вторая половина XX века ознаменовалась рядом прорывов химии высоко-молекулярных соединений в различных областях естествознания. Свидетельством одного из них является сформировавшееся направление - химия медико-биологических полимеров [1], одной из задач которой является решение проблем химической модификации природных и синтетических полимеров и синтеза новых полимеров для применения в медицине, биологии и ветеринарии [2,3]. В этой связи большой научный интерес представляет изучение взаимодействий полиэлектролитов с различными ионами физиологически активных веществ, который обусловлен возможностью создания новых эффективных препаратов для практического применения [4,5]. Перспективным в этом плане является модификация лекарственных веществ путем их комплексообразования с полиэлектролитами с целью улучшения растворимости в воде, биологических жидкостях, защита от преждевременного разрушения ферментами, уменьшения дозы, придания им пролонгированного и направленного действия на орган-мишень [6,7].

При комплексообразовании полиэлектролитов с биологически активными соединениями существенным образом меняется конформационное состояние полимеров в растворе, гидродинамические свойства их макромолекул. Поэтому изучение строения, структуры, условий образования и процессов конформационных превращений полимеров и их изменений под воздействием различных факторов является актуальной задачей химии полимеров.

В основе использования пектина и его производных в качестве носителей фармакологически активных соединений лежит его способность к обменно-сорбционным взаимодействиям как ионов, так и молекул в целом [8], а так же способность к гелеобразованию как результату агрегации макромолекул пектина и воды [9].

Объекты и методы исследования. Объектами исследований взяты: яблочный пектин и лекарство этоний. По современным представлениям пектины – это коллоидные комплексы полисахаридов кислого характера, состоящие из арабиана, галактана и так называемой пектиновой кислоты [10]. Молекулярная масса пектинов колеблется от 3000 до 300 000 [8]. В исследованиях использовали яблочный пектин Российской фирмы «WATT-NUTRITION» (марки для пищевых продуктов)

Этоний оказывает бактериостатическое и бактерицидное действие, эффективен в отношении стрептококков, стафилококков и других микроорганизмов. Недостатком препарата является то, что он действует в организме временно, что требует частого введения [11]. В экспериментах использовали этоний произведённый Российской компанией ООО «БИОЛАЙН» (марки х.ч.), который имеет следующую химическую структуру:



Поликомплексы пектина с этонием получали смешиванием водных растворов реагентов. Например, 1 г пектина растворяли порциями в 20 мл дистиллированной воде. Затем из капельной воронки добавляли при перемешивании 2 мл раствора, содержащего 0,02 г этония и эту смесь перемешивали в течение 4 часов при комнатной температуре.


ИК-спектроскопия. ИК-спектры снимались на Фурье ИК-спектрометре Nicolet iS50 (Thermo Scientific, США). Образцы исходных веществ и поликомплексов применялись в виде прессованных таблеток с KBr.

Потенциометрическое титрование. Титрование водного раствора пектина водным раствором едкого натра или водным раствором этония проводили на иономере И-130 со стеклянным электродом, точностью измерения 0,02 ед. рН при 20°C. Иономер предварительно откалибровали буферными растворами. К водному раствору пектина 0,1% добавляли по каплям 0,01 н. раствор NaOH.

Вискозиметрические измерения растворов проводили при термостатировании с точностью до 0.1К в капиллярном вискозиметре типа Уббелюде. Расчёты проводили классическим методом [12].

Полученные результаты и их обсуждение. Как было выше упомянуто, одним из методов получения лекарственных полимеров является комплексообразование между полимером-носителем и лекарственным соединением, что является перспективным направлением для применения в практике [6,7]. В этом отношении интересным является исследование взаимодействия природного полимера – пектина, имеющего своеобразную более сложную структуру, чем синтетические полиэлектролиты с органическими аминами, содержащие одновременно гидрофильные и гидрофобные группы. Пектин – это вещество, которое получают исключительно из сырья растительного происхождения [10]. С точки зрения химии пектин – высокомолекулярный структурный полисахарид (клетчатка), который входит в состав клеточной стенки и межклеточных образований практически всех наземных растений. Способность пектина проявлять специфические сорбционные свойства, растворяться в воде и склонность к гелеобразованию, практическая безвредность организму обуславливают использование его в качестве полимера-носителя для лекарственных веществ [8,9].

При смешивании водных растворов пектина и этония наблюдается помутнение и понижение значения рН раствора, что объясняется взаимодействием пектина и этония с образованием полиэлектролитного комплекса по следующей схеме [8,9]:



Продуктом взаимодействия исследуемых компонентов является нерастворимый в воде полимерный комплекс, что обусловлено гидрофобизацией макромолекул, так как ионогенные группы, ответственные за растворимость пектина в воде, оказываются блокированными [9,10].

Изучение взаимодействия пектина с этонием проводили методами ИК-спектроскопии, потенциометрического титрования и вискозиметрии. В ИК-спектре пектина (рис. 1.А) имеется широкая полоса в области 3100-3600 см⁻¹ который относится к валентным колебаниям гидроксильных групп, участвующих в образовании меж- и внутримолекулярных водородных связей. 1750 см⁻¹ проявляются валентные колебания карбонила карбоксильной группы, 1640 см⁻¹ валентные колебания карбонила сложно-эфирной группы. Валентные колебания С – О – С связи молекулы пектина проявляются широкой интенсивной полосой при 1000-1200 см⁻¹ [13] (рис. 1.А).




Рис. 1. ИК-спектры пектина (А) и лекарственного соединения этония (В)

В ИК-спектре этония (рис. 1.В) наблюдаются следующие полосы поглощения. Интенсивная полоса в области 1730 см⁻¹ относится к валентным колебаниям карбонила сложно-эфирной группы. 1380 см⁻¹ симметричные валентные колебания метильной группы. Группы полос в области 1420 см⁻¹, 1450 см⁻¹ можно отнести к асимметричному деформационному колебанию метильной группы и деформационному колебанию метиленовой группы [14] (рис. 1.В).






Dastlabki moddalar molekularini tashkil qiluvchi funktsional guruhlarining tebranish chastotalari quyidagi sohalarda kuzatildi, sm⁻¹

Ni(HCOO)₂: δ(Me-O)- 461, 548, ν_s(COO⁻)=1396, ν_{as}(COO⁻)=1560

NaCH₃COO: δ(Me-O)- 638, ν_s(COO⁻)=1406, ν_{as}(COO⁻)=1539

Koordinasion birikma hosil bo'lishi natijasida dastlabki moddalarning IQ-spektrlaridan farqli bo'lgan o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatdi (2-rasm).



2-rasm. Hosil bo'lgan kompleks birikma IQ spektri

Bunda asosiy o'zgarishlar Ni-O bog'da kuzatilgan, shuningdek atsetat guruhining assimetrik va simmetrik tebranishlarida ham o'zgarishlar bo'lgan. Bunga sabab dastlab atsetat anioni monodentat koordinatsiyalangan bo'lsa, koordinatsiyalangan keyin atsetat guruhi bidentat – ko'priqli tipga o'tadi (2-jadval).

2-jadval

Koordinasion birikmalarning IQ-spektrlaridagi yutilishlarining xarakterli chastotalari

Birikmalar	δ(Me-O)	ν _s (COO ⁻) 1300-1420 sm ⁻¹	ν _{as} (COO ⁻) 1500-1600 sm ⁻¹	δ(-CH ₃) 1013-1076 sm ⁻¹
[Ni(HCOO) ₂ ·4NaCH ₃ COO]	689	1407	1549	1001

Xulosa. IQ-spektroskopik taxlil natijasida Ni(II) formiati bilan natriy atsetati ta'sirlashuvida hosil bo'lgan koordinasion birikma poliyadroli geterometalli kompleks birikma ekanligi olingan IQ spektrlarini tahlil qilish natijasida isbotlandi. Bunda koordinasion bog' atsetat ioni tarkibidagi karbonil guruhining kislorodi orqali bidentat-ko'priqli koordinatsiyalanishi orqali amalga oshadi.

ADABIYOTLAR

1. Matthews C.J., Avery K., Xu Z., Thompson L.K., Zhao L., Miller D.O., Biradha K., Poirier K., Zaworotko M.J., Wilson C., Goeta A.E., Howard J.A.K. Tetranuclear Copper(II) and Nickel(II) Cluster Complexes Derived by Self-Assembly from a Series of Tetradentate Diazine Ligands: Structural and Magnetic Studies // Inorg. Chem. – 1999. – V. 38. – P. 5266-5276.
2. Xu Z., Thompson L.K., Matthews C.J., Miller D.O., Goeta A.E. Howard J.A.K. Synthesis of a Spin-Coupled, Mixed-Metal Double Square Grid Complex [(poap-H)₄Cu(II)₂Fe(III)(NO₃)₂(ClO₄)₄(NO₃)₄·12H₂O (poap = N₃-(2-pyridoyl)-2-pyridinecarboxamidrazone) with an S = 3 Ground State, from a Mono-nuclear Fe(III) Precursor Complex // Inorg. Chem. – 2001. – V. 40. – P. 2446-2449.
3. Yar O. Lessinger L. Bis(145haract-O)bis(urea-O)zinc(II), [Zn(H₂N CONH₂)₂(CH₃COO)₂] // Acta Cryst. Sec. C – 1995. – V. 51, № 11. – P. 2282-2285.
4. Ridwan A. Extensive structural investigations of M(HCO₂)₂·2(NH₂)₂CO (M= Mg, Mn, Zn, Co and Cd) in view of two-dimensional magnetic interactions // Jpn. J. Appl. Phys. – 1992. – V. 31. – P. 3559-3563.

5. Györyová K., Balek V., Zelenák V. Thermal stability of zinc formate complex compounds containing urea, thiourea and caffeine // *Thermochimica Acta.* – 1994. – V. 234. – P. 221-232.
6. Гордон А.А. *Спутник химика.* – М.: Городок, – 2005. – 600 с.
7. Суянобекова А. Взаимодействие формиатов, ацетатов, сульфатов, бивалентных металлов с амидами и свойства твёрдых фаз. Автореферат дисс. канд. хим. наук Бишкек, – 1999. – 25 с.
8. Зеер Г.М., Фоменко О.Ю., Ледеява О.Н. Применение сканирующей электронной микроскопии в решении актуальных проблем материаловедения // *Журнал Сибирского федерального университета.* – 2009. – Т.2. – №4. – С.287-293.
9. Калмыков К.Б., Дмитриева Н.Е. Сканирующая электронная микроскопия и рентгено-спектральный анализ неорганических материалов. Методическое пособие. Москва, – 2017. – С.54.
10. З.Ш.Абдуллаева, Ш.А.Кадилова, Ш.Б.Хасанов, Н.К.Рузметова. Синтез и спектроскопическое исследование координационных соединений формиата кобальта (II) с ацетатами натрия и бария // *Вестник НУУз.* – Ташкент, 2021. – №3/1. – С. 254-257.
11. Сидоров А.А., Александров Г.Г., Кискин М.А., Еременко И.Л. Сборка и управление геометрией наноразмерных металлосодержащих молекул. Современные проблемы общей и неорганической химии. // *Сборник трудов II Международной конференции. Отв. за вып.* – М. –2009, – С. 204-215.
12. Сидоров А.А., Фомина И. Г., Талисманов С. С., Александров Г. Г., Новоторцев В. М., Еременко И. Л. Формирование и превращения полиядерных гидроксо- и оксотриметилацетатных комплексов Ni(II) и Co(II) // *Коорд. Химия,* – 2001, –Т. 27, – 584-596.



UDK: 629.357

Ulug‘bek HAMROYEV,
Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti dotsenti, PhD
E-mail: uzbekiston@inbox.ru
Gulnoz HAMRAYEVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail: guli28@mail.ru

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti dotsenti, t.f.f.d. (PhD) L. Radjabova taqrizi asosida

THE MAIN CRITERIA FOR IDENTIFICATION IN THE CLASSIFICATION OF VEHICLES IN CUSTOMS CLEARANCE

Annotation

In this article, the concept of identification of vehicles is discussed in different directions based on different methods, procedures and stages. This includes vehicle manufacturers, state vehicle control bodies, banking offices, armed forces system, customs system, etc. based on the nature of the work, he touched upon the identification criteria in order to verify the compliance of the information provided about him with the actual technical and informational characteristics.

Key words: Vehicle, car, goods, identification, customs practice, classification, customs cargo declaration, CN FEA, technical description, "e-Transit" automated information system, classification rules.

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ИДЕНТИФИКАЦИИ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ТАМОЖЕННОМ ОФОРМЛЕНИИ

Аннотация

В данной статье понятие идентификации транспортных средств (ТС) рассматривается в разных направлениях на основе разных методов, процедур и этапов. Сюда входят производители ТР, органы государственного контроля транспортных средств, банковские учреждения, система вооруженных сил, таможенная система и т.д. Исходя из характера работы, затронул критерии идентификации с целью проверки соответствия предоставленной о нем информации реальным техническим и информационным характеристикам.

Ключевые слова: Транспортное средство, автомобиль, товар, идентификация, таможенная практика, классификация, грузовая таможенная декларация, ТН ВЭД, техническое описание, автоматизированная информационная система «Е-Транзит», правила классификации.

BOJXONA RASMIYLASHTIRUVIDA TRANSPORT VOSITALARINI TASNIFLASHDA IDENTIFIKATSİYALASHNING ASOSIY MEZONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Transport vosita (TV)larini identifikatsiya qilish tushunchasi turli yo‘nalishlarda har xil usul, tartib va bosqichlar asosida amalga oshirilishi to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan. Bunda TVni ishlab chiqaruvchilar, davlat avtomobil nazorati organlari, bank idoralari, qurolli kuchlar tizimi, bojxona tizimi va h.k.z. tomonidan ish xususiyatidan kelib chiqqan holda u to‘g‘risida taqdim qilingan ma‘lumotlarning haqiqiy texnik, ma‘lumot xususiyatlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida identifikatsiya qilish mezonlariga to‘xtalgan.

Kalit so‘zlar: Transport vositasi, avtomobil, tovar, identifikatsiya, bojxona amaliyoti, tasniflash, bojxona yuk deklaratsiyasi, TIF TN, texnik tavsifi, “ye-Transit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi, tasniflash qoidalari.

Kirish. Transport vosita (TV)larini identifikatsiya qilish tushunchasi turli yo‘nalishlarda har xil usul, tartib va bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Bunda TVni ishlab chiqaruvchilar, davlat avtomobil nazorati organlari, bank idoralari, qurolli kuchlar tizimi, bojxona tizimi va h.k.z. tomonidan ish xususiyatidan kelib chiqqan holda u to‘g‘risida taqdim qilingan ma‘lumotlarning haqiqiy texnik, ma‘lumot xususiyatlariga muvofiqligini tekshirish maqsadida identifikatsiya qilinadi.

Bojxona tizimida transport vositalarini identifikatsiya qilish bojxona nazoratining muhim bosqichi bo‘lib, inson ishtiroki bilan, raqamli texnologiyalar va axborot tizimlariga quyilgan axborot resurslari asosida qaror qabul qilinadi, zarur hollarda avtoeksportizadan o‘tkaziladi.

Tovarlarni identifikatsiyalashda bojxona ekspertizasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, bojxona organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 197-moddasiga asosan tovarlarni identifikatsiya qilish bojxona nazorati shakllaridan biri hisoblanadi [1]. Bugungi kunda texnik jihatdan yaxshi jihozlangan va bojxona sohasiga oid mavjud identifikatsiyalash usullarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Bojxona amaliyotida tovarlarni TIF TNning tasniflash qoidalarga ko‘ra, bir turdagi tovarni bir nechta tovar guruhlarida tasniflash ehtimollari mavjudligi sababli, import bojxona yuk deklaratsiyasi (BYUD) rasmiylashtiruvda bojxona to‘lovlari summalarini kamayish holatlari kuzatiladi. Qolaversa, ekspertyor davlatlarda yangi - yangi tovarlar ishlab chiqilib bozorga kiritilmoqda. Bu esa, BYUD rasmiylashtiruv jarayonida TIF TN kodlarini belgilanishiga shubha uyg‘otadigan tovarlar bo‘yicha joriy qilingan xavf profillari o‘z vaqtida TIF TNni to‘liq qamrab olishga imkon bermaydi.

Bojxona maqsadlari uchun transport vositalarining turlari, bajaradigan vazifalari, texnik parametrlari, ehtiyot qismlarini TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash va bojxona to'lovlarini undirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili:

Tovarlarni TIF TN bo'yicha tasniflash usullari

TVlarini bojxona maqsadlari uchun rasmiylashtiruvchi jarayoni import, eksport rejimida Elektron bojxona rasmiylashtiruvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimi (EBR AAT) dasturi asosida tizimlashtiriladi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarilayotgan tovar va TVlarining turlarini tasniflangan tizimi, bojxona organlari bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiyasi ta'minlanmagan va bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlari ilmiy manbalarda, to'liq ilmiy asoslangan yechimlar keltirilmagan.

Tovarlarni tizimli tahlil qilish, identifikatsiyalash, lingvostatistik, TIF TNni talqin etishning 6 ta asosiy interpretatsiya qoidalari bo'yicha tasniflash, iyerarxik, tasniflash sifatini baholash, perseptron va tavsiflovchi, toifalash kabi usullari mavjud [2], [3].

Avtomobilni identifikatsiyalashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Vizual identifikatsiya qilish usuli – transport kuzovi va dvigatel raqamlarini jismoniy tekshirishga, shuningdek, transport vositasining markasi, modeli va ishlab chiqarilgan yilining hujjatlariga muvofiqligini tekshirishga asoslangan.

Elektron identifikatsiya qilish usuli - kuzov raqamiga yoki dvigatelga o'rnatilishi mumkin bo'lgan raqamlarni aniqlash tizimlari yoki mikrochiplar kabi elektron identifikatsiya tizimlaridan foydalanishga asoslangan [4].

Sun'iy intellekt (SI)ga asoslangan transport vositasini identifikatsiyalash - bu transport vositalarini avtomatik ravishda tasniflash uchun mashinani o'rganish, kompyuterni ko'rish algoritmlaridan foydalangan holda tanib olishi va tez rivojlanayotgan sohadir. Bunda TVni SI asoslangan identifikatsiya tizimlari, identifikatsiya aniqligi va tezligi, inson omilini kamaytirish, qiyin sharoitlarda ishlash qobiliyati, kengaytirilgan identifikatsiya qilish imkoniyatlari o'z ichida qamrab oladi.

Transport vositasining identifikatsiya VIN-raqami - avtotransport vositasining identifikatsiya raqami (keyingi o'rinlarda - VIN-kod): uni identifikatsiya qilish maqsadida transport vositalariga birlashtirilgan strukturali kombinatsiyalangan belgilar;

Hujjatlar bilan identifikatsiya qilish usuli - hujjatlarning o'ziga xosligi, transport vositasining markasi, modeli, ishlab chiqarilgan yiliga muvofiqligi, ro'yxatga olish guvohnomalari va texnik pasportlar kabi hujjatlarni tekshirishga asoslangan.

Transport vositasi turini aniqlash uchun qaysi usul qo'llanilishi ushbu mamlakatdagi muayyan vaziyat va qonuniy talablariga bog'liq.

Modifikatsiya - transport vositasi yoki komponentining turi mos ravishda turli xil bo'lgan, biroq bir xil turga mansub bo'lgan dizayn va konstruktiv mezonlaridan farq qiladigan turli xil transport vositasi;

Transport vositasi toifasi – transport vositasini tasniflash xususiyati, qabul qilingan texnik reglament talablaridan kelib chiqib foydalaniladi;

Transport vositasi turi (shassi) - ishlab chiqaruvchi tomonidan ishlab chiqarilgan, texnik tavsifda belgilangan bir xil dizayn xususiyatlariga ega transport vositalari (shassi) ;

jihozlangan transport vositasining massasi - bu ishlab chiqaruvchi tomonidan aniqlangan tanasi va ulash moslamasi bo'lgan bo'sh transport vositasining og'irligi yoki kabina va (yoki) unga ulash moslamasi bo'lgan shassining og'irligi. Bu og'irlikka M va N toifalari uchun sovetlash suvi, moylar, yoqilg'ining kamida 90 foizi, boshqa transport vositasining ekspluatatsion suyuqliklarining 100 foizi, asboblar, haydovchi (75 kg), avtobuslar uchun — ekipaj a'zosi (75 kg) agar transport vositasida o'tirish joyi nazarda tutilgan bo'lsa, M, N va O-turkumlari uchun zaxira g'ildirak (mavjud bo'lsa);

xalqaro ishlab chiqaruvchi identifikatsiya kodi - World Manufacturer Identifier - (keyingi o'rinlarda WMI kodi deb yuritiladi): avtomobil ishlab chiqaruvchisini ko'rsatuvchi VIN kodining birinchi bo'limi. WMI kodi avtomobil ishlab chiqaruvchisiga tegishli bo'lib, ushbu kod ishlab chiqaruvchini identifikatsiya qilish uchun beriladi. WMI kodi, VIN kodining boshqa bo'limlari bilan birgalikda foydalanilganda, dunyoning barcha mamlakatlarida 30 yil ichida ishlab chiqarilgan barcha transport vositalari uchun betakrorlikni ta'minlaydi [5];

VIN kodining tavsiflovchi qismi - Vehicle Descriptor Section, VDS: VIN kodining ikkinchi qismi. Transport vositalarining asosiy xususiyatlarini tavsiflovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. VIN kodining ushbu bo'limi avtomobil turini, tur variantlarini va versiyalarini ko'rsatishi mumkin;

VIN kodining indeks qismi - Vehicle Indicator Section, VIS: VIN kodining uchinchi qismi. Bir transport vositasini boshqasidan ajratish uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan tayinlangan belgilar kombinatsiyasidan iborat. VIN kodining ushbu bo'limi VDS bilan birgalikda har bir ishlab chiqaruvchi tomonidan 30 yil davomida ishlab chiqarilgan barcha TVlarining noyob identifikatsiyasini taqdim etadi.

ishlab chiqaruvchi - foydalanishga tayyor holatga keltirilgan transport vositasi uchun mas'ul bo'lgan yuridik shaxs. Ishlab chiqaruvchi VIN kodining o'ziga xosligi uchun ham javobgardir;


ajratuvchi - VIN kodining bo'limlarini chegaralash yoki VIN kodining boshi va oxirini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan belgi, belgi yoki boshqa chegara belgisi. Ajratuvchilar shunday bo'lishi kerakki, ularni arab raqamlari yoki lotin harflari bilan adashtirib bo'lmaydi;

Tadqiqot metodologiyasi : Respublikamizga kirib kelayotgan transport vositalariga tegishli ma'lumotlarni, shuningdek, chegara o'tkazish punktlarida to'lanishi lozim bo'lgan yig'implarni oldindan avtomatik hisoblash va to'lash jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida "e-Tranzit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi Bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqildi.

"e-Tranzit" avtomatlashtirilgan axborot tizimining asosiy maqsadi:

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit tarzda olib o'tiladigan chet el tovarlarning jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha nazoratini amalga oshirish uchun deklarant tomonidan bojxona organiga taqdim etilgan tranzit deklaratsiyasini elektron ko'rishda rasmiylashtirishdan iborat [6].

"e-Tranzit" AATda tranzit deklaratsiyasini shakllantirishda Umumiy ma'lumotlar bandi - "Transport turi" (2-rasm) - transport turini tanlaydigan bo'lsak, transport vositalari turini ko'rishimiz mumkin (3-rasm).



2-rasm. Deklaratsiya ma'lumotlari oynasida "Umumiy ma'lumotlar" bo'limi.

3-rasm. "Umumiy ma'lumotlar" bo'limida Transport turlari.

Dasturni "Qo'shimcha ma'lumot" bo'limida "Avtotransport" qismiga murojaat qiladigan bo'lsak, transport vositasiga taalluqli ma'lumotlarni 4-rasmdan ko'rishimiz mumkin. Bular quyidagilardan iborat: "Haydovchining FISH", "Davlat raqami", "Modeli va markasi", "VIN kodi", "Yuksiz vazni(kg)", "Dvigatel quvvati", "Ishlab chiqarilgan yili" bandlari.

Transport vositasini aniqlash uchun qaysi usul qo'llanilishi ushbu mamlakatdagi muayyan vaziyat va qonuniy talablarga bog'liq.

Haydovchining familiyasi va ismi	Davlat raqami	Modeli va markasi	VIN raqami	Yuksiz vazni(kg)	Dvigatel quvvati (ot kuchi)	Ishlab chiqarilgan yili	Ruykattan utgan mamlakat
		5954MA01	456465	2323232323232323	32323	32	32
		10195VBA	667657	XVNB5V31BDK4584576	111111	11111	11111
		01Z2930A	TESLA	1234567894464465	80	80	3600
		10195VBA	667657	XVNB5V31BDK4584576	111111	11111	11111

4-rasm. "e-Tranzit" AATda "Qo'shimcha ma'lumot" bo'limida "Avtotransport" vositasi ma'lumotlari.

Konstruktor o'zgartirishlar kiritishdan oldin avtomobilni identifikatsiyalash uchun taqdim etiladigan ma'lumot va hujjatlar [7]:

1-jadval

1	Davlat raqami	9	Ekologik sinfi
2	Identifikatsion raqami (VIN)	10	Ishlab chiqarilgan yili (ishlab chiqarilgan model yili)
3	Markasi	11	Dvigatel raqami (agar mavjud bo'lsa)
4	Firma nomi	12	Shassi raqami (agar mavjud bo'lsa)
5	Turi	13	Rangi
6	Shassi (faqat boshqa ishlab chiqaruvchi shassisidan foydalanilganda qo'llaniladi)	14	Identifikatsiyalanuvchi transport vositasi (seriyasi, ishlab chiqarilgan vaqti), hujjat
7	Ishlab chiqaruvchi va uning manzili	15	Ro'yxatga olingan hujjat (nomlanishi, seriyasi, nomeri, berilgan vaqti)
8	Toifasi (A, V, S, D, E.)	16	Transport vositasining F.I.Sh yoki tashkilot nomi, manzili, turar joyi yoki yuridik manzili haqida ma'lumot

Tasniflash qoidalari

1. Tasniflashning asosi ushbu tasniflash yordamida muammoni hal qilish uchun muhim bo'lgan ketma-ketlik bilan aniqlanishi kerak.

2. Bo'linish qismlari bir-birini istisno qilishlari kerak.

3. Uning har bir bosqichida bo'linish faqat 1 ta asos bilan amalga oshirilishi kerak.

4. Bo'linish mutanosib bo'lishi kerak, ya'ni bo'linadigan tushunchaning hajmi bo'linish a'zolari hajmining birlashishiga teng bo'lishi kerak.

5. Bo'linish natijasida olingan har bir tushunchani aniqlash kerak [8], [9].

Tahlil va natijalar.

Bojxona postlarida TVlarini aniqlash uchun quyidagi asosiy mezonlardan foydalaniladi:

TVning hujjatlari:

* Bojxona yuk deklaratsiyasi(BYUD): avtomobil, uning egasi, marshruti, mahsuloti va boshqalar haqida ma'lumot mavjudligi.

* Transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasi: ishlab chiqaruvchi, modeli, VIN kodi, ishlab chiqarilgan yili, dvigatel va boshqa ma'lumotlar mavjudligi.

* transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasi: avtomobilga egalik huquqini tasdiqlaydi.

* Boshqa hujjatlar: CMR, TIR, sug'urta hujjati.

Bundan tashqari transport vositalarini quyidagi mezonlarga nisbatan ham tasniflanadi.

- **Samaradorligi** (Marka, modeli, dvigatel turi, eshiklar soni, quvvati, maksimal tezligi, 1 sekunda qo'zg'aliq tezligi, hajmi, ishlab chiqarilgan yili, ishlab chiqarish to'xtatilgan yil, kabina turi, o'rindiqlar soni, uzunligi, kengligi, balandligi, balonlar soni, yoqilg'i iste'moli (samaradorligi) – shaharda, yoqilg'i iste'moli (samaradorligi) – trassada, yoqilg'i sarfi

(samaradorligi) – birlashtirilgan, og'irligi, maksimal og'irligi, yuk ko'tarishning maksimal hajmi, yuk ko'tarishning minimal hajmi, emissiya standarti) [9];

- **Dvigatel turi bo'yicha** (Dvigatelning joylashuvi, dvishatel hajmi, maksimal quvvati, aylantirish momenti, yoqilg'i sistemasi, trubinasi, silindr joylashuvi, silindrlar soni, silindr diametri, siqish koeffitsiyenti, silindrdagi klapanlar soni, yoqilg'i turi, dvigatel turi)

- **Tormoz tizimi bo'yicha** (uzatmasi, ABS, boshqarish turi, old tormozi, orqa tormozi, klavin mexanizmi);

- **Boshqaruv** (Shinalar hajmi, disk hajmi, tezlik soni (mexanik), minimal burilish radiusi, rulda kuchaytirgichni pasaytirish);

- **Transmissiya** (Old o'qi, orqa o'qi, uzatish soni (avtomatik uzatish)).

Xulosa va takliflar. Bojxona maqsadlari uchun transport vositalarining turlari, bajaradigan vazifalari, texnik parametrlari, ehtiyot qismlari to'g'risidagi ma'lumotlari TIF TN bo'yicha to'g'ri tasniflash va bojxona to'lovlarini undirishda muhim omil hisoblanadi. Bunda, transport vositalarini tasniflashda ularga mos keladigan terminologik ta'riflar, zarur hollarda va yuqorida keltirilgan matnli tushuntirishlar ishlab chiqilgan. Identifikatsiyalash mezonlari esa asosiy va yordamchi tushunchalar semantik mazmunini aniq tushunishni va ularning har biri uchun yagona talqin etishni ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi. O'RQ-400-son. 20.01.2016-y. Elektron manba: https://lex.uz/docs/Bojxona_kodeksi.
2. Mirsagatov M.A. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi. // O'quv qo'llanma. - T.: Bojxona instituti, 2023. - 185 bet.
3. Sevinov J.U., Khamroev G.R. Classification methods and models for automatic determination of goods code by foreign economic activity goods nomenclature // E3S Web of Conferences Volume 402 (2023) Published online: 19 July 2023, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340203036> (3. Scopus, IF=0.38).
4. Правдухина А.А. Электронная идентификация автотранспортных средств и транспортного оборудования. БНТУ, г.Минск, Беларусь. Опубликовано онлайн: 2015 г., https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/21905/ENlektronnaya_identifikaciya.pdf?sequence=1.
5. [Elektron resurs]. - URL: https://americamotors.com/news/rasshifrovka_vin_koda_kak_eto_rabotaet. (Chop qilingan sana: 03.12.2020).
6. A.A.Saidov, A.I.Dusmuxamedov, E.R.Boqiyev. "e-Tranzit" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish bo'yicha uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti. Toshkent. 2024-yil. — 100 b.
7. Транспортные средства. Порядок оценки соответствия при внесении изменений в конструкцию транспортного средства, выпущенного в обращение. Межгосударственный стандарт. ГОСТ 33995—2016. Стандартиформ. Москва 2017.
8. Пяткова Т. В., Начкин А. И. Товароведение и экспертиза в таможенном деле: учебник. — СПб.: Издательство Университета при МПА ЕврАзЭС, 2021. — 320 с. (Серия «Учебники Университета при МПА ЕврАзЭС» ISSN 2782-151X).
9. Mirsagatov M., Murzaev R. Tovarni Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi bo'yicha tasniflashning o'ziga xos xususiyatlari // O'zbekiston bojxona axborotnomasi, 2021, №1, 128-131 bet.
10. [Elektron manba]. - URL: <https://ru.autodata24.com/compare>. (Murojaat qilingan sana: 22.03.2024).



UDK: 541.64678.01: 547.47:542.592

Komiljon CHULPANOV,

Toshkent Farmatsevtika instituti professori, k.f.n

E-mail: komiljon 091952@gmail.com

Khakim TUKHTAEV,

Toshkent Farmatsevtika instituti professori, farmatsiya fanlari doktori

Farxod JUMABOEV,

Toshkent Farmatsevtika instituti katta o'qituvchisi

Sevara XAZRATQULOVA,

Toshkent Farmatsevtika instituti dotsenti, PhD

Toshkent Farmatsevtika instituti professori M.Rahmatullaeva taqrizi asosida

FARMATSIYA YO'NALISHI TALABALARINI NOORGANIK KIMYO MODULINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Farmatseya yo'nalishi talabalarida noorganik kimyo modulini o'qitishda interfaol usullaridan foydalanish" uchun amaliy mashg'ulotda "Blis-so'rov" va "FSMU" texnologiyalarini tatbiq qilish namunalari keltirilgan. Avvalo, "Blis-so'rov" metodi va "FSMU" texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar, o'tkazish texnologiyasi, ushbu texnologiya o'tkazilish bosqichlari o'rganilgan va amaliy mashg'ulotda qo'llash usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Koordinatsion birikmalar, "Blis-so'rov" metodi, "FSMU" texnologiyasi, amaliy mashg'ulot, o'qituvchi, ta'lim, kristall maydon nazariyasi, izomeriya turlari.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING INORGANIC CHEMISTRY FOR STUDENTS OF PHARMACY FACULTIES

Annotation

This article provides examples of the application of "Blitz-survey" and "FSMU" technologies in a practical exercise on the topic "Chemistry of coordination compounds". First of all, information on the Blitz-survey method and FSMU technologies, transfer technology, stages of implementation of this technology are studied and methods of application in practice are described.

Keywords: Coordination compounds, Blitz-survey method, FSMU technology, practical training, teacher, education, crystal field theory, types of isomerism.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ СТУДЕНТОВ АПТЕЧНЫХ ФАКУЛЬТЕТОВ

Аннотация

В данной статье приведены примеры применения технологий «Блиц-опрос» и «ФСМУ» в практическом занятии по теме «Химия координационных соединений». Прежде всего изучаются сведения о методе Блиц-опроса и технологиях ФСМУ, технологии трансфера, этапах внедрения этой технологии и описываются способы применения на практике.

Ключевые слова: Координационные соединения, метод блиц-обзора, технология ФСМУ, производственная практика, преподаватель, образование, теория кристаллического поля, виды изомерии.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar, ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari, ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samadorligini oshirishni, tez taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barqamol avlodni tarbiyalab yetishtirishni talab qiladi. Bu o'rinda ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi va qullanishi davr talabi bilan bevosita bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, yangi pedagogik texnologiya ta'limning aniq maqsadga yo'naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda o'qituvchi dars jarayonida faqat o'zi ishlaydi, talabalar esa kuzatuvchi bo'lib qolaveradilar. Ta'limning bunday ko'rinishi talabalarining aqliy tafakkuini o'stirmaydi, faolligini oshirmaydi, ta'lim jarayonidagi ijodiy faoliyatini so'ndiradi.

Analiz va natijalar. "Koordinatsion birikmalar kimyosi" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot darsini tashkil qilishda interfaol metodlarni tatbiq qilish masalasini qaraymiz. Darsni o'tilgan ma'ruza mashg'ulotini takrorlash, esga olish va yangi mavzuga (amaliy mashg'ulotga) zamin yaratish maqsadida blis-so'rov texnologiyasidan foydalanishdan boshlash mumkin. Ushbu texnologiya talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida talabalar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tqaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Blis-pedagogikada tezkor, bir zumlik ma'nosida ishlatiladi. Bu texnologiyada talabalarga o'rganilgan butun mavzu yoki uning ma'lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralarini bo'yicha tuzilgan savollarga javob (og'zaki, yozma, biror jadval yoki diagramma ko'rinishida) berishlari taklif etiladi.

Masalan: Blits so'rov 1 usul: Bir nechta kompleks birikmaning formulasi berilib talabdan uni nomlash talab qilinadi. Bu holat ikkita alohida varaqlarga yozilib talabaga berilishi va javoblarni shu qog'ozga yozish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Kaliy geksanitrat – formulasini yozing.


2. $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6](\text{NO}_3)_3$ – nomlang.
3. Dirodanidodiamminmis - formulasini yozing.
4. $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Br}]\text{SO}_4$ - nomlang.
5. Geksaxloroplatinat kislota - formulasini yozing.
6. $\text{Na}[\text{Al}(\text{H}_2\text{O})_2(\text{OH})_4]$ - nomlang.
7. Tetraakvamis (II) sulfat gidrati - formulasini yozing.
8. $\text{Ba}[\text{Cr}(\text{NH}_3)_2(\text{SCN})_4]_2$ - nomlang.

Talabalar bu savollarga javobni o'qituvchiga ko'rsatadilar. Bunda o'qituvchi tog'ri javobni ularga beradi va talabalarni baholaydi.

Topshiriq javobi:

1. Kaliy geksanitroplatinat – $\text{K}_2[\text{Pt}(\text{NO}_2)_6]$
2. $[\text{Cr}(\text{H}_2\text{O})_6](\text{NO}_3)_3$ – geksakvaxrom (III) nitrat
3. Dirodanidodiamminmis – $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_2(\text{SCN})_2]$
4. $[\text{Co}(\text{NH}_3)_5\text{Br}]\text{SO}_4$ – bromopentaaminkobalt (Sh) sulfat
5. Geksaxloroplatinat kislota - $\text{H}_2[\text{PtCl}_6]$
6. $\text{Na}[\text{Al}(\text{H}_2\text{O})_2(\text{OH})_4]$ - natriytetragidroksodiakvaalyuminat (III)
7. Tetraakvamis (II) sulfat gidrati – $[\text{Cu}(\text{H}_2\text{O})_4]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$
8. $\text{Ba}[\text{Cr}(\text{NH}_3)_2(\text{SCN})_4]_2$ - bariytetradanidodiamminxromat (III)

Bu topshiriqlarni bajargan talabalarga yanada murakkabroq vazifalar berilishi mumkin. Masalan, Blits so'rov 2 usul: Kompleks birikmalarni olinishi va xossalardan tegishli mos javoblarni tanlang:



“FSMU” texnologiyasi-munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o'tkazishda, o'quv-seminari yoki rejasi asosida biror bo'lim o'rganib bo'lingach qullanilishi maqsadga muvofiq. Chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tqazishga, ochiq holda baholashga, shu bilan bir qatorda talabalarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholash va baholash madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya talabalarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi..

O'tqazish texnologiyasi:

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tqaziladi.

1-bosqich.

Kompleks birikmalarni olinishi reaksiya tenglamalarini yozishi lozimligi tushuntiriladi.

Amaliy mashg'ulotda slayd taqdimoti yordamida 13-15 ta (talabalar soniga qarab) kimyoviy reaksiya tenglamalarini davom ettiring deb savol qo'yiladi.



1. Qanday kompleks birikmalarda ligand vazifasida suv molekulasini uchraydi?
2. Quyidagi kompleks birikmani nomlang $[\text{Fe}(\text{CO})_5]$
3. O'simliklar uchun muhim kompleks birikma.
4. Koordinatsion birikmalar nazariyasini kim yaratgan?
5. Katalaza va oksidaza fermentlari tarkibidagi temirning oksidlanish darajasi qanday?
6. Sariq qon tuzida temirning oksidlanish darajasi qanday?
7. Sis-[Pt(NH₃)₂Cl] qaysi kasallikka qarshi kurashishda ishlatiladi?
8. Vitamin B₁₂ etishmovchiligi qanday kasallikni keltirib chiqaradi?

2-bosqich

Har bir talabaga kompleks birikmalarni birikish reaksiyalari orqali olinish usullari tenglamalarini davom ettirish kerakligiga e'tibor qaratiladi.

-har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatilgan:

F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dakil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

-har bir talaba yakka tartibda qog'ozdagi FSMU ning 4-bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

F- Kompleks birikmaning formulasini yozish uchun:

- 1) kompleks hosil qiluvchi ionning zaryadini;
- 2) ligandlarning zaryadini;
- 3) koordinatsion sonni;
- 4) tashqi sfera ionlarini bilish kerak.

S-Kompleks hosil qiluvchi ionlar asosan D.I.Mendeleyev davriy jadvalidagi d -elementlarning ionlaridir. Ular: Ag^{1+} , Au^{1+} , Au^{3+} , Cu^{2+} , Cu^{1+} , Zn^{2+} , Cd^{2+} , Co^{2+} , Ni^{2+} , Fe^{2+} , Fe^{3+} , Pt^{2+} , Pt^{4+} , Pd^{2+} , Pd^{4+} .


Ligandlar sifatida:

a) dipol xarakterga ega boigan molekullar: H_2O , NH_3 , NO , CO , N_2H_4 , $\text{NH}_2\text{C}_2\text{H}_4\text{NH}_2$ va boshqalar;

b) ionlar ham olinib, odatda, ular kislotalarning qoldiqlaridir:

CN^- , NO^- , Cl^- , Br^- , I^- , OH^- , CO_3^{2-} , SO_4^{2-} , CH_3COO^- , SO_3^{2-} , PO_4^{3-} , CNS^- , CrO_4^{2-}

M- Kompleks hosil qiluvchi ion va ligandlar ichki sferani tashkil etadi $[Me(L)_n]$ va ichki sfera kvadrat qavs ichiga olinadi. Ichki sferaga kirmagan ionlar tashqi sferani tashkil etadi.



U- Ligandlarning kompleks hosil qiluvchi ion atrofida nechta joyni egallashiga qarab ularning dentantligi yoki koordinatsion sig'imi aniqlanadi. Monodentant ligandlar, odatda, bir valentli kislotalar qoldiqlaridir. Ular metall ioniga bir juft elektron berib donorakseptor bog' hosil qiladi.

3-bosqich

Talabalar kimyoviy reaksiya tenglamalarini davom ettirish bilan shug'ullanishadi.

-har bir talaba o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi ularni ikkita guruhlariga bo'linishlarini so'raydi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda talabalarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi.

1- guruh. Birikish reaksiyalari orqali kompleks birikmalar olish tenglamalari bilan shug'ullanishadi;

2- guruh. Kompleks birikma tarkibidagi ligandlarning o'rni, nomlanishi va tibbiyotdagi o'rni bilan shug'ullanishadi;

o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4- bosqich

-kichik guruhlarda avval har bir talaba o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi.

Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;









- guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

- fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir talaba o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlanishi mumkin.

5- bosqich

kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o'tish mumkin. Shundan so'ng, to'g'ri javob slaydalari bilan taqqoslab ko'radilar.

Birikish reaksiyalari orqali kompleks birikmalar olish mumkin:



1. Qanday kompleks birikmalarda ligand vazifasida suv molekulasini uchraydi – Akvokomplekslarda.

2. Quyidagi kompleks birikmani nomlang- $[Fe(CO)_5]$ – Pentakarbonil temir.

3. O'simliklar uchun muhim kompleks birikma bu - Xlorofil

4. Koordinatsion birikmalar nazariyasini kim yaratgan – Alfred Verner.

5. Katalaza va oksidaza fermentlari tarkibidagi temirning oksidlanish darajasi qanday - +3.

6. Sariq qon tuzida temirning oksidlanish darajasi qanday - +2.

7. $Sis-[Pt(NH_3)_2Cl]$ qaysi kasallikka qarshi kurashishda ishlatiladi - Saraton.

8. Vitamin B₁₂ etishmovchiligi qanday kasallikni keltirib chiqaradi – Kam qonlik.

- o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi;

-ushbu mashg'ulotda nimalarni bilib oldingiz va nimalarni o'rgandingiz?

Ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qullanilishi qanday samara berdi?

- Ushbu texnologiyani qullanilishi talabalarda qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi. Ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyani o'quv jarayonining qaysi bosqichida qullanilgani ma'qul va nima uchun?

- ushbu texnologiyani dars jarayonida qullanilishi talabalarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tqazish mumkin?

Izoh: Yuqorida keltirilgan savollar har bir darsning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib o'qituvchi tomonidan talabalarga berilishi mumkin.

Muhokamadan so'ng talabalar tajriba qismini bajarishlari mumkin bo'ladi. "Koordinatsion birikmalar kimyosi" mavzusida tajribalarni bajarish kerakli asob, uskunalar va reagentlar mavjud bo'lganida 60-70 daqiqa vaqtni oladi.

Xulosalar va takliflar. Ushbu texnologiyasi bo'yicha o'tqazilgan darsda talabalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Guruhdagi 14-nafar talabadan 3-tasi "86 baldan yuqori"; 7-tasi "75 bal"; 4-tasi "65 bal" to'planganligini qayid etish mumkin. Yangi texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotni samarali o'tkazish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ganieva G.B., Qodirova D. A. Kimyo fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. // "Science and Education" Scientific Journal, March 2021 yil / Volume 2 Issue 3.

2. Yodgorov B. Umumiy va anorganik kimyoni o'qitishga yangicha yondoshuv. Jamiyat va innovatsiyalar.// Special Issue – 5 2021 yil / ISSN 2181-1415/.
3. Умарова У.У. “Пост теоремаси ва унинг натижалоори” мавзуси бўйича амалий машғулотда “Блиц-сўров” ва “ФСМУ” технологияси// Scientific progress, 2:6, 2021yil.pp.861-866.
4. Умарова У.У. Использование педагогических технологий в дистанционном обучении модле.//Проблемы педагогики 51:6, 2020 год. с.31-34.
5. Тошева Н.А. Использование метода мозгового штурма на уроке комплексного анализа и его преимущества. Проблемы педагогики, 53:2, 2021 год.с.31-34.
6. Бобоева М.Н. “Номанфий бутун сонлар тўплами” мавзусини ўқитишда айрим интерфаол методлардан фойдаланиш. Scientific progress, 2:1, 2021 yil pp.53-60.
7. Бобоева М.Н. Обучение теме “Множества неотрицательных целых чисел” кластерным методом. Проблемы педагогики, 53:2, 2021 год с.23-26.
8. Akhmedov O.S. Impementing “Venn diagram method” in mathematicslessons. Наука, техника и образование, 8:72, 2020 год.с.40-43.



Sadoqat SHARIPOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sadoqatsharipova90@gmail.com

O'zRFA akademigi, t.f.d: I.I.Sadikov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SPECIALLY PURE VANADIUM BY ACTIVATION METHOD

Annotation

In this article, neutron-activation analysis, which is one of the activation methods of analysis of vanadium element (especially pure), is described. In it, vanadium and its compounds are used as catalysts in some chemical reactions, and its oxides are used in optical fibers. Emphasis was placed on the fact that the electrical, mechanical and catalytic properties of such substances are strongly influenced by the impurities contained in them. Currently, neutron activation analysis is considered one of the methods with multi-element and record high sensitivity.

Key words: mixed elements, vanadium special purity, radionuclides, neutron-activation, extraction-chromatography, column chromatography, atomic reactor, high sensitivity, electrodes, distribution coefficient, gamma spectrometry, radiochemical separation, half-life, radiation, neutrons flow.

АНАЛИЗ ОСОБО ЧИСТОГО ВАНАДИЯ МЕТОДОМ АКТИВАЦИИ

Annotation

В данной статье описан нейтронно-активационный анализ, который является одним из активационных методов анализа элемента ванадия (особенно чистого). В нем ванадий и его соединения используются в качестве катализаторов в некоторых химических реакциях, а его оксиды используются в оптических волокнах. Акцент был сделан на том, что на электрические, механические и каталитические свойства таких веществ сильное влияние оказывают содержащиеся в них примеси. В настоящее время нейтронно-активационный анализ считается одним из методов, обладающих многоэлементностью и рекордно высокой чувствительностью.

Ключевые слова: смешанные элементы, ванадий особой чистоты, радионуклиды, нейтронно-активационная, экстракционная хроматография, колоночная хроматография, атомный реактор, высокая чувствительность, электроды, коэффициент распределения, гамма-спектрометрия, радиохимическое разделение, период полураспада, излучение, поток нейтронов.

AKTIVATSION USULIDA MAXSUS TOZA VANADIYNING TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada vanadiy elementining (maxsus toza) analizi aktivatsion usullardan biri bo'lgan neytron-aktivatsion tahlili bayon etilgan. Unda vanadiy va ularning birikmalari ba'zi kimyoviy reaksiyalarda katalizator sifatida, oksidlari optik tolalarda ishlatilmoqda. Bunday moddalarni elektrik, mexanik va katalitik xossalari tarkibidagi aralashma moddalar kuchli ta'sir ko'rsatishi haqidagi masalasiga urg'u berildi. Hozirgi kunda neytron-aktivatsion tahlil ko'p elementli va rekord darajada yuqori sezgirlikka ega usullardan biri hisoblanishiga asoslangan.

Kalit so'zlari: aralashma elementlar, vanadiy maxsus sof, radionuklidlar, neytron-aktivatsion, ekstraksiya-xromotografiya, kolonkali xromotografiya, atom reaktori, yuqori sezgirlik, elektrodlar, taqsimlanish koefitsiyenti, gamma spektrometriya, radiokimyoviy ajratish, yarim-yemirilish davri, nurlanish, neytronlar oqimi.

Kirish. Yaqin vaqtlargacha vanadiyning ishlatilish sohalorida o'ta toza mahsulot sifatida ishlatilishini taqozo etmas edi. Oxirgi paytda vanadiy birikmalarining katalizator sifatida hamda vanadiy oksidining anod sifatida ishlatilishi bu mahsulotlarning tozaligiga kuchli talab qo'ydi.

Bu esa ushbu metallning tozaligini nazorat qilishda yuqori sezgir va ko'p elementli analitik usullarni qo'llashni taqozo etadi.

Shunday usullardan biri neytron aktivatsiyaviy analiz usuli bo'lib, o'ta yuqori sezgirlik, nazorat tajribasidan forig'ligi, bir vaqtning o'zida bitta namunadan qirqdan ortiq elementni aniqlay olishi bilan boshqa analitik usullar ichida alohida o'rin tutadi.

Lekin namunani neytronlar bilan nurlatish paytida, ko'pgina hollarda, asosiy element radionuklidlarining o'ta yuqori radioaktivligi hisobiga kam miqdordagi aralashma elementlarni aniqlash imkoni bo'lmaydi. Bunday hollarda asosiy element radionuklidlarini aralashma elementlar radionuklidlaridan radiokimyoviy ajratish zarurati tug'iladi. Neytron-aktivatsiyaviy analiz usulining o'ziga xos tomoni shundaki, ko'p hollarda halaqit beruvchi radionuklid sifatida faqatgina asosiy element radionuklidlari emas, balki boshqa qo'shni elementlar radionuklidlari ham bo'lishi mumkin. Masalan vanadiy nurlatilganda qisqa yarim yemirilish davriga ega vanadiy radionuklidlari bilan bir qatorda skandiyning uzoq yashovchi ^{46}Sc va ^{47}Sc radionuklidlari hosil bo'ladi va aralashma elementlarni aniqlashga halaqit qiladi. Bu esa vanadiyning asosiy modda va aralashma elementlar radionuklidlarini radiokimyoviy ajratishga asoslangan analiz usulini ishlab chiqishni taqozo etadi. Vanadiy tarkibini aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlar sharxi shuni ko'rsatdiki bu metallarning o'ta toza namunalarini analiz qilishga bag'ishlangan ishlanmalar juda kam, neytron aktivatsiyaviy analizga bag'ishlangan ishlar esa deyarli yo'q. Shuning uchun

maxsus toza vanadiyning ko'p elementli va yuqori sezgir radiokimyoviy neytron aktivatsiyaviy analiz usulini ishlab chiqish dolzarb muammo hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oxirgi yillarda vanadiy katta hajmdagi elektr energiyasini saqlashda ishlatiladigan oqimli elektr batareyalarini olishda qo'llanilmoqda [1]. Vanadilsulfat (VOSO₄) va uning bir nechta ligandlar bilan hosil qilgan komplekslari qandli diabetni davolashda samarali vosita sifatida qo'llaniladi [2]. Vanadiyning -(IV) va -(V) valentli oddiy tuzlari biotibbiyotda oddiy uchuq virusi va OITS viruslariga qarshi samarali vosita sifatida o'rganildi [3].

Al₂O₃ substratlarida yotqizilgan katta hajmli va yupqa VO₂, V₂O₃ va V₂O₅ plyonkalarining optik xususiyatlarini o'rganib avtorlar ularning optik tolalar olishda ishlatilish istiqbollarini ko'rsatib berishdi [4].

Ion almashinuvchisi bilan yuqori toza V₂O₅ ni tahlil qilishda poydevorni aralashmalardan ajratish massaning 10-8-10-9% ga etadi. [7]. [8] asarida vanadiy birikmalarining (VSi₂, V₂O₅) olovsiz atomizatsiyasi bilan ISP-AES va AAA metodologiyasi taklif etilgan bo'lib, dowex 50 kationitidagi aralashmalarni oldindan ajratish mumkin. Texnika massaning 10-4-10-6% gacha bo'lgan 20 ta ifloslanishni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida indiyning makromiqdori skandiyning mikromiqdori birga ekstraksiya qilishi hamda bir qator elementlarning ekstraksiyasini pasaytirishi aniqlandi. Bu 30 dan ortiq aralashma elementlarni skandiydan selektiv ajratish imkonini beruvchi konsentrlash uslubini ishlab chiqish imkonini berdi. Maxsus toza vanadiy tarkibidagi 36 ta aralashma elementlarni n.10-5 – n.10-10 % aniqlanish chegarasi bilan tahlil qilish imkonini beruvchi radiokimyoviy neytron aktivatsion analiz uslubi ishlab chiqishi muhimdir. Radiokimyoviy neytron aktivatsiyaviy analiz, radioaktiv indikatorlar usuli, ekstraksiya, ekstraksiyaviy xromatografiya va gamma spektrometriya kabi ishonchli va zamonaviy usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda neytron-aktivatsion tahlil ko'p elementli va rekord darajada yuqori sezgirlikka ega usullardan biri hisoblanadi. Shuning uchun toza vanadiyning neytron-aktivatsion tahlil usulini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, ushbu ishning maqsadi maxsus toza vanadiyning ko'p elementli va yuqori sezgir, asosiy modda va aralashma elementlarning radionuklidlarini radiokimyoviy ajratishga asoslangan analiz uslubini ishlab chiqish hisoblanadi.

Titan va vanadiyning yadro fizikaviy hossalarga kura namunalari nurlatilgandan so'ng, namunalarning radioaktivligi asosan tez neytronlar ta'sirida hosil bo'luvchi skandiy-46, 47 va 48 izotoplari hisobiga bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oldindan indiy bilan to'yintirilgan TBF li kolonkada mikroelementlar ekstraksiyasining pasayishi va skandiyning indiy bilan qo'shib ekstraksiya bo'lishi hisobiga TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida 30 dan ortiq elementlarni selektiv va yuqori samara bilan ajratish mumkin.

Bajarilgan tadqiqotlar natijasiga asoslanib maxsus toza vanadiyning radiokimyoviy neytron aktivatsion tahlili uslubi ishlab chiqildi.

0,15-0,2 g namuna VVR-SM tadqiqot yadro reaktorida 10-15 soat nurlatildi. 1 kun o'tgach sirtki ifloslanishni tozalash va tortishdan keyin namuna tegishli kislotada eritildi (HCl+HNO₃:1). Eritma nam tuzlarga bug'latilib, 4 ml 5M HBr da eritildi. Olingan eritma TBF (indiy bilan oldindan to'yintirilgan) bilan to'ldirilgan kolonka (d= 0,4 sm, h = 5 sm) orqali o'tkazildi, aralashma elementlar 15-20 ml 5M HBr bilan yuvildi. Elyuat flakonlarga yig'ildi va aralashma elementlarning gamma spektri o'lchandi. Uslub 30 dan ortiq aralashma elementlarni 10-5-10-10 % aniqlash chegaralari va Sr 0,10-0,20 standart xatolik bilan aniqlash imkonini beradi (jadval 1).

Maxsus toza titan va vanadiydagi aralashma elementlarning aniqlanish chegarasi.

Jadval. 1

№	Ele-ment	ACH, % mass.	Sr	№	Ele-ment	ACH, % mass.	Sr	№	Ele-ment	ACH, % mass.	Sr
1	Ag	5.10-7	0,16	13	Gd	8.10-8	0,13	25	Sm	1.10-10	0,12
2	As	5.10-9	0,14	14	Hf	2.10-7	0,16	26	Sn	1.10-6	0,14
3	Ba	7.10-6	0,17	15	K	5.10-6	0,19	27	Sr	2.10-6	0,16
4	Ce	3.10-7	0,15	16	La	4.10-9	0,16	28	Ta	2.10-8	0,17
5	Cd	2.10-6	0,16	17	Mn	1.10-8	0,15	29	Tb	2.10-9	0,16
6	Co	6.10-8	0,11	18	Mo	2.10-8	0,17	30	Te	3.10-6	0,14
7	Cr	4.10-6	0,18	19	Na	1.10-9	0,13	31	Th	1.10-7	0,15
8	Cs	2.10-7	0,17	20	Ni	4.10-5	0,19	32	U	2.10-8	0,18
9	Cu	1.10-8	0,10	21	Rb	1.10-6	0,17	33	W	5.10-9	0,14
10	Eu	2.10-10	0,12	22	Re	2.10-9	0,16	34	Y	5.10-5	0,20
11	Fe	5.10-5	0,20	23	Sb	6.10-9	0,15	35	Zn	3.10-6	0,20
12	Ga	5.10-8	0,15	24	Se	1.10-6	0,17	36	Zr	6.10-5	0,21

Xulosa va takliflar. Vanadiyning oxirgi yillardagi ishlatilish sohalarini talablar alohida talablar qo'yishi va bunday maxsus toza moddalarning aralashma tarkibini analiz qilishning yuqori sezgir va ko'p elementli usullarini ishlab chiqarishga talab paydo bo'lgani e'tirof etildi. Vanadiyning yadro-fizikaviy xossalari bu metallar va ularning birikmalari neytron-aktivatsion analiz uchun qulay ob'ektlar ekanini ko'rsatib berildi. Neytron-aktivatsion analiz uchun vanadiy namunalari yadro reaktori neytronlari bilan nurlatilganda xosil bo'ladigan vanadiy radionuklidlari qisqa yarim yemirilish davriga ega bo'lgani sababli tezda parchalanib ketishi hamda namunaning asosiy radioaktivligi (n, p) va (n, α) reaksiyalari bo'yicha xosil bo'ladigan ⁴⁶Sc, ⁴⁷Sc, ⁴⁸Sc radionuklidlari hisobiga bo'lishi aniqlandi. TBF-5M HBr ekstraksiyon xromatografiya tizimida indiyning makromiqdori skandiyning mikromiqdori birga ekstraksiya qilishi hamda bir qator elementlarning ekstraksiyasini pasaytirishi aniqlandi. Bu 30 dan ortiq aralashma elementlarni skandiydan selektiv ajratish imkonini beruvchi konsentrlash uslubini ishlab chiqish imkonini berdi. Maxsus toza vanadiy tarkibidagi 36 ta aralashma elementlarni n.10-5 – n.10-10 % aniqlanish chegarasi bilan tahlil qilish imkonini beruvchi radiokimyoviy neytron aktivatsion analiz uslubi ishlab chiqildi.

ADABIYOTLAR

1. Zebo Huang, Anle Mu, Longxing Wu, Bin Yang, Ye Qian, Jiahui Wang. Comprehensive Analysis of Critical Issues in All-Vanadium Redox Flow Battery. // American Chemical Society, 2022, N 10, V. 24, p. 7786–7810. <https://doi.org/10.1021/acssuschemeng.2c01372>.
2. Hiromu Sakurai. A New Concept: The Use of Vanadium Complexes in the Treatment of Diabetes Mellitus. // The Chemical Record. Vol. 2, Issue 4, p. 237–48.
3. Ilaria Lampronti I, Nicoletta Bianchi, Monica Borgatti and etc. Effects of vanadium complexes on cell growth of human leukemia cells and protein-DNA interactions. // Polish Journal of Chemical Technology. 2005 Jul;14(1), p.9–15.
4. Chiranjivi Lamsal, Nuggehalli M Ravindra. Optical properties of vanadium oxides-an analysis. // Journal of Materials Science. 2022, 48(18), p. 6341–6351.
5. H. Yoshikawa, Y. Ishibashi, N. Gunji, T. Misumi. “Определение следовых количеств металлов в высокочистом титане с использованием отделения примесей соосаждением и АЭ спектроскопии с индуктивно-связанной плазмой.” // Бунсэки кагаку, 1990, т.39, № 12, С.829–833.
6. K. Beckmann, G. Wunsch. “Bestimmung von Spurelementen in Rein-Titan durch ICP-AES ohne und mit Spuren-Matrix-Trennung.” // Fresenius' J. Anal. Chem., 1992, V.342, № 6, P.469–472.
7. М.П.Семов. Получение и анализ чистых веществ: Межвуз // сб. Горький: ГГУ, 1981, С.30–31.
8. M. Kohri, O. Kujirai, H. Okochi. “Determination of impurities in vanadium disilicide and vanadium pentoxide by atomic absorption spectrometry and ICP - atomic emission spectrometry after matrix separation.” // Anal. Sci., 1991, V.7, № 5, P.767–771.
9. Г.Г.Девятых, В.Н.Шишов, В.Т.Пименов и др. // Журн. аналит. химии, 1978, т.33, С.464–467.
10. Т.М.Малютина. “Анализ чистых тугоплавких металлов и их соединений.” // Методы анализа высокочистых веществ. М.: “Наука”, 1987, С.279–295.
11. Э.П.Бочкарев. // Науч. тр. ГИРЕДМЕТА. М.: ОНТИ ГИРЕДМЕТА, 1978, т.82, С.3–12.
12. В.Н.Музгин, Л.Б.Хамзина, В.Л.Золотовин, И.Я.Безруков. // Ванадий. Серия: “Аналитическая химия элементов”. М.: Наука, 1981, 216 с.
13. Н.К.Рудневский, В.Т.Демарин, И.А.Туманова и др. // Тр. по химии и хим. технологии, 1974, вып. 3 (33), С.84–85.
14. Sadikov I.I., Rakhimov A.V., Salimov M.I., Zinov'ev V.G., Mukhamedshina N.M., Tashimova F.A. Neutron activation analysis of pure uranium: Preconcentration of impurity elements // J. of Radioanal. and Nucl. Chem. – Springer, 2009.- Vol.280, N 3.- P.489–493.
15. Садыков И.И., Рахимов А.В. Определение примесных элементов в чистом уране методом нейтронно-активационного анализа // Аналитика и контроль.- Екатеринбург-2008. –т.12, №1–2. – С.31–35.
16. Зиновьев В.Г. Нейтронно-активационный анализ теллурида марганца ртути и хвостов золотодобывающей промышленности: Дис. ...канд.хим.наук. -2003.- 106 с.
17. Sadikov I.I., Karandashev V.K. Radiochemical neutron activation analysis of high purity cadmium // Uzbek. Phys. J. – 1996. T. 51, № 12. - P. 1315–1321.



Sherxon SHUKUROV,
O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti erkin tadqiqotchisi
E-mail: sherlenovo3@gmail.com
Sohibjon DILMURADOV,
Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi
Javoxir MAMADALIEV,
Toshkent shahridagi Prezident maktabi o'quvchisi
Azizjon MIRZOEV,
O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti 2-bosqich magistranti
Fayozbek ABDUXALIQOV,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
Jamolbek TURDALIEV,
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, PhD
Ilyos XUDOYNAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti kafedra mudiri, PhD (dotsent)

O'zR FA Bioorganik kimyo instituti yetakchi ilmiy xodimi, k.f.d B.Muhitdinov taqrizi asosida

«BIOSOLVENT» PREPARATINI NAVOIY VILOYATIDAGI SHO'RLANGAN TUPROQ TARKIBIDAGI TUZLARNI YUVILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Anotatsiya

Ushbu qo'l yozmada sho'rlangan tuproq tarkibidagi mavjud tuzlarning turlari hamda ularning o'simliklar rivojlanishida keltiradigan salbiy oqibatlar bayon etiladi. Shuningdek Navoiy viloyatidagi sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarning taxlili va ularning yuvilish samaradorligiga dala sharoitida (vegetatsiya davrida) «Biosolvent» preparatining ta'sirini o'rganish natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. «Biosolvent», Polimer, kompozitsiya, Sho'rlangan tuproq, polikislota, sirt faol modda, Navoiy viloyati, kimyoviy melioratsiya, tuzlar, gomopolimer, irrigatsiya.

ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ ПРЕПАРАТА «БИСОЛВЕНТ» НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРОМЫВАНИЯ СОЛЕЙ В ЗАСОЛЕННОЙ ПОЧВЕ В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной рукописи описываются разные виды соли в составе почвы, и так же об свойствах и вредах для развития растений. Также рассматриваются сведения об анализе солей в засоленной почве Навоийской области и результатах изучения влияния препарата «Биосолвент» на эффективность их вымывания в полевых условиях (в вегетационный период).

Ключевые слова. «Биосолвент», Полимер, композиция, засоленная почва, поликислота, поверхностно-активное вещество, Навоийская область, химмелиорация, соли, гомополимер, орошение.

STUDY OF INFLUENCE OF "BIOSOLVENT" PREPARATION ON EFFICIENCY OF SALT WASHING IN SALINE SOIL IN NAVOIY REGION

Annotation

This paper discusses the different types of salts in the soil and their adverse effect on the local plants. Moreover, salts in saline soil in the Navoi region are analyzed and the results of the study of leaching efficiency of the "Biosolvent" agent in field conditions (during the growing season) are given.

Key words. "Biosolvent" Polymer, composition, saline soil, polycarboxylic acid, surface-active substance, Navoiy region, melioration, salts, homopolymer, irrigation.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligi ko'rsatkichi bevosita davlatning iqtisodiy holatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanib, hozirgi vaqtda tuproqlarning sho'rlanishi muammosi dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylanishi qayd qilinmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida sug'oriladigan er maydonlarining 60% qismi sho'rlangan tuproqlardan tashkil topganligi qayd qilingan [1].

Tuproqning sho'rlanish darajasi ortishi o'simlik urug'larining unib chiqishini sekinlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ildiz orqali suvni so'rish kuchi kamayishi aniqlangan. Masalan, g'o'za ildizining suv so'rish ko'rsatkichi qiymati me'yoriy tuproq qatlamida o'rtacha 10-15 atm ga teng bo'lib, Sho'rlangan tuproqlarda 18-30 atm ga o'zgarishi aniqlangan [2].

Sho'rlanish ta'sirida tuproq eritmasining osmotik bosimi qiymati ortishi sharoitida o'simlikning ildizi orqali suv so'rilishi keskin kamayishi kuzatiladi, shuningdek natriy karbonat kabi ayrim tuzlar o'simlik uchun toksik ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [3].

Tuproqlarning sho'rlanishi ayniqsa, dunyoning qurg'oqchil mintaqalarida qishloq xo'jaligida jiddiy muammo hisoblanib ($ES_e=16-18$ dS/m), bunda irrigatsiya tizimlarini maqbullashtirish va sho'rga chidamli ekinlardan foydalanish tavsiya qilinadi [2, 3].

Sho'rlangan tuproqlar tarkibida qiyin eruvchan va o'simliklar uchun toksik ta'sirga ega bo'lgan 12 ta turdagi tuzlar aniqlangan (natriy xlorid, magniy xlorid, kalsiy xlorid, natriy sulfat, kalsiy karbonat, kalsiy bikarbonat, magniy karbonat, gips va boshq.). Jumladan, 8 ta turdagi tuzlar - ya'ni, kalsiy bikarbonat, natriy xlorid, magniy xlorid, kalsiy xlorid, natriy sulfat va boshq. o'simliklar uchun kuchli darajada toksik ta'sirga egaligi qayd qilinadi.

Tuproqning sho'rlanishi - bu tuproq qatлами tarkibida quruq og'irlikka nisbatan >0,25% o'simliklarning o'sish-rivojlanishi uchun toksik ta'sirga ega bo'lgan tuzlar (xloridlar, karbonatlar, sulfatlar va boshq.) to'planishi jarayoni hisoblanadi.

BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasidagi tashkiloti (FAO - The Food and Agriculture Organization of the United Nations) tomonidan keltirilgan statistik ma'lumotlar bo'yicha, O'zbekistonda ~20 800 000 ga er maydoni Sho'rlangan bo'lib, bu respublikaning umumiy er maydonining 46,5% qismini tashkil qiladi, sug'oriladigan umumiy er maydonlarining (4 280 600 ga) 50,1% qismi (2 140 550 ga) turli xil darajada Sho'rlanishga uchraganligi aniqlangan. Respublikamizning qishloq xo'jaligida foydalaniluvchi umumiy er maydonidan 50% dan ortiq qismi turli xil darajada Sho'rlangan bo'lib, jumladan 18% qismi o'rtacha va kuchli darajada sho'rlanishga egaligi qayd qilinadi [4, 5, 6].

Tuproqlarning 0-100 sm gorizontal tarkibidagi quruq qoldiq, jumladan Cl⁻ miqdori bo'yicha tuproqlarning sho'rlanish darajasi quyidagicha klassifikatsiyalanadi. (1-jadval).

1-jadval

Tuproqlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha klassifikatsiyasi

№	Sho'rlanish darajasi	Tuproq tarkibidagi umumiy tuzlar va Cl ⁻ miqdori (%)	
		Umumiy tuzlarning miqdori (quruq qoldiq)	Cl ⁻
1	Sho'rlanmagan	0,3 dan kam	0,01 dan kam
2	Kam Sho'rlangan	0,3-1	0,01-0,04
3	O'rtacha darajada Sho'rlangan	1-2	0,04-0,10
4	Kuchli Sho'rlangan	2-3	0,1-0,3
5	Sho'rxoq	3 dan ko'p	0,3 dan ko'p

Respublikamizda sho'rlangan tuproqlarda asosiy tuzlar - CaCO₃, Ca(HCO₃)₂, CaSO₄×2H₂O, CaCl₂, MgCl₂, MgSO₄, NaCl, Na₂SO₄, Na₂CO₃, NaHCO₃, KCl, K₂SO₄, K₂CO₃ kabilardan tashkil topgan [58; 3-b, 59; 232-b.].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda Navoiy viloyatidagi sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlar tarkibi o'rganildi. Shu bilan birgalikda sho'rlangan tuproqlar tarkibidagi tuzlarni samarali yuvish xususiyatiga ega bo'lgan polimer kompozitsiya "Biosolvent" preparatini Navoiy viloyatidagi sho'rlangan maydonlarda dala sinovi amaliyoti o'tkazildi. «Biosolvent»ning dala sharoitida, vegetatsiya davrida tuproqdagi tuzlarning yuvilish jarayoniga ta'siri tahlil qilindi.

Tadqiqotlarda dastlab «Biosolvent» preparati 1:10 suv me'yoriyda suyultirilgan holatda (10 l/ga) foydalanilganda sho'rlangan tuproqlarda tuzlarning yuvilishiga samarali ta'sir ko'rsatishi, shuningdek 2000 m³/ga suvni tejab qolish imkonini berishi tasdiqlandi. Tajribalarda «Biosolvent» preparati (10%) ta'sirida tuproqning struktura/unumdorlik darajasini ifodalab beruvchi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada maqbullashishi qayd qilindi (1-rasm).


Birinchi sug'orishdan keyin nazorat guruhida HCO₃²⁺ miqdori 23% ga, kuzda esa 18% ga kamayishi aniqlandi. Tajriba guruhida esa birinchi sug'orishdan keyin 45% ga, bahordan kuzgacha 44% ga ortishi qayd qilindi. Tajribalarda Cl⁻ nazorat guruhida 1-sug'orishdan keyin boshlang'ich qiymatiga nisbatan 25% ga yuvilishi aniqlandi, ya'ni bu qiymat nazoratga (17%) nisbatan 42% yuqori hisoblanadi. Bahordan kuzgacha ham ushbu tendensiya kuzatildi, ya'ni nazorat guruhida Cl⁻ ionlari 29% yuvilishi, tajriba variantida «Biosolvent» preparati ta'sirida (uch marta sug'orishdan keyin) boshlang'ich qiymatga nisbatan 40% ni tashkil qilishi aniqlandi.

Tajribalarda SO₄²⁻ miqdori 1-sug'orishdan keyin boshlang'ich qiymatga nisbatan 12% ni tashkil qilishi, «Biosolvent» preparati ta'sirida 30%, ya'ni 18% yuqori hisoblanishi aniqlandi. Kuzda esa ushbu ko'rsatkich qiymatlari mos ravishda 21 va 12% ni tashkil qilishi qayd qilindi. Tajribalarda Ca²⁺ miqdori 1-sug'orishdan keyin nazorat variantida 11% ga tengligi, tajriba variantida esa 25% ni tashkil qilishi aniqlandi. Bahordan kuzgacha Ca²⁺ miqdori nazorat variantida boshlang'ich qiymatga nisbatan 25% ga kamayishi, tajriba variantida esa 18% ni tashkil qilishi, ya'ni 7% kam bo'lishi qayd qilindi.

Tajribalarda Mg²⁺ miqdori 1-sug'orishda nazorat variantida ortishi, «Biosolvent» preparati ta'sirida 27% ni tashkil qilishi, kuzda esa nazorat variantida 12% va tajribada 35% ga teng bo'lishi aniqlandi. Shuningdek, Na⁺ miqdori 1-sug'orishda va kuzda mos ravishda 14 va 34% ga teng bo'lishi, tajriba variantida mos ravishda 25 va 6% ni tashkil qilishi aniqlandi. Bahordan kuzgacha tuproqning 0-70 sm gorizontal tarkibida Na⁺ ionlarining yig'ilishi 34% ni tashkil qilishi, «Biosolvent» preparati ta'sirida boshlang'ich miqdoriga nisbatan 6% ga kamayishi aniqlandi.


K⁺ miqdori 1-sug'orishda boshlang'ich qiymatiga nisbatan 27% ga kamayishi, kuzda vegetatsiya davrining oxirida 25% ga kamayishi qayd qilindi. Shuningdek, «Biosolvent» preparati ta'sirida K⁺ miqdori vegetatsiya davrining oxirida boshlang'ich qiymatiga nisbatan 55% ni tashkil qilishi aniqlandi.

Quyidagi rasmda nazorat va tajriba variantlarida tuproqning 0-70 sm gorizontal tarkibida pH, ES_e va ionlar miqdori qiymatlari o'zgarish dinamikasi ko'rsatilgan (1-rasm).




1-rasm. Nazorat va tajriba variantlarida tuproqning 0-70 sm gorizontal tarkibida pH, ES_e va ionlar miqdori qiymatlari o'zgarish dinamikasi

1-rasmdan ko'rish mumkinki, «Biosolvent» preparati sho'rlangan tuproqlarning 0-70 sm gorizonti tarkibida HCO_3^- ionlaridan tashqari, deyarli barcha ionlarning yuvilishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.



2-rasm. Nazorat va tajriba variantlarida tuproqning 0-30 sm gorizonti tarkibida pH , ES_e va ionlar miqdori qiymatlari o'zgarish dinamikasi



3-rasm. «Biosolvent» preparati ta'sirida 1-sug'orishda tuproq tarkibida tuzlarning yuvilishi.

Shunday qilib, nazorat variantida 1-sug'orishdan keyin boshlang'ich miqdoriga nisbatan quruq qoldiq, HCO_3^- , Ca^{2+} va K^+ miqdori mos ravishda 11%, 25%, 11%, 12% va 23% ni tashkil qilishi aniqlandi. Bunda bahordan kuzgacha ushbu ko'rsatkichlar qiymati 20%, 18%, 29%, 21% va 25% ni tashkil qilishi qayd qilindi. «Biosolvent» preparati ta'sirida HCO_3^- dan tashqari deyarli barcha ionlar yetarli darajada yaxshi yuvilishi aniqlandi. Jumladan, bunda «Biosolvent» preparati ta'sirida quruq qoldiq, Cl^- , SO_4^{2-} , Ca^{2+} , Mg^{2+} , Na^+ va K^+ miqdori 1-sug'orishdan keyin mos ravishda 29%, 42%, 30%, 25%, 27%, 25% va 7% ni tashkil qilishi qayd qilindi, ya'ni, bunda nisbatga eng yuqori yuvilish Cl^- keyin, SO_4^{2-} va umumiy tuzlar miqdorida, navbatdagi o'rinlarda Mg^{2+} , Na^+ va K^+ miqdori bo'yicha kuzatildi. Kuzda ushbu holat biroz o'zgarishi, ya'ni tuproqda Mg^{2+} miqdori ortishi qayd qilindi (boshlang'ich qiymatga nisbatan 35% ga), shuningdek yuvilgan K^+ miqdori 55% ga ortishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda «Biosolvent» preparati, polianion tipdagi kompozitsiyalar sho'r tuproqdagi tuzlarni yuvishda yuqori faollikka ega ekanligi tasdiqlandi, shuningdek tuproq tarkibida moddalar almashinuvi tezlashishiga, tuproqning mexanik xolatini yaxshilanishiga, tuproq tarkibidagi foydali mikroorganizmlarni son dinamikasining ko'payishiga, tuzlarning tuproqqa salbiy ta'sirining keskin kamayishi hisobiga tuproq unumdorligini ortishiga olib kelishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

- Новикова А.В. Засоленные почвы, их распространение в мире, окультурирование и вопросы экологии // Харьков. - 2004. - С.10-117. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://issar.com.ua/downloads/docs/nv6.pdf> Дата обращения: 11.09.2018 г.
- Auge K.D., Assefa T.M., Woldeyohannes W.H., Asfaw B.T. Potassium dynamics under enset (Ensete ventricosom cheesman) farming systems of Sidama zone, SouthepH Ethiopia // JoupHal of Soil Science and Environmental Management. - 2018. - V.9(4). - P.47-58.
- Qureshi A.S., Ertebo T., Mehansiwala M. Prospects of altepHative coping systems for salt-affected soils in Ethiopia // JoupHal of Soil Science and Environmental Management. - 2018. - V.9(7). - P.98-107.
- Tojiev U. Sho'r tuproqlarni yuvish (O'quv qo'llanma) // Buxoro. - 2009. - 3-56-b.
- Abdullaev S.A., Nomozov H.Q. Tuproq melioratsiyasi (Darslik) // Toshkent. - «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» nashriyoti. - 2011.- 3-400-b.
- Гулиев А.Г., Самофалова И.А., Мудрых Н.М. Засоление - глобальная экологическая проблема в орошаемом земледелии // Пермский аграрный вестник. - 2014. - №4(8). - С.32-43.



UDK: 665.775

Farxod YUSUPOV,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti professori, texnika fanlar doktori

Bobomurod XURSANDOV,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti kichik ilmiy xodimi

E-mail: xursandovbobomurod92@mail.ru

Fazliddin YULDOSHOV,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti Ilmiy tadqiqodchisi

Anzirat DUSMATOVA,

Farmatsevtika ta‘lim va tadqiqot instituti dotsenti, Kimyo fanlar nomzodi

Azizbek KUCHAROV,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti tayanch doktoranti

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti doktoranti S.Yusupov taqrizi asosida

OLTINGUGURTLI ASFALTABETONNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI TADQIQ QILISH

Аннотация

GOST 22245-90 talablariga mos keladigan bitum va texnik oltingugurt 5:95 10:90 15:85 20:80 massa nisbatlarda aralashtirib oltingugurtli bitum namunalari tayyorlandi. Oltingugurtli bitum asosida oltingugurtli asfaltbeton na‘munalari tayyorlandi. Olingan asfaltbeton na‘munalarni GOST 9128, PNST 191-2017 talablari bo‘yicha 0°C, 20°C, 50°C haroratlarda bosim kuchining o‘zgarishi, suv shimuvchanligi, zichligi kabi xossalari o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida asfaltbeton tarkibiga 5% dan 20% gacha oltingugurt kiritilishi uning fizik va mexanik xossalarini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: oltingugurt, bitum, oltingugurtli bitum, adgeziya, asfaltbeton, modifikatsiya, zichlik, suv shimuvchanlik, mineral kukun, qum, chaqiqtoq, qovushqoqlik.

ИЗУЧЕНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ СЕРО-СЕРА АСФАЛЬТОБЕТОНА

Аннотация

Образцы серобитума готовили путем смешивания битума и технической серы, соответствующей требованиям ГОСТ 22245-90, в массовых соотношениях 5:95, 10:90, 15:85, 20:80. Образцы сероасфальтобетона были приготовлены на основе сернистого битума. Полученные образцы асфальтобетона исследовались согласно требованиям ГОСТ 9128, ПНСТ 191-2017 при температурах 0°C, 20°C, 50°C по изменению прочности на сжатие, водоупругости и плотности. В результате исследований установлено, что добавление в состав асфальтобетона от 5 до 20 % серы значительно улучшает его физико-механические свойства.

Ключевые слова: сера, битум, битум с серой, адгезия, асфальтобетон, модификация, плотность, водопоглощение, минеральный порошок, песок, известняк, вязкость.

STUDY OF THE PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES OF SULFUR-SULFUR ASPHALT CONCRETE

Annotation

Sulfur bitumen samples were prepared by mixing bitumen and technical sulfur meeting the requirements of GOST 22245-90 in mass proportions of 5:95 10:90 15:85 20:80. Sulfur asphalt concrete samples were prepared based on sulfur bitumen. The obtained asphalt concrete samples were studied according to the requirements of GOST 9128, PNST 191-2017 at temperatures of 0°C, 20°C, 50°C, such as changes in compressive strength, water elasticity, and density. As a result of research, it was found that the addition of 5% to 20% sulfur in the composition of asphalt concrete significantly improves its physical and mechanical properties.

Key words: sulfur, bitumen, bitumen with sulfur, adhesion, asphalt concrete, modification, density, water absorption, mineral powder, sand, limestone, viscosity.

Kirish. Yurtimiz tabiati issiq bo‘lganligi sababli hozirgi kunda yo‘l qoplamalari tezda ishdan chiqmoqda. O‘zbekiston sharoitida asfaltbeton qoplamalarini qurish iqtisodiy tarafdin ancha qimmat hisoblanadi. Bundan tashqari issiq iqlim sharoitida asfaltbeton qoplamalari issiqqa erib, og‘ir avtomobillar harakatlanishi davomida ko‘ndalang noravonliklar hosil bo‘lib qolmoqda. Yana bir muhim sabablardan biri asfaltbeton tarkibidagi bitumning qimmatligidir. Bundan tashqari yo‘llar ekspluatatsiya qilingandan keyin ham uzoq muddat xizmat qilmayapti. Hozirgi vaqtda neft bozorida bitum yetishmasligi va narxining oshishi kuzatilmoqda. Bitum bozorini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bozorning asosiy omillari: narx va sifat. Asfaltbeton — chaqiq tosh, qum, mineral kukunlar va bitum aralashmasidan iborat qurilish materiali. Aralashirishdan oldin ular 100-160°C temperaturagacha qizdiriladi. 120 °C dan past bo‘lmagan temperaturada yotqiziladigan va zichlanadigan bitumli qaynoq asfaltbeton, 40-80° temperaturada zichlanadigan va kam qovushqoq issiq asfaltbeton, havo temperaturasida (5° dan yuqori temperaturada) zichlanadigan suyuq bitumli sovuq asfaltbeton; yirik, o‘rta, mayda donali va qumli asfaltbetonga bo‘linadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti “Neft kimyosi” laboratoriyasi ilmiy xodimi B.B. Raximov tomonidan olib borilgan tadqiqoti asosida bitumning adgezion xususiyatlarini yaxshilashiga asoslangan bo‘lib, qovushqoqli bitum bog‘lovchidagi tarkibiy qismlarning BND 60/90 - 55% bitum; NSh qo‘shimchasi - 15%; gudron - 15% va texnik oltingugurt - 15% optimal nisbati tanlab olindi [1].

Oltinugurtli bitumga qo'shishdan maqsad uning fizik-mexanik xususiyatlaridan biri ya'ni cho'ziluvchanlik xususiyatini oshiradi va kislotali muhitga ega bo'lgan mineral materiallarga adgeziyasini yaxshilaydi [2]. Adgezion bog'ni hosil bo'lish jaraeni odatda ikki bosqichga bo'linadi. Tashish deb ataladigan birinchi bosqichda adgeziv molekulalarning (bitum) substrat yuzasiga (mineral material) harakati va ularning fazalararo qatlamda aniq yo'nalishi sodir bo'ladi, buning natijasida adgeziv va substrat molekulalarining funksional guruhlari va molekulalar o'rtasida yaqin aloqa ta'minlanadi [3]. Adgeziya jaraenining birinchi bosqichining oson kechishiga bitumni suyultirish natijasida suyuq holatga o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqich bitum va mineral materialning to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'siridan iborat bo'lib, bu turli xil kuchlar - Van Der-Vaalsdan kimëviy kuchlarga qadar sabab bo'lishi mumkin [4]. Andronov S. Yu, Vasilëv Yu.E, Timoxin D. K, Repin A. M, Repina O.V, Talalay V. V. kabi MADI ning professor olimlarining [5] maqolasida asosan asfaltbeton qoplamasining kamchiliklari va afzalliklari, seroasfaltbetonning afzalliklari keltirilgan. Bundan tashqari maqolada oltinugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik xususiyatlari va qorishmani tayyorlash keltirib o'tilgan. G.V.Vasilovskaya, D.R.Nazirovning [6] maqolasida asosan oltinugurtli asfaltbeton qorishmasini tayyorlash va uni yotqizish haqida aytib o'tilgan. Lekin oltinugurtli qanday modifikatsiya qilish va tarkibini o'zgartirish haqida aytib o'tilmagan. V.Yu. Pivsaev tomonidan olib borilgan tadqiqotda neft shlamiga oltinugurt va polimer moddalarini qo'shib qurilish va yo'l bitumlari kompozitsiyalari olingan [7]. Predvaritelnyu natsionalnyu standart Rossiyskoy federatsiyasining oltinugurtli asfaltbetonga doir ishlab chiqilgan [8], [9], [10] standartlari mavjud. Ushbu standartlarda texnik talablar, xavfsizlik qoidalari, atrof-muhitni muhofaza qilish talablari, sinov usullari, oltinugurtli asfaltbeton qoplamasini yotqizish va qayta ishlash kabilar ko'rib chiqilgan.

Material va metodlar. Tadqiqot uchun materiallar sifatida Muborak gazni qayta ishlash zavodining texnik oltinugurti, pirimidin, BND 60/90 markali bitum, chaqirtosh, qum, mineral kukun.

Namunalar olingandan so'ng oltinugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganish uchun oltinugurtli asfaltbetonning zichligini, suv shimuvchanligini, 20 °C haroratdagi bardoshlilikini, 50 °C haroratdagi bardoshlilikini va 0o S haroratdagi bardoshlilikini kabi xususiyatlarini o'rganish talab etiladi. Biz asosan oltinugurtli asfaltbeton tarkibini tanlashda asfaltbeton qorishmasi tarkibidan (GOST 9128-2013) foydalandik.

Oltinugurtli asfaltbetonning suv shimuvchanligi va zichligini aniqlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshiramiz. Namunalar eng avvalo havoda tortiladi. Keyin aralashmalardan olingan namunalar (20 ± 2) °C haroratga ega bo'lgan idishda 30 daqiqa davomida temperaturani saqlagan holda ushlab turiladi, shunda idishda suv darajasi namunalar yuzasidan kamida 20 mm balandlikda bo'ladi. Shundan so'ng namunalar suvda tortib olinadi va namunalarda havo pufakchalari yo'qligini ta'minlash kerak bo'ladi. Suvda tortilganidan keyin namunalar yumshoq mato bilan artib olinadi va havoda qayta tortiladi.

Qorishma namunasining o'rtacha zichligi ni topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\rho = \frac{g_0}{g_2 - g_1};$$

Bu yerda: g_0 – havoda tortilgan namunaning massasi, gr;

ρ – qorishma namunasining o'rtacha zichligi, kg/m³;

g_1 – namunaning suvda tortilgandagi massasi, gr;

g_2 – namuna 30 minut suvda saqlanib, keyin tortilgandagi massasi, gr.

Bosim kuchi R_{CK} , MPa aniqlash quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R_{CK} = \frac{P}{F} \cdot 10^{-2};$$

Bu yerda: P – namunaning buzilish yuki, N;

F – pressda siqilgan namunaning ko'ndalang kesim yuzasi, sm²;

10⁻² – MPa da konversiya koeffitsienti.

Natijalar va ularning tahlili. Texnik oltinugurt 55 ayl/min tezlikda aylantirib turgan holda 120 °C da qizdiriladi. Qizdirish davomida oltinugurt massasining 3 % miqdorida pirimidin qo'shiladi. Aralashtirish tezligi va xaroratni o'zgartirilmagan holatda 6 soat davomida aralashtiriladi. Shundan so'ng suyuq oltinugurt sopolimeri oddiy xona sharoitida sovutiladi va qattiq holatga o'tkaziladi.

Sintez qilingan polimer oltinugurt BND 60/90 markali bitum bilan 140-145 OS da ikki soat davomida 5:95 10:90 15:85 20:80 massa nisbatlarda aralashtirildi. Olingan oltinugurtli bitumdan oltinugurtli asfaltbeton tayyorlandi.

Oltinugurtli asfaltbeton qorishmasini tayyorlash asfaltbeton qorishmasini tayyorlash bilan deyarli bir xil hisoblanadi. Qorishmani tayyorlashda asosan qorishmaning tarkibi o'rganiladi. Qorishma oltinugurtli bitum, qum, mineral kukun va chaqirtoshdan iborat bo'ladi. Qorishma tayyorlashda asosan materiallarning olingan joylari ham o'rganib chiqilishi kerak.

Biz qorishmani tayyorlashda 10 kg qorishma tayyorladik. Qorishma tarkibini tayyorlash uchun barcha materiallarni 10 kg og'irlikka moslab foiz miqdorlariga qarab tanlab oldik va barchasini elektron tarozida tortib oldik.

Eng avvalo qorishma tarkibidagi chaqirtosh, qum va mineral kukunni 160-180oS temperaturaga yetguncha qizdirib olamiz. Qizdirilgan materiallar yaxshilab aralashtirib olinadi va yana shu temperaturada qizdiriladi. Oltinugurtli bitumni 140oS dan oshirmagan holda qizdirildi. Materiallar qizdirilgandan so'ng maxsus idishda aralashtiriladi. Aralashtirish jarayonida qorishma sovub qolmasligi uchun doimiy ravishda qizdirib turiladi. Eng birinchi qorishma tarkibidagi chaqirtosh, qum va mineral kukunni aralashtiramiz va undan so'ng oltinugurtli bitum quyiladi. Bitum idishga yopishib qolmasligi uchun qorishma o'rtasi ochilib bitum quyiladi va sekin aralashtirish boshlanadi.

Oltinugurtli asfaltbeton qorishmasi aralashtirib bo'lingandan so'ng namuna tayyorlash uchun elektron tarozida tortib olinadi. Namunalar o'lchamlariga talablar va ularning tahmini og'irlik bo'yicha talablar keltirilgan GOST 12801-98 ga asosan aniqlanadi.


Biz o'tkazgan eksperiment natijalariga ko'ra seroasfaltbetonning suv shimuvchanligi, zichligi va mustahkamligi aniqlandi. Qiymatlar 1-va -jadvallarda keltirib o'tiladi.

1-jadval

Ko'rsatkichlar nomlari	Oltinugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik ko'rsatkichlari						
	Asfaltbeton (AB) uchun	Oltinugurtli asfaltbeton (OAB) uchun	0% AB	5% OAB	10% OAB	15% OAB	20% OAB
Bosim kuchi, 50° C haroratda, MPa	(GOST 9128)	(PNST 191-2017)	1,6	1,65	1,72	1,84	2
Bosim kuchi, 20° C haroratda, MPa	1.3 dan kam emas	1.3 dan kam emas	3	3,7	4,2	4,4	4,8
Bosim kuchi, 0° C haroratda, MPa	-	-	6	6,4	6,9	7,6	8,3

Quyida keltirilgan jadvalda asfaltbeton (AB) va oltinugurtli asfaltbeton (OAB) namunalari 7 kunlik saqlashdan keyin GOST 9128, PNST 191-2017 talablari bo'yicha 0° C, 20° C, 50° C haroratlarda bosim kuchining o'zgarishi keltirilgan.

Asfaltbeton va oltinugurtli asfaltbetonning suv shimuvchanligi



Quyida keltirilgan diagrammada asfaltbeton(AB) va tarkibida 5,10,15 va 20% gacha oltinugurt saqlagan oltinugurtli asfaltbeton (OAB) namunalari 7 kunlik saqlashdan keyin GOST 9128, PNST 191-2017 talablari bo'yicha suv shimuvchanligi bo'yicha taxil natijalari keltirilgan.

Xulosa. Tarkibida 5,10,15 va 20% gacha oltinugurt saqlagan bitumdan foydalanib oltinugurtli asfaltbeton namunalari tayyorlandi. Olingan asfaltbetonni fizik – mexanik xossalari o'rganildi. Asfaltbetonning bosim kuchi, 50° C haroratda 1,6 MPa dan 2 MPa gacha, 20° C haroratda 3 MPa dan 4,8 MPa gacha, 0° C haroratda 6 MPa dan 8,3 MPa gacha ko'tarildi. Suv shimuvchanligi 2,7% dan gacha 4% ko'tarildi. Asfaltbetonning GOST 9128, PNST 191-2017 talablari bo'yicha xossalari qanoatlantirdi.

Minnaddorchilik. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti "Kimyoviy texnologiya, gazni qayta ishlash va sirt faol moddalar" laboratoriyasi xodimlariga ayniqsa, ilmiy rahbarim t.f.d. prof. Yusupov Farhod Mahkamovichga yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining Fundamental tadqiqotlar dasturini qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorchilik bildiramiz.

ADABIYOTLAR

1. Рахимов Б.Б. Маҳаллий нефт, газ ва ёғ-мой саноати хомашё ва қолдиқлардан фойдаланиб йўл қурилиш битумини олиш технологиясини ишлаб чиқиш: Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Диссертация. – Тошкент, 2022 -119 б. Танаянц Виктор Азатович «Способ получения модифицированной серы, используемой при производстве сероасфальта». Москва. 2005-йил.
2. Влияние технологических параметров на взаимодействие серы с нефтяными остатками / И.П. Теляшев и др. // Нефтепереработка и нефтехимия: сб. науч. тр. ИПНХП. – Уфа: Изд-во ИПНХП, 2001. – Вып. 33. – С. 76 – 81.
3. Тураев, Ф.Т., Бекназаров Х.С., Джалилов А.Т. Исследование модификации дорожного битума элементной серой. *Universum: технические науки.* – 2019. – № 2 (59). – С.65-69.
4. Худойбердиев, Д. and Кўчаров, А. 2023. Педагогик техника асосида кимё фанини ўқитишнинг илмий тадқиқи. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies* . 1, 7 (Jul. 2023), 3–7
5. Иваньски М. Асфальтобетон как композиционный материал (с нанодисперсными и полимерными компонентами) / М. Иваньски, Н.Б. Урьев. – М.: Техполиграфцентр, 2007. – 668 с
6. Kocharov, A. A., et al. "Scientific Analysis of the Ecological Condition of the Soils Around the Angren Coal Mine." *International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies*. 2024.
7. Хурсандов, Бобомурод Шухратович, Азизбек Алишер Угли Кўчаров, and Фарход Махкамович Юсупов. "исследование свойств сернистого битума, полученного на основе модифицированной полимерной серы." *Universum: технические науки* 12-6 (105) (2022): 21-25.
8. Юсупов, Фарход Махкамович, et al. "Свойства сферических гранул на основе оксида алюминия." *Universum: химия и биология* 3-1 (69) (2020): 59-63.
9. Xursandov, Bobomurod, et al. "Study of changes in the physical and mechanical properties of sulfur asphalt concrete mixture based on polymer sulfur." *AIP Conference Proceedings*. Vol. 3045. No. 1. AIP Publishing, 2024.
10. ГОСТ 11505-75. «Межгосударственный стандарт. Битумы нефтяные. Метод определения растяжимости». Москва. Стандартиформ. 2008, 4 с.



Mavluda YUSUPOVA,
Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail: mavluda_chem90@mail.ru,
Mansur ASHIROV,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi, PhD
Zulayxo SMANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti professori. k.f.d

Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti dotsenti, k.f.d I.Abduraxmanov taqrizi asosida

OPTICAL ANALYTICAL SENSORS

Annotation

This article provides a brief review of optical analytical sensors, their development history, and capabilities. Sensors allow to collect, correct, transfer, process and distribute information about the state of physical and chemical devices. Chemical sensors and various spectroscopic methods used to measure the concentration of substances are briefly discussed. Several special fiber-optic light-transmitting sensors, including conductive polymer fibers, light transmission of optical fibers, reflection imaging in an optical fiber based on the corpuscular model of radiation are reviewed. In addition, the capabilities of the optical reflection device mini-spectrophotometer Eye-One Pro to measure wide-range diffuse reflectance coefficients and colorimetric properties of samples, their structure, determination of substance concentrations in environmental objects, their use in production, management of industrial processes were summarized.

Key words: optical sensor, absorption spectroscopy, sensors, reflection spectroscopy, receptor, luminescence, evanescence

ОПТИЧЕСКИЕ АНАЛИТИЧЕСКИЕ СЕНСОРЫ

Аннотация

В данной статье представлен краткий обзор оптических аналитических датчиков, истории их развития и возможностей. Датчики позволяют собирать, корректировать, передавать, обрабатывать и распространять информацию о состоянии физических и химических устройств. Кратко обсуждаются химические сенсоры и различные спектроскопические методы измерения концентрации веществ. Рассмотрены некоторые специальные волоконно-оптические светопроводящие датчики, в том числе проводящие полимерные волокна, светопропускание оптических волокон, визуализация отражения в оптическом волокне на основе корпускулярной модели излучения. Кроме того, раскрыты возможности прибора оптического отражения мини-спектрофотометра Eye-One Pro для измерения в широком диапазоне коэффициентов диффузного отражения и колориметрических свойств образцов, их структуры, определения концентраций веществ в объектах окружающей среды, их использования в производстве, управлении промышленными объектами. процессы были обобщены.

Ключевые слова: оптический датчик, абсорбционная спектроскопия, сенсоры, спектроскопия отражения, рецептор, люминесценция, эванесценция.

OPTIK ANALITIK SENSORLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada optik analitik sensorlar, ularning rivojlanish tarixi, imkoniyatlari haqida qisqacha sharh beriladi. Sensorlar (datchiklar) fizik-kimyoviy qurilmalarning holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tuzatish, uzatish, qayta ishlash va tarqatish imkonini beradi. Kimyoviy sensorlar bilan birga moddalarni konsentrasiyasini o'lchash uchun ishlatiladigan turli xil spektroskopik usullar qisqacha muhokama qilinadi. Bir nechta maxsus optik tolali yorug'lik o'tkazuvchi sensorlar, jumladan, o'tkazuvchan polimer tolalari, optik tolalarning yorug'lik o'tkazuvchanligi, optik tolada nur qaytarish orqali olingan tasvir nurlanishning korpuskulyar modeliga asoslanishi ko'rib chiqiladi. Shu jumladan optik nur qaytarish qurilmasi Eye-One Pro mini-spektrofotometrining keng diapazonli diffuzion aks ettirish koeffitsientlarini va namunalarning kolorimetrik xususiyatlarini o'lchash imkoniyatlari, tuzilishi, ularning atrof-muhit ob'ektlarida moddalarni konsentrasiyalarini aniqlash, ishlab chiqarishda, sanoat jarayonlarini boshqarishda qo'llanilish umumlashrildi.

Kalit so'zlar: optik sensor, sorbsion-spektroskopiya, datchiklar, nur qaytarish spektroskopiyasi, retseptor, lyumenessensiya, evensensiya.

Kirish. Bugungi kunda ishlab chiqarish va sanoat sohasidagi xomashyo, tayyor mahsulotlarni, shuningdek, turli xil tabiiy namunalarni tahlilini olib borish uchun qo'llaniladigan optik sensorlarning tarixi va rivojlanishi klassik optik analitik usullar, xususan, UB (ultrabinafsha)-spektrofotometriya, IQ-spektrometriya, xromatografik analiz va spektrofluorimetriya borib taqaladi. Bunday qurilmalarning barchasi elektromagnit nur yordamida moddalarga fizik – kimyoviy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lib, ushbu jarayon natijasida moddalarning xossalari o'zgaradi, ular o'zidan nur chiqarishi, yutishi yoki sochishi kuzatiladi. Bunday o'zaro ta'sirlar natijasida tekshirilayotgan moddaning xossalarini ifodalovchi signallar hosil bo'ladi. Signalning chastotasi moddaning spetsifik xossalarini aks ettirsa, uning intensivligi moddaning miqdorini ifodalaydi.

Bunday qurilmalarning hajman kichikroq, masofadan turib boshqariladigan, yoki onlayn foydalaniladigan, shuningdek, tekshirilayotgan moddani to'g'ridan-to'g'ri uskuna oldiga olib bormasdan, o'z tabiiy xolicha tekshirish imkoniga ega shakllari

ham mavjud bo'lib, ular suv manbalarining sifati, suvni tozalash ishlari, biotexnologik jarayonlar va boshqalarni onlayn monitoring qilish va nazorat qilish kabi afzalliklarga egadir. Bunday qulay hajmdagi qurilmalar kimyoviy sensorlar (datchiklar) deb ataladi. Analitik asboblari va analitik (kimyoviy) datchiklar o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, analitik asboblari tahlil qililganayotgan moddani qurilma yoniga olib kelishni taqazo qiladi, datchiklar esa, tahlil qilinayotgan moddani joyidan qo'zg'atmasdan analiz qiladi.

Sensorlar (datchiklar) fizik-kimyoviy qurilmalarning holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tuzatish, uzatish, qayta ishlash va tarqatish imkonini beradi. Sensorlarning har xil turlari mavjud bo'lib, ularning ishlash tamoyillari ma'lum fizik yoki kimyoviy hodisalar va xususiyatlarga asoslanadi. Masalan, haroratni aniqlovchi sensorlar, tovush sensorlari, radiatsion sensorlar, bosim sensorlari, gidrometrlar va boshqalar [1,2,3,4,5,6,7,8].

Ushbu mavzu bo'yicha birinchi monografiyalari o'tgan asrda paydo bo'lgan bo'lsa-da [9,10], kimyoviy datchiklarning analitik kimyoga ixtisoslashgan ayrim universitetlardagi ta'lim jarayoniga tadbiiq qilinishi so'nggi o'n yilliklarga borib taqaladi [11].

1991-yilda IUPAC kimyoviy sensorga quyidagicha aniqlik kiritadi [12]: Kimyoviy sensor - bu ma'lum bir namuna komponentining konsentratsiyasidan tortib umumiy tarkib tahliligacha bo'lgan kimyoviy ma'lumotni analitik foydali signalga aylantiradigan qurilma.

Biroq, ushbu umumiy ta'rif sensorlarning butun o'ziga xos xususiyatlarini ochib bera olmaydi, shu sababli biz sensorlarning ba'zi muhim qismlariga to'xtalishni joiz deb topdik:

- sensorlar tekshirilayotgan ob'ekt bilan bevosita aloqada bo'lishi kerak;
- sensorlar elektron bo'lmagan ma'lumotlarni elektr signallariga aylantirishi kerak;
- sensorlar tezda javob berishi kerak;
- sensorlar doimiy yoki hech bo'lmaganda takroriy sikllarda ishlashi kerak;
- sensorlar hajman kichik va arzon bo'lishi kerak.

Ushbu kontekstdagi "tez javob berish" jumlasining ma'nosi, odatda analitik kimyoda muhim parametrlardan biri bo'lib [13], datchiklar bilan ishlashda qisqa vaqtda natija olishning muhim ekanligini anglatadi. "Arzon" sensorlar jumlasini esa, ularning keng ommaning qurbi yetadigan shaklda mavjud bo'lishi va keng miqyosda ishlab chiqarish iloji borligini anglatadi.

Tabiiy sezgi organlari va kimyoviy sensorlari o'rtasidagi o'xshashliklarga yanada chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, ularning ba'zi funksional xususiyatlari e'tiborga loyiqlik. 1999-yilda IUPAC keltirib o'tadiki, "Kimyoviy sensorlar, odatda, ketma-ket ulangan ikkita asosiy komponentni: kimyoviy (molekulyar) tanib olish tizimi (retseptor) va fizik-kimyoviy datchik" o'z ichiga oladi [14]. Agar biz to'liq sensor tizimini yaratmoqchi bo'lsak, "qabul qilish" va "o'tkazish" funksiyalari sxematik tarzda ko'rsatilganidek, signalni "kuchaytirish" va "natijalarni ko'rsatish" qo'shimcha funksiyalari bilan yakunlanishi mumkin (1-rasm). Tabiiy sezgi organlarida esa, qo'shimcha funksiyalar ham mavjud bo'lib, ular o'z navbatida nerv hujayralari va miya tomonidan amalga oshiriladi.



Natijalarni hisoblash va ko'rsatish, xatolar manbalari va boshqalarni ko'rsatadi

Amplifikatsiya, integratsiya, derivatsiya va boshqalar

Potensial farq, joriy o'sish va boshqalar

Haroratning o'zgarishi, reaksiya issiqligi va boshqalar
Na'muna molekullari bilan o'zaro ta'sir

1-rasm. Odatiy sensor tuzilishi.

Ushbu rasmda odatiy optik sensorning Grundler ruhsati bilan qayta ishlab chiqilgan tuzilish sxemasi keltirilgan [15]

RETSEPTORLAR

Kimyoviy sensorning retseptorlari tekshiriladigan namuna bilan bevosita aloqada bo'ladi. U muayyan moddalarga yoki moddalar guruhiga mos javob berishi kerak. Retseptor funksiyasini molekulyar tanib olish deb ham atash mumkin. Ko'pgina hollarda retseptorlar nozik tuzilishga ega bo'lib, ular kimyoviy muvozanat, reaksiyalar katalizi yoki boshqa selektiv ta'sirlar orqali tekshiriladigan moddaning tarkibiy qismlari bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Odatda, mazkur o'zaro munosabatlar adsorbsiya, ion almashinuvi yoki ajralish muvozanati (suyuqlik-suyuqlik ekstraksiyasi)da namoyon bo'ladi.

Barcha holatlarda retseptorlar va tahlil qilinadigan moddalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'zgarishlarga olib kelishi kerak, bu o'zgarishlar sensor element tomonidan o'lchanadigan elektr miqdoriga (kuchlanish, oqim yoki qarshilik) aylantirilishi mumkin [16].

Bugungi kunda olimlar qattiq tashuvchilarga turli xil ion selektiv organik reagentlarni immobillash orqali metal ionlarini konsentratsiyasini aniqlaydigan kimyoviy optik sensorlar ustida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

DATCHIKLAR

Datchiklar tekshirilayotgan namunaning tarkibiy qismlari bilan retseptorlarning o'zaro ta'siriga kirishish natijasida kelib chiqadigan xususiyatlarning miqdoriy ifodasini hisoblovchi vositalardir. Datchiklar odatda chiqish signaliga ko'ra kuchlanish o'tkazgichlari, oqim o'tkazgichlari yoki qarshilik o'tkazgichlari sifatida tasniflanadi. Ushbu datchik turiga misol sifatida, tekshiriladigan namuna eritmasi bilan aloqa qilganda rangini o'zgartiruvchi retseptor bilan birga optodlarda ishlatiladigan yorug'lik o'tkazuvchi optik tolalarni keltirish mumkin [16].

KIMYOVIY DATCHIKLARNING TASNIFI


Kimyoviy sensorlarni turli yo'llar bilan tasniflash mumkin. Eng sodda ta'rif 1991-yilda IUPAC tomonidan berilgan ta'rifdir. Ushbu keng tarqalgan sxema bo'yicha yettita sensorli guruhlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin:

1. Optik, 2. Elektrokimyoviy, 3. Elektr, 4. Sezuqchan, 5. Magnitli,
6. Termometrik, 7. va boshqalar

Ushbu xususiyatga ko'ra, datchiklar samaradorlikning yuqoriroq yoki pastroq bo'lishiga ko'ra guruhlanadi. IUPAC tasnifida optik sensorlardan biosensolarlar mustaqil guruh sifatida ajratilmaydi, lekin kimyoviy datchiklarning maxsus turi hisoblanadi [16].

OPTIK SENSORLAR

Analitik asboblari va analitik (kimyoviy) datchiklar o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchi vaziyatda, tahlil qilinadigan modda qurilmaning yoniga keltiriladi, ikkinchi holatda esa, tahlil qilinadigan moddalar joyidan qo'zg'atmasdan analiz qilinadi. Optik sensorlarning to'liq ko'rsatkichi yoki yorug'lik o'tkazgichlari, optik kimyoviy datchiklarning tipik tarkibiy qismidir. Silikat (shisha) materiallardan yoki shaffof polimerlardan tayyorlangan optik tolalar optik sensorlar uchun eng keng tarqalgan yorug'lik o'tkazgichlari hisoblanadi [16]. (2-rasm).



2-rasm. Silindrsimon shakldagi yorug'lik o'tkazgichi (tolali turdagi).

Ushbu o'tkazgichli tola shaklidagi optik sensorning Grundler ruhsati bilan qayta ishlab chiqilgan sxemasi keltirilgan.

Evensensiya hodisasi juda muhim bo'lib, u optik sensorlarning maxsus turida qo'llaniladi. Yorug'lik o'tkazuvchi tolali optik sensorlar hech qanday retseptor qatlamsiz tuzilgan bo'lishi mumkin. Bunday sensor turlari evvensensiyaga asoslangan bo'ladi, lekin oddiy yorug'lik yutilishiga yoki atrofda muhitning sinishiga asoslangan bo'lishi ham mumkin. Shunday qilib, mikro-fotometr yoki mikro-refraktometr shunday shaklda tuzilgan bo'ladi. Boshqa turdagi foydali datchiklar luminesensiya va diffuziyon sensorlar hisoblanadi [11]. Bunday analitik qurilmalar katta yoki kichik o'lchamda bo'lishi mumkin. (5-6-rasmlar).



5-rasm. TL/TSL luminesensiya qurilmasi



6-rasm. Eye-One Pro mini-spektrofotometer

Nur qaytarish (diffuzion aks ettirish) analitik optik sensorlardan biri Eye-One Pro mini-spektrofotometrdir. Ushbu qurilma ranglarning aniqligini nazorat qilish va monitorlar, skanerlar va printerlarni avtomatik kalibrlash uchun mo'ljallangan. Asbob monoxromator sifatida ishlatiladigan gologrammali difraksiyon panjarali va aniqlash moslamasi sifatida 128 pikseli diodli matritsaga ega miniatyura USB-qurilmaga ega (6-rasm). Asbob D50 tipidagi nurlanish manbai bilan jihozlangan bo'lib, u gaz bilan to'ldirilgan volfram chiroqdir. Analitik nuqta nazardan, asbob 380 dan 730 nm gacha bo'lgan diffuzion aks ettirish ko'effitsientlarini va namunalarning kolorimetrik xususiyatlarini o'lchashga imkon beradi, hamda laboratoriya va boshqa tizimlardagi xromatik koordinatalar berishga qodir [17].

Eye-One Pro qurilmasining ishlash tartibi

O'lchovlarni amalga oshirish uchun Eye-One Pro mini-spektrometri kompyuterning USB portiga ulanadi, MS Windows uchun mo'ljallangan Eye-One Share dasturi ishga tushiriladi va asbob foydalanuvchi to'plamiga kiritilgan oq rangli kalibrlash to'plami yordamida kalibrlanadi. Shundan so'ng, namunalarning spektrlari o'lchandi va olingan ma'lumotlar turli to'liq uzunliklari uchun diffuzion aks ettirish ko'effitsientlari natijalar sifatida MS Excel dasturiga eksport qilinadi. Tegishli Kubelka-Munk funksiyasi F qiymati MS Excel soft dasturidan foydalangan holda Eye-One Pro yordamida olingan har bir diffuzion aks ettirish ko'effitsienti uchun hisoblab chiqiladi. Kubelka-Munk funksiyasi rangli birikmaning qattiq fazadagi konsentratsiyasiga chiziqli bog'lanadi va diffuzion aks ettirish ko'effitsienti quyidagi tenglama orqali aniqlanadi [17].

$$F(R) = \frac{(1 - R)^2}{2R} = \frac{2.3\epsilon c}{S}$$

Bunda: R - diffuzion aks ettirish ko'effitsienti;

ϵ - adsorbatning molyar yutilish ko'effitsienti,

$M^{-1} \text{ sm}^{-1}$; c - adsorbatning konsentratsiyasi;

M va S - tarqalish ko'rsatkichi, sm^{-1} .


Ushbu qurilma yordamida bir qancha tajribalar amalga oshirilgan. Ushbu jadvalda Eye-One Pro mini-spektrometrdan olingan natijalar keltirilgan. PPA tolasiga immobillangan amido qora organik reagentining funksiyalari hisoblangan. (1-jadval)

1-jadval

PPA tolasiga immobillangan organik reagentning MS Excel dasturiga eksport qilingan va hisoblangan natijalari.

	Тoла	T+R	T+R+Me	тола	T+R	T+R+Me
380	0,04619	0,07075	0,02645	9,847949	6,102513	17,91682
390	0,05175	0,08098	0,02892	8,687711	5,214854	16,30353
400	0,0623	0,09468	0,03371	7,056832	4,328286	13,84925
410	0,08172	0,11561	0,04242	5,159313	3,38269	10,8081
420	0,10917	0,14404	0,05662	3,634598	2,543278	7,859112
430	0,13813	0,17002	0,07445	2,688843	2,02584	5,753142
440	0,16576	0,18794	0,09429	2,099289	1,754394	4,349934
450	0,19316	0,20126	0,11693	1,685108	1,584979	3,334528
460	0,22064	0,21502	0,14125	1,376455	1,432875	2,610448
470	0,24322	0,22938	0,16372	1,177362	1,294479	2,135855
480	0,25731	0,23915	0,17924	1,071836	1,210313	1,879176
490	0,26811	0,24311	0,18687	0,998961	1,178237	1,769092
500	0,27876	0,24372	0,18972	0,933038	1,173395	1,730323

Olingan natijalar orqali quyidagi spektrlar hosil qilingan. Spektr sohalarining joylashish o'rniga ko'ra sifat tahlili, intensivligiga ko'ra miqdor tahlili amalga oshirilgan [18].



7-rasm. Immobilangan Amido qora organik reagentning nur qaytarish spektri

Biz olib borayotgan ilmiy tadqiqotlar ishlarimiz immobilangan organik reagentlar yordamida tabiiy va sun'iy ob'ektlar tarkibidagi metal ionlari miqdorini sodda, arzon usullarini ishlab chiqishga qaratilgan. Selektiv organik reagentlarni tanlab yangi sintez qilingan ion almashinuvchi polimer sintetik tolalarga bog'lash va ular orqali sanoat chiqindi suvlari, va ular atrofidagi tuproq tarkibidagi metal ionlarini konsentrasiyasini aniqlashga mo'ljallangan. Ushbu ishlab chiqilayotgan usul o'zining boshqa optik usullarga qaraganda tezkorligi, arzon va selektivligi bilan ajralib turadi.

Xulosa. Ushbu maqolada ko'rib chiqilganidek, XX asrning so'nggi yillarida optik va optik tolali kimyoviy sensorlarining juda faol rivojlanishi boshlangan. Ushbu davr mobaynida ko'plab taraqqiyot, takomillashtirish va innovatsiyalarga erishildi. Ko'plab optik va optik tolali kimyoviy sensorlari ishlab chiqilgan va turli xil shakllari taklif qilingan va namoyish etilgan. Biroq, optik va optik tolali kimyoviy sensorlar ommaviy ishlab chiqarish va tijoratlashtirish amalga oshirilmadi. Optik va optik tolali kimyoviy sensorlarini tadqiq qilish, ishlab chiqish va qo'llash juda qiyin va talabchan fanlararo soha hisoblanadi. Bu kimyoviy sensorlar kimyosi va spektroskopiyasini yaxshi tushunishni, optika, optik tolali elektronika va asbobsozlik bo'yicha yaxshi nazariy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarni, shuningdek, potentsial ilovalar va tijorat istiqbollari yaxshi tushunishni talab qiladi. Bu olimlar va muhandislar, shuningdek, ishlab chiquvchilar va foydalanuvchilar o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Shubhasiz, bu sohadagi ishlar davom etadi va optik va optik tolali kimyoviy sensorlarini tijoratlashtirish va muntazam foydalanish oxir-oqibat haqiqatga aylanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun datchiklarning narxi, foydalanuvchilarga qulayligi, ishonchligi, mustahkamligi, uzoq muddatli barqarorligi va yaroqlilik muddati kabi masalalarni yetarlicha hal qilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Шарапов, Валерий Михайлович, et al. "Датчики." (2012): – С. 624-624.
2. Зайнишев А. В., Полуниев Г. А., Колганов Е. Г. Особенности процесса управления работой фотокаталитического воздухоочистителя // Научно-Практический И Учебно-Методический Журнал. – 2015. – С. 11.
3. Егоров А. А. Систематика, принцип работы и области применения датчиков // Журнал радиоэлектроники. – 2009. – №. 3. – С. 3-3.
4. Роберт В. Каттралл. Химические сенсоры.: Пер с англ // М.: Научный мир. – 2000. – С. 144
5. Граттан К.Т.В. Волоконно-оптические датчики и измерительные системы // Датчики и системы, 2001, № 3, С. 46-50.
6. Whitenett G., Stewart G., Atherton K., Culshaw B., and Johnstone W. Optical fibre instrumentation for environmental monitoring applications // J. Opt. A: Pure Appl. Opt., 2003, 5, pp.140-145.
7. Алейников А.Ф., Цапенко М.П. О классификации датчиков // Датчики и системы, 2000, № 5, С. 2-3.
8. Кулябина Е.Ю., Сидоренко М.В. Лихеноиндикационный мониторинг качества воздушной среды нижегородской области // Известия Самарского научного центра РАН. Биология и Экология, 2002, 4, С. 216-222.
9. Li Z., Askim J. R., Suslick K. S. The optoelectronic nose: colorimetric and fluorometric sensor arrays // Chemical reviews. – 2018. – Т. 119. – №. 1. – С. 231-292.
10. Gründler P. Chemical sensors // ChemTexts. – 2017. – Т. 3. – №. 4. – С. 16.
11. Gründler P. Sensor-Arrays und miniaturisierte Totalanalysatoren // Chemische Sensoren: Eine Einführung für Naturwissenschaftler und Ingenieure. – 2004. – С. 251-276.
12. Hulanicki A., Glab S., Ingman F. Chemical sensors: definitions and classification // Pure and applied chemistry. – 1991. – Т. 63. – №. 9. – С. 1247-1250.
13. Scholz G., Scholz F. First-order differential equations in chemistry // ChemTexts. – 2015. – Т. 1. – С. 1-12.
14. Chaniotakis N. A. Enzyme stabilization strategies based on electrolytes and polyelectrolytes for biosensor applications // Analytical and Bioanalytical Chemistry. – 2004. – Т. 378. – С. 89-95.
15. Gründler P. Electrochemical Sensors // Chemical Sensors: An Introduction for Scientists and Engineers. – 2007. – С. 137-197.
16. Peter Gründler. Chemical sensors. ChemTexts (2017). Page 2 of 24. <https://doi.org/10.1007/s40828-017-0052-x>.
17. Apyari V. V., Dmitrienko S. G., Zolotov Y. A. Unusual application of common digital devices: Potentialities of Eye-One Pro mini-spectrophotometer–A monitor calibrator for registration of surface plasmon resonance bands of silver and gold nanoparticles in solid matrices // Sensors and actuators B: Chemical. – 2013. – Т. 188. – С. 1109-1115.
18. М.А. Ashirov. Immobilangan amido qora va sulfarsazen organik reagentlar yordamida Pb(II) va Hg(II) ionlarini aniqlashning sorbsion-spektroskopik aniqlash usulini ishlab chiqish. Samarqand 2022 y. 113 b.